

SUG'URTA MENEJMENT

**LX. ABDURAXMONOV
I.G. KENJAYEV**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

I.X. ABDURAXMONOV, I.G‘. KENJAYEV

SUG‘URTA MENEJMENTI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi oliy o‘quv
yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etgan

Toshkent – 2021

УДК: 368(33824)

ББК: 123


Sug'urta menejmenti: darslik/professor o'qituvchilari dos.

I.X. Abduraxmonov, PhD.I.G'. Kenjaev-T. XK «NUR DURDONALARI» 216b

Taqrizchilar: "Sug'urta va pensiya ishi kafedrası" dotsenti, i.f.n.
X.M.Shennayev

MCHJ «APEX INSURANCE» sug'urta kompaniyasi Bosh
direktori **T.M.Saidov**

"Sug'urta va pensiya ishi kafedrası" professor o'qituvchilari dos. I.X. Abduraxmonov, PhD.I.G'. Kenjaev tomonidan tayorlangan "Sug'urta menejmenti" nomli o'quv qo'llanmasi mazkur fanning namunaviy va ishchi o'quv dasturlariga mos ravishda ishlab chiqilgan. Mazkur o'quv qo'llanma tarkiban 14ta bobdan iborat bo'lib, har bir bobning oxirida mavzu yuzasidan o'zini tekshirish uchun savollar ham keltirib o'tilgan.



ISBN: 978-9943-7371-9-8

© XK «NUR DURDONALARI», 2021

MUNDARIJA

KIRISH	12
I BOB. SUG'URTA MENEJMENTIGA UMUMIY TAVSIF	13
§1.1 Sug'urta menejmenti va uning kelib chiqish tarixi.....	13
§1.2 Sug'urta menejmentining klassifikatsiyasi.....	16
§1.3 Sug'urta kompaniyalarida sifat menejmentini joriy etish masalalari.....	19
Nazorat savollari	23
II BOB. SUG'URTA MENEJMENTNING MOHIYATI, FUNKSIYALARI VA TAMOYILLARI	24
§2.1 Sug'urta menejmentining iqtisodiy mohiyati.....	24
§2.2 Sug'urta menejmentining funksiyalari.....	30
§2.3 Rivojlangan mamlakatlarda menejment kompaniyaning ravnaq topishi va zaruriy sharti sifatida.....	34
Nazorat savollari	38
III BOB. SUG'URTA MENEJMENTNING MAQSADI VA VAZIFALARI	39
§3.1 Sug'urta kompaniyalar ishini tashkil etishda sug'urta menejmentining tutgan o'rni.....	39
§3.2 Sug'urta menejmentning maqsadi va vazifalari.....	44
§3.3 Sifatli sug'urta xizmatini ko'rsatishda sug'urta menejmenti asosiy omil sifatida.....	48
Nazorat savollari	53
IV BOB. SUG'URTA TASHKILOTLARINING TASHKILIY VA BOSHQARUV TIZIMI	54
§4.1 Sug'urta kompaniyasi menejmenti: boshqaruv tuzilmasi.....	54
§4.2 Sug'urta kompaniyalari kuzatuv kengashining vakolatlari.....	57
§4.3 Sug'urta kompaniyalar faoliyatida sugurta xizmatlarini tashkil etilishi.....	61
Nazorat savollari	65
V BOB. SUG'URTA TASHKILOTLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMI	66
§5.1 Risk tushunchasini iqtisodiy mohiyati va mazmuni.....	66
§5.2 Risklarni boshqarishda sug'urtaning tutgan o'rni va ahamiyati.....	68
§5.3 Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda sug'urtalovchilar tomonidan risklarni boshqarish bosqichlari.....	73
Nazorat savollari	77
VI BOB. SUG'URTA FAOLIYATI BOSHQARUV TIZIMIDA MARKETINGNING O'RNI	78

§6.1 Sug'urta kompaniyalarida marketing faoliyatini tashkil etishning nazariy asoslari.....	78
§6.2 Sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni shakllantirishda marketing faoliyatining tutgan o'rni.....	84
§6.3 Sug'urta kompaniyalarida marketing faoliyatini tashkil etishning xorij tajribasi.....	87
Nazorat savollari	90
VII BOB. SHAXSIY SUG'URTA MENEJMENTI	91
§7.1 Shaxsiy sug'urtaning paydo bo'lishi va rivojlanishi	91
§7.2 Shaxsiy sug'urtaning ob'ekti va sub'ektlari.....	94
§7.3 Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashning huquqiy asoslari.....	96
Nazorat savollari	100
VIII BOB. MULKIY SUG'URTA MENEJMENTI	101
§8.1 Mulkiy sug'urtaning kelib chiqishi va rivojlanishi.....	101
§8.2 Mulkiy manfaat va uni sug'urtalashning zarurligi	107
§8.3 Mol-mulk sug'urtasini reklama qilishda marketing uslublaridan foydalanish yo'llari.....	116
Nazorat savollari	118
IX BOB. JAVOBGARLIK SUG'URTASI MENEJMENTI	119
§9.1 Javobgarlikni sug'urta qilishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	119
§9.2 Javobgarlik sug'urtasining turlari ularni boshqarish mexanizmi	127
Nazorat savollari	142
X BOB. QAYTA SUG'URTALOVCHILAR FAOLIYATINI BOSHQARISH	143
§10.1 Qayta sug'urta tushunchasining iqtisodiy mohiyati.....	143
§10.2 Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyati va uni amalga oshirishning huquqiy asoslari.....	145
§10.3 Chet mamlakatlarda qayta sug'urta faoliyatini tashkil etish asoslari.....	148
Nazorat savollari	151
XI BOB. SUG'URTA TASHKILOTLARIDA TARIF SIYOSATINI BOSHQARISH	152
§11.1 Sug'urta tarifi tushunchasi uning iqtisodiy mohiyati.....	152
§11.2 Sug'urtaning umumiy tarmog'ida sug'urta tariflarini ishlab chiqish uslubi.....	154
§11.3 Hayot sug'urtasi tarmog'ida tariflarni hisoblashda aktuar hisob-kitoblardan foydalanish tartibi.....	158
Nazorat savollari	160
XII BOB. SUG'URTA TASHKILOTLARI BARQARORLIGINI	

BOSHQARISH.....	161
§12.1 Sug'urta kompaniyalarida moliyaviy menejmentning tamoyillari.....	161
§12.2 Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini boshqarish.....	166
§12.3 Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejment mexanizmining samarasini oshirish.....	169
Nazorat savollari.....	173
XIII BOB. SUG'URTA TASHKILOTLARINI PERSONALLI BOSHQARISH.....	174
§13.1 Sug'urta kompaniyalarida xodimlar bilan ishlash menejmenti.....	174
§13.2 Sug'urta tashkilotlarida xodimlarni boshqarish samaradorligi.....	179
§13.3 Sug'urta kompaniyalarida sifat menejmentini joriy etish.....	183
Nazorat savollari.....	186
XIV BOB. SUG'URTA XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH.....	187
§14.1 Sug'urta xafsizligini boshqarishning uslubiy asoslari.....	187
§14.2 Sug'urta kompaniyasini boshqaruv tamoyillari.....	189
§14.3 Sug'urta tizimida korporativ boshqaruvning tashkil etilishi.....	193
Nazorat savollari.....	197
GOLASSARIY.....	198
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	212

ОГЛАВЛЕНИЕ

ВВЕДЕНИЕ	12
ГЛАВА 1. ОБЩЕЕ ОПИСАНИЕ СТРАХОВОГО МЕНЕДЖМЕНТА	13
§1.1 Страховой менеджмент и его происхождение.....	13
§1.2 Классификация страхового менеджмента.....	16
§1.3 Вопросы по внедрению качественного менеджмента в страховых компаниях.....	19
Контрольные вопросы	23
ГЛАВА 2. СУЩНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРИНЦИПЫ СТРАХОВОГО МЕНЕДЖМЕНТА	24
§2.1 Экономическая сущность страхового менеджмента.....	24
§2.2 Функции страхового менеджмента.....	30
§2.3 Менеджмент как предпосылка и продвижение компании в развивающихся странах.....	34
Контрольные вопросы	38
ГЛАВА 3. ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ СТРАХОВОГО МЕНЕДЖМЕНТА	39
§3.1 Роль страхового менеджмента в организации деятельности страховых компаний	39
§3.2 Цель и задачи страхового менеджмента.....	44
§3.3 Страховой менеджмент как основной фактор предоставления качественных страховых услуг.....	48
Контрольные вопросы	53
ГЛАВА 4. ОРГАНИЗАЦИОННАЯ И УПРАВЛЯЮЩАЯ СИСТЕМА СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ	54
§4.1 Менеджмент страховой компании: структура управления.....	54
§4.2 Полномочия наблюдательного совета страховых компаний.....	57
§4.3 Организация страховых услуг в деятельности страховых компаний.....	61
Контрольные вопросы	65
ГЛАВА 5. СИСТЕМА УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ	66
§5.1 Экономическая сущность и содержание понятия риска.....	66
§5.2 Роль и значение страхования в управлении рисками.....	68
§5.3 Этапы управления рисками страховщиками при финансировании инвестиционных проектов.....	78
Контрольные вопросы	77
ГЛАВА 6. РОЛЬ МАРКЕТИНГА В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ	

ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТРАХОВАНИЯ.....	78
§6.1 Теоретические основы организации маркетинговой деятельности в страховых компаниях.....	78
§6.2 Роль маркетинговой деятельности в формировании спроса на страховые услуги.....	84
§6.3 Зарубежный опыт маркетинговой деятельности в страховых компаниях.....	87
Контрольные вопросы.....	90
ГЛАВА 7. МЕНЕДЖМЕНТ ЛИЧНОГО СТРАХОВАНИЯ.....	91
§7.1 Возникновение и развитие личного страхования.....	91
§7.2 Объект и субъекты личного страхования.....	94
§7.3 Правовые основы страхования граждан от несчастных случаев.....	96
Контрольные вопросы.....	100
ГЛАВА 8. МЕНЕДЖМЕНТ ИМУЩЕСТВЕННОГО СТРАХОВАНИЯ.....	101
§8.1 Возникновение и развитие имущественного страхования.....	101
§8.2 Имущественный интерес и необходимость страхования	107
§8.3 Способы использования маркетинговых методов в рекламировании имущественного страхования.....	116
Контрольные вопросы.....	118
ГЛАВА 9. МЕНЕДЖМЕНТ СТРАХОВОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ..	119
§9.1 Социально-экономическое значение страхования ответственности.	119
§9.2 Механизм управления видов страхования ответственности.....	127
Контрольные вопросы.....	142
ГЛАВА 10. УПРАВЛЕНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ПЕРСТРАХОВЩИКОВ.....	143
§10.1 Экономическая сущность понятия перестрахования.....	143
§10.2 Инвестиционная деятельность страховщика и перестраховщика и правовые основы ее осуществления.....	145
§10.3 Основы перестраховочной деятельности в зарубежных странах....	148
Контрольные вопросы.....	151
ГЛАВА 11. УПРАВЛЕНИЕ ТАРИФНОЙ ПОЛИТИКОЙ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ.....	152
§11.1 Экономическая сущность понятия страхового тарифа.....	152
§11.2 Метод разработки страховых тарифов в общей страховой отрасли страхования.....	154
Контрольные вопросы.....	160
ГЛАВА 12. УПРАВЛЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТЬЮ СТРАХОВЫХ	

ОРГАНИЗАЦИЙ.....	161
§12.1 Принципы финансового менеджмента в страховых компаниях.....	161
§12.2 Управление финансовой устойчивостью страховых компаний.....	166
§12.3 Повышение эффективности механизма финансового менеджмента страховых организаций.....	169
Контрольные вопросы.....	173
ГЛАВА 13. УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ.....	174
§13.1 Менеджмента работы с персоналом в страховых компаниях.....	174
§13.2 Эффективность управления персоналом в страховых организациях.....	179
§13.3 Внедрение управления качеством в страховых компаниях.....	183
Контрольные вопросы.....	186
ГЛАВА 14. УПРАВЛЕНИЕ СТРАХОВОЙ БЕЗОПАСНОСТЬЮ.....	187
§14.1 Экономическая сущность понятия страховой тайны.....	187
§14.2 Организационно-технические меры по хранению информации в страховых организациях.....	189
§14.3 Страховое мошенничество и меры по его предотвращению.....	193
Контрольные вопросы.....	197
ГЛОССАРИЙ.....	198
СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	212

CONTENTS

INTRODUCTION	12
I CHAPTER. GENERAL DESCRIPTION OF INSURANCE MANAGEMENT	13
§1.1 Insurance management and its origin.....	13
§1.2 Classification of insurance management.....	16
§1.3 Issues on the implementation of quality management in insurance companies.....	19
QUESTIONS FOR CONTROL	23
II CHAPTER. ESSENCE, FUNCTIONS AND PRINCIPLES OF INSURANCE MANAGEMENT	24
§2.1 Economic essence of insurance management.....	24
§2.2 Functions of insurance management.....	30
§2.3 Management as a prerequisite and promotion of a company in developing countries.....	34
QUESTIONS FOR CONTROL	38
III CHAPTER. ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ СТРАХОВОГО МЕНЕДЖМЕНТА	39
§3.1 The role of insurance management in organizing the activities of insurance companies.....	39
§3.2 Aims and objectives of insurance management.....	44
§3.3 Insurance management as the main factor in the provision of quality insurance services.....	48
QUESTIONS FOR CONTROL	53
IV CHAPTER. ORGANIZATIONAL AND MANAGING SYSTEM OF INSURANCE ORGANIZATIONS	54
§4.1 Management of an insurance company: management structure.....	54
§4.2 Authority of the supervisory board of insurance companies.....	57
§4.3 Organization of insurance services in the activity of insurance companies.....	61
QUESTIONS FOR CONTROL	65
V CHAPTER. RISK MANAGEMENT SYSTEM IN INSURANCE ORGANIZATIONS	66
§5.1 Economic essence and content of the concept of risk.....	66
§5.2 The role and importance of insurance in risk management.....	68
§5.3 Stages of risk management by insurers in financing investment projects.....	78
QUESTIONS FOR CONTROL	77

VI CHAPTER. ROLE OF MARKETING IN THE INSURANCE MANAGEMENT SYSTEM.....	78
§6.1 Theoretical foundations of the organization of marketing activities in insurance companies.....	78
§6.2 The role of marketing in the formation of demand for insurance services.....	84
§6.3 Foreign experience in marketing activities in insurance companies.....	87
QUESTIONS FOR CONTROL.....	90
VII CHAPTER. PERSONAL INSURANCE MANAGEMENT.....	91
§7.1 The origin and development of personal insurance.....	91
§7.2 Object and subjects of personal insurance.....	94
§7.3 Legal basis for accident insurance.....	96
QUESTIONS FOR CONTROL.....	100
VIII CHAPTER. PROPERTY INSURANCE MANAGEMENT.....	101
§8.1 The origin and development of property insurance.....	101
§8.2 Property interest and the need for insurance.....	107
§8.3 Ways of using marketing methods in advertising property insurance.....	116
QUESTIONS FOR CONTROL.....	118
IX CHAPTER. INSURANCE RESPONSIBILITY MANAGEMENT..	119
§9.1 Socio-economic importance of liability insurance.....	119
§9.2 Management mechanism for types of liability insurance.....	127
QUESTIONS FOR CONTROL.....	142
X CHAPTER. MANAGEMENT OF THE ACTIVITIES OF THE INSURERS.....	143
§10.1 Economic essence of the concept of reinsurance.....	143
§10.2 Investment activities of the insurer and reinsurer and the legal basis for its implementation.....	145
§10.3 Basis of reinsurance activities in foreign countries.....	148
QUESTIONS FOR CONTROL.....	151
XI CHAPTER. MANAGEMENT OF TARIFF POLICY IN INSURANCE ORGANIZATIONS.....	152
§11.1 Economic essence of the concept of insurance tariff.....	152
§11.2 Method for developing insurance tariffs in the general insurance industry.....	154
QUESTIONS FOR CONTROL.....	160
XII CHAPTER. MANAGEMENT OF INSURANCE ORGANIZATIONS STABILITY.....	161

§12.1 Principles of financial management in insurance companies.....	161
§12.2 Management of financial stability of insurance companies.....	166
§12.3 Improving the effectiveness of the financial management mechanism of insurance organizations.....	169
QUESTIONS FOR CONTROL.....	173
XIII CHAPTER. PERSONNEL MANAGEMENT OF INSURANCE ORGANIZATIONS.....	174
§13.1 Management in insurance companies.....	174
§13.2 Efficiency of personnel management in insurance organizations.....	179
§13.3 Implementation of quality management in insurance companies.....	183
QUESTIONS FOR CONTROL.....	186
XIV CHAPTER. INSURANCE SAFETY MANAGEMENT.....	187
§14.1 Economic essence of the concept of insurance confidence.....	187
§14.2 Organizational and technical measures for the storage of information in insurance organizations.....	189
§14.3 Insurance fraud and measures to prevent it.....	193
QUESTIONS FOR CONTROL.....	197
GLOSSARY.....	198
LIST OF USED LITERATURE.....	212

Kirish

Hozirgi sharoitda davlat moliyaviy siyosatining maqsadi iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini muayyan chora-tadbirlar yordamida oshirish asosida jamiyat a'zolarining turmush farovonligi darajasini ta'minlashdan iborat. So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida kuzatilayotgan rivojlanish ko'rsatkichlarini samarali moliyaviy siyosat natijasi ekanligini qayd etish zarur. Respublika iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida sug'urta sohasining o'rnini va ahamiyati beqiyos. Shu bois, hukumatimiz tomonidan sug'urta munosabatlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovacion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da ilg'or horijiy tajriba asosida tibbiy sug'urta mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha konsepsiya ishlab chiqish kabi vazifalar belgilab berildi¹.

Mazkur o'quv-qo'llanmada sug'urta menejmentiga umumiy tavsif va sug'urta menejmentining mohiyati, funksiyalari va tamoyillari, sug'urta menejmentining maqsadi va vazifalari, sug'urta tashkilotlarining tashkiliy va boshqaruv tizimi, sug'urta tashkilotlarida risklarni boshqarish tizimi, sug'urta faoliyati boshqaruv tizimida marketingning o'rnini, shaxsiy sug'urta menejmenti, mulkiy sug'urta menejmenti hamda javobgarlik sug'urtasi menejmenti, qayta sug'urtalovchilar faoliyatini boshqarish va sug'urta tashkilotlarida tarif siyosatini boshqarish, sug'urta tashkilotlari barqarorligini boshqarish, sug'urta tashkilotlarini personalli boshqarish, sug'urta xavfsizligini boshqarish bo'yicha nazariy va amaliy jihatlari o'z aksini topgan.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi PF-5308-sonli "Faol tadbirkorlik, innovacion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishiga oid Davlat dasturi to'g'risidagi Farmoni.

I BOB. SUG'URTA MENEJMENTIGA UMUMIY TAVSIF

1.1 Sug'urta menejmenti va uning kelib chiqish tarixi

"Ilmiy menejment" maktabi XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Amerikada shakllana boshlagan. Bu maktab boshqacha nom bilan ham atalgan, ya'ni "boshqaruvning mumtoz maktabi" deb xam yuritilgan. Bu maktab ibtidosida amerikalik muhandis va ixtirochi F.Teylor (1856-1915) turgan edi. Uning nazariyasi keyinchalik "Teylorizm" degan nom olgan. U yaratgan tizim esa ishchilarning "siqib suvini olish"ning ilmiy tizimi deb atalgan.

Sug'urta menejmentining ob'ekti xaqida so'z yuritganda, eng avvalo, ob'ekt so'zining lug'aviy ma'nosiga e'tibor berish kerak bo'ladi. Shu ma'noda ob'ekt-bu:

- ❖ bizdan tashqarida va bizning ongimizga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bulgan borliq, voqelik, moddiy dunyo, mavjudot;

- ❖ kishi faoliyati. diqqat - e'tibori qaratilgan xodisa, predmet, shaxs;

- ❖ xo'jalik yoki mudofaa ahamiyatiga ega bo'lgan korxonona, qurilish, ayrim uchastka va shu kabilar.

Demak, ob'ekt tushunchasi mikro vokelikdan (kishi va uning faoliyatidan) tortib, to makro voqelik (moddiy dunyo, jamiyat) darajasigacha bo'lgan ma'noni uz ichiga oladi. Masalan, "haydovchi o'z mashinasini boshqara ololmaganligi sababli u yo'ldan chiqib ketgan". Bu erda boshqaruv ob'ekti bo'lib mashina hisoblanadi. Boshqarish ishini bajaruvchi idoralar va ularning rahbarlari menejmentning sub'ekti, ya'ni boshqaruv organlari yoki menejerlar - boshqaruvchilar bo'lib hisoblanadi.

Risk menejmenti o'zining xususiy xizmat turi sifatida taklif etadigan brokerlar avjud².

Shunday qilib har qanday xodisa yoki jarayon negizi boshqariladigan ob'ekt va boshqaruvchi sub'ekt tizimlaridan tashkil topadi.

Shunday qilib, menejment nazariyasi va amaliyoti turli davrlarda o'ziga xos ko'rinishlarda shakllanadi:

- ✓ 50-60 yillarda boshqaruvning tashkiliy tarkibi diqqat markazida turgan bo'lsa;

- ✓ 60-70 yillarda strategik rejalashtirish vujudga keldi;

- ✓ 80 yillardan boshlab esa ilg'or g'arb firmalarida strategik rejalashtirishdan, strategik boshqaruvga o'tildi.

Ayniqsa, menejmentning marketing nazariyasi bilan uyg'unlashuvi boshqarishning bozor konsepsiyasining vujudga kelishiga asos soldi.

Hozirgi davrda boshqaruv nazariyasi va amaliyotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar "Tinch boshqarish inqilobi" deb atalmoqda.

Sug'urta munosabatlari quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- riskining mavjudligi. Risk - sug'urta munosabatlarining mavjudligi asosiy

²Kaparr: Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland. The Chartered Insurance Institute, Great Britain. 1993 p.325

talabi. Risklarning yuz berishi tasodifiylik xarakteriga ega bo'lib, sub'ektiv sabalarga bog'liq bo'lmaydi;

- qayta taqsimlash xarakteriga ega ekanligi. Sug'urta yordamida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va aholi daromadlarining bir qismi qayta taqsimlanadi;

- zararlarni makon va zamonda taqsimlamishi. Zararlarni makon bo'yicha taqsimlanishi deganda yuzaga kelgan zararlar sug'urtalanuvchilar o'rtasida taqsimlanishi tushuniladi.

Dastlab risk menejmenti konsepsiyasidan riskni kamaytirish maqsadida boshqarish sifatida foydalanishgan va ko'pgina sug'urtalovchi va brokerlar undan kelajakdagi biznesi uchun qo'rqitish xususiyatini ko'rishgan³.

Bu sug'urtaning asosiy belgisi bo'lib, hududlar bo'yicha sug'urta fondini sug'urtalangan xo'jaliklar o'rtasida taqsimlash uchun katta hudud va ko'plab sug'urtalanishi mumkin bo'lgan ob'ektlar zarur bo'lishi talab etiladi. Zararlarni zamonda taqsimlash sug'urta hodisalarning notekis sodir bo'lishi bilan tushuntiriladi. Qator yillar mobaynida favqulotda hodisalar ehtimol ro'y bermasligi mumkin. Bu holat sug'urta hodisalari sodir bo'lmagan vaqtda tegishli miqdorda sug'urta zaxiralarini tashkil etishni talab qiladi. Haqiqatan ham bir paytda barcha ob'ektlarni o'z ichiga oluvchi sug'urta hodisasi yuz berishi amri mahol. Tajribaning ko'rsatishicha, sug'urta hodisalari muayyan bir davrda ro'y bermasligi, ammo boshqa davrda ro'y berishi mumkin. Shuning uchun, sug'urta tashkilotlari o'z zimmalariga olingan majburiyatlarni bajarish uchun sug'urta jamg'armalariga ega bo'lishi zarur.

Riskka dastlab sug'urtalanuvchi baholaydi. Agar risk miqdori va bahosi yuqori bo'lsa, sug'urtalanuvchi o'z tadbirkorlik faoliyatida mavjud bo'lgan riskni sug'urta tashkilotiga o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladi. Lekin, agarda shartnomaga ko'ra, sug'urta munosabatlarida qatnashuvchi ikkala tomon ham bunday hamkorlikdan kutilgan samaradorlikni o'z sarf-harajatlariga nisbatan foydali deb hisoblasa, riskni boshqarish borasida sug'urta shartnomasi tuziladi. Mazkur riskni boshqarish borasidagi sug'urta shartnomasining foydaliligini har bir sub'ekt o'z manfaatdorligi nuqtai-nazaridan baholaydi.

Sug'urtalanuvchi uchun manfaatdorlik sug'urta shartnomasini tuzish orqali o'z risk darajasini qanchalik kamaytira olganligini shartnomaning amal qilishi davrida esa, riskning yuz berishi oqibatida ko'rish ehtimol qilingan zararni qoplash qanday darajada ta'minlanganligi bilan o'lchalinadi. Sug'urtalanuvchi tomonidan shartnomaga binoan, sug'urta mukofotini shartnoma tuzilgan vaqtning o'zidayoq to'lashga to'g'ri keladi.

Sug'urtalanuvchi tomonidan tanlanadigan sug'urta mukofotini asosini tarif stavkasi tashkil qiladi. Tarif stavkasining darajasiga risk miqdori, darajasi, sug'urta himoyasi muddati kabi faktorlar ta'sir qiladi.

Risk darajasi va miqdori unga baho berish yo'li bilan aniqlanadi. Bunda sug'urta tashkiloti xavf-xatarning yuz berishi tezligini ko'rsatuvchi jadvallar

³ Kapern: Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland. The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 1993. p.326

asosida koeffitsent qo'llaniladi. Individual ob'ektni sug'urta qilishda xavf-xatarlar darajalarga ajratiladi. Buning uchun tegishli ma'lumotlar yig'iladi va ma'lumotlar asosida koeffitsent hisob-kitobi amalga oshiriladi. Koeffitsentga kutilmagan faktorlar ta'sir qilishi mumkin.

Imkoniyat darajasida riskka ob'ektiv baho berish uchun sug'urta kompaniyalari risklarni sinflarga bo'lish amaliyotidan foydalanadi.

Shunday qilib, risklarni xavf-xatar darajasiga qarab o'rganilishi amaliy ahamiyatga ega. Bu qaysi muddatlarda sug'urtaga olinuvchi ob'ektlar zarar ko'rishini mumkinligini va qiymatining qancha qismini sug'urta qoplamasiga qoldirish zarurligini ko'rsatib beradi.

Risk sinflari ham turli xil jadvallar asosida o'rganiladi. Masalan, binoning yonishi, o'lim jadvallari.

Har qanday sug'urta tashkiloti risklarni tanlash va belgilash huquqiga ega. Agar barcha sug'urta ob'ektlari bir xil zarar ko'rish ehtimoliga ega bo'lganida sug'urta tashkilotlari risklarni tanlab o'tirmagan bo'lar edi.

Sug'urta ob'ektlari va u bilan bog'liq risklar o'rtasida bir xillik mavjud emas ekan. Sug'urta tashkilotlari o'rtasida sug'urtaga qabul qilinuvchi risklarni tanlash muammosi paydo bo'ladi.

Imkoniyat darajasida xavf-xatar darajasi bir xil yoki deyarli bir xil bo'lgan risklar sug'urta uchun tanlanadi. Bunday tanlash sug'urta himoyasining ishonchliligini ta'minlaydi.

Sug'urta tashkiloti xavf darajasi bir xil bo'lgan risklarni tanlash bilan birga, riskning xavf darajasi past bo'lganlarini ham sug'urta uchun tanlaydi.

Muhim tomoni shundan iboratki, sug'urta tashkilotlari sug'urta himoyasining ishonchliligini ta'minlash bilan birga o'zining daromadligini ham ta'minlashi zarur.

Shunday qilib, jamiyatda sug'urtaga qabul qilinayotgan risklar oqimi har bir ob'ekt uchun yaxshi yoki yomon risk bo'lishi mumkin. Bu risklar tuzilgan statistik jadvalda berilgan ko'rsatkichdan farq qilishi mumkin.

Sug'urta tashkiloti tomonidan sug'urta risklarini topish sug'urta kompaniyalari uchun qulay bo'lib, uni daromadligini ta'minlaydi. Lekin jamiyat uchun xoxlagan natija bermaydi. Chunki riskka duch kelishi mumkin bo'lgan jamiyatning a'zolarini bir qismi sug'urta himoyasidan chetta qoladi. Bunday holat asosan hayot sug'urtasida yaqqol ko'rinadi.

Yomon risklarni sug'urtaga qabul qilishning turli usullari mavjud. Lekin bunday usullar xoxlagan natijalar bermaydi.

Sug'urta tashkilotlari uchun mavjud risklarni tanlash huquqidan mahrum etsak sug'urta qilish mazmuni yo'qoladi. Sug'urtachi huzuriga ixtiyoriy ravisha o'zlarini kelib sug'urta himoyasi so'rashi zarur.

Jamiyat o'z a'zolarini mulkiy va nomulkiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida xavf-xatar yuqori bo'lgan risklarni sug'urtalash maqsadida davlat majburiy sug'urtasi joriy qilinadi. Bunday sug'urtalar davlat sug'urta tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

Sug'urta risklarini sug'urta himoyasiga olish talabining oshish omillariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- iqtisodiyotning nodavlat tarmog'ini kengaytirish;
- uy-joy fondlarini xususiyashtirish;
- aholi turmush darajasini oshib borishi;

Shuni ta'kidlash lozimki, sug'urtaga bo'lgan talab sug'urtalanuvchining faoliyati bilan ham uzviy bog'liqdir. Mazkur talab darajasiga aynan:

- mulkchilik shakli va uning holati;
- ishlab chiqarish hajmi va amalga oshirilayotgan operatsiyalar turi;
- tizimning tashkiliy-moliyaviy tarkibi;
- sub'ektning faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki yoki tashqi omillar;
- boshqaruv usuli;
- tashkilot maqsadi va unga erishish yo'lidagi amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar.

1.2 Sug'urta menejmentining klassifikatsiyasi

Sug'urta menejmentining klassifikatsiyasi boshlang'ich nuqta sifatida, ko'pgina sug'urtalovchilar o'zlarining risklarini bir necha yillar oldin Aktuariylar Qo'mitasi Jamiyati tomonidan taklif qilingan tuzilmaga xos klassifikatsiya qilishadi. Risklarning turli ko'rinishlari C-1, C-2, C-3 va C-4 kabi turlarga ajratiladi. Biz o'z izlanishimizni shu risklar haqida boshlaymiz.

C-1 risklar bu aktivlar riski bo'lib, ushbu risklar sug'urta mablag'lari oluvchilarning kompaniya majburiyatlariga salbiy ta'sir qilishi imkoniyati mavjudligidan kelib chiqadi. Ushbu risklar o'z ichiga foiz stavkasi risklari, kredit risklari, bozor risklari va valyuta risklarini oladi⁴.

C-2 risk bu narxlash riski bo'lib, investitsiya daromadi, o'lim va kasallanish, da'volar va yo'qotishlar, ma'muriy xarajatlar va muddati o'tgan qarzlilar bilan bog'liq bo'lgan kelajak operatsion natijalarining noaniqliklaridan paydo bo'ladi. Agarda sug'urtalanuvchining narx belgilashi taxminlarga asoslangan bo'lsa, uning majburiyatlari o'z polisi egalarini uchratmasligi mumkin.

C-3 risk bu aktivlar majburiyatlar mutanosibligi riski bo'lib, bunday risklar aktivlar va majburiyatlari qiymatining talab va inflatsiya darajalarining ta'siri hisobiga o'zgarishidan vujudga keladi. Agar ushbu o'zgarishning aktivlarga ta'siri majburiyatga ta'siridan farq qilsa, aktivlar va majburiyatlarining qiymati turli qiymatlarda o'zgaradi va sug'urtalanuvchining to'lov qobiliyatiga ega emasligini oshkor etadi.

C-4 risklar turli risklar bo'lib, umumiy holda ushbu risklar sug'urtalovchining baholash va boshqarishga qobiliyatsizligidan kelib chiqadi deb qaraladi, ammo bu risklar kompaniya uchun real risk hisoblanmaydi. Bu risklar soliq va qonundagi o'zgarishlar, mahsulot eskirishi, ishchi kuchi va sotish

⁴ David F. Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005. p 9

agentlarining qoniqarsiz tayyorgarligi va jinoyat menejerlar yoki boshqa xodimlarning nojo'ya xatti-harakatlarini o'z ichiga olishi mumkin.

Biz suhbat qilgan bir nechat sug'urta firmalari Aktuarlar Jamiyati risk klassifikatsiyasi sistemikasidan foydalanish foydasiz deb qarashdi, boshqalari esa buni o'zlarining maqsadlari uchun qoniqarli deb qarashdi. Bizningcha, biz ko'rgan hech qaysi risk klassifikatsiyasi sxemasi butunlay qoniqitradigan emas. Biroq, sug'urtalovchiga ta'sir etadigan ko'pgina tushunarli risklarni yuqoridagi ro'yxatda ko'rib chiqdik. Shunga qaramasdan, ko'pincha sanoat bir nעהa yillar oldin paydo bo'lgan⁵ C1-C4 risklarining bir qismi bo'lgan tabiiy moliyaviy risklarni aniqlashda o'z bo'lgan. Bunga qo'shimcha, ko'p sxemalarda risklarning firmaning umumiy risklari hissasini aniqlashdan ko'ra izolyatsiyasiga haddan tashqari ko'p e'tibor qaratilgan.

Sug'urta sanoati uchun noyob bo'lgan risklarning actuarial buzilishining muqobili sifatida standart moliyaviy risk tushunchasi sanoatga tobora chuqur kirib bormoqda. Ushbu risklarning 6 umumiy tulari mavjud: actuarial, muntazam, kredit, likvidlik, tezkor va qonuniy risklar. Qisqacha aytganda, sug'urta institutiga aloqador ushbu risklarning har birini ko'rib chiqamiz; Section V da ushbu risklar qanday qilib boshqarilishini ko'rib chiqamiz. Bizning asosiy e'tibor quyidagi 4 ta riskni o'z ichiga olgan moliyaviy riskka qaratiladi. Albatta, sug'urta xizmatini ta'minlash bilan bog'liq ushbu risklar ko'rsatiladigan xizmat turi bilan farqlanadi.

Actuarial risk sug'urta polislarini berish va boshqa majburiyatlar tufayli mablag'lar oshishi natijasida vujudga kelishi mumkin. Ushbu risk firma qabul qilgan mablag'lari uchun ko'p pul to'lashi

Muntazam risk muntazam faktorlar bilan bog'liq bo'lgan aktiv va majburiyatlar qiymatining o'zgarishidan vujudga keladi. Bu risk ko'pincha market riski deb yuritiladi. Muntazam risk diversifikatsiya qilinmaydigan risk hisoblanadi⁶.

Kredit riski bu shunday riskki, bunda qarzdor o'z majburiyatlar amalga oshira olmaydi. Kredit riski qarzdorning shartnoma ko'rsatilgan oldindan belgilangan bandlarni amalga oshirishga qodirsizligi va xohishsizligidan kelib chiqishi mumkin. Bu narsa kreditor, qarz beruvchi va investorlar bilan bir qatorda kredit shartnomasidagi qarz beruvchular va investorlarga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu sababli, asosiy garovning bosh qiymati bilan birgalikda qarz oluvchining moliyaviy holati ham sug'urtalovchida katta qiziqish uyg'otadi.

Kreditdagi asosiy risk bu portfel ko'rsatkichlari qiymatini kutilganidan farq qilishidir. Shunga muvofiq, kredit riski divesifikatsiya qilinishi mumkin ammo to'liq bartaraf etilmaydi. Buning asosiy sababi, kredit riskining asosiy sababi yuqorida ko'rsatilgan muntazam risk bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu yo'qotishlarning ma'lum bir qismining o'ziga xos tabiati umumiy noaniqlarning

⁵ David F. Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Proecess 2005, p.7

⁶ David F. Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers. An Analysis of the Proecess 2005, p.11

diversifikatsiyasiga ijobiy ta'sir qilishiga qarmasdan kredit beruvchilarga muammo paydo qiladi. Bunday hollarda qarz riski yo'qotilishlarning aniq qiymatini baholash qiyin bo'ladi.

Likvidlik riskiga moliyaviy inqiroz riski deya ta'rif berish mumkin. Ba'zilar rivojlanish rejalariga muhtoj bo'lganda bu jarayonda risk yaqqol ko'zga tashlanadi.

Qonuniy risklar moliyaviy faoliyat uchun mahalliy va kredit va tezkor risklarning qonuniy aksidir. Yangi nizomlar, sud imkoniyatlari va qoidalar ilgari yaxshi tashkil etilgan kompaniyaga qarshi kelishi mumkin. Masalan, ustav nizomini shakllantirishdagi o'zgaritirishlar aktivlar/majburiyatlar siyosatiga ta'sir ko'rsatadi.

Risk – menejerning javobgarligi ichki yoki tashqi bo'lishi mumkin. Ichki javobgarlikda hayfsan, boshqa ishga o'tkizish bilan javobgarlikka tortiladi. Bundan tashqari iqtisodiy chora ham ko'rilishi mumkin. Ichki chora risk menejerning karerasiga va moliyaviy holatiga keskin ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tashqi javobgarlik 3 turga bo'linishi mumkin: huquqiy, ijtimoiy, ruhiy.

Menejerning milliy va madaniy o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq holda farqlanishi mumkin.

Jinoiy javobgarlik- yo'l qo'ygan xato va kamchilik uchun jinoyat kodeksiga muvofiq tortiladi.

Fuqaroviy javobgarlik-majburiyat bajarilmaganda yoki sifatsiz bajarilganda va natijada zarar yuzaga kelsa qo'llaniladi. Ko'pchilik hollarda keltirilgan zarar qoplashga majbur qilinadi.

Shunday qilib zarar keltirish natijasida majburiyat paydo bo'lishi shart:

-qonunga qarshi harakat;

-zararning borligi;

-yuzaga kelgan zarar bilan qonunga qarshi harakat o'rtasida bog'liqlik borligi;

-zarar keltiruvchining aybi borligi.

Qonunga qarshi harakat jumlasiga ushbu harakati bilan uchinchi shaxs bo'lgan huquq sub'yektining huquqi buzilishi kiradi. Amaliy nuqtai nazardan dilekt va shartnoma majburiyatlarini farqlash lozim, aksincha harakat bir vaqtda dilekt va shartnoma majburiyatlarini buzilishiga olib kelishi mumkin. Amaliyotda shartnoma majburiyatlarini unifikasiya qilish tendensiyasi bormoqda. Mulkiy zararga mol-mulkka yetkazilgan zarar va olinmay qolgan foydalar kiritiladi.

Risklarni boshqarishda nojamg'armali sug'urta risolalarini boshqarish ham muhim o'rin egallaydi. Iqtisodiy amaliyotning murakkablanishi tomonlarning riskni boshqarishga harakat qilishi riskni boshqarishning qator usullarini tug'ilishiga olib keldi. Shunday usullardan biri riskni qayta taqsimlash iqtisodiy munosabatlar asosida boshqarishdir. Ushbu sug'urta turi an'anaviy sug'urtadan sug'urta mukofoti faoliyat boshlashdan oldin to'lanmaydi.

1.3 Sug'urta kompaniyalarida sifat menejmentini joriy etish masalalari

Menejmentning iqtisodiy samarasi asosan umumiy kapital mablag'lar va xalq xo'jaligida ishlatiladigan yangi texnikani iqtisodiy samarasini aniqlash bo'yicha umumiy muammoning bir qismi hisoblangani uchun bizning fikrimiz bo'yicha ko'rib chiqilayotgan tizimlarni iqtisodiy samarasini aniqlash, bir tomondan bir turdagi usullarning umumiy qoidalariga, asosiy fikrlariga va avvalgi hollariga asoslanmog'i lozim. Ammo bir turdagi usullar menejmentning iqtisodiy samarasini aniqlashga qo'yiladigan talablarni to'la qondirmaydi. Shuning uchun boshqa tomondan ishlab chiqarishni aniq sharoitlarida tizimli hukm surishda paydo bo'luvchi samaraga xos manbalarni hisobga olish zarur bo'ladi.

Shunday qilib, menejmentning iqtisodiy uslubiyatlarini muammolari echimi ishlab chiqarishni iqtisodiy samarasiga bog'liq bir qator umumiydagi qoidalariga asoslangan bo'lishi kerak. Ammo bu erda menejmentga xos maxsus ko'rsatkichlarni, (hisobga olish albatga zarurdir) ularni shakllanishida, hukm surishida, takomillashuvi va taraqqiyotida ob'ektiv asosni hisobga olish albatta zarur bo'ladi. Bu kabi usul, eng avval menejmentning hukm surishi iqtisodiy natijalarini ta'min etishda yagona yondashuv hisoblanadi.

Korxonalarni, birlashmalarni va xalq xo'jaligi tarmoqlarini ishlab chiqarish texnik xususiyatlari u yoki bu darajada boshqaruvni tashkiliy tarkibiga, texnologiyasiga va boshqa tomonlariga albatta ta'sir ko'rsatadi. Bu (uslubiy yondashuvni birligi) esa ularning iqtisodiy samarasini baholashda uslubiy yondashuvni birligini bildiradi.

Menejment tizimining iqtisodiy samarasini ilm asosida hisoblash albatta bir qator uslubiy qoidalarga asoslanishi lozim. Ular ichida eng muhimi bu bir dona mahsulotga to'g'ri keladigan eng yuqori foydani olishga intilishdir.

Menejment tizimining turli bosqichlarini amalga oshirilishini maqsadga muvofiqligini hal qilish yillik iqtisodiy samara asosida qabul qilinadi. Amalga oshirilgan harajatlarni taqqoslash turlari asosida bir yilda chiqariladigan mahsulot miqdorini hisobdagi davrdan olib bajariladi. Hisobdagi davr - bu rejalashtirilgan yil tamom bo'lganidan keyingi birinchi yil hisoblanadi. Taqqoslash bazasi sifatida quyidagilar qabul qilinadi:

Birlamchi negiz sifatida (ishlab chiqish va joriy qilish bosqichlari) menejment tizimining erishilgan O'zbekiston Respublikasida hukm suruvchi samarali ko'rsatkichlari qabul qilingan. Iqtisod nuo'tai-nazaridan shunday tizim yaxshi hisoblanadiki, uni to'la ishlatganda ko'zda tutilgan samarani olishda eng kam sarf-harajat ta'minlanadi.

Uning taraqqiy toptirish va takomillashtirish bosqichlarida erishiladigan menejment tizimining samarasi eng yaxshi ko'rsatkichdir.

Bozor iqtisodiyotining eng aktual muammolaridan biri - bu mahsulot tannarxini pasayishidir. Bizning fikrimiz bo'yicha ushbu ishlab chiqarish rentabelligini oshiruvchi ko'rsatkichning ahamiyatini tiklash zarur. Ammo,

olimlar orasida harajatlar tarkibiga kiruvchi quyidagi S_1 va S_2 miqdorlarni ma'nosi haqida yagona va aniq fikr yo'q.

Ba'zi bir manbalarda ko'rsatilishicha bu taqqoslash bosqichlariga tegishli joriy harajatlar (tannarx), boshqalarida hech qanday mahsulot tannarxi ko'rsatilmagan, uchinchilarida - yillik ishlab chiqariladigan mahsulot hajmining tannarxi ko'rsatilgan, to'rtinchilarida - ko'rib chiqilayotgan mahsulotni (ishni, xizmatni) iste'molchidagi yillik tannarxi deb faraz qiladilar. Tabiiyki, ko'rib chiqilayotgan miqdorni iqtisodiy ma'no ifodasiga kiruvchi keltirilgan harajatlar muammoni to'g'ri echilishiga va menejment tizimini iqtisodiy samarasiga halaqit beradi. Moddiy ishlab chiqarish sohasida ishlatadigan menejment tizimining iqtisodiy samarasini hisobiga bizning fikr bo'yicha keltirilgan harajatlarga kiruvchi qo'shiluvchilar S_1 va S_2 bir dona yoki bir yilda taqqoslanadigan bosqichlar bo'yicha ishlanadigan mahsulot hajmining tannarxi tavsiflashi kerak. Mahsulot tannarxining harajatlarini tuzish, ularni hisoblash va kalkulyatsiya usullari amaddagi qoidalar asosida olinmog'i darkor.

Iqtisodiy samarani hisoblashda shu narsa xotirada saqlanishi kerakki. mahsulotning ishlab chiqarilishini o'zlashtirilgani menejment tizimining takomillashgani sari uning tannarxi pasayib boradi. Mahsulot tannarxi, miqdoriga uni ishlab chiqarilish davri va hajmi salmog'i ta'sir ko'rsatadi.

Menejment tizimi turli tadbirlar birlashmasini ishlab chiqish va joriy qilinishini amalda tutgani uchun shuni hisobga olishi kerakki, ko'pchilik holatlarda ular o'zaro bir-biri bilan, hamda boshqa tadbirlar bilan ham bog'langan bo'ladi, shu jumladan, yangi texnika va ishlab chiqarish jarayonini takomillashuvi bilan ham bog'langandir. Shuning uchun bir xil samarani parallel holda turli tadbirlarga hisobga olishdan, amalda qo'llashdan saqlanish kerak.

Majmuali bir-biriga bog'lanishi bo'lgan alohida olingan tadbirlardan keladigan iqtisodiy samara zaruriyat tug'ilganda baholashni amalga oshirishi zarur. Buning uchun olinadigan iqtisodiy samarani manbalari va uni tashkil qiladigan elementlari aniq bo'linog'i kerak.

Avval ta'kidlaganimizdek, menejment tizimi murakkab tashkilotlarda kichik bir tizim hisoblanadi. Shuning uchun uning iqtisodiy samarasini asosan ikkita tomondan ko'rib chiqmoq kerak.

Birinchi - menejment tizimini xususan o'ziga tegishli iqtisodiy samara, shu jumladan, uni saqlash, sarf harajatlari o'lchamlari va ma'qulligi: (harakatlar birlashmasi) ichki boshqaruv jarayoni tashkil qiluvchi harakatlar birlashmasi tezkor, iqtisodiy bo'lmog'i, qabul qilinadigan qarorlarni maqbul bo'lishini, yanada samarali bo'lishini ta'min etishi kerak.

Ikkinchi tomon - tashqi: bu holatda iqtisodiy samara menejment tizimining ishlab chiqarish faoliyatini natijalari nuotai-nazardan baholanishi zarur.

Menejment tizimining alohida tadbirlarini iqtisodiy samarasi to'laligicha turli vaqt davrlari uchun aniqlanishi mumkin.

Amaliyotda yillik iqtisodiy samarani, shartli yillik iqtisodiy tizimni kiritishdan boshlab, yilning oxirigacha olinadigan samarani va harajatlar davrini hisoblash maqsadga muvofiqdir.

Qaror kabul qilish imkoniyati bir necha muqobil variant paydo bo'lganda vujudga keladi va rahbar ulardan birini, eng maqbulini tanlaydi. Qarorning eng samarali variantini topish uchun rahbar "etti o'lchab bir kes" tamoyiliga rioya qilish lozim. Puxta o'ylab ish olib bormaslik qanchalik qimmatga tushishini kuyidagi misoldan ko'rish mumkin. Qabul qilingan qaror reja, topshiriq, buyruq, farmon va farmoyishlar orqali yuridik kuchga kiritiladi va amalga oshiriladi. SHu nuqtai nazardan qaror - bu butun boshqaruv binosining poydevori hisoblanadi.

Qarorlarni bajarishga rahbarlik qilish jarayonida rahbarning vazifasi xodimlarning shaxsiy manfaatlarini umummanfaatlar bilan muvofiqlashtirishga erishishdan iboratdir. Jamoaga muvaffaqiyatli rahbarlik qilish farmoyish berish va nazorat qilish usullari, shakllari va texnikasini bilishgina emas, balki topshiriqlarni bajarishga xodimlarni safarbar eta olish qobiliyatini ham talab qiladi.

Mavjud yutuqlarni rahbar, fakat o'zining xizmatlari etib ko'rsatmasligi lozim. Qaror ijro etilmay qolganda aybdorni jazolashdan oldin uning sabablarini diqqat bilan o'rganish zarur. Ko'pgina rahbarlar yaxshi qarorlar kabul qilishni bilmasliklari tufayli emas, balki ularni amalga oshirishni tashkil kila bilmasliklari sababli, o'z lavozimlarga mos kelmay qoladilar. Ba'zida, bir masala yuzasidan ikki-uch martalab qaror qabul qilinadi.

Aksiyadorlik sug'urta kompaniyalarining oliy boshqaruv organi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hisoblanadi. Aksiyadorlarning umumiy hisobot yig'ilishi har yili, moliya yili tugaganidan keyin kupi bilan olti oy ichida o'tkaziladi. Ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklidagi sug'urta kompaniyalarini boshqarishda aksionerlar umumiy yig'ilishidan keyin Kuzatuv kengashi turadi. Jamiyatning Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlik kiladi, qonun bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatlariga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno. Jamiyatning Kuzatuv kengashi aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi tomonidan aksiyadorlar ichidan beshta a'zo tarkibida bir yillik muddatga saylanadi. Ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklidagi sug'urta kompaniyasining kundalik faoliyatiga rahbarlikni yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organ – Bosh direktor amalga oshiradi va u aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi tomonidan bir yillik muddatga saylanadi. Jamiyat ijroiya organining vakolatlariga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doyr barcha masalalar kiradi, Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining yoki Kuzatuv kengashining mutlaq vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

Har qanday sug'urta kompaniyasi o'z faoliyatini biznes-reja asosida amalga oshiradi. Biznes rejani amalga oshirish bilan bog'liq sug'urtalovchining

faoliyati biznes jarayon deb ataladi. Biznes jarayonda asosiy e'tibor sug'urta portfelini optimal shakllantirish, sug'urta mahsuloti hisoblanadi.

Shuni alohida jihatdan, sug'urta portfelining sifati, ko'p moliyaviy barqarorligini aniqlaydi. uning o'zaro bog'liqlikdagi jihatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda sug'urta portfelini optimal nisbatda va muvozanatlashgan holda shakllantirishga sug'urtalovchi menejmenti katta e'tibor qaratishi lozim.

Bozor iqtisodiyota sharoitida boshqaruv vazifalarining murakkablashuvi sug'urta kompaniyasi rahbarlariga xodimlarni to'g'ri tanlash. ularni joy-joyiga kuyish va tarbiyalash ishlariga juda katta ma'suliyat bilan yondoshishni talab kiladi. Bu erda so'z, eng avvalo ish tavsifi va ishga kabul kilinadigan xodimga nisbatan talablarni belgilash to'g'risida borayapti.

Xodimlarni boshqarish samaradorligi, ko'p jihatdan xodimlarni tanlashga bog'liq. Xodimlarni tanlash - bu ikki tomonli jarayondir. Bir tomondan, sug'urta kompaniyasi da'vogarga ish berish yoki bermaslikni hal qilsa, ikkinchi tomondan da'vogar, agar uni ishga taklif qilishsa, u bu taklifni qilishi kerakmi yoki kerak emasligini hal qiladi.

Sifatni boshqarish tizimi, zamonaviy tilda aytganda, sifat menejmenti, o'zida boshqaruvning me'yoriy uslublarini aks ettiruvchi standartlarga asoslanadi. Uning ta'siri, hukuqiy kuchga ega bo'lgan, me'yoriy hujjatlar ko'rinishida shakllanadigan me'yor va qoidalarni o'rnatish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Sug'urta kompaniyalarida korporativ boshqaruvning asosiy maqsadi aksionerlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish hisoblanadi. Sug'urtalovchilarning samarali ishlashi va yuqori foyda olishida ochiq-oydinlikni ta'minlash hamda sug'urta kompaniyalarining strategik yo'nalishlarini aniqlash uchun aksionerlarning tashabbusi va tavsiyasi bilan tarkibi 5 nafar a'zodan iborat bulgan sug'urta kompaniyalarining Direktorlar Kengashini tashkil etishni taklif etamiz. Bu kengash tarkibiga aksionerlarning kirishi shart emas, ammo ularning tavsiyasiga asosan turli sohalarda, xususan, sug'urta, audit, yuridik sohalorida yuksak professionalizm sifatlariga ega bo'lgan mutaxassislarni kiritish mumkin. Eng muhim, ularning oylik maoshlarini sug'urta kompaniyastining rentabellik darajasiga bog'lab qo'yish kerak.

Sug'urta kompaniyalari faoliyatiga xalqaro sifat menejmenti standartlarini keng joriy etish lozim. Bugungi kunda sug'urta bozorida faqat bitta sug'urta kompaniyasi "Uzbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasining bunday tizimda ishlashi etarli emas.

Sug'urta kompaniyalari top-menejeri lavozimiga tavsiya etilayotgan shaxslarga nisbatan malakaviy talablar belgilangan. Ammo, unda ilgari birorta sug'urta kompaniyasida ishlab, keyinchalik ushbu kompaniyani bankrotlik holatiga olib kelgan shaxslarni qaytadan sug'urtalovchi rahbarligiga

tavsiya etishni ta'qiqlovchi normalar belgilanmagan.

Shuni e'tiborga olib, amalla bo'lgan me'yoriy-huqukiy hujjatlarga bu normaning kiritilishi va bu xaqda sug'urta kompaniyasining aksionerlariga tavsiya berish maqsadga muvofik.

Sug'urta kompaniyalarida alohida bo'linma shaklida anderrayerlar guruhini tashkil maksadga muvofiq. Sug'urta kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida tug'ridan to'g'ri Kuzatuv Kengashiga bo'ysunuvchi va yangi sug'urta mahsulotlari, moliyaviy instrumentlarni optimallashtirish bo'yicha moliya injiniringi xizmatini tashkil etishni tavsiya qilamiz.

Mamlakatimiz hududlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mintaqaviy filiallarda sug'urta sohasida biznes jarayonni tashkil etishda mustaqillik berish zarur. Bunda ular uchun muayyan qoidalarni ishlab chiqib, bajarish uchun taqdim etish kerak. SHu bilan bir qatorda, biznes-jarayonni to'g'ri tashkil etilishi ustidan ichki audit nazoratini kuchaytirish taklif etiladi.

Sug'urta kompaniyasini boshqarishda xodimlari rotatsiyasini tashkil etish katta ahamiyatga ega. Bundan asosiy maqsad:

-xodimlarning sug'urta sohasining barcha yo'nalishlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish;

- xodimlarning bir joyda ko'p vaqt ishlab qolishi ayrim kamchiliklarni yuzaga keltiradi va bu xodim uni bartaraf etish yo'llarini qidiradi. Bu xodimning rotatsiya yo'li bilan boshqa filial yoki bo'limga o'tkazish, oldingi ish joyida yuzaga kelgan xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikka olib keladi;

sug'urta da'volarini ko'rib chiqish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning har xil xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar (avtoservis, baholovchi kompaniya va boshqalar) bilan o'zaro til biriktirib, noqonuniy ishlarini oldini olish uchun ularni rotatsiyasini tashkil etish zarur.

Nazorat savollari:

1. Sug'urta menejmenti deganda nimani tushunasiz.
2. Sug'urta menejmentining kelib chiqish tarixini bilasizmi.
3. Sug'urta kompaniyalarida sifat menejmenti deganda nimani tushunasiz.
4. Sug'urta kompaniyalarida sifat menejmentini joriy etish masalalari deganda nimani tushunasiz.

II BOB. SUG'URTA MENEJMENTNING MOHIYATI, FUNKSIYALARI VA TAMOYILLARI

2.1 Sug'urta menejmentning iqtisodiy mohiyati

Mumtoz menejmentning mohiyati shundan iboratki, ilmiy menejment namoyandalari, asosan korxonaning tashkiliy boshqaruvini takomillashtirishga yoki yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, ishlab chiqarish darajasidagi boshqaruv bilan shug'ullanadigan bo'lsa, mumtoz menejment konseptsiyasi tashkilotga keng qamrovli kelajak nuq'tai nazaridan yondashish yo'li bilan undagi umumiy xususiyatlar va qonunlarni aniqlashga yordam beradi. Maqsad boshqarishning universal tamoyillarini yaratish va muvaffaqiyatga erishishdir.

Menejment - bu inglizcha so'z bo'lib, ingliz tilining Oksford lug'atida unga "boshqaruv xokimiyati va san'ati", "resurslarni boshqarish bo'yicha alohida mohirlik va ma'muriy ko'nikmalar tushuniladi", deb ta'rif berilgan.

Menejment kursi bozor munosabatlarining qonunlarini o'rganuvchi muhim fanlardan biri hisoblanadi. "Menejment" va "Menejer" so'zlari hozirgi davrda bizning ishbilarmonlik va kundalik hayotimizda davlatni bozorga o'tishdagi iqtisodiy taraqqiyoti g'oyalarni aks ettirib keng ishlatiladi. "Management" inglizcha so'z bo'lib, o'zbek tilida boshqaruvni tashkil qilish, rahbarlik qilish ma'nosida tarjima qilinadi. Shunday qilib, umumiy rejada menejment boshqaruvni bildiradi, ya'ni u yoki bu faoliyat turini (tashkil etishni va rahbarlik qilishni) iqtisodiy, moliyani va boshqa inson hayotidagi ishbilarmonlik sohasini tashkil qilish va boshqarishni bildiradi.

G'arb adabiyotidan menejmentning juda ko'p tushunchalari o'rin olgan. Ulardan uchtasini keltiramiz:

1) tashkilotni maqsad-niyatlariga, unda ishlovchi odamlar harakatini aniq yo'nalishga solish hisobiga erishish;

2) tashkil etilmagan bir necha odamlarni samarali, maqsad sari yo'naltirilgan va unumli mehnat guruhiga (tashkilotga) aylantiradigan maxsus faoliyat turidir;

3) tashkilotni orzu-niyatlariga erishishdagi mehnat va moddiy resurslarni aniq yo'nalishda ishlatilishi evaziga erishiladigan rejalashtirish, tashkil qilish, boshqarish va nazorat qilish jarayonidir.

Bu tushunchalar turlicha bo'lishiga qaramay, uchta bir xil belgiga ega:

1. Boshqaruvda aniq maqsad borligini ko'rsatadi.

2. Bu turdagi faoliyatning alohida aqliy tavsifi borligi ajratib ko'rsatiladi.

3. Har bir tashkilotda boshqaruvning o'zni borligidan axborot beriladi.

Uchinchi aniqlashuvda menejment ma'nosining belgilariga qo'shimcha qilib beshta vazifani birlashgani, ya'ni rejalashtirish, tashkil qilish, rahbarlik qilish, motivlashtirish yoki qiziqtirish to'g'ri yo'lga solish va nazorat qilish aniqlashtiriladi. 1-jadvalda menejmenti taraqqiy topgan davlatlarda boshqaruvning nazariyasi va amaliyotini tahlil qilish asosida ajratib ko'rsatilgan 7 ta tavsifi keltirilgan.

Menejment tavsiflari⁷

1. Menejment - iqtisodga taalluqli, bozor munosaballariga asoslangan, alohida boshqaruv turidir.
2. Menejment - iqtisodiy boshqaruv usullariga asoslanib daromad va foyda olishni ko'zda tutadi
3. Menejment - maqsadga muvofiq boshqaruv usuli yoki mehnatni samarali tashkil qilishga yo'naltirilgan boshqaruvdir.
4. Menejment - mahsulot sifatini va mehnat unumdorligini oshirishni o'z vazifasi deb biluvchi boshqaruvdir.
5. Menejment - yuqori malakali boshqaruvdir. Bu tashkiliy faoliyat turi bo'lib, uning muhim bo'g'ini, aniq boshqaruv sharoitlari, yangiliklar loyahasini ishlanishi, tashkilot taraqqiyotining taktikasi va strategiyasi, shuningdek, boshqalarni har tomonlama va aniq tahlil qilishdir.
6. Menejment - o'zini egiluvchan va uddaburon boshqaruv tizimi deb hisoblanadi, o'z vaqtida qayta tuzilish, bozor kon'yukturasi, hamda raqobat kurashini, ijtimoiy taraqqiyot omilini ziyraklik bilan sezga olish qobiliyatiga ega.
7. Menejment - bu shunday faoliyatki, unda inson harakatlarini tayyorlash, tashkil qilish va to'g'ri yo'lga solish haqidagi san'at mujassamdir.

Menejmentda eng asosiy vazifa - bu odamlar bilan ishlashdir. Menejment haqidagi keltirilgan tavsiflar shundan dalolat beradiki, u boshqaruv ma'nosini bildira turib, ma'muriy buyruqbozlik iqtisodi boshqaruvdan tubdan farq qiladi. Bu farqlar quyidagicha:

Birinchi farq - bu bozor iqtisodiga taalluqli bo'lib, ma'muriy buyruqbozlik xo'jalikni reja asosida olib borish tizimi emasdir.

Ikkinchi farq - birinchi farqdan kelib chiqadiki, ya'ni taraqqiy topgan davlatlarda menejment iqtisodiy boshqaruv usuli hisoblanadi. Ma'lumki, rejali sotsialistik iqtisodda boshqaruv ko'p hollarda ma'muriy usulda amalga oshiriladi. Boshqacha so'z bilan aytganda markazdan nima, qanday sonda, qaerda ishlab chiqarish kerakligi to'g'risida ko'rsatmalar kelar edi. Iqtisodiy usulda esa iqtisodni bozor va iste'molchilarning talabi boshqaradi. Shunday qilib menejment boshqaruv ma'nosini bildiradi va ob'ektiv iqtisodiy qonunlar hisobiga hamda ularni har biri aniq ishlab chiqarishda tashkilotda ishlatilishga asoslanadi.

Uchinchi farq - menejmentni sotsialistik tizim boshqaruvidan farqini oxirgi to'rtta tavsifni birlashtirish asosida aniqlash mumkin. Uni «menejment - bu samarali boshqaruv fani va san'ati»dir deyish mumkin. Bunday boshqaruv bu kabi mehnat bilan shug'ullanuvchilarning yuqori malakasi, ya'ni menejerlar hisobiga, ularning bilimdonligi, faol ijodiy ishi, tashabbuskorligi, fikr yuritishining egiluvchanligi, taktik va strategik masalalarni echishdagi

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

qobiliyati, odamlar bilan bevosita ishlay olishi hisobiga amalga oshadi. Oksford izohli lug'atida menejment tavsifi quyidagi oddiy so'z bilan ifodalangan. Unda "Menejment - bu ma'muriy ishni bajarishdagi alohida qobiliyat va bilimdonlikdir", - deyilgan.

Risk menejment jarayoni quyidagi asosiy savolga javob topishdan boshlanadi: mazkur ob'ekt qanday risklarga moyil?

Ushbu har bir kategoriyalarda iqtisodiy qaror qabul qiluvchi shaxsga rentabellikning notekis ko'tarilish sabablari ko'rsatilgan va shuningdek, qaror qabul qiluvchiga tushunchalarning xilma-xillik sabablari tushuntirilgan. Birinchi segmentda birinchi obektiv vazifa botiqlik boshqalarida esa menejerlarning riskka qarshi o'zini qanday tutishi haqida gap ketgan. Biz bu har bir teoriyani tushuntirish bilan boshlaymiz⁸.

Boshqacha so'z bilan aytganda, menejment - bu boshqaruv, ya'ni resurslarni, insonlarni boshqarish, samarali faoliyat olib borish va foyda olishni bilish, uni ko'paytirish jarayonidir. Shu nuqtai nazardan boshqaruv - bu o'ziga xos yuksak san'at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov asosida qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilishdir.

Bugungi kunda menejment va boshqaruv to'g'risida quyidagi umum qabul qilingan fikrlar mavjud:

2-jadval

Menejment va boshqaruv haqida fikrlar⁹

Boshqaruv	Yuksak san'at va maxoratni talab qiluvchi tanlov	Menejment
	Faoliyat turi, funksiya	
	Jarayon	
	Tashkilotlarni boshqaruvchi kishilar	
	Boshqaruv apparati yoki organi	

Bozor iqtisodiyotida tanlash qoidasi yanada jiddiylashadi. Zero, ishlab chiqarish (xizmat) uchun resurslar to'g'ri tanlangandagina va ulardan samarali foydalangandagina xarajatlar yuqori foyda keltirishi mumkin.

Har qanday faoliyatning ijobiy natija berishi, eng avvalo, tanlovni to'g'ri bajara olishga, ma'qul va ishonchli qarorni qabul qila olishga hamda bu qarorning bajarilishini nazorat qila olishga bog'liq. Masalan, yuqori foyda olish quyidagi uchta jihat bo'yicha to'g'ri tanlovni va ishchan qaror qabul qilinishini talab qiladi.

Risk menejmenti mijozlarga to'liq xizmatlar yig'indisini taklif etish imkoniyatini beradi, risk va sug'urta sohasidagi masalahat sifatidagi

⁸David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005 p 8

⁹Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

sug'urtalovchilarga bo'lgan ishonchni oshiradi. Bu esa ularga boshqa oddiy, chegaralangan sug'urta xizmatlarini taklif etuvchi sug'urtalovchilarga nisbatan katta imtiyoz yaratadi¹⁰.

Ma'lumki, biror ashyo (resurs yoki tovar) qancha kamyob bo'lsa, uning narxi shuncha baland bo'ladi va binobarin, uni sotib olmoqchi bo'lganlar shuncha kam bo'ladi. Iqtisodchilar buni narxlarning cheklovchilik samarasi deb ataydilar.

Narxning oshishi ishlab chiqaruvchilar safini ko'paytirishga, narxning tushishi esa ishlab chiqaruvchilarning kamayishiga, ularning bir qismini bozordan bezdirishga olib keladi. Iqtisodchilar narxlarning bunday ta'sirini ishlab chiqarishga turtki vazifasi deb ataydilar.

Foydaga ta'sir etuvchi bu uch unurning mohiyatini tushungan boshqaruvchigina tanlovni to'g'ri amalga oshirishi va ishchan qarorni qabul qila olishi mumkin. Boshqarish san'ati va mahorati, ya'ni menejment kundagina namoyon bo'lishi, pirovardda esa yukori foyda olishga erishilishi mumkin. Shunday qilib, sodda qilib aytganda:

Boshqaruv - bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir.

Riskni boshqarishni asoslash va tashkil qilish menejmentda muhim o'rin egallaydi. Amaliyotda moliya-sanoat, xolding kabi diversifikatsiyaning shakllari qo'llanib kelinmoqda

Difersifikatsiya - bu bir nechta ob'etlar o'rtasida riskni taqsimlash.

Sekyutritizatsiya - bu kreditlash operatsiyasini ikki qismga bo'lish:

- kredit berish shartini ishlab chiqish;
- shartnoma tuzish.

Limitlash - bu investitsiyaning miqdor chegarasini belgilash. Asoslashning bir nechta nazariyasi mavjud.

Riskni boshqarishni motivlash deganda bozor sub'etlari, davlat tashkilotlari riskni kamaytirish borasida ish olib boradi.

Motivlash - odamni xarakterga majbur qiluvchi talab.

Riskni boshqarishga rag'batlantirish sub'ektlariga riskni kamaytirishga undash.

Davlat bozor sub'ektlarining xarakterini risk miqdorini kamaytirishga motivlash turli usullar bilan amalga oshiriladi: xuquqiy normalar bilan (ba'zi faoliyat turlari bilan shug'ullanishga ruxsat berish eki taklqlash) ma'muriy yo'l bilan eng'in nozirlari va texnik nazorati idoralari bilan), soliq siyosati bilan.

O'z navbatida korxonalar o'z ishchilarini risk natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar miqdorini kamaytirishga motivlash lozim. Bu ishchilar mehnat xaqiga mukofot, qo'shimcha ish xaqi to'lash usullari bilan amalga oshiriladi.

¹⁰Kapitl: Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 1993. p. 325

Sug'urta sohasidagi ham motivlash usullari qo'llaniladi. Sug'urtada zara miqdorini kamaytirish maqsadida sug'urta qilingan mamlakat sug'urta qilingan mol-sulk egasi mol-mulki zaradan asrab qolish chora- tadbirlarini qo'llash lozim. U tomonidan qilingan xarajatlar sug'urtachi tomonidan qoplab beriladi.

Amaliyotda korxonalar va tashkilotlarning mol-mulk sug'urtasida avtoronsport egalarining javobgarligi sug'urtasida motivlash uchun bonuslar ishlatiladi.

Aksincha, sug'urtalanuvchi qasddan sug'urtadangan mulkkav zara etkazgan bo'lsa, sug'urta qoplamasi to'lanmaydi.

Boshqaruv samarasini oshirish uchun riskni boshqarishni to'g'ri tashqim qilinishi lozim. Riskni boshqarishni tashqim qilish - bu riskdan himoyalash vositasi sifatida tizim shakllantirishdir.

Tashkil qilish maqsadga erishish vositasi sifatida quyidagi instrumentlaridan foydalaniladi:

Bo'limlarga bo'lish, ularni ixtisoslashishi, motivlash, xokimiyat yo'lbo'shchilik, koflikt.

Tashkil qilishning muhim tomoni riskni boshqarish bo'yicha majburiyatni taqsimlash. Riskni boshqarish borasida majburiyatni taqsimlashda biron bir holat yuz berganda ishchilarning nima ish bilan shug'ullanishi, ish faoliyatining qaysi sohasiga javob berishni belgilaydi.

Riskni boshqarish texnologiyasi menejmentda muhim o'rin egallaydi. Riskni boshqarish texnologiyasi bu malakali ko'nikmalarni, jihozlarni infrastrukturani instrumentlarni, texnik bilimlarni birgalikda qarashdir.

Kommunikatsion va ma'lumot jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari riskni boshqarish tashkil qilishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Global risklarini boshqarish xavsizlik kengashi tomonidan amalga oshiriladi. Uning funksiyasiga riskni o'z vaqtida topish va global riskni boshqarish.

Bundan tashqari:

- tashqi ishlar vazirligi tashqi siyosiy risklarni boshqarish;
- mudofaa vazirligi tashqi harbiy risklarni boshqarish;
- tashqi aloqalar vazirligi tashqi iqtisodiy risklarni boshqarish;
- moliya vazirligi tashqi va ichki moliyaviy risklarni boshqarish bilan;
- favqulotda holatlar idorasi tabiiy ofat bilan bog'liq risklarni boshqarish;
- ichki ishlar vazirligi ichki ijtimoiy risklarni boshqarish bilan shug'ullanadi.

Korxonalar kesimida korxonada birinchi shaxs global risklarni boshqarish bilan shug'ullanishi lozim. Tijorat direktori bozor faoliyati bilan bog'liq risklarni boshqarish bilan shug'ullanish lozim. Tijorat direktori bozor faoliyati bilan bog'liq risklarni boshqarish, bosh muxandis texnologiya risklarni boshqarish, moliyaviy direktor moliya va investitsiya risklarini boshqarish bilan shug'ullanadi.

Boshqaruv qarorini tayyorlashga qarorni qabul qilgan shaxs boshchilik qiladi.

Qarorni tayyorlash shaxs muammoni aniqlashi, muammoni echish bo'yicha vazifani belgilashi zarur.

Riskni boshqarish bo'yicha qaror tayyorlashda quyidagi omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin:

- qaror qabul qiluvchi shaxs qanaqa ma'lumotga ega;
- ma'lumotning noaniqlik darajasi;
- riskni boshqarish bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida qanaqa vositalar va resurslarga ega;

son miqdorining kattaligi, ob'ekt turi;
- qarorni qabul qilinishi yoki qilinmasligi qanaqa natijaga olib kelishi mumkin;

- riskni boshqarish bo'yicha qarorni tayyorlovchining malakasi;

Riskni boshqarishda nazorat va javobgarlik ham muhim o'rin egallaydi.

Riskni boshqarishni nazorat qilish ostida quyidagi jarayon nazarda tutiladi;

- o'ziga xos faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun riskni qabul qilish mumkin bo'lgan darajasi;

- riskni boshqarishni tashkil qilish qo'yilgan maqsadga erishiladi;
- faktni aniqlash va tashkilot faoliyatida risk muammoni belgilash;

Menejmentda nazorat bir aktiv yoki jarayon bo'lishi mumkin.

Bir aktivli tartibda riskni boshqarishni nazorat qilish bu alohida chora tadbirlar:

- risk-muammoni aniqlash yo'nalishi;

- tashkilot riskini boshqarishda haqiqatda qo'yilgan maqsadga erishganligini tekshirish va tasdiqlash, tashkilot mavjud riskni o'zi boshqara olishi mumkin;

- tashkilotning riskni boshqarish tizimidagi muammoni aniqlash;

Riskni boshqarishni jarayonli nazorati-bu riskni boshqarishni vaqt va fazo bo'yicha tekshirilishi yig'indisi. Nazoratga katta e'tibor beriladi. Ammo bundan tashqari nazoratni loyihalashtirish xavfli va quyidagilarga olib kelishi mumkin:

- soha faoliyatini chegaralash mumkin;
- samarasiz shtatlarning sonini olishi va nazorat bilan shug'ullanuvchi ishchilar soni oshishga olib kelishi mumkin;
- muomala harajatlarning olishi natijasida maxsulot raqobatbardoshlik susayishi mumkin.

Riskni boshqarish bo'yicha qarorni qabul qilish va bajarish uchun javobgarlik riskni boshqarishni samarasini oshirishni muhim faktori.

Riskni boshqaruvchi menejer boshqaruv qarorini tayyorlashda javobgarlik darajasini belgilash lozim. Menejer javobgarligi, qaror qabul qilib zararga yo'l qo'yilmasa paydo bo'ladi.

2.2 Sug'urta menejmentining funksiyalari

Sug'urta menejmenti funksiyalari ko'p qirrali tushunchadir. Shu sababli ularni muhim belgilar bo'yicha turkumlarga ajratib o'rganish zaruriyati tugiladi.

Boshqaruv funksiyalarining mohiyati, klassifikatsiya va mazmunini o'rganish boshqaruvning butun jarayonini tartibga solib turish uchun o'ta muhimdir, chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, boshqaruv mazmuni jarayon sifatida uning funksiyalarida namoyon bo'ladi.

G'arb menejmentining bugungi zamonaviy nazariyasi boshqarish funksiyalarini turkumlashda eng avvalo uning quyidagi asosiy (umumiy) funksiyalariga ustuvorlik berishadi:

- rejalashtirish;
- tashkil qilish;
- tartibga solish va muvofiqlashtirish;
- nazorat;
- rag'batlantirish (motivatsiya).

Bu funksiyalar boshqaruvning barcha bo'g'inlarida va hamma bosqichlarida quyidagi izchillikda amalga oshiriladi.

Demak, boshqarish dastlab rejalashtirishdan boshlanib, faoliyatni tashkil qilish, uni tartibga solish, muvofiqlashtirish bilan davom ettirilib, nazorat bilan tugaydi. Bu erda rag'batlantirish barcha funksiyalar jarayonida o'z aksini topadi¹¹.

Bu funksiyalar boshqaruvning hamma bosqichlariga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarga ega bo'lib, boshqaruv apparatining barcha rahbarlari va mutaxassislari faoliyatida mavjud bo'ladi. Ularni, shuningdek, boshqaruvning hamma tomonlarini qanragan funksiyalar deyish mumkin, chunki ular boshqaruv tizimini ham bo'yiga (vertikal tomondan), xam eniga (gorizontal tomondan) qamrab oladi.

Sug'urta menejmenti funksiyasini turkumlashning ikkinchi yondashuvida boshqarish ishini aniq ijrochilar bo'yicha taqsimlashga ustuvorlik beriladi. Bunda bir butun aniq funksiyalar tizimi ajratiladi. Masalan, zamonaviy g'arb firmalarida ishlab chiqarishga oid 20-25 tadan kam bo'lmagan funksiyalar ajratiladi. Bular quyidagilardir:

- ❖ asosiy ishlab chiqarishni boshqarish;
- ❖ qo'shimcha ishlab chiqarishni boshqarish;
- ❖ ishlab chiqarishga xizmat kiluvchi ishlab chiqarishni boshqarish;
- ❖ marketingni boshqarish;
- ❖ moliyaviy boshqarish;
- ❖ sifatni boshqarish;

¹¹ David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Proccess 2005 p.4

- ❖ mehnatni boshqarish;
- ❖ xodimlarni boshqarish;
- ❖ innovatsiyani boshqarish va hokazo.

Bunday holda ishlab chiqarishni boshqarish faoliyatining ayrim turlari va sohalari alohida ajralib turadi.

Sug'urta menejmentining yuqoridagi sanab o'tilgan asosiy funksiyalari ularning ishlab chiqarishni boshqarish jarayonidagi o'rni o'ta muhim va zarur bo'lganligi tufayli yanada batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Sug'urta menejmenti faoliyatining turlariga ko'ra, funksiyalar quyidagicha bo'ladi:

- ◆ boshqarishning iqtisodiy funksiyalari; ya'ni:
 - mablag'larning doiraviy oborotini amalga oshirish;
 - mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish;
 - marketing xizmatini uyushtirish;
 - foyda olishni ta'minlash;
- ◆ boshqarishning sotsial funksiyalari, ya'ni: mehnat sharoitini yaxshilash,
- ◆ xodimlarning uy-joyga ehtiyojini, sotsial madaniy-ma'naviy ehtiyojlarini

qondirish:

- ◆ moddiy rag'batlantirishni ta'minlash;
- ◆ ijtimoiy ximoyani ta'minlash va h.k.
- ◆ boshqarishning ma'naviy - ma'rifiy funksiyalari, ya'ni:
 - xodimlarni insoniylik, yaxshilik, mehr-shafqatli va o'zaro munosabatlarda sabr-toqatli bo'lish ruhida tarbiyalash;
 - xodimlarni Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, halollikni, adolat tuyg'usini, bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalashga xizmat qilish.

- ◆ boshqarishning tashkiliy funksiyalari¹², ya'ni:
 - ishlab chiqarishni tashkil qilish;
 - o'zaro aloqalarni o'rnatish va muvofiqlashtirish;
 - barcha bo'g'in va bo'limlar o'rtasida vazifalar taqsimoti, xuquq berish va boshqarish apparati xodimlari o'rtasida mas'uliyatlarni belgilash;
 - boshqarishning aniq uslubini tanlash va qaror qabul qilishda ish tartibi izchilligi, axborotlar oqimini tashkil qilish va h.k.

Qayd qilingan funksiyalar bir-biri bilan bog'liq va ma'lum darajada tartibga solingan ko'p unsurlardan, komponentlardan iborat bo'lib, ular yaxlitlikka ega. Shuning uchun boshqarish jarayonida ularning birortasi e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

Sug'urta menejmentining funksiyalaridan yana biri - bu tarmoqli boshqarish bilan hududiy boshqarishning mutanosibligini ta'minlashdir. Har bir

¹² David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Mnagement by Insurers: An Analysis of the Process 2005,p.3

korxonaga qandaydir bir tarmoqqa (sektorga) kiradi. Ayni vaqtda u bir tuman hududida joylashganligidan maxalliy ishlab chiqarish - hududiy kompleksiga kiradi. Boshqarish jarayonida bu funktsiya ham hududiy, ham tarmoq manfaatini ko'zda tutishi lozim. Tarmoqqa doir bo'lgan boshqaruv funktsiyalari zarur. Busiz tarmoq "yo'qoladi", yagona texnik va texnologiya siyosatini amalga oshirish va butun tarmoqqa taaluqli boshqa masalalarni hal etish qiyin bo'ladi.

Biroq, ayni vaqtda, boshqarishning hududiy funktsiyalari ham zarur. Bu funktsiya muayyan tuman, viloyat hududida joylashgan turli tarmoqlar (sektorlar)ga qarashli korxonalar faoliyatini muvofiqlashtiradi, ratsional aloqalarni o'rnatilishini ta'minlaydi. Hududiy funktsiyalar idorachilik govlarini yo'qotish, noratsional tashuvlarni kamaytirish va pirovardida, samaradorlik darajasini oshirish imkoniyatini beradi.

Yuqorida qayd qilingan funktsiyalardan tashqari boshqarishning o'ziga xos aniq funktsiyalari ham bor.

Sug'urta menejmentning o'ziga xos aniq funktsiyalari deganda muayyan boshqaruv organiga va uning boshqaruvchisiga konkret birlashtirilgan ishlar, mas'uliyat, maqsad va unga erishish vositalari majmuasi tushuniladi.

Tegishli funktsiyalarning to'la-to'kis va sifatli bajarilishi uchun ishlab chiqarishning muntazam yoki umumiy rahbarlari-direktor, uning o'rinbosarlari, bo'gin va bo'limlar boshligi, shuningdek, xizmat ko'rsatish bo'limlari rahbarlari - kadrlar bo'limi boshligi, reja-iqtisod bo'limi boshligi va boshqalar mas'uldirlar.

Bu vazifalar tashkiliy boshqaruv orqali hal etiladi. Buning ob'ektlari: boshqaruv tizimlarini hamda struktura(tuzilma)larini shakllantirish, boshqaruv funktsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini va boshqa qoida yoki tartiblarni (reglament) ishlab chiqishdan iboratdir. Sug'urta boshqaruvining funktsiyalarini rivojlantirish *ma'muriy, iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik usullar* yordamida amalga oshiriladi.

Qarorlarning qabul qilinishi odatdagi va istiqbolli boshqarishning muhim ob'ektlari bo'lishi mumkin. Istiqbolli boshqarishda uzoq muddatli maqsadlarni qo'yish sug'urta kompaniyasining kelajakda hayotiyiligin ta'minlash yo'llarini belgilab beradi.

Joriy boshqaruvda muayyan vazifalarni hal qilish;

Ularni insoniy, moddiy, axborot va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash jarayonini muvofiqlashtirish;

Erishilgan natijalar bo'yicha tahlil va nazoratni ta'minlash;

Zarur hollarda tegishli tuzatishlar kiritish bo'yicha qarorlar qabul qilish.

Sug'urta faoliyatining joriy va istiqbolli boshqaruv ob'ektlari:

1. Sug'urta tashkilotini boshqarish;

❖ sug'urta tashkilotining asosiy parametrlarini tanlash;

❖ sug'urta xizmatlarining turlari va hajmini aniqlash;

❖ sug'urta sohasida zarur insoniy va moddiy resurslarni o'zlashtirish uchun tadqiqot usullarini rivojlantirish;

❖ marketing faoliyatini asosiy yo'nalishlari;

❖ o'zaro tuzilmaviy bo'linmalari;

❖ hududiy tarmoq boshqaruvi tizimi;

❖ yangi sug'urta mahsulotlarini yaratish;

❖ nazorat qilish vazifalari;

❖ boshqa masalalar;

2. Marketing boshqaruv - reklama, sug'urta bozorida axborot va sug'urta xizmatlari, sug'urta tashkilotiga bo'lgan yangi turdagi takliflarni yig'ish joriy va istiqbolli bozor sharoitlari, raqobatchilar haqida ma'lumotlar to'plash, tahlil qilish va qayta ishlash bo'yicha vazifalar bilan shug'ullanadi;

3. Kadrlar boshqaruvi-kadrlarni tanlash, joylashtirish, ularni malakasini oshirib borish, haq to'lash va imtiyozlar belgilash, xodimlarning hayot va mehnat sharoitlarini yaxshilashdan iborat;

4. Xatarlarni boshqarish - xatarlarni aniqlash, xatarlarni baholash, xatarlarni boshqarish joyini tanlash, xatarlarning boshqarishni amalga oshirish, natijalarni baholash va xatarlarni boshqarishda uning huquqiy jihatlarini belgilash;

5. Sug'urta kompaniyasi boshqaruvining barqarorligi:

❖ sug'urta kompaniyasining byudjet va moliya rejasini tuzish;

❖ uning moliyaviy resurslarini shakllantirish va taqsimlash;

❖ sug'urta zaxiralarini joylashtirish va uni oshirish tizimini ishlab chiqish;

❖ mablag'larni investitsiyalashtirish;

❖ hozirgi va kelgusidagi moliyaviy holatni baholash va ularni mustahkamlash uchun zarur choralarni kurish;

❖ Normativ stavkalarining Davlat sug'urta nazorati tavsiyalariga muvofiqligi;

❖ vakolatli tarif siyosati va qayta sug'urtalash tizimiga o'tkazish;

6. Sug'urta xavfsizligini boshqarish:

➤ sug'urta tashkilotining tijorat siri bilan bogliq ko'rsatkichlarini qayta ishlash;

➤ xodimlarga iqtisodiy va texnik uquvlar utkazish va ularni sinovdan utkazish;

➤ ma'lumotlarni muhofaza qilish va ulardan noqonuniy foydalanishdan himoya qilishda kompaniya xodimlari va ofis xavfsizlik tizimi mas'uliyatini oshirish¹³.

Boshqarishning asosiy funksiyasi - rejalashtirmoqda. Bu vazifani amalga oshirishda, bir harakat strategiyasi, zarur rejalari va ularning ijrosini tuzilgan. Ushbu maqsadga erishish, ya'ni odamlarning birgalikdagi faoliyati, natijasida amalga oshiriladi, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish (muvofiqlashtirish vazifasi bir rahbar, shuningdek har qanday xodim sifatida bu maqsadga

¹³ David F' Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005 p 7

bajarishda foiz muayyan natijalarga erishmoqda. Bu vazifani mehnat turtki (asoslash xususiyati) yordam beradi.

2.3 Rivojlangan mamlakatlarda menejment kompaniyaning ravnaq topishi va zaruriy sharti sifatida

Mijozning e'tiborini tortish vositasi sifatida rivojlangan mamlakatlarda internet orqali sug'urtalash keng yo'lga qo'yilmoqda.

Pricewaterhouse Coopers auditorlik firmasining ma'lumotlariga ko'ra¹⁴ jahon sug'urta bozorining internet aylanmalari 250 mln. dollarni tashkil etmoqda, bu esa dunyodagi internet savdolaridan tushadigan daromadlarning 2-2,5 foizini tashkil etadi demakdir. Sug'urta xizmatlarini internet orqali sotib olishning keng tarqalishi internetdan foydalanuvchilar sonining ortishidan tashqari, internet orqali shartnomalar tuzishning soddaligi va tezligi bilan asoslanadi. Internet maydonlaridagi taxlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, sug'urtachilarining saytida shartnoma tuzadiganlar uchun maxsus chegirmalar mavjud bo'lib, ular ba'zi hollarda 20 foizgacha yetadi.

Internet orqali sug'urtalash bozori 90- yillarning o'rtalarida AQSHda vujudga keldi. Birinchi bo'lib sug'urta brokerlari o'z saytlariga ega bo'ldilar va keyinchalik ularni barcha turdagi sug'urta xizmatlarini taklif qiluvchi yirik sug'urta portaliga aylantirdilar. Internet orqali sug'urtalash bozoridagi yirik sug'urta portallariga 1994 yilda vujudga kelgan FindMyInsurance.com va 1995 yildan beri faoliyat yuritib kelayotgan Ins.web.com kabilarni misol keltirish mumkin. AQSHda internet orqali sug'urtalash bozorining rivojlanish bosqichi 1996-1998 yillarga to'g'ri keladi. Bu davrga kelib ushbu sektorning yirik liderlari paydo bo'ldi.

2000 yilda AQSHda «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi internet orqali sug'urtalashning rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi. SHundan so'ng sug'urta kompaniyalari o'z mijozlarining sug'urta polislarini to'g'ridan to'g'ri elektron manzillariga yuboradigan bo'ldilar. Odatda polisini pochta orqali yoki vakil orqali yuborishga o'rtacha 10 AQSH dollari miqdorida mablag' sarflanar edi.

Internet orqali sug'urtalash xizmatlari G'arbiy Evropada hali AQSHdagidek on line bozor darajasiga etmagan. Moliyaviy xizmatlarni internet orqali sotuvchi saytlar Evropada nisbatan kam, shu sababli on line savdolaridan keluvchi daromadlar xam shunga yarasha kamdir.

Sug'urtachi uchun o'zining saytini yaratish yoki hamkorlarining saytlarida o'zi haqida ma'lumotlarni berishdan maqsad sug'urta xizmatlari savdosini rag'batlantirishdir. Sugurta xizmatlaridan keladigan foydani oshirish uchun sug'urta kompaniyalari quyidagilardan¹⁵:

¹⁴David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Proccess 2005 p 9

¹⁵ David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers. An Analysis of the Proccess 2005,

- sug'urta kompaniyasining axborot berish xususiyatiga ega saytlaridan;
- sug'urta kompaniyasining virtual ofisi hisoblanuvchi saytlardan;
- bir necha sug'urta kompaniyalari xizmatlarini bir vaqtning o'zida taklif qilish imkoniyatini beruvchi sug'urta portallaridan foydalanadilar.

Xorijiy amaliyotda keng foydalanish sazovor "inson munosabatlari maktabi". Uning vakillari mehnat muammolar turki o'rganmoqda, odamlar xulq. ish o'z qiziqish amalga oshiriladi. Olimlar jamoasi har bir a'zosi ko'ksini rag'batlantirish, faoliyatini boshqaruvini takomillashtirish qulay ma'naviy va psixologik-mantiqiy muhitini yaratish siyosatini olib borish uchun tavsiyalar.

Amalda, malakali sug'urta kompaniyalari, vakolatli Manager mohirona, kompaniya bir maqsadga tanlang boshqarish va ushbu maqsadga bajarilishini kuzatib borish va erishilgan natijalar ob'ektiv baho berishga qobiliyatini ajratib turadi¹⁶.

Muhim sug'urta kompaniyasi faoliyati rahbarlari va xodimlaridan aniq ular talip kerak gol tushunish. maqsadi tiniqligi eng optimal echimlarni topish, tashabbuskorlik, ijodkorlik, odamlarni chaqiradi.

Joriy boshqaruvda muayyan vazifalarni hal qilish;

Ularni insoniy, moddiy, axborot va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash jarayonini muvofiqlashtirish;

Erishilgan natijalar bo'yicha tahlil va nazoratni ta'minlash;

Zarur hollarda tegishli tuzatishlar kiritish bo'yicha qarorlar qabul qilish.

Sug'urta faoliyatining joriy va istiqbolli boshqaruv ob'ektlari:

1. Sug'urta tashkilotini boshqarish;

❖ sug'urta tashkilotining asosiy parametrlarini tanlash;

❖ sug'urta xizmatlarining turlari va hajmini aniqlash;

❖ sug'urta sohasida zarur insoniy va moddiy resurslarni o'zlashtirish uchun tadqiqot usullarini rivojlantirish;

❖ marketing faoliyatini asosiy yo'nalishlari;

❖ o'zaro tuzilmaviy bo'linmalari;

❖ hududiy tarmoq boshqaruvi tizimi;

❖ yangi sug'urta mahsulotlarini yaratish;

❖ nazorat qilish vazifalari;

❖ boshqa masalalar;

2. Marketing boshqaruv-reklama, sug'urta bozorida axborot va sug'urta xizmatlari, sug'urta tashkilotiga bo'lgan yangi turdagi takliflarni yig'ish joriy va istiqbolli bozor sharoitlari, raqobatchilar haqida ma'lumotlar to'plash, tahlil qilish va qayta ishlash bo'yicha vazifalar bilan shug'ullanadi;

3. Kadrlar boshqaruvi-kadrlarni tanlash, joylashtirish, ularni malakasini oshirib borish, haq to'lash va imtiyozlar belgilash, xodimlarning hayot va mehnat sharoitlarini yaxshilashdan iborat;

p.12

¹⁶ David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Progress 2005, p.7

4. Xatarlarni boshqarish - xatarlarni aniqlash, xatarlarni baholash, xatarlarni boshqarish joyini tanlash, xatarlarning boshqarishni amalga oshirish, natijalarni baholash va xatarlarni boshqarishda uning huquqiy jihatlarini belgilash;

5. Sug'urta kompaniyasi boshqaruvining barqarorligi:

❖ sug'urta kompaniyasining byudjet va moliya rejasini tuzish;

❖ uning moliyaviy resurslarini shakllantirish va taqsimlash;

❖ sug'urta zaxiralarini joylashtirish va uni oshirish tizimini ishlab chiqish;

❖ mablag'larni investitsiyalashtirish;

❖ hozirgi va kelgusidagi moliyaviy holatni baholash va ularni mustahkamlash uchun zarur choralarini ko'rish;

❖ Normativ stavkalarining Davlat sug'urta nazorati tavsiyalariga muvofiqligi;

❖ vakolatli tarif siyosati va qayta sug'urtalash tizimiga o'tkazish;

Boshqarishning asosiy funksiyasi - rejalashtirmoqda. Bu vazifani amalga oshirishda, bir harakat strategiyasi, zarur rejalari va ularning ijrosini tuzilgan. Ushbu maqsadga erishish, ya'ni odamlarning birgalikdagi faoliyati, natijasida amalga oshiriladi, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish (muvofiqlashtirish vazifasi bir rahbar, shuningdek har qanday xodim sifatida bu maqsadga bajarishda foiz muayyan natijalarga erishmoqda. Bu vazifani mehnat turtki (asoslash xususiyati) yordam beradi.

Xorijiy mamlakatlarda sug'urta munosabatlarining shakllanishi uzok tarixga ega. Dastlab, ibtidoiy jamoa va feodallik davrlarida natural xarakterga ega bo'lgan sug'urta fondlari, ishlab chikarishning rivojlanishi va muomalada tovar ayirboshlanishi uchun pulning paydo bo'lishi oqibatida pulli ko'rinishda tashkil etila boshlandi. SHunisi diqqatga sazovarki, sug'urtalanishi mumkin bo'lgan ob'ektlarning turli-tumanligi, keng doiradagi sug'urta hodisalarining mavjudligi tufayli murakkab o'ziga xos sug'urta munosabatlari shakllanadi. Sug'urta shartnomalarini tuzishda qulayliklar yaratish hamda sug'urta munosabatlarida qatnashuvchi tomonlarning hatti-harakatini tegishli tushuncha va iboralar orqali ifodalash muhim ahamiyatga ega. Chunki, bir tomondan sug'urtalovchi, ikkinchi tomondan sug'urtalanuvchi o'zaro munosabatga kirar ekan, sug'urta summasi yoki sug'urta mukofoti kabi iboralarni mohiyatini chuqur bilishi zarur.

Sug'urta ishini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan atamalar haqida gapirganda, birinchi navbatda, sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi tushunchalarini yoritish zarur. Sug'urtalovchi-bu sug'urta faoliyatini amalga oshirish yuzasidan litsenziyaga ega, ixtisoslashgan va tijorat asosida ishlaydigan yuridik shaxslardir. Sug'urtalovchi, ya'ni sug'urta kompaniyasi tadbirkorlik faoliyatining muhim shakli bo'lib, bunday tashkilotlarga nisbatan davlat qonun hujjatlari orqali alohida talablarni o'rtaga qo'yadi. Jumladan, sug'urta tashkiloti, o'z faoliyatini amalga oshirishdan oldin, qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yiladigan eng kam Ustav kapitaliga ega bo'lishi zarur. Bu ko'rsatkich ayrim mamlakatlarda 10 mln.AQSH dollaridan to 100,0 mln.AQSH dollarigachani

tashkil etadi. Savol tug'ilishi mumkin: nima uchun davlat sug'urta tashkilotlariga nisbatan alohida talablarni ilgari suradi? Albatta, bu savol juda o'rinlidir. Chunki, sug'urta tashkiloti o'z mijozlari oldida shartnoma talablarini bajarish yuzasidan katta mas'uliyatga ega va bu o'z navbatida bu tashkilotlarda etarli miqdorda pul mablag'larini bo'lishini taqozo etadi. Aynan, sug'urtalovchilarda katta miqdorda Ustav kapitalining mavjud bo'lishi, ularning to'lov qobiliyatini ishonchli bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro amaliyotda sug'urta munosabatlarida qatnashuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlarini anglatuvchi ibora va tushunchalar asosan quyidagilardir:

Chet mamlakatlar sug'urtasini sug'urta polisi atamasisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Sug'urta polisi - bu sug'urta kompaniyasi va sug'urtalanuvchi o'rtasida sug'urta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlovchi hujjatdir. Sobiq sho'ro davrida Davlat sug'urta organlari fuqarolarga qarashli mol-mulklarni va boshqa sug'urta turlarini amalga oshirishda "sug'urta shahodatnomasi" nomli hujjatdan foydalanishgan. Hozirgi paytda, bizning mamlakatimizda sug'urta amaliyotida sug'urta polisi "Sug'urta vasiqasi", "Sug'urta guvohnomasi" va "Sug'urta shahodatnomasi" shaklida keng ishlatiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, sug'urta polisi tushunchasi bu xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan iboradir va yuqoridagi turli ko'rinishdagi tushunchalar o'rniga sug'urta polisi tushunchasini ko'proq ishlatsak, bizning fikrimizcha xato bo'lmaydi. Chunki, bu holat chet el adabiyotlarini chuqurroq o'rganib olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda Buyuk Britaniyada sug'urta kompaniyalari ustidan nazoratni amalga oshirish savdo va sanoat departamentiga yuklatilgan. Uning tarkibida maxsus sug'urta nazorati organi mavjud. Savdo va sanoat departamenti Buyuk Britaniya hududida faoliyat ko'rsatayotgan barcha sug'urta kompaniyalariga ushbu faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya beradi. Odatda, litsenziya sug'urtaning ayrim turlari bo'yicha shug'ullanish huquqini beradi. Evropa Iqtisodiy Hamjamiyati direktivalariga muvofiq, 1978 yilning 1 yanvaridan uzoq muddatli sug'urtaning 7 turiga va umumiy sug'urtaning 18 turiga litsenziya beriladi. Sug'urtaning u yoki bu turi bo'yicha litsenziya berishdan oldin, savdo va sanoat departamenti ishonch hosil qilishi kerak, sug'urta kompaniyasi ushbu sug'urta turi bo'yicha operatsiya o'tkaza oladimi? Shuning uchun, litsenziya olishga talabdor kompaniya savdo va sanoat departamentiga ariza bilan bir qatorda boshlang'ich kapital, amalga oshirishi mo'ljallanayotgan sug'urta operatsiyalari, sug'urta polislari, sug'urta mukofoti stavkasi, operatsiya xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni berishi kerak. Shuningdek, tashkil etilayotgan sug'urta kompaniyasining rahbari va bosh buxgalteri to'g'risidagi ma'lumot ham savdo va sanoat departamentiga taqdim etiladi. Amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra, Buyuk Britaniyada faoliyat ko'rsatayotgan barcha sug'urta kompaniyalari hisobot yili tugaganidan so'ng 6 oy muddatda amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi hisobotni matbuotda e'lon qilishlari haqida savdo va sanoat departamentiga taqdim qilinishdan oldin,

mustaqil auditorlar tomonidan tekshirilib tasdiqlanishi majburiy hisoblanadi. Sug'urta kompaniyalarining hisoboti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kompaniyaning balansi;
- foyda va zararlar schyoti;
- sug'urta mukofotlari dinamikasining tahlili;
- uzoq muddatli sug'urta foizi bo'yicha ro'y bergan o'zgarishlar to'g'risida ma'lumot;

Savdo va sanoat departamenti sug'urta kompaniyalarining to'lov qobiliyati darajasiga alohida e'tiborni qaratadilar. Barcha sug'urta kompaniyalari to'lov qobiliyati darajasini qonunchilik talablariga muvofiq bo'lishlari uchun 1977 yilda evropa Iqtisodiy Hamjamiyati direktivalari va sug'urta kompaniyalari to'g'risidagi qonun bilan belgilangan iqtisodiy normativlarga, ya'ni aktiv va majburiyatlar o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikka qat'iy rioya etishlari kerak. SHunisi e'tiborliki, ushbu talablar evropa Iqtisodiy hamjamiyati hududida joylashgan kompaniyalar uchun alohida, markaziy ofisi evropa iqtisodiy xamjamiyati xududidan tashqarida joylashgan kompaniyalar uchun alohida belgilangan.

Nazorat savollari:

1. Sug'urta menejmentining iqtisodiy mohiyatini tushuntirib bering.
2. Sug'urta menejmentining funksiyalari aytib bering.
3. Rivojlangan mamlakatlarda menejment kompaniyaning ravnaq topishi va zaruriy sharti sifati deganda nimani tushunasiz.

III BOB. SUG'URTA MENEJMENTNING MAQSAD VA VAZIFALARI

3.1 Sug'urta kompaniyalar ishini tashkil etishda sug'urta menejmentining tutgan o'rni

Sug'urta faoliyati jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini himoya qilish, ularning risklar oqibatida ko'rishi ehtimol bo'lgan zararlarini qoplashning zaruriy vositasi sifatida paydo bo'ldi va rivojlandi. Shunday anglanilgan zarurat - aniq sug'urta manfaatlari negizida, sug'urta munosabatlari yuzaga keldi. Ta'kidlash lozimki, sug'urta munosabatlari murakkab va keng qamrovli moliyaviy-pullik iqtisodiy munosabatlardir. Bu o'rinda, sug'urta munosabatlari yuzaga kelishi uchun o'zaro bog'liq shart-sharoit majmuasi mavjudligi ham muhim ekanligini ta'kidlash lozimdir.

Sug'urta munosabatlari, ularning tashkiliy shakllari qandayligidan qat'i nazar, sug'urta fondini yaratish va undan foydalanish jarayonidir. Sug'urta faoliyati bozor munosabatlarining eng muhim unsuriga aylandi. "Sug'urta faoliyati deganda sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati tushuniladi".¹⁷ "Shu narsa aniqki, bugungi kunda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar... sug'urta tizimisiz samarali yshlash, investitsiya faoliyati bilan shug'ullanish, kredit olish imkoniyatiga ega emas".¹⁸

Sug'urtalovchilar faoliyati mijoz (sug'urtalanuvchi) lar bazasi bilan shakllanishi bo'yicha, sug'urtalanuvchilar esa ishlab-chiqarish faoliyatida o'zlarini shaxsiy qiziqishlarini qondirishlari bilan xarakterlanadi. Sug'urtalovchilar o'zlarining sug'urtalanuvchilari ko'payishi xamda foyda olishdan manfaatdordirlar. Chunki, boshqa iqtisodiy faoliyat turlari kabi sug'urta sohasi ham tijorat faoliyatiga tegishli bo'lib, asosiy maqsadi foyda va daromad olishdir.

Har qanday bozorda bo'lgani kabi sug'urta bozorida ham, sug'urta xizmatlari sifat jihatidan mukammalligini hamda narh jihatidan hammabop va hamyon ko'taradigan bo'lishini ta'minlovchi - raqobatdir. Sug'urta bozorida raqobat muhiti aksariyat, ma'lum darajada sug'urta kompaniyalar boshqaruvi (menedjmenti) tomonidan shakllantiriladi. Qolaversa, sug'urta menedjmenti sug'urtafaoliyatini tashkil etishda muhim tarkibiy element hisoblanib, sug'urta unumli faoliyat ko'rsatib, ishlab turishini ta'minlovchi faoliyat turlari majmuidir.

¹⁷O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni - "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2002 yil, 4-5-son, 68-modda

¹⁸Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish - eng muhim vazifamiz. Prezident I.Karimovning 1999 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2000 yilda iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Yuzilar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.//T: O'zbekiston, 2000.

Ingliz tilidan olingan "management" tushunchasi boshqaruv, tashkil etish, boshliqlikni amalga oshirmoq mazmunini anglatadi. Umumilmiy lug'atlarda ushbu tushunchaga bir nechta izoh va sharhlar mavjud:

Sug'urta menedjmenti – bu sug'urta tashkilotda ishlaydigan odamlarni o'zaro moslangan harakati orqali ushbu tashkilotni maqsadiga erishish.

Sug'urta menedjmenti – buodamiy va moddiyresurslarni o'zaro moslanganfoydalanishiorqalisug'urta tashkilotni maqsadiga erishishuchun rejalashtirish,tashkil etish,rahbarlik vanazoratjarayoni.

Vaholanki ushbu ta'riflar turli bo'lsada,shunga qaramasdan,ularni tarkibida uchta umumiybelgi bor:

- boshqarishdaalbattamaqsadmavjudligiko'rsatiladi;
- ushbu faoliyatni o'ziga xoszakovatli fe'li belgilanadi;
- boshqarish tashkilotda amalga oshirilishi ma'lum qilinadi.

Sug'urta menedjmenti – bu bozor munosabatlariga xos bo'lgan alohida boshqarish turi. Sug'urta menedjmenti boshqaruvni iqtisodiy usullariga asoslangan va sug'urta faoliyatini foyda keltirishiga va daromadliligiga qaratilgan.

Sug'urta menedjmenti – bukasbiyboshqaruvdir.Sug'urta menedjmenti – bu sug'urta kompaniya faoliyati boshqaruvini aniq sharoitlarini har tomonlama tahlil qilishiga, yangiliklar loyihalarini ishlab chiqishga,sug'urta kompaniya rivojlanishini taktikava strategiyasin iishlab chiqishga va boshqalarga qaratilgan tashkiliy faoliyatni turidir.

Menejment Amerikadan kelib chiqqan va dastlabki o'zini uy xo'jaligi yuritish qobiliyatini yoki qanakadir ishlar bajarishni anglatgan. Jamiyat, ayniqsa kapitalistik iqtisodiyot rivojlangan sari "menedjment" tushunchasi ham tabiiykie'z'gargan.

Qachonki birtalay yangi kasblar va mehnatturlari namoyon bo'lganda ayrim ko'rinishdagi faoliyat turida – boshqarish faoliyatidaehtiyozjarurat bo'ldi. Shu tarzda, menedjment odamiy faoliyatini mustaqilshakliga - ishlab chiqarishni boshqarishiga – aylanda va u mutaxassislarni ayrim guruhi – kasbiy menedjerlar tomonidan amalga oshiriladi.


Zamonaviy bosqichda menedjment o'zida boshqaruvga mehnat turi sifatida qo'yiladigan talablar xilma-xilliginiaks ettiradi. Menedjment bo'yicha zamonaviy adabiyotdaeng ko'p uchraydigan atama - "tashkilot". Keng ma'nodau umumiy maqsadga ega bo'lgan insolar (ikki yoki ko'proq)guruhini anglatadi.

Menedjment - bu boshqarishni eng unumli tashkil etish va optimallashtirish tizimi to'g'risidagi fani dir. Hozirgi paytgacha sug'urta menedjmenti tushunchasini tariflash bo'yicha yagona yondashuv yo'q.Sug'urta menedjmenti mazmuniturlichatalqin qilinadi. Iqtisodchilarning sug'urta menedjmentini ifodalovchi izoh va talqinlari xilma-xildir. Albatta, bu xol ajablanarli emas. Chunki jamiyat rivojlanishi, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarida ixtisoslashgan mehnat faoliyati doirasini ancha kengaytirdi. Iqtisodiy o'sishni tezlashtirish modellariga o'tish sharoitida yangi texnologiyalar yangi qarorlarni

talab qilganidek, ularni tushunishning ham yangi bosqichi talab etiladi. Soʻzni tormaʼnosida sugʻurta menedjmentni sugʻurta kompaniya ishchilar faoliyatini tashkil etish va boshqarish bilan bogʻlashadi; keng maʼnosida -sugʻurta kompaniya va uni ishchilar faoliyatini tashkil etish va boshqarish bilan bogʻlashadi. Sugʻurta menedjmentiga berilgan mavjud izoh va talqinlarni tahlilidan kelib chiqib, mazkur dissertatsiya ishiga asos qilib quyidagi talqinni qabul qilish mumkin: sugʻurta menedjmenti - sugʻurta kompaniya va uni ishchilar faoliyatini tashkil etish va boshqarish.

Sugʻurta faoliyatida tezkor boshqarishni obʼekti – bu faoliyat koʻrsatayotgan sugʻurta kompaniyasi. Bozor iqtisodiyot sharoitida har bir faoliyat koʻrsatayotgan sugʻurtachini ikkita muomma hayajonlantiradi: qanday qilib mijozlarga eng unumli xizmat koʻrsatish va qanday qilib boshqarish sifatini oshirish.

Sugʻurta kompaniya faoliyatini boshqarish funksiyalari quyidagi rasmda keltirilgan.



1-rasm. Sugʻurta kompaniya boshqarish sikli¹⁹

Sugʻurtamenedjmenti sugʻurtaning mazmun mohiyati boʻlib hisoblanadi. Shuning uchun ham sugʻurta kompaniyalarining sugʻurtamenedjmentning samaraliligini baholash. daromadni koʻpaytirish va sugʻurta kompaniyani bozor bohosini oshirishda birinchi qadam boʻlib hisoblanadi.

Shuni yodda tutish kerakki sobiq ittifoq davrida tijorat sugʻurtasi mavjud boʻlmaganidek, sugʻurtamenedjmentiga ham talab boʻlmagan.

Bugungi kunda Oʻzbekistonda sugʻurtaga boʻlgan qiziqish ortib borayotgan bir paytda vaziyat tubdan oʻzgargan, sugʻurta muammolariga oid boʻlgan maqolalar, darsliklar, ilmiy ishlar xajmi koʻpayib bormoqda. Ammo sugʻurta

¹⁹ Ефимов С.Л. Организация управления страховой компанией: теория, практика, зарубежный опыт. -38с.

biznesini olib borish bilan bog'liq ayrim masalalar o'z echimini topganicha yo'q. Bunday masalalardan biri sug'urtamenedjmenti bo'lib hisoblanadi.

Sug'urta menedjmentini asosiy vazifasi – sug'urtalanuvchilarning tavakkalchiliklarini samarali boshqarishdan iboratdir.

Shunday qilib, sug'urtamenedjmentning asosiy fuksiyalari bu:

- tavakkalchilikni baholash;
- adekvat sug'urta tarifini belgilash;
- sug'urta shartlarini belgilash;
- daromadli sug'urta portfelini shakllantirishdir;
- sug'urta shartnomalarini tuzish va uning shartlarini bajarish.

Xar bir sug'urta turi o'ziga xos bo'lgan menedjment xususiyatlariga ega bo'ladi. Sug'urta tavakkalchiligini va qanday sug'urta manfaati (sug'urta ob'ekti) sug'urtaga qabul qilinayotganligini bilmadan, tushunmasdan, sug'urta hodisasi yuz berishi extimolligini o'rganmasdan, kutilishi mumkin bo'lgan sug'urta tovonni miqdorini aniqlamasdan sug'urta tavakkalchiligini baholash mumkin emas.

Respublikamizdagi yuqoridagilarni amalga oshirilishi va sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 618-sonli qarori O'zbekistonda sug'urta menedjmenti rivojlanishi uchun turki bo'ldi desak xech mubolag'a bo'lmaydi.

Chunki mazkur qaror bilan "Sug'urta bozorining professional qatnashchilari to'g'risida" Nizom tasdiqlanib, sug'urta vositachilari (sug'urta agenti, sug'urta hamda qayta sug'urta brokeri), adjaster, aktuariy, asistans va sug'urta syurveyeri kabi sug'urta shartnomasi tuzilishi va shartlari bajarilishini ta'minlab beruvchi sug'urta bozori infratuzilmasi sub'ektlarning huquqiy asoslari yaratildi va O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 5apreldagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonuni bilan mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi PQ-618-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Sug'urta bozorining professional qatnashchilari to'g'risida"gi nizom bilan sug'urta bozori infratuzilmasi sub'ektlarini tashkil etuvchi sug'urta bozorining professional qatnashchilari faoliyati xususiyatlari, ularning huquq va majburiyatlari belgilab berildi.

Sug'urta ekspertizasini o'tkazishga vakolatli mutaxassislarning (ekspertlarning) ish tartibi sug'urta syurveyeri tomonidan belgilanadi. Sug'urta syurveyeri o'z faoliyatini sug'urtalovchi (sug'urta qildiruvchi) bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi. Sug'urta syurveyeri ishining natijalari bo'yicha hisobot taqdim etadi, sug'urtalovchi (sug'urta qildiruvchi) bu hisobotdan sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasi tuzish chog'ida foydalanishi mumkin.

O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta menedjmenti vazifalari, bir shaxs tomonidan emas balki sug'urta agenti, sug'urta brokeri, sug'urta syurveyeri

xamda adjaster kabi sug'urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan yoki sug'urta kompaniyalarining professional bilim va malakaga ega bo'lgan xodimlari tomonidan bajarilmoqda.

Qaltisliklarni sug'urtaga qabul qilish jarayoni metodik ta'minlanmaganlik va sug'urta bozori rivojlanib borayotgan bir payitda sug'urta kompaniyalarining mulkiy va boshqa sug'urta turlari bo'yicha sifatli menedjment amalga oshirilishiga bo'lgan talablari kuchayib bormoqda.

Sug'urta rivojlanishining tendentsiyalari, iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining manfaatlarini turli xil xavf(risk)lardan himoya qilish instrumentini tashkil etish bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda menedjment, sug'urta kompaniyasini operativ boshqarishning asosiy qismi hisoblanadi, menedjment natijalari esa ma'lum darajada sug'urta kompaniyasi operatsiyalarining natijalarini belgilab beradi.

O'zbekiston sug'urta bozoridagi raqobat menedjer oldiga yangi pog'onadagi masalalarni qo'ymoqda: qanday qilib mijozlarni ushlab qolish, qanday qilib sug'urta xizmatlari sifatini oshirish va sug'urta faoliyati rentabelligining kerakli darajasini saqlab qolish.

Bugungi kunda sug'urta kompaniyalari asosan sug'urtalanuvchilarning individual xavflari bilan ishlashda sug'urta menedjmentini tashkil etish va ushbu jarayonni boshqarishni rivojlantirish muammolariga duch kelishayotganliklari tabiiy.

Menedjmenting maqsadi sug'urta kompaniyasi tomonidan qabul qilingan menedjment siyosatida aniqlashtiriladi va unda quyidagilar aks etishi lozim:

- sug'urtalovchining majburiyatlar bo'yicha to'lovni amalga oshirishga bo'lgan moliyaviy ahvoli (sug'urtalovchining o'zida qolishi mumkin bo'lgan javobgarligi miqdori);

- sug'urtalovchining boshqa siyosatlar bilan bog'liqligi (moliyaviy, investitsion, byudjet, to'lovga oid, kadrlarga oid va x.k.);

- sug'urta portfeli risklarini boshqaruvchanligi;

- qayta sug'urta siyosatini;

- anderrayter vakolatlari va ularni asoslarini;

- zararlilik darajasini prognozi;

- raqobatchilarni va ularni sug'urta bozoridagi o'rni;

- yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan debitorlik qarzarlar;

- qonun xujjatlaridagi o'zgartirishlar va ularning sug'urtalovchining siyosatida operativ hisobga olinishi.

Sug'urta menedjmenti asosan sug'urta turiga qarab sug'urtaga qabul qilinayotgan tavakkalchilikni tekshirishdan iboratdir.

Misol uchun transport vositasini ixtiyoriy sug'urtalashda avtomashinani boshqarishga yo'l qo'yilgan shaxslar miqdori, ularning yoshi, haydovchilik tajribasi, franshizani miqdori, avtomashinani olib qochishga qarshi qo'yilgan asbob-uskunalar, tungi vaqtda avtomashinani saqlash sharoiti va boshqa shu kabi sharoitlar o'rganiladi.

Menedjmentni ishining asosiy natijasi bu daromadli sug'urta portfeli shakllantirishdan iboratdir.

Sug'urta menedjmenti daromadi deganda sug'urta portfeli xajmi va to'langan sug'urta tovonlari xajmi o'rtasidagi farqi tushuniladi.

Sug'urta shartnomasi tuzilganidan so'ng ishga qayta sug'urtlovchilar kirishadi. Bunda xam agar sug'urta shartlari umumiy shartlardan tubdan farq qiladigan bo'lsa sug'urta tavakkalchiligini qayta sug'urta berish masalasi og'ir kechadi. Bundan tashqari menedjer juda xam kichik bo'lgan tarif qo'llab qo'yishi xam mumkin. Bunda sug'urta tavakkalchiligini qayta sug'urtaga berib bo'lmay qoladi.

Ushbu jarayonning oxirida baribir albatta sug'urta portfeli daromadliligi qiziqtiradigan menedjerlar yohud aksionerlar bo'ladi.

Shu o'rinda ta'kidlash muximki, sug'urta menedjeri shuni tushunishi kerakki, uning ishini natijasi, ya'ni sug'urta shartlari va sug'urta tarifi belgilanishi uning kasbdoshlari, qolaversa butun sug'urta kompaniyasi ishini natijasini belgilab beradi. Bu esa juda katta javobgarlikdir.

3.2 Sug'urta menejmentining maqsadi va vazifalari

Sug'urta menejmenti funksiyalari ko'p qirrali tushunchadir. Shu sababli ularni muhim belgilar bo'yicha turkumlarga ajratib o'rganish zaruriyati tugiladi.

Boshqaruv funksiyalarining mohiyati, klassifikatsiya va mazmunini o'rganish boshqaruvning butun jarayonini tartibga solib turish uchun o'ta muhimdir, chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, boshqaruv mazmuni jarayon sifatida uning funksiyalarida namoyon bo'ladi.

G'arb menejmentining bugungi zamonaviy nazariyasi boshqarish funksiyalarini turkumlashda eng avvalo uning quyidagi asosiy (umumiy) funksiyalariga ustuvorlik berishadi:

- rejalashtirish;
- tashkil qilish;
- tartibga solish va muvofiqlashtirish;
- nazorat;
- rag'batlantirish (motivatsiya).

Bu funksiyalar boshqaruvning barcha bo'g'inlarida va hamma bosqichlarida quyidagi izchillikda amalga oshiriladi.

Demak, boshqarish dastlab rejalashtirishdan boshlanib, faoliyatni tashkil qilish, uni tartibga solish, muvofiqlashtirish bilan davom ettirilib, nazorat bilan tugaydi. Bu erda rag'batlantirish barcha funksiyalar jarayonida o'z aksini topadi²⁰.

²⁰ David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Proecess 2005,p.4

Bu funktsiyalar boshqaruvning hamma bosqichlariga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarga ega bo'lib, boshqaruv apparatining barcha rahbarlari va mutaxassislari faoliyatida mavjud bo'!adi. Ularni, shuningdek, boshqaruvning hamma tomonlarini qamragan funktsiyalar deyish mumkin, chunki ular boshqaruv tizimini ham bo'yiga (vertikal tomondan). xam eniga (gorizontal tomondan) qamrab oladi.

Sug'urta menejmenti funktsiyasini turkumlashning ikkinchi yondashuvida boshqarish ishini aniq ijrochilar bo'yicha taqsimlashga ustuvorlik beriladi. Bunda bir butun aniq funktsiyalar tizimi ajratiladi. Masalan, zamonaviy g'arb firmalarida ishlab chiqarishga oid 20-25 tadan kam bo'lmagan funktsiyalar ajratiladi. Bular quyidagilardir:

- asosiy ishlab chiqarishni boshqarish;
- qo'shimcha ishlab chiqarishni boshqarish;
- ishlab chiqarishga xizmat kiluvchi ishlab chiqarishni boshqarish;
- marketingni boshqarish;
- moliyaviy boshqarish;
- sifatni boshqarish;
- mehnatni boshqarish;
- xodimlarni boshqarish;
- innovatsiyani boshqarish va hokazo.

Bunday holda ishlab chiqarishni boshqarish faoliyatining ayrim turlari va sohalari alohida ajralib turadi.

Sug'urta menejmentining yuqoridagi sanab o'tilgan asosiy funktsiyalari ularning ishlab chiqarishni boshqarish jarayonidagi o'rni o'ta muhim va zarur bo'lganligi tufayli yanada batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Sug'urta menejmenti faoliyatining turlariga ko'ra, funktsiyalar quyidagicha bo'ladi:

- ◆ boshqarishning iqtisodiy funktsiyalari; ya'ni:
 - mablag'larning doiraviy oborotini amalga oshirish;
 - mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish;
 - marketing xizmatini uyushtirish;
 - foyda olishni ta'minlash;
- ◆ boshqarishning sotsial funktsiyalari, ya'ni: mehnat sharoitini yaxshilash,
- ◆ xodimlarning uy-joyga extiyojini, sotsial madaniy-ma'naviy ehtiyojlarini qondirish;
- ◆ moddiy rag'batlantirishni ta'minlash;
- ◆ ijtimoiy ximoyani ta'minlash va h.k.
- ◆ boshqarishning ma'naviy - ma'rifiy funktsiyalari, ya'ni:
 - xodimlarni insoniylik, yaxshilik, mehr-shafqatli va o'zaro munosabatlarda sabr-toqatli bo'lish ruhida tarbiyalash;

-xodimlarni Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, halollikni, adolat tuyg'usini, bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalashga xizmat qilish.

♦ boshqarishning tashkiliy funksiyalari²¹, ya'ni:

- ishlab chiqarishni tashkil qilish;

- o'zaro aloqalarni o'rnatish va muvofiqlashtirish;

- barcha bo'g'in va bo'limlar o'rtasida vazifalar taqsimoti, xuquq berish va boshqarish apparati xodimlari o'rtasida mas'uliyatlarni belgilash;

- boshqarishning aniq uslubini tanlash va karor qabul qilishda ish tartibi izchilligi, axborotlar oqimini tashkil qilish.

Qayd qilingan funksiyalar bir-biri bilan bog'liq va ma'lum darajada tartibga solingan ko'p unsurlardan, komponentlardan iborat bo'lib, ular yaxlitlikka ega. Shuning uchun boshqarish jarayonida ularning birortasi e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

Sug'urta menejmentining funksiyalaridan yana biri - bu tarmoqli boshqarish bilan hududiy boshqarishning mutanosibligini ta'minlashdir. Har bir korxonaga qandaydir bir tarmoqqa (sektorga) kiradi. Ayni vaqtda u bir tuman hududida joylashganligidan maxalliy ishlab chiqarish - hududiy kompleksiga kiradi. Boshqarish jarayonida bu funktsiya ham hududiy, ham tarmoq manfaatini ko'zda tutishi lozim. Tarmoqqa doir bo'lgan boshqaruv funksiyalari zarur. Busiz tarmoq "yo'qoladi", yagona texnik va texnologiya siyosatini amalga oshirish va butun tarmoqqa taaluqli boshqa masalalarni hal etish qiyin bo'ladi.

Biroq, ayni vaqtda, boshqarishning hududiy funksiyalari ham zarur. Bu funktsiya muayyan tuman, viloyat hududida joylashgan turli tarmoqlar (sektorlar)ga qarashli korxonalar faoliyatini muvofiqlashtiradi, ratsional aloqalarni o'rnatilishini ta'minlaydi. Hududiy funktsiyalar idorachilik govlarini yo'qotish, noratsional tashuvlarni kamaytirish va pirovardida, samaradorlik darajasini oshirish imkoniyatini beradi.

Yuqorida qayd qilingan funksiyalardan tashqari boshqarishning o'ziga xos aniq funksiyalari ham bor.

Sug'urta menejmentning o'ziga xos aniq funksiyalari deganda muayyan boshqaruv organiga va uning boshqaruvchisiga konkret biriktirilgan ishlar, mas'uliyat, maqsad va unga erishish vositalari majmuasi tushuniladi.

Tegishli funksiyalarning to'la-to'kis va sifatli bajarilishi uchun ishlab chiqarishning muntazam yoki umumiy rahbarlari-direktor, uning o'rinbosarlari, bo'gin va bo'limlar boshligi, shuningdek, xizmat ko'rsatish bo'limlari rahbarlari - kadrlar bo'limi boshligi, reja-iqtisod bo'limi boshligi va boshqalar mas'uldirlar.

²¹ David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005.p.3

Bu vazifalar tashkiliy boshqaruv orqali hal etiladi. Buning ob'ektlari: boshqaruv tizimlarini hamda struktura(tuzilma)larini shakllantirish, boshqaruv funktsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini va boshqa qoida yoki tartiblarni (reglament) ishlab chiqishdan iboratdir. Sug'urta boshqaruvining funktsiyalarini rivojlantirish *ma'muriy, iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik usullar* yordamida amalga oshiriladi.

Qarorlarning qabul qilinishi odatdagi va istiqbolli boshqarishning muhim ob'ektlari bo'lishi mumkin. Istiqbolli boshqarishda uzoq muddatli maqsadlarni qo'yish sug'urta kompaniyasining kelajakda hayotiyligini ta'minlash yo'llarini belgilab beradi.

Joriy boshqaruvda muayyan vazifalarni hal qilish;

Ularni insoniy, moddiy, axborot va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash jarayonini muvofiqlashtirish;

Erishilgan natijalar bo'yicha tahlil va nazoratni ta'minlash;

Zarur hollarda tegishli tuzatishlar kiritish bo'yicha qarorlar qabul qilish.

Sug'urta faoliyatining joriy va istiqbolli boshqaruv ob'ektlari:

1. Sug'urta tashkilotini boshqarish;

– sug'urta tashkilotining asosiy parametrlarini tanlash;

– sug'urta xizmatlarining turlari va hajmini aniqlash;

– sug'urta sohasida zarur insoniy va moddiy resurslarni o'zlashtirish uchun tadqiqot usullarini rivojlantirish;

– marketing faoliyatini asosiy yo'nalishlari;

– o'zaro tuzilmaviy bo'linmalari;

– hududiy tarmoq boshqaruvi tizimi;

– yangi sug'urta mahsulotlarini yaratish;

– nazorat qilish vazifalari;

– boshqa masalalar;

2. Marketing boshqaruv - reklama, sug'urta bozorida axborot va sug'urta xizmatlari, sug'urta tashkilotiga bo'lgan yangi turdagi takliflarni yig'ish joriy va istiqbolli bozor sharoitlari, raqobatchilar haqida ma'lumotlar to'plash, tahlil qilish va qayta ishlash bo'yicha vazifalar bilan shug'ullanadi;

3. Kadrlar boshqaruvi-kadrlarni tanlash, joylashtirish, ularni malakasini oshirib borish, haq to'lash va imtiyozlar belgilash, xodimlarning hayot va mehnat sharoitlarini yaxshilashdan iborat;

4. Xatarlarni boshqarish - xatarlarni aniqlash, xatarlarni baholash, xatarlarni boshqarish joyini tanlash, xatarlarning boshqarishni amalga oshirish, natijalarni baholash va xatarlarni boshqarishda uning huquqiy jihatlarini belgilash;

5. Sug'urta kompaniyasi boshqaruvining barqarorligi:

– sug'urta kompaniyasining byudjet va moliya rejasini tuzish;

– uning moliyaviy resurslarini shakllantirish va taqsimlash;

– sug'urta zaxiralarini joylashtirish va uni oshirish tizimini ishlab chiqish;

– mablaglarni investitsiyalashtirish;

– hozirgi va kelgusidagi moliyaviy holatni baholash va ularni mustahkamlash uchun zarur choralarni kurish;

– Normativ stavkalarining Davlat sug'urta nazorati tavsiyalariga muvofiqligi;

– vakolatli tarif siyosati va qayta sug'urtalash tizimiga o'tkazish;

6. Sug'urta xavfsizligini boshqarish:

– sug'urta tashkilotining tijorat siri bilan bogliq ko'rsatkichlarini qayta ishlash;

– xodimlarga iqtisodiy va texnik uquqlar utkazish va ularni sinovdan utkazish;

– ma'lumotlarni muhofaza qilish va ulardan noqonuniy foydalanishdan himoya qilishda kompaniya xodimlari va ofis xavfsizlik tizimi mas'uliyatini oshirish²².

Boshqarishning asosiy funktsiyasi - rejalashtirmoqda. Bu vazifani amalga oshirishda, bir harakat strategiyasi, zarur rejalari va ularning ijrosini tuzilgan. Ushbu maqsadga erishish, ya'ni odamlarning birgalikdagi faoliyati, natijasida amalga oshiriladi, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish (muvofiqlashtirish vazifasi bir rahbar, shuningdek har qanday xodim sifatida bu maqsadga bajarishda foiz muayyan natijalarga erishmoqda. Bu vazifani mehnat turtki (asoslash xususiyati) yordam beradi.

3.3 Sifatli sug'urta xizmatini ko'rsatishda sug'urta menejmenti asosiy omil sifatida

O'zbekiston Respublikasida sug'urta kompaniyalar faoliyatini boshqarish davomida quyidagi bosqichlarni belgilab berilganligini quyida keltirilgan rasmdan ko'rish mumkin:


- sug'urta mahsulotlarni sotish;
- Marketing ishlarini olib borish;
- yangi sug'urta mahsulotlarni ishlab chiqish va borini takomillashtirish;
- Ta'minlash xizmatlari amalga oshirish.

O'zbekiston sug'urta bozorida asosiy salmokni agentlar orqali sotuv, so'ng banklar va boshqa kanallar tashkil qiladi. Buning sababi shuki, sug'urta bozori endigina rivojlanish jarayonida potentsial sug'urtalanuvchiga sug'urta kabi murakkab maxsulotni tanishtirish, uning afzallik tomonlarini ko'rsata bilish va shu tarika iste'molchilar extiyojini rivojlantirish va doimiy ravishda kondirib borish vazifasini agentlar bajaradi.

O'zbekiston Respublikasida Sug'urta kompaniyalari faoliyatining taxlili shuni kursatmokdaki, Sug'urta xizmatlariga bulgan talabning shakllanishi deb potentsial iste'molchilarga maqsadli ta'sir natijasida Sug'urta xizmatlariga

²² David F. Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Procces: 2005, p. 7

bulgan talab darajasini muayyan Sug'urta kompaniyasi amalga oshirayotgan taklifiga yaqinlashtirish deb tushuniladi.



2-rasm. Sug'urta kompaniyasi boshqaruvi amalga oshiradigan faoliyatlar²³

Potensial iste'molchilarga ta'sir kursatishning quyidagi usul va vositalar: aniqmaqsadga yunaltilgan reklama, Sug'urta shartnomalari tuzish sohasidagi tashkiliy tadbirlar majmuidan, narxning shakllanishi, Sug'urta xizmatlari tariflarini tabakalashtirishdan va kushimcha xizmat kursatishlar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Sug'urta shartnomasining tuzilishi muayyan Sug'urta kompaniyasining xizmatiga bulgan talabning shakllanishining yakunlovchi bosqichidir. Bunda potensial Sug'urtalanuvchi xali Sug'urta kompaniyasining mijoz bulmaganligi sababli Sug'urta xizmatlariga talabni jonlantirishga ahamiyat berish muximdir.

Sug'urta xizmati kursatishning yukori darajada madaniyatli bulishi potentsial sugurtalanuvchilarda Sug'urta xizmatlariga talabning shakllanishi garovidir. Shuning uchun muayyan Sug'urtalovchi kursatadigan servis darajasi kancha yukori bulsa, uning Sug'urta xizmatlari talabi xam shuncha yukori buladi. Lekin servis darajasini oshirish xarajatlarni kupaytirishgi olib keladi. Bu xolda Sug'urtalovchi amalga oshiradigan marketing xizmatining vazifasi xizmat kursatish bilan Sug'urta xizmatlariga talabning iqtisodiy omillari urtasidagi uzaro nisbatning konuniyligini aniqlashdan iborat buladi. Sug'urtalanuvchilarga xizmat kursatish sifat mezoni ular tomonidan e'tirozlarni yukligi xisoblanadi.

Sug'urta kompaniyalarining faoliyati davomida Sug'urta xizmatlariga talabni shakllanishida quyidagi bosqichlarni belgilash mumkin:

- sug'urta bozorini urganish va taxlil qilish uchun kerakli axborotlarni to'plash;
- aniq sug'urta xizmati turlariga talabni urganish va ularning rakobatkodir narxlarini aniqlash;
- Sug'urtalovchining reklama faoliyatini tadkik etish.

Sug'urta bozoriga chiqishda axborotlarni to'plash birinchi galdagi vazifa hisoblanadi. Marketing axborotlari birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlardan

²³ Muallif tomonidan tayyorlangan.

iborat buladi. Birlamchi ma'lumotlar aniq masalani echish maqsadida yangitdan tuplanadi. Ikkilamchi ma'lumotlar esa mazkur muammoning echimiga tugridan – tugri boglik bulmagan va oldindan tayayrlangan ma'lumotlardir. Animo marketing axborot tizimida biror aniq bozorga kirish muammosi belgilanmaguncha ikkilamchi axborotlar urganilmaydi. Shu bilan birga ikkilamchi axborotlar tula urganilmaguncha birlamchi ma'lumotlar tuplanmaydi. Undan tashkari, birlamchi ma'lumotlarni yigish fakat ikkilamchi ma'lumotlar etishmay kolganligi uchun zarur buladi. Sug'urta kompaniyasi axborotlar to'plash orkali bozorda:

- aniq ustuvorlikka erishadi;
- moliyaviy xavfsizlikni ta'minlaydi va mavkei tushib ketishining oldini oladi;

- Sug'urtalanuvchilarning munosabatini aniqlaydi;
- tashki muxitni nazorat kiladi;
- strategiyani boshkaradi;
- faoliyatini baxolaydi;
- reklamasiga ishonchni oshiradi;
- qarorlarini asoslaydi;
- kelajagiga ishonch xosil kiladi;
- samaradorligini yaxshilaydi.

Bozorda pozitsiyalash – bu shubha tugdirmaydigan, boshkalaridan aniq fark qiladigan, bozorda eng istalغان joyda bulgan va istemolchilarning ongida turadigan sug'urta mahsulotini taminlashdir. Ana shunday xulossani xisobga olgan xolda sug'urtachi ikki yuldan borib bozorda urnini (pozitsiyasini) tanlab olishi mumkin.

Birinchi yul-uzini, mavjud sug'urtalovchi rakobatchilar bilan birga bozorda yonma-yont urib pozitsiyalash va bozor ulushi uchun kurashni boshlash. Aynan ana shu yulni tanlash sug'urtalovchining rakobatchi maxsulotidan afzalrok maxsulot yaratishga, ikkita rakobatchini etarli darajadasida oladigan bozorning kattaligiga, u rakobatchinikiga karaganda kuprok resurslarga egaligiga, tanlangan pozitsiyasi sug'urtalovchining kuchli ishchanlik tomonlarining xususiyatlariga tularok, javob berishiga bulgan ishonchi kurashishga asos buladi.

Ikkinchi yul xali bozorda paydo bulmagan va kondirilmagan extiyojini kondirishga muljallangan sug'urta maxsulotini ishlab chikib erkın segmentni egallashdir. Lekin bunday qarorga kelishdan oldin sug'urtalovchi kuyidagilarga ega ekanligiga ishonch xosil qilishi kerak:

1. Bunday sug'urta maxsulotini yaratish uchun texnik imkoniyatlarga;
2. Rejalashtirilayotgan baxolar doirasida maxsulot yaratishga bulgan iktisodiy imkoniyatlarga;
3. Bunday sug'urta maxsulotini avzal ko'ruvchi istemolchilarning etarli darajadagi mikdoriga.

Agar oldinga qo'yilgan masalalarga bo'lgan javoblar ijobiy tus olsa bu "bo'shlikni" to'ldirishning choralari qo'riladi. Sug'urtalovchi o'z o'zini topishi (pozitsiyalanish) xaqida qarorga kelgandan so'ng marketing kompleksining qolgan mayda, ishlarini ishlab-chiqish bilan shug'ullaiishi mumkin. Lekin tanlangan segmentlarni aniq muljal qilish minimal tavakkalchilikni aniqlashga karatilishi kerak. Sug'urtalovchi bozorning muayyan maqsadli bugini (segmenti) ga kirib trateg strategiyasini tanlab trategic rejalashtirish va marketing majmui (kompleksi) ni rejalashtirishga kirishadi.

Bozorlar xaridorlardan tashkil topadi, xaridorlar esa uz navbatida bir-birlaridan turli mezonlar bilan fark kiladilar, yani ularning extiyojlari mulkiy munosabatlariga muvofik turlicha buladi, moddiy imkoniyatlari olgan extiyojlari darajasiga, urf-odatleri va kiliklaridagi farklarga boglik buladi. Bu pozitsiyalarniig xar biridan bozorni segmentlarga ajratish uchun foydalanish mumkin.

Aslida xar bir xaridor bozorning aloxida bir bugini ekanligini xisobga olib, sotuvchi xar kim uchun aloxida bir marketing dasturini ishlab chiqishi lozim. Birok Sug'urta tovarlarini xar bir muayyan xaridornign extiyojini kondiradigan kilib moslashtirib bulmasa kerak. Bir-birlaridan uzlarining Sug'urta maxsulotlariga bulgan talablari va uzlarining javob tarzidagi marketing reaksiyalari bilan fark kiladigan istemolchilarning keng toifalarini aniqlash maqsadga muvofikdir.

Sug'urta menedjmentni muxim qismi – aktuar hisob-kitoblarni amalga oshirish dir.Xozirgi vaqtda mamlakatimiz sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta tariflarini ishlab chiqish va zaxiralarini shakllantirishda aktuar hisob-kitoblarning zamonaviy uslublaridan foydalanish konikarsizdir. Hali yosh tarmoq bo'lganligi sababli, bu sohada ishlovchi zamonaviy bilim va etarli darajada malakali mutaxassislarning etishmovchiligi ham sezilib turadi. Tajribali mutaxassislarning tankisligi sug'urta mahsulotini yaratishdan boshlab, uni sug'urtalanuvchilarga etkazishgacha va undan keyinga jarayonlarda yakkol namoyon bo'ladi. Bugungi kunda aktuar xizmatleri aksariyat sug'urta kompaniyalarda o'zlarining aktuar bilim talablariga javob bermaydigan xodimlari tomonidan amalga oshirilayotganligi sug'urta bozorida aktuariylar etishmasligidan dalolatdir. Chunki, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2007 yil 6 sentyabdagi 82-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Aktuariy malaka sertifikatini berish tartibi to'g'risida"gi nizom asosida aktuariy malaka sertifikatiga ega bo'lgan faqat ikkitta aktuariy mavjud.

Sug'urta shartnomasi tuzilguniga qadar sug'urta ob'ektni ko'zdan kechirish va tekshirish, sug'urta shartnomasi tuzilguniga qadar barcha faktlarni va tavakkalchilik holatlerini tahlil qilish, tavakkalchilik darajasini aniqlash xamda tekshirilayotgan sug'urta ob'ekti bo'yicha xulosa tuzish bo'yicha xizmatlar sug'urta menedjmentni ajralmas qismi dir. O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta syurveyeri vazifalari adjasterlar vazifalari bajarilishi kabi sug'urta kompaniyalarining professional bilim va malakaga ega bo'lmagan

xodimlari tomonidan bajarilmoqda. Respublikamizda aniq bir yuridik shaxs sifatida tashkil etilgan sug'urta syurveyerlik tashkiloti mavjud emas. Albatta, bu sug'urta bozori rivojlanishi va sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta qaltisliklarni qabul qilishda salbiy holatlardan biridir. Qaltisliklarni sug'urtaga qabul qilish jarayoni uslubiy ta'minlanmaganlik va sug'urta bozori rivojlanib borayotgan bir payitda sug'urta kompaniyalarining shaxsiy sug'urta turlari bo'yicha sifatlari sug'urta ekspertizani amalga oshirilishiga bulgan talablari kuchayib bormoqda.

O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta menedjmenti vazifalari, bir shaxs tomonidan emas balki sug'urta agenti, sug'urta brokeri, sug'urta syurveyeri xamda adjaster kabi sug'urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan yoki sug'urta kompaniyalarining professional bilim va malakaga ega bo'lgan xodimlari tomonidan bajarilmoqda.

Sug'urta rivojlanishining tendentsiyalari, inson, jamiyat, davlat va iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining manfaatlarini turli hil qaltisliklardan himoya qilish instrumentini tashkil etish bilan chambarchas bog'likdir. Bunda sug'urta ekspertiza, sug'urta kompaniyasini operativ boshqarishning asosiy qismi hisoblanadi, sug'urta ekspertiza natijalari esa ma'lum darajada sug'urta kompaniyasi operatsiyalarining natijalarini belgilab beradi.

O'zbekiston sug'urta bozorida raqobat sug'urta kompaniyani oldiga yangi pogonadagi masalalarni qo'ymokda: qanday qilib mijozlarni ushlab qolish, qanday qilib sug'urta xizmatlari sifatini oshirish va sug'urta faoliyati rentabelligining kerakli darajasini saqlab qolish va x.k.

Sug'urtachilarga o'z vazifalarini ado etishda tekzor va professional tarzda yordam beruvchi tashkilotlarsiz tulaqonli mukammal sug'urta bozorini shakillantirish mumkin emas. Davlat inspeksiyasi va sug'urtachilar birlashgan kuchlarning vazifasi sug'urta bozori infratuzilmasi negizini qurish, mustaqil sug'urta brokerlari, sug'urtada syurveyerlari, ixtisoslashgan huquqiy regress firmalari, reyting xizmatlari, maslaxat-taxlil markazlari, mustakillik auditorlik sug'urta korxonalari va xokazolarning yuzaga kelishiga kumak berishdir.

Ma'lumki, sug'urta menedjmenti keng qamrovli tushuncha bo'lib, u o'z ichiga sug'urta shartnomasining tuzilishidan, uning tugashigacha bo'lgan muddatni qamrab oladi.

O'zbekistonda sug'urta menedjmenti munosabatlarini rivojlantirishni quyidagi yirik yunalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- O'zbekiston sug'urtalovchilari tomonidan amalga oshirilayotgan sug'urta menedjmentini takomillashtirish uchun huquqiy asos va shart-sharoitlar yaratish;
- sug'urtalovchilar tomonidan axolini kengroq qamrab olinishi ta'minlash maqsadida, sug'urta xizmatlarini sotish yunalishlarini takomillashtirish;
- sug'urta tashkilotlarida sug'urta menedjmentini okilona va to'liq shakllantirilishini ta'minlash;
- sug'urta menedjmentidagi munosabatlarini rivojlantirish va ularning kulamini kengaytirish uchun zarur sharoitlarni yaratish.

Sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta faoliyatida amalga oshirilayotgan sug'urta menedjmentining to'g'ri yo'lga ko'yilishi, ular tomonidan sug'urtalash jarayonini sifatli va barqaror bo'lishini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Samarali sug'urta menedjmentining asosini tashkil etuvchi tarkibiy kiem bu sug'urtalovchi tomonidan ishlab chikiladigan uslubiy tizimi xisoblanadi. Uslubiy tizimini shakllantirishda sug'urtalovchi eng avvalo, amalga oshiradigan sug'urta turlarini hisobga olishi zarur. Vaholanki, uslubiy tizimi har bir sug'urta mahsuloti buyicha qaltislik omillari va sug'urtalanayotgan ob'ektlarning guruhleri to'g'risida ma'lumotlar va ularga muvofiq keluvchi sug'urta shartlarini ifodalaydi. Uslubiy tizimini shakllantirishda qaltisliklarni guruhlashning eng optimal holatini aniqlash uning samaradorligini belgilab beruvchi omil hisoblanadi. Chunki, qaltisliklarni xaddan ziyod ko'p guruhlarga ajratish ortikcha xarajat va vaqtning sarflanishiga olib kelsa, etarli darajada guruhlanmagan qaltisliklar, qaltisliklar antiseleksiyasi va tulovga noqobillikni keltirib chiqarishi mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqib, sug'urtalovchilar tomonidan uslubiy tizimini shakllantirishda qaltislik omillari va qaltisliklarning antiseleksiyasiga yul ko'ymaslikka e'tibor berish maksadga muvofiq hisoblanadi. Milliy sug'urta kompaniyalari chet el tajribasidan kelib chiqqan holda, sug'urta menedjmentini uslubiy tizimini ishlab chiqish va tadbiiq etish kerak. O'zbekiston sharoitida sug'urta menedjmentning xorijiy sug'urtalovchilarni tajribasini amaliyotga joriy etish yuzasidan tegishli tavsiyalar O'zbekiston sug'urta bozori professional katmashchilari uyushmasi tomonidan ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Uni amaliyotga tadbiiq etilishi sug'urta menedjmenti samaradorligini oshirishga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sug'urta kompaniyalarida chet el tajribalari asosida sug'urta menedjmentini avtomatlashtirish va kompyuter dasturlarini joriy etish lozim. Bu quyidagi samarani berishi mumkin:

- a) bo'limlardan axborotlarni yig'ish, tahlil etish, bo'limlar bilan axborot almashishni tezlashtiradi va moliyaviy xarajatlarni kamaytiradi;
- b) zahiralarni hisoblash, shartnomalar tuzish, tarif stavkalarini belgilash, qoplamalarni o'z vaqtida to'lanish imkoniyatini beradi;
- v) Kompaniya obro'sini oshishiga, jahon standartlari darajasida sug'urta xizmatlarini ko'rsatishga o'tishiga zamin tayyorlaydi.

Nazorat savollari

1. Sug'urta kompaniyalar ishini tashkil etishda sug'urta menejmentining tutgan o'rnini aytib bering.
2. Sug'urta menejmentining maqsadi va vazifalarini aytib bering.
3. Sifatli sug'urta xizmatini ko'rsatishda sug'urta menejmenti tutgan o'rnini aytib bering.

IV BOB. SUG'URTA TASHKILOTLARINING TASHKILIIY VA BOSHQARUV TIZIMI


4.1 Sug'urta kompaniyasi menejmenti: boshqaruv tuzilmasi

Sug'urta kompaniyasi o'z faoliyatini tijorat asosida amalga oshiradi. Ya'ni, asosiy maqsadi keskin raqobat sharoitida xarajatlarni optimallashtirgan va jamoaning butun resurslarini safarbar etgan holda samarali faoliyat ko'rsatishga qaratilgan. Sug'urta kompaniyasi menejmentiga uning qaysi mulk shaklida tashkil etilganligi katta ta'sir ko'rsatadi. Bu g'oyaning muvaffaqiyatli jihati shundaki, firmaning egasi foydasiga ishlaydigan va ko'zlangan miqdordagi foyda olish uchun harakat qiladigan firma menejerlari uchun foydali manbaa bo'lib hizmat qildi²⁴.

Ma'lumki, sug'urta kompaniyalarini amaldagi qonunchilik hujjatlariga ko'ra, davlat, aksiyadorlik va o'zaro sug'urtalash jamiyatlari shaklda tashkil etish mumkin. Ustav fondi jamiyatning aksiyadorlarga nisbatan majburiyatlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan xo'jalik yurituvchi sub'ekt aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi. Jamiyat qonun hujjatlarida taqiqlanmagan faoliyatning har qanday turlarini amalga oshirish chogida huquqlarga ega bo'ladi va majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi. Jamiyat yuridik shaxs hisoblanadi va o'zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkiga ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Sug'urta kompaniyalari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquklarini qo'lga kiritadi. Agar uning ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, cheklanmagan muddatga tuziladi.

²⁴ David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005,p.4



Sug'urta kompaniyalarining oliy boshqaruv organi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hisoblanadi. Aksiyadorlarning umumiy hisobot yig'ilishi har yili, moliya yili tugaganidan keyin kupi bilan olti oy ichida o'tkaziladi. Aksiyadorlarning umumiy hisobot yig'ilishida amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan masalalar hal qilinadi. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatlariga quyidagilar kiradi²⁵:

➤ jamiyat ustaviga (Jamiyatning Ustav fondini ko'paytirish bilan bog'liq o'zgartishlar va qo'shimchalardan boshqa) o'zgartishlar va qo'shimchalarni kiritish yoki Jamiyatning yangi taxrirdagi Ustavini tasdiqlash;

➤ jamiyatni qayta tashkil etish;

➤ jamiyatni tugatish, tugatish komissiyasini tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

➤ jamiyat Kuzatuv kengashining miqdor tarkibini belgilash, uning a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari to'xtatish;

➤ e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

➤ jamiyatning Ustav fondini kamaytirish;

➤ o'z aksiyalarini qayta sotib olish;

➤ jamiyat ijroiya organini saylash;

➤ jamiyat taftish komissiyasining a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari to'xtatish;

➤ auditorlik tekshiruvni o'tkazish, auditorlik tashkilotini va uning xizmatiga to'lanadigan hakning eng ko'p miqdorini belgilash to'g'risida qaror qabul qilish;

➤ jamiyatning yillik hisobotlarini, buxgalteriya balanslarini, foyda va zararlarini hisobotini tasdiqlash, uning foyda va zararlarini taqsimlash;

➤ aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni sotib olishda aksiyadorning imtiyozli huquqini qo'llamaslik to'g'risida qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qarorni qabul qilish;

➤ umumiy yig'ilish reglamentni tasdiqlash;

➤ aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

➤ jamiyat Bosh direktorini saylash, uning vakolatlarini muddatidan ilgari to'xtatish.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun jamiyat ijroiya organiga berilishi mumkin emas. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlak vakolatiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Jamiyatning Kuzatuv kengashiga berilishi mumkin emas, amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan masalalarni xal etish bundan mustasno. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga, shuningdek kun tartibiga uzgartirishlar kiritishga xakli emas. Ovozga qo'yilgan masala bo'yicha Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining qarori

²⁵ David F Babbel Anthony M. Saniometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005. p. 9

yig'ilishda ishtirok etayotgan Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalari egasi bo'lmish aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan kabul kilinadi.

Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishini utkazish to'g'risidagi xabar aksiyadorlarga ularning nomiga eng kamida 10 kun avval yozma xabarnoma yuborish va matbuotda tegishli axborot e'lon qilish orqali ma'lum kilinadi. Xabarda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ma'lumotlar o'z ifodasini topishi lozim. Aksiyadorlarning navbatdan tashkari umumiy yig'ilishi jamiyat kuzatuv kengashining karori bilan uning o'z tashabbusiga binoan, jamiyat taftish komissiyasi talabiga ko'ra, shuningdek talab taqdim etilgan sanada jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida o'n foiziga ega bo'lgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabi bilan o'tkaziladi.

Jamiyatning Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi, qonun bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatlariga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno. Jamiyatning Kuzatuv kengashi aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi tomonidan aksiyadorlar ichidan beshta a'zo tarkibida bir yillik muddatga saylanadi. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga binoan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolariga ular uz vazifalarini bajarib turgan davrda badal to'lanishi va (yoki) Kuzatuv kengashining a'zosi vazifasini bajarish bilan bog'lik harajatlari qoplanishi mumkin. Bunday badal va to'lovlarning miqdori Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi karori bilan belgilab qo'yiladi.

4.2 Sug'urta kompaniyalari kuzatuv kengashining vakolatlari

Sug'urta kompaniyalari kuzatuv kengashining vakolatlariga quyidagilar kiradi²⁶:

- ✓ jamiyat faoliyatining ustun yunalishlarini belgilash;
- ✓ jamiyat aksiyadorlarining yillik va navbatdan tashkari Umumiy yig'ilishlarini chaqirish, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;
- ✓ aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;
- ✓ umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning ro'yxati tuziladigan sanani belgilash;
- ✓ aksiyalarning nominal qiymatini ko'paytirish orqali yoki e'lon qilingan aksiyalarning soni va turlari doirasida jamiyat tomonidan qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish orqali jamiyat ustav fondini ko'paytirish;
- ✓ emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish to'g'risida qarorlar qabul qilish, agar jamiyat ustavida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa;
- ✓ mol-mulkning bozor qiymatini aniqlash;
- ✓ jamiyat tomonidan joylashtirilgan aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni olish to'g'risida qarorlar qabul qilish;
- ✓ jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash;
- ✓ korporativ maslahatchini tayinlash;
- ✓ ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash;

²⁶David F Babbel Anthony M. Santometeo. Risk Management by Insurers. An Analysis of the Process 2005,p 12

- ✓ aksiyalar bo'yicha dividendlar miqdori va ularni to'lash tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;
- ✓ jamiyatning zaxira va boshqa fondlaridan foydalanish;
- ✓ jamiyatning boshqaruv organlari faoliyat tartibini belgilovchi hujjatlarni tasdiqlash;
- ✓ jamiyatning vakolatxonalarini ochish hamda filiallarini tashkil etish;
- ✓ jamiyatning sho'ba va tobe korxonalarini tashkil etish.

Jamiyat Kuzatuv kengashining Raisi uning ishini tashkil etadi, Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik kiladi, majlisda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi, Aksiyadorlar Umumiy yigilishida raislik kiladi. Jamiyat Kuzatuv kengashining Raisi yo'qligida uning vazifasini Kuzatuv kengashi a'zolaridan biri bajarib turadi. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisi Kuzatuv kengashining Raisi tomonidan uning o'z tashabbusi bilan, Kuzatuv kengashining a'zosi, Taftish komissiyasi, Bosh direktorning talabiga binoan chaqiriladi.

Kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish uchun kvorum Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining etmish besh foizidan kam bo'lmasligi kerak. Kuzatuv kengashi a'zolarining soni etmish besh foizdan kam bo'lib qolsa, Jamiyat Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning favqulodda (navbatdan tashkari) umumiy yigilishini chaqirishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning ana shunday favqulodda (navbatdan tashqari) Umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagina qaror qabul qilishga haqlidir.

Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi. Jamiyat Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi. Ushbu Ustav Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lingan hollarda Kuzatuv kengashining qarorini qabul qilishda Jamiyat Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz huquqiga ega bo'lishini nazarda tutadi. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda raislik qilgan shaxs tomonidan imzolanadi, u majlisning bayonnomasi to'g'riligi uchun javobgardir²⁷.

Sug'urta kompaniyasining kundalik faoliyatiga rahbarlikni yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organ - Bosh direktor amalga oshiradi va u aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi tomonidan bir yillik muddatga saylanadi. Jamiyat ijroiya organining vakolatlariga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doyr barcha masalalar kiradi, Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining yoki Kuzatuv kengashining mutlak vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno. Jamiyat ijroiya organi Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashining karorlari bajarilishini tashkil etadi.

²⁷David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005, p 2

Bosh direktor Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifoda etadi, Jamiyat nomidan bitimlar tuzadi, shartlarni tasdiklaydi, Jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi. Bosh direktor bilan shartnomani muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish) Jamiyat Kuzatuv kengashining karoriga binoan amalga oshiriladi. Jamiyat Bosh direktorining huquqlari va burchlari qonun hujjatlari, shuningdek Jamiyat tomonidan u bilan bir yillik muddatga tuziladigan shartnomada aniqlanadi.

Jamiyat nomidan shartnomani Kuzatuv kengashining raisi yoki Kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs imzolaydi. Bosh direktor boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlaridagi lavozimlarni o'rindoshlik yuli bilan egallashiga Kuzatuv kengashi roziligi bil angina yul kuyiladi. Jamiyatning Bosh direktori o'z huquqlarini amalga oshirish va burchlarini bajarish vaqtida Jamiyatning manfaatlarini ko'zlagan holda harakat qilishi lozim. Bosh direktor qonun hujjatlari va kompaniya Ustaviga muvofiq jamiyat oldida javobgar hisoblanadi.

Aksiyadorlik sug'urta kompaniyalarida taftish komissiyasi muhim rol o'ynaydi. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish uchun aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi aksiyadorlar safidan uch a'zo tarkibida va ikki yillik muddatga taftish komissiyasini saylaydi. Jamiyat Taftish komissiyasi faoliyatining tartibi Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan Nizomda aniqlanadi. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha Taftish komissiyasining tashabbusiga binoan, Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining, Kuzatuv kengashining karoriga yoki jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida o'n foiziga egalik kiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga binoan amalga oshiriladi.

Jamiyat Taftish komissiyasining talabiga binoan Jamiyatning boshqaruv organlaridagi mansabdor shaxslar moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni unga taqdim etishlari shart. Jamiyatning Taftish komissiyasi qonun hujjatlariga muvofiq Aksiyadorlarning navbatdan tashkari Umumiy yig'ilishi chaqirilishini talab qilishga xaqli.

Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisob-kitobini yuritishi va moliya hisobotini taqdim etishi shart. Jamiyatda buxgalteriya hisob-kitobini tashkil etish, uning holati va to'g'ri yuritilishi, tegishli organlarga har yilgi hisobot va boshqa moliya hisobotlari, shuningdek aksiyadorlar, kreditorlar va ommaviy axborot vositalariga Jamiyat faoliyatiga doir ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgarlik qonun hujjatlariga muvofiq ijroiya organi zimmasida bo'ladi. Jamiyatning Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishiga taqdim etiladigan yillik hisobotidagi, buxgalteriya balansidagi, foyda va zararlar hisobotlaridagi ma'lumotlarning to'g'ri ekanligi Jamiyatning taftish komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi lozim²⁸.

²⁸]David F.Babbel Anthony M.Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005,p.10

Ko'rsatib o'tilgan hujjatlarni matbuotda e'lon qilishdan oldin Jamiyat yillik moliya hisobotini har yilgi tekshirish va tasdiqlash uchun Jamiyat yoki uning aksiyadorlari bilan mulkiy manfaatlar negizida bog'liq bo'lmagan auditorii jalb etishi shart. Jamiyatning yillik hisoboti Aksiyadorlarning yillik Umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida 30 kun oldin Kuzatuv kengashi tomonidan dastlabki tarzda tasdiqlanishi lozim. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatining tekshiruvi soliq va moliya organlari, boshqa davlat organlari tomonidan ularga berilgan vakolatlar doirasida, shuningdek zarur bo'lgan hollarda - tuzilgan shartnomalar asosida auditorlik xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi.

Jamiyatni qayta tashkil etish amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda, Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining qarori bilan qo'shib yuborish, birlashtirish, bo'lish, ajratib chiqarish va qayta tarzida amalga oshiriladi.

Jamiyat:

- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra;
- Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq sudning qaroriga asosan;
- Amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra tugatilishi mumkin.

Jamiyat tugatilgan taqdirda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tugatish komissiyasini tuzadi, tugatishni o'tkazish tartibi va muddatini belgilaydi, kreditorlarga nisbatan da'vo qo'yish muddatini belgilaydi va bu muddat tugatish haqida e'lon kilingan vaqtdan e'tiboran ikki oydan kam va uch oydan ko'p bo'lishi mumkin emas, tugatishni sud qaroriga binoan amalga oshirish hollari bundan mustasno. Tugatish komissiyasi yoki Jamiyatni tugatish ishlarini olib borayotgan har qanday boshqa organ Jamiyat joylashgan manzilidagi rasmiy matbuotda uning tugatilishi va kreditorlar tomonidan talab kuyish tartibi va muddati haqidagi xabarni e'lon qiladi. Kreditorlar tomonidan talablar qo'yish muddati Jamiyat tugatilishi haqidagi habar e'lon kilingan vaqtdan boshlab ikki oydan kam bo'lmasligi lozim. Tugatish komissiyasi kreditorlarni aniqlash va debitorlik qarzlarni olish choralarini ko'radi, shuningdek jamiyat tugatilishi haqida kreditorni yozma ravishda xabardor qiladi.

Kreditorlar tomonidan talablarni qo'yish uchun belgilangan muddat tamom bo'lganidan keyin Tugatish komissiyasi oraliq tugatish balansini tuzadi, bu balans Jamiyat mol-mulkining tarkibi, kreditorlar qo'ygan talablar ro'yxati, shuningdek, ularni ko'rib chiqish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Oraliq tugatish balansini tugatilayotgan Jamiyatni davlat ro'yxatidan o'tkazgan organ bilan kelishilgan holda Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

Agar tugatilayotgan Jamiyat ixtiyoridagi pul mablag'lari kreditorlarning talablarini qondirish uchun etarli bo'lmasa, tugatish komissiyasi Jamiyatning boshqa mol-mulkini kim oshdi savdosi orqali sotadi.

Tugatilayotgan Jamiyat kreditorlariga pul summalarini to'lash tugatish komissiyasi tomonidan amaldagi qonun hujjatlarida belgilab kuyilgan navbat tartibida, oraliq tugatish balansiga muvofiq, u tasdiqlangan kundan boshlab amalga oshiriladi. Kreditorlar bilan hisob-kitob qilish tugatilgan jamiyat ixtiyorida qolgan mulk Tugatish komissiyasi tomonidan amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan

tartibda aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi. Davlat ro'yxatiga olish organi tomonidan yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga tegishli yozuv kiritilgan vaqtdan e'tiboran Jamiyatni tugatish yakunlangan, Jamiyat esa tugatilgan hisoblanadi.

4.3 Sug'urta kompaniyalar faoliyatida sugurta xizmatlarini tashkil etilishi

Sug'urta kompaniyasida samarali tashkiliy tuzilmaning asosiy tamoyili o'z mijozlari ehtiyojini sug'urta xizmatining bahosi va sifati orqali qondirishni nazarda tutib ish ko'rish bilan bog'liqdir. Kompaniyaning asosiy vazifasi sug'urta xizmatlarini sotish bo'lib, investitsiya, yuridik, texnik, aktuar hisob-kitoblar bo'limlari unga xizmat qiluvchilar hisoblanadi.

Hozirgi paytda jahon amaliyotida sug'urta xizmatlarini sotishning bir nechta usullari mavjud²⁹. Ular quyidagilardan iborat:

- maxsus sug'urta vositachilari-brokerlar orqali;
- bevosita sug'urtachining ofisida;
- sug'urta xizmatlarini sotish asosiy vazifasi hisoblanmaydigan mustaqil vositachilar - banklar, supermarketlar, pochta bo'limlari orqali;
- sug'urta agentlari orqali;
- telefon yoki internet orqali.

Sug'urta xizmatlarini sotishning qulay va arzon usuli bu polisni to'g'ridan to'g'ri sug'urtachining ofisida yoki kompaniyaning biror bir shahobchasida sotish hisoblanadi. Bu usulning kamchiligi shundaki, u kam sonli, ya'ni sug'urta xizmatlarini mustaqil tanlab sotib oluvchi mijozlarga mo'ljallangan.

Agentlik shahobchalari sug'urta xizmatlarini sotishda nisbatan samarali tarmoq hisoblanadi. Bu usulning ustunligi shundaki, agent mijozlar o'rtasidan keragini tanlab, unga taklifning muhimlik darajasini va sug'urta polisining zarurligini etkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. SHuning uchun ham agentlar faoliyati faol bo'lmagan mijozlar bilan ishlashda, hamda sotilishi murakkab hisoblangan sug'urta xizmatlarini amalga oshirishda samara beradi. SHu bilan bir qatorda agentlik shahobchalaridan foydalanish qimmatga tushadi va raqobat bozorida ularni ta'minlashga ketadigan xarajatlar yig'iladigan sug'urta mukofotlarining 60-65 foizgacha qismini tashkil etadi.

Keyingi paytda rivojlangan mamlakatlarda sug'urta xizmatlarini banklar orqali sotishga alohida e'tibor berilmoqda. Bunda sug'urtalanuvchilar bank mijozlari bo'ladi. Sug'urta xizmatlarini amalga oshirishning bu usuli unchalik ham qimmat hisoblanmaydi. Bunda bank xizmatlarini ko'rsatuvchi xodimlar maxsus kurslardan o'tib mijozlarga sug'urta xizmatlarinin ko'rsatishlari mumkin bo'ladi. Afsuski, mamlakatimizda sug'urta xizmatlarini banklar orqali sotish yo'lga qo'yilmagan.

Hozirgi kunda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda asosan uzoq muddatli xayot sug'urtasi polislari banklar orqali sotiladi. SHuni ta'kidlash lozimki, banklarda bu turdagi sug'urta xizmatlarni ko'rsatish bugungi kunda, ayniqsa, istiqbollidir.

²⁹ David F.Babbel Anthony M. Sautometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Progres* 2005,p.12

Sug'urta xizmatlarini sotishda u yoki bu usulning samaradorligi mijoz sug'urta xizmatini sotib olish haqida qaror qabul qilayotgan vaqtda aniqlanadi. Sug'urtada qaror qabul qilish murakkab jarayon bo'lib, u bir necha bosqichlardan iboratdir. Agar sug'urtachi muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lsa, bu bosqichlarining har birida mijozga ma'lum darajada ta'sir o'tkazishi kerak bo'ladi³⁰.

Yuqorida biz sug'urta xizmatlarini sotishning bevosita usullarini ko'rib chiqdik. Lekin so'nggi yillarda rivojlangan mamlakatlarda sug'urta xizmatlarining bilvosita savdosiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bilvosita savdoda sug'urta xizmati biror bir boshqa xizmat, masalan bank xizmati bilan birgalikda sotiladidi. Bilvosita savdoda samaraga erishish uchun sug'urta polisining narxi asosiy xizmat narxiga nisbatan pastroq bo'lishi lozim.

Mijozning e'tiborini tortish vositasi sifatida rivojlangan mamlakatlarda internet orqali sug'urtalash keng yo'lga qo'yilmoqda.

Pricewaterhouse Coopers auditorlik firmasining ma'lumotlariga ko'ra³¹ jahon sug'urta bozorining internet aylanmalari 250 mln. dollarni tashkil etmoqla, bu esa dunyodagi internet savdolaridan tushadigan daromadlarning 2-2,5 foizini tashkil etadi demakdir. Sug'urta xizmatlarini internet orqali sotib olishning keng tarqalishi internetdan foydalanuvchilar sonining ortishidan tashqari, internet orqali shartnomalar tuzishning soddaligi va tezligi bilan asoslanadi. Internet maydonlaridagi taxlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, sug'urtachilarining saytida shartnoma tuzadiganlar uchun maxsus chegirmalar mavjud bo'lib, ular ba'zi hollarda 20 foizgacha etadi.

Internet orqali sug'urtalash bozori 90- yillarning o'rtalarida AQSHda vujudga keldi. Birinchi bo'lib sug'urta brokerlari o'z saytlariga ega bo'ldilar va keyinchalik ularni barcha turdagi sug'urta xizmatlarini taklif qiluvchi yirik sug'urta portaliga aylantirdilar. Internet orqali sug'urtalash bozoridagi yirik sug'urta portallariga 1994 yilda vujudga kelgan FindMyInsurance.com va 1995 yildan beri faoliyat yuritib kelayotgan Ins.web.com kabilarni misol keltirish mumkin. AQSHda internet orqali sug'urtalash bozorining rivojlanish bosqichi 1996-1998 yillarga to'g'ri keladi. Bu davrga kelib ushbu sektorning yirik liderlari paydo bo'ldi.

2000 yilda AQSHda «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi internet orqali sug'urtalashning rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi. SHundan so'ng sug'urta kompaniyalari o'z mijozlarining sug'urta polislarini to'g'ridan to'g'ri elektron manzillariga yuboradigan bo'ldilar. Odatda polisni pochta orqali yoki vakil orqali yuborishga o'rtacha 10 AQSH dollari miqdorida mablag' sarflanar edi.

Internet orqali sug'urtalash xizmatlari G'arbiy Evropada hali AQSHdagidek on line bozor darajasiga etmagan. Moliyaviy xizmatlarni internet orqali sotuvchi saytlar Evropada nisbatan kam, shu sababli on line savdolardan keluvchi daromadlar xam shunga yarasha kamdir.

³⁰David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Proccess 2005.p.

³¹David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Proccess 2005.p.9

Sug'urtachi uchun o'zining saytini yaratish yoki hamkorlarining saytlarida o'zi haqida ma'lumotlarni berishdan maqsad sug'urta xizmatlari savdosini rag'batlantirishdir. Sugurta xizmatlaridan keladigan foydani oshirish uchun sug'urta kompaniyalari quyidagilardan³²:

- sug'urta kompaniyasining axborot berish xususiyatiga ega saytlaridan;
- sug'urta kompaniyasining virtual ofisi hisoblanuvchi saytlardan;
- bir necha sug'urta kompaniyalari xizmatlarini bir vaqtning o'zida taklif qilish imkoniyatini beruvchi sug'urta portallaridan foydalanadilar.

Xizmatlarini bozorga olib chiqishdan manfaatdor sug'urta kompaniyalari ma'lumotlarni o'z internet saxifalarida joylashtiradilar. Bunda kompaniya faoliyati, vakolatxonalari, faoliyatiga daxldor ma'lumotlarni xamda boshqa marketing va reklama ma'lumotlarini berishi mumkin. Barcha joylashtirilgan ma'lumotlar faqat ma'lumot berish xususiyatiga ega bo'lib, sug'urta xizmatlarni bozorga olib chiqishning dastlabki bosqichida mijozlarni jalb qilishda foyda beradi.

Sug'urta kompaniyasining sayti virtual ofisga aylanishi uchun sayt quyidagilarni, ya'ni:

- tanlangan sug'urta turi va to'ldirilgan arizaga ko'ra sug'urta polisiga buyurtma berish, rasmiylashtirish va sotishni o'z ichiga olishi;
- sug'urtalanuvchi uchun yig'ilgan sugurta mukofotlari va to'langan sug'urta qoplamlari haqidagi ma'lumotlarni o'zida aks ettirishi zarur.

Agar sug'urta kompaniyasining sayti yuqoridagi talabga javob bersa, uni to'laqonli virtual ofis deyish mumkin. Internet vakolatxonaga tashrif buyurgan har bir mijoz o'zini tizimda ro'yxatdan o'tkazishi lozim, shundan so'ng u sug'urta mukofotini hisoblash uchun arizani zarur ma'lumotlar bilan to'ldiradi hamda mijoz o'ziga mos to'lov turini tanlaydi, bu plastik kartochna orqli, naqd yoki naqd pulsiz shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari mijoz polisni qanday olish usulini ham tanlaydi, bu vositachi orqali yoki bevosita kompaniyaning ofisida bo'lishi mumkin. Shunday modelga asoslangan saytlar sug'urta xizmatlarni sotishda yaxshi samara beradi deb hisoblaymiz.

Sotish hajmini oshirish va yangi mijozlarni jalb qilish maqsadida sug'urta kompaniyalari o'z takliflarini yirik sug'urta kompaniyalari ma'lumotlarini o'zida mujassamlashtirgan portallarda joylashtirishlari mumkin. Portalga kirgan mijoz turli sugurta kompaniyalari tomonidan taklif qilinayotgan aynan bir turdagi sug'urta xizmatlari narxini solishtirishi, u yoki bu turdagi sug'urta xizmatlari tarkibiga yana qanday qo'shimcha xizmatlar kiritilganligidan xabardor bo'lishlari mumkin bo'ladi.

Bunday portal savdo ishtirokchilarini on line³³ tizimda sug'urta polisini sotib olish mumkin bo'lgan yagona virtual sug'urta tizimiga birlashtiradi. Bitta portalda

³² David F. Babel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005. p.12

³³ David F. Babel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005. p.11

turli kompaniyalar xizmatlari taklif qilinadi. Odatda portalga tashrif buyurgan mijozga, avvalo, o'ziga kerakli sug'urta dasturini tanlash taklif qilinadi, shundan so'ng sug'urta kompaniyasi tanlanadi. SHuningdek bitta virtual maydonda bir vaqtning o'zida bir nechta sug'urtachilarning bir turdagi sug'urta xizmatlarini taklif qilishlari orqali sug'urtalanuvchiga tanlash imkoniyati beriladi. Portalning axborot tizimi avtomatik tarzda sug'urta mukofotlarini xisoblab, sug'urtalanuvchiga turli kompaniyalarda sug'urtalash bo'yicha variantlarni taklif qiladi. Sug'urta portallari modeli ommaviy standart hisoblanuvchi risklardan sug'urtalashga juda qulaydir.

Ommaviy standart hisoblanuvchi sug'urta turlariga hayot sug'urtasining barcha xillarini, baxtsiz xodisalar sug'urtasi, kasalliklar sug'urtasi, transport vositalari sug'urtasi, fuqorolarning mol-mulki sug'urtasi, avtotransport vositalarining uchinchi shaxslar oldidagi javobgarligi sug'urtasini kiritish mumkin.

Bugun rahbardan talab qilinadigan narsa tashabbuskorlik, ilg'or mehnat madaniyati tajribasini joriy etishda fidoyilik, odamlar kayfiyatini bilish, ular tashvishi bilan yashash, yangi ish joylarini yaratish, xalqning ma'naviy va moddiy faravonligini ta'minlashdir. Prezident kadrlar faoliyatiga baho berib, ularni uch toifaga bo'ladi.

Birinchi toifa - eski tuzumni qo'rsab yurgan kishilar. Ikkinchisi, eng xavfli - imonsiz, e'tiqodsiz kishilardir. Bundaylarga vatan manfaati begona, ular shaxsiy huzur-halovat, mansab uchun hech narsadan toyimaydilar. Vatan manfaati, mustaqillik manfaatini hamma narsadan ustun qo'yadigan, qalbida o'ti va erk tuyg'usi bor, g'ayratli, kuyunchak yana bir toifa kadrlar borki, mening butun umidim va ishonchim ana shulardan, dedi Prezident. Bular hozircha ozchilikni tashkil etadi, tajribalari ham kam. Lekin men Prezident sifatida etishib kelayotgan mana shu fidoyi. qalbi olov avlod vakillarining joylarda rahbarlik qilishini istayman. Har bir rahbar biz taklif etayotgan islohotlarni qalbdan his etsin, uni bajarishga qodirmi-yo'qligini o'ylab ko'rsin, qadamini shunga qarab qo'ysin.

Rahbar xodimlarni qabul qilish madaniyatiga ega bo'lishi lozim. Chunki, xodimlarni qabul qilish, ularning tashvishlariga quloq solish, og'irlarini engil qilish har bir rahbarning burchi va vazifasi hisoblanadi. Shuning uchun ham qabul madaniyatiga rioya qilish uchun rahbar quyidagilarga e'tibor bermog'i lozim:

- suhbatdoshingizni qancha vaqtingiz borligi to'g'risida ogohlantiring;
- faqat suhbatdoshingiz gaplariga mo'ljal olib vaziyatni ko'z oldingizga keltiring;

- to'xtatib bo'lmaydigan, uzil-kesil munozaradan o'zingizni tiying;
- o'z fikringizni ishonchli va batafsil ayting;
- o'z g'oyangizni izchillik bilan bayon eting;
- ovozingizni baland qilmasdan gapiring, so'zlaringiz dona-dona va ravon bo'lsin;

- qarshi tanbeh hollarda o'zingizga nisbatan tanqidiy yondoshing;
- shunchaki fikrlash yoki haqiqatdan ham shunaqami-bular o'rtasidagi farqni biling;

- savollarni shunday tuzingki, ularni tushunish bir xilda bo'lsin;
- muammo muhokamasini aniq echim bilan tugating;

- ishni qalashtirmang. Zudlik bilan ko'rsatma bering;
- suhbatdoshingizning yumushi o'zi uchun o'ta muhim ekanligini unutmang.

Qabulingizda bo'lgan kishining muommosini echish imkoniyatingiz bo'lmagan taqdirda ham siz u kishini samimiy, iltifot bilan kuzating va xayrxohlik bilan ishining o'nglanib ketishiga umid bag'shida eting. Umuman xizmat yuzasidan qabul chog'ingizda quyidagi qoidaga rioya qilsangiz nur ustiga a'lo nur bo'lur edi:

Uchrashuv chog'ida - xushfe'llik.

Quloq solish chog'ida - e'tibor, rag'bat.

Bahslashuv chog'ida - ko'p narsani bilishga qiziquvchanlik.

Tanqid chog'ida - o'zini tuta bilishlik.

Tashkilotda rahbarlardan qaysi biri, qanday masala yuzasidan kishilarni qabul qilishi aniq belgilab qo'yilishi zarur. Bo'ysunuvchilarni iltimosiga ko'ra qabul qilganda rahbar ularga iltimos va takliflarini qisqa bayon qilishni o'rgatishi lozim. Agar rahbar o'zi taklif qilib qabul etsa, bo'ysunuvchi bu haqda oldindan xabardor qilinishi kerak. Suhbat chog'ida ishonch muhitini vujudga keltirish lozim, suhbatdoshni majbur qilish, sha'nini pastga urish mumkin emas. Har qanday muammoni muhokama qilish chog'ida o'zaro to'g'ri munosabat o'rnatish uchun rahbar hamma vaqt o'zida muayyan fazilatlar va rahbarlik uslubini hosil qilishga intilish kerak. Kishilar bilan ochiq va to'g'ri muomalada bo'lish, do'stona munosabat o'rnatish, doim bir xil muomala qilish, mayda ishlar yuzasidan tortishmaslik, o'z xatolarini tan ola bilish va hokazolar shunday fazilatlar jumlasiga kiradi.

Nazorat savollari:

1. Sug'urta kompaniyasining menejmenti deganda nimani tushunasiz.
2. Sug'urta kompaniyasining boshqaruv tuzilmasi deganda nimani tushunasiz.
3. Sug'urta kompaniyalari kuzatuv kengashining vakolatlariga nimalar kiradi.
4. Sug'urta kompaniyalar faoliyatida sugurta xizmatlarini tashkil etilishi deganda nimani tushunasiz.

V BOB. SUG'URTA TASHKILOTLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMI

5.1 Risk tushunchasini iqtisodiy mohiyati va mazmuni

Risk-bu iqtisodiy kategoriya bo'lib, uning miqdorini kamaytirish diversifikatsiya, limitlashtirish, o'z-o'zini sug'urtalash va sug'urtalash kabi moliyaviy usullar yordamida amalga oshiriladi.

Sug'urta munosabatlarida sug'urta riski tushunchasi ham uchrab turadi. Sodir bo'lishiga qarshi sug'urtalanuvchi hodisaning taxminiy ro'y berishi sug'urta riski deb ataladi. Shunday keyin riskning yuz berish chastotasi hamda bir risk yuz berish oqibatlari tahlil qilinadi va ularning kompaniyaga ta'siri baholanadi. Bunda sug'urtalash mumkin bo'lgan va sug'urtalash mumkin bo'lmagan risklarga ajratish masalasiga e'tibor qaratilmaydi³⁴.

Xalqaro amaliyotda «Risk-menejment» degan atama tez-tez ishlatilib turiladi. Yirik sanoat ishlab chiqarish konsernlari va kompaniyalari o'z tarkiblarida risklarni boshqarish bilan shug'ullanadigan bo'linmalarga ega. Ular nafaqat, ehtimol tutilgan xavf-xatarlarni oldindan bashorat qilishadi, balki ularni kamaytirish, oldini olish va cheklash bo'yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqadilar. Bu chora-tadbirlarni amaliyotga tadbiiq etish mazkur kompaniya va konsernlarni raqobat sharoitida barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

Riskning bo'lishi uch xil natijani berishi mumkin: salbiy hol (zarar), o'zgarishsiz (nollik), ijobiy (foyda) bo'lishi mumkin.

Risk hodisasini ro'y berishini bashorat qilish va uning darajasini kamaytirish riskni boshqarish orqali ta'minlanadi. Riskni samarali boshqarish ko'p jihatdan uni to'g'ri tasniflashga bog'liq. Riskni ilmiy asoslangan holda tasniflash umumiy risk tizimida har bir riskning o'rmini aniqlash imkoniyatini beradi. Bu o'z navbatida har bir riskga mos keluvchi boshqaruv uslubini qo'llashga shart-sharoit yaratadi. Risklarni ehtimol tutilgan natijasiga ko'ra ikkita katta guruhga ajratish mumkin (sof risklar, sun'iy risklar).

Ma'lumki, sug'urta firmalar faoliyatida riskni boshqarish texnikalari tahlilini korxonaning moliyaviy o'zgarishlari sabablarini qayta ko'rish bilan boshlash maqsadga muvofiqdir. Sug'urta firmalar uchun har doim risklarni boshqarish siyosatini olib boorish haqidagi fikr manbaalari 1984-yilga borib tarqaladi. O'sha yili Stulz bu masalaga birinchilardan bo'lib oydinlik kiritdi va uning bu hissasi keng miqyosda mashhur bo'ldi va Bu rja ona dabiiyotining boshlanish nuqtasi bo'lib xizmat qildi³⁵.

Sof risklarga quyidagilarni kiritish mumkin: tabiiy, siyosiy, transport va tijorat risklarining bir qismi (mulkiy, ishlab chiqarish va savdo).

Sun'iy risklar yuz berishi ham salbiy, ham ijobiy natija olish ehtimolini ifodalaydi. Bunday risklarga tijorat riskining bir qismi bo'lgan moliyaviy risklar

³⁴Қаранг: Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 1993. p.325

³⁵David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Proccess 2005, p.5

kiradi. Risklar paydo bo'lish sabablariga ko'ra tabiiy, ekologik, siyosiy, transport va tijorat risklariga bo'linadi. Tabiiy risklar tarkibiga zilzila, suv toshqini, bo'ron, chaqmoq urishi, yong'in va har xil yuqumli kasalliklarni kiritish mumkin. Atrof-muhitni ifloslanishi bilan bog'liq risklar ekologiya risklarini tashkil etadi. Masalan, orol dengizida suv hajmining keskin kamayib ketishi orol bo'yi mintaqasida istiqomat qiladigan aholi sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Siyosiy risklar bevosita hukumat tomonidan urush holatlarini e'lon qilinishi, harbiy harakatlar, fuqarolar g'alayonlari, ish tashlashlar, davlat tuzumining o'zgarishi, qonunchilik hujjatlarining o'zgarishi natijasida zarar ko'rishni anglatadi. Siyosiy risklardan farqli ravishda tijorat risklari moliyaviy-xo'jalik faoliyatni amalga oshirish jarayonida yuzaga -kelishi mumkin bo'lgan ziyon ko'rish xavfini bildiradi.

Tijorat risklari mulkiy, ishlab chiqarish, savdo va moliyaviy risklarni o'z ichiga oladi. Mulkiy risklar deganda o'g'irlik, diversiya, sovuqqonlik va texnologik tizimlarning ishdan chiqishi natijasida vujudga keladigan risklar tushuniladi. Risklarni ro'y berishi natijasida asosiy va aylanma fondlarni nobud bo'lishi va zararlanishi mumkin. Bunday risklar ishlab chiqarish risklari deyiladi. Moliyaviy risklar moliyaviy resurslarni yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq risklarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, likvidlilik, boy berilgan foyda bilan bog'liq risklar ham mavjud.

Riskni baholash uchun uni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- sug'urtalanishi mumkin bo'lgan risklar;
- sug'urtalanishi mumkin bo'lmagan risklar.

Riskning eng katta guruhini sug'urtalanishi mumkin bo'lgan risklar tashkil etadi. Sug'urta riskini sug'urta qilinmaydigan risklardan quyidagilar bilan farq qilish mumkin.

1) Risk tasodifiy xarakterga ega bo'lmog'i kerak;

2) Sug'urta hodisalarini ro'y berish faktining vaqti va makonining noma'lum bo'lishi;

Riskka qarshi harakatlar 4 guruhga bo'linadi³⁶:

- A) Menejerlarning shaxsiy qiziqishlari
- B) Soliqlarning noteksili;
- C) Moliyaviy tanqislik darajasi;
- D) Kapital bozorni mukammalligining mavjudligi.

Xavf solish manbaasiga ko'ra risklar tabiatning stixik kuchlari bilan bog'lik risklari va moddiy boylikni o'zlashtirish oqibatida insoniyatni tabiatga ta'siri bilan bog'lik risklarga bo'lishimiz mumkin. Risklarni turkumlashda katta halokatli risklar alohida o'rin tutadi. Chunki bunday risklar ro'y berishi natijasida ko'plab ob'ektlar yirik miqdorda zarar ko'rish mumkin. Katta xalokatli risklarga zilzila, sunami, kuchli shamol misol bo'lishi mumkin. Yuqorida aytilgan risklardan tashqari ekologik, siyosiy va maxsus risklar bo'lishi mumkin.

Shuningdek sug'urta kompaniyasini boshqaruvchilar uchun kompaniyaning jamg'arib qo'yish pozitsiyasini qisqa muddatli qilib belgilash noqonuniydir va firmaning faoliyat yuritishi bilan bog'liq bo'lgan investitsiyalarni muntazam o'zgartirish yoki o'zlarini tushumdan mahrum qilib ko'rsatishlari muammoli

³⁶ David F Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Proccess 2005, p.2

vaziyatdir. Lekin oshkora tarzda o'zini foydadan mahrum qilib ko'rsatish menejmentning shaxsiy investitsiya profilini yashirishni talab qilishi mumkin. Bundan tashqari, o'zaro sug'urtalashda firma faoliyatining maxsus risklarini bartaraf qilish yana ham qiyinroqdir.

Risklarni ro'y berishini oldini olish, bartaraf etish va kamaytirishda ularni boshqarish alohida ahamiyatga molik. Yuqorida qayd etganimizdek, risklarni boshqarish tizimi chet mamlakatlarda «risk-menejment» nomi bilan mashhurdir. Risk-menejment moliyaviy menejmentning bir qismidir. Risk menejment deganda, muayyan riskni aniqlash, bashorat qilish, oldini olish va uni kamaytirish bilan bog'liq chora-tadbirlar yig'indisi tushuniladi. N.V.Xoxlovning fikricha risklarni boshqarish - bu ko'p pog'onali jarayon bo'lib, uning asosiy maqsadi ko'ngilsiz hodisalar ro'y berishi natijasida ob'ektga shikast etganda ko'rilgan zararlarni qoplash va kamaytirishdan iborat. Bu jaryonlar quyidagilardan iborat:

- riskni tahlil etish;
- risklarni taqqoslama samaradorligini baholashda unga ta'sir etuvchi metodlarni tanlash;
- qaror qabul qilish;
- riskka bevosita ta'sir ko'rsatish;
- nazorat va boshqaruv jarayoni natijalarini ixchamlashtirish.

Riskni tahlil etish risk-menejmentda boshlang'ich bosqich bo'lib, u risk xususiyatlari va tuzilishi to'g'risida muayyan ma'lumot olish imkoniyatini beradi. Tahlil natijasida olingan ma'lumotlar keyingi bosqichlarda riskni boshqarish bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilish uchun asos bo'ladi.

Risklarni tahlil etish uni aniqlash va baholashdan iborat. Riskni aniqlash jarayonida uni paydo bo'lish sabablari va vujudga kelishiga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi. Bir so'z bilan aytganda, riskning sifat jihatlari aniqlanadi. Riskni baholash - bu aniqlangan riskni miqdoriy tasniflash bo'lib, unda zarar ko'rish ehtimoli va miqdoriga e'tibor qaratiladi. Riskni yanilash va uni baholash bir-biriga juda ham yaqin, ularni ajratish qiyin. Keyingi bosqichda riskka ta'sir etish usullari va uslublari ko'rib chiqiladi. Odatda, riskni kamaytirishning bir nechta variantlari ishlab chiqiladi va qiyoslash asosida ko'proq samara beradigan usul qo'llaniladi. Ana shunday keyin bevosita qaror qabul qilinadi va riskka ta'sir ko'rsatiladi.

Agar mazkur bosqich risklarni baholashga olib kelgan bo'lsa, unda ushbu risklarni boshqarish usullari muhokama qilinadi. Sug'urta bu jarayonni qismi hisoblanadi. Chunki u riskni noaniqlik hududidan (zarar bo'ladimi yoki yo'qmi) aniqlangan qiymat hududiga (mukofotlar hajmi) o'tkazadi³⁷.

5.2 Risklarni boshqarishda sug'urtaning tutgan o'rni va ahamiyati

Riskga tizimli yondashuvning zarurligi risklar ustidan nazorat o'rnatish va ularni boshqarish xarajatlar, barcha ierarxiya darajasida omilidir. Risklarni boshqarishga

³⁷ Қапайр: Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute. Great Britain, 1993. p.325

tizimli yondashuv alohida unsurlarning ta'siri hisobga olgan holda barcha hodisa va jarayonlar yaxlit tizimda ko'riladi.

Tizimli yondashuv quyidagilarda ko'rishimiz mumkin.

- faoliyat xavfsizligini ta'minlash maqsadi geosiyosiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy jarayonlarni

- iqtisodiy strukturani xaddan tashqari katta risklardan himoya qilishdir. Agar risklarni boshqarishda muvofiqlashtirish maqsadiga erishilmasa ijobiy natijaga erishish qiyin.

- bitta ob'ekt va jarayon bilan bog'liq risklar omillar yig'indisi sifatida qaraladi.

- risklarni boshqarishning tizimi samarasi va resurslar xarajatlari bilan bog'liq holda qaraladi. Bunday bog'liqlik davlat, korxon va fuqaro darajasida bo'ladi.

- risklarni boshqarish chora-tadbirlari tovar ishlab chiqarish qismi bo'yicha ishlab chiqiladi. Masalan, ishlab chiqarish ekspluatatsiya qilish, hisobdan chiqarish

- Operatsiyalar hisobini tayyorlash, o'tqizish, hisob-kitoblarni tayyorlashda risk darajasini kamaytirishni nazarda tutish lozim.

- korxon sikllarini turli darajasida risklar me'yorini chegaralash zarur. Masalan, uchishni o'tkazishni tekshirishda, uning apparatining nosozligi, samolyotga va fuqarolarga ziyon etkazishi mumkin. SHu sababli risklarni boshqarishda samolyot bortidagi yuk og'irligi bo'yicha chegaralar o'rnatish maqsadga muvofiq.

- risklarni boshqarish o'zining xarakatiga va taktikasiga ega bo'lishi kerak

- riskni boshqarishga fan va san'at kabi muomalada bo'lishi kerak

Risklarni boshqarish bo'yicha qarorlar klassifikatsiyasi quyidagilardan iborat.

Har qanday boshqarishni markaziy evenosini qarorlar tashkil qiladi. Qarorlar klassifikatsiyasi risklarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi.

Qabul qilingan sohasiga qarab qarorlar, tashqi siyosiy, ichki siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy, texnologik, konstruktorlik, ekspluatatsiyalarga guruhlanishi mumkin. Ushbu qarorlar bir tizimda bir-biri bilan bog'liqdir. Masalan, agar konstruktor sifatsiz o'z ishini bajarsa, ishlab chiqaruvchi ishlab chiqargan mahsulotining narxini pasaytirishiga majbur bo'ladi. Bunda ichki siyosiy qarorlar orqali (soliq imtiyozi va boshqa) qo'llab quvvatlash mumkin.

Risklarni boshqarish jarayonining joyiga qarab:

- maqsad talab qiluvchi risk, risk marketingi, risk menejmentlariga bo'linishi mumkin. Maqsad talab qiluvchi risklar bo'yicha qarorlar juda kam hollarda o'rganiladi va shakllantiriladi. Risk marketingida riskni boshqarish instrumentlarini yoki usullarini tanlash bo'yicha qaror qabul qilinadi. Risk menejmentida odamlar – resurslar – maqsadalar o'rtasida munosiblikni saqlash bo'yicha, qarorlar qabul qilinadi. Risklar nisbatan qarorlar va amaliy, harakat ogohlantirish, kamaytirish, sug'urta qilish, yo'qotishlarni o'z ichiga oladi.

Alternativ qarorlar imkoniyatlari menejer oldiga chora-tadbirlar o'rtasida taqsimlashni optimallashtirish vazifasini qo'yadi:

1. Uning paydo bo'lish manbasini yo'qotish yo'li bilan risk haqida ogohlantirish (Masalan, texnologik jaryonni shunday o'zgartirish kerakki, xavf yo'q bo'lishi kerak):

2. Riskni sodir bo'lishiga olib keluvchi faktorlar intensivligini kamaytirish orqali, risk miqdorini kamaytirish (Masalan, shartnoma shartlariga shartlarni bajarmaganligi uchun kam miqdorda shtraflar yozilishini ta'minlash);

3. Risk sodir bo'lishi natijasida yuzaga kelgan zararni qoplash (Bunday hollarda jamg'armani sug'urta qilish shartnomalari tuziladi). Sug'urta hodisasi ro'y bergan hollarda va zarar yuzaga kelgan vaqtda olingan qoplama hisobidan zararni qoplaydi.

Agar ogohlantirish yoki xavfni kamaytirish usuli tanlansa, u holda xavfsizlikni ta'minlash va nazoratni tashkil qilish xarajatlari o'rtasidagi kontrolsha topilishi va ekspluatatsiya rejimiga rioya qilinishi ta'minlanishi lozim.

Tovarlarga bo'lgan ishonchni mustahkamlash orqali risk miqdori kamaytirilishi mumkin.

Risk sodir bo'lish ehtimoli quyidagicha kamaytirish mumkin!

- operatsiyani yoki namunani rejalashtirishda qo'shimcha unsurlar va chora-tadbirlar kiritish;

- Qaror qabul qilish jarayonida qaror samarasiga baho berish kriteriyalaridan foydalanish;

- operatsiyani bajarish jarayonida belgilangan talabalarga va texnologiyalarga to'liq rioya qilish;

Qabul qilinayotgan har-bir chora tadbirning o'ziga xos xarajati va natijasi bo'ladi. Shuning uchun ba'zi hollarda ogohlantirish yoki risk miqdorini kamaytirishdan ko'ra sodir bo'lgan hodisa zararini qoplash afzal bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, agar risk boshqaruvi bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida risk miqdorini kamaytirish kam samara berishi aniqlansa, u holda o'zining faoliyatini sug'urta qilish maqsadga muvofiq.

Agar sug'urta qilish maqsadga muvofiq deb topilsa, u xalq sug'urtaning jamg'armasi yoki jamg'armasiz shaklini tanlash masalasini sug'urtachi echishi lozim. Bundan keyin jamg'arma instrumentidan yoki sug'urta instrumentidan foydalanish lozimligi aniqlanadi.

Yondoshishga binoan, menejmentida quyidagi ko'irinishidagi risk qarorlarini ko'rsatish mumkin: an'anaviy, tizimli, situatsiyali, ijtimoiy-etnik menejment.

Istiqloq samarasi bo'yicha riskni boshqarishda bir-xil, sintrik, assinnegrik qarorlar variantlarini o'rsatishimiz mumkin.

Bir xil risk qarorida samara birligiga to'g'ri keluvchi resurs harajatlari ushbu tarmoq uchun belgilangan normaga mos keladi.

Sinnegrik risk qarorida riskni boshqarish bilan bog'liq resurs harajatlari samarasi keskin oshadi, sinnegrik risk qarorlar xavfsiz yangi texnologiyalar ishga tushirilgan vaqtlarda qabul qilinadi. Risk boshqarishning sinegrik samarasi har qanday vaqtda pul mablag'ida ifoda bo'ladi. SHuning uchun sinegrik samara texnologik jarayonda mehnatni tashkil qilishda va moliya sohasida uchraydi.

Moliyaviy boshqaruvda sinegrik samara ko'pincha samara richagi yoki leviridj deb ham ataladi.

Risk boshqarishiga qilingan sarmoyadan belgilangan sarmoya normasi olinishi kutilmasa bunday qarorlar sinegrik deb ataladi. Bunday qarorlarning asosiy sababi

qaror bajarilishini paysalga solish, kerakli resurslarning etishmasligi , tashkiliy masalalarning yo'qligi konfliktga olib keluvchi qarorlar qabul qilinishi.

Bir xil risk qarorlarini quyidagi turlarga ham bo'lishimiz mumkin:

- 1) samarali;
- 2) ratsional;
- 3) optimal

Samarasiz turi risk muammosini etmaydi. Ratsional turi risk muammosini etadi. Optimal turi risk muammosini eng qulay ko'rinishda etadi.

Muhimligini inobatga olgan holda, qisqa vaqt davomida qabul qilingan riskni boshqarish qarorlarini quyidagilarga bo'lishimiz mumkin: Real vaqt uchun zarur bo'lgan tizim. Ushbu tizimga muvofiq ob'ektini tezlik bilan, operativ boshqarish uchun zarur bo'lgan qarorlar qabul qilinadi. Krizis bilan bog'liq qarorlar ushbu tizimning tarkibini tashkil qiladi. Krizisli qarorlar asosan ob'ektini nazorat qilish nazorat ostidan chiqish arafasida boshqarib bo'lmay qolgan hollarda qabul qilinadi.

Riskni boshqarish orqali ma'lumotni olish risklarini ham kamaytirishga harakat qilinadi. Jamiyatda globallashuv jarayonining chuqurlashuvi natijasida ma'lumot o'ynaydi. Ma'lumotlar mos ravishda risk paydo bo'lish asosiy manbalaridan biri bo'lmoqda. Qaror qabul qilish asosiy shartnomalaridan biri ma'lumot shartlaridir. Norbert Viner quyidagilarni ma'lumot to'g'risida bayon qiladi: «Informatsiya ob'ektini boshqarish, atrof – muhit, boshqaruv natijasi to'g'risidagi bilimlarning mavhumlik darajasini kamaytiradi».

Riskni boshqarish qarorini qabul qilishda foydalaniladigan ma'lumotlar quyidagi turlarga guruhlanadi: aniq, tasodifiy, noaniq.

Riskni boshqarish samarasi nafaqat ma'lumot sifatiga bog'liq, balki olingan ma'lumotlar qay usul bilan qayta ishlanishiga, tahlil qilinishiga ham bog'liqdir.

Menejmentda quyidagi uslubiy yondoshuvlar mavjud. An'anaviy, tizimli, situatsion.

An'anaviy menejmenti boshqaruvning har qanday sub'ektlari uchun qo'l keluvchi uslubiy yondoshuvlardan foydalaniladi.

Tizimli menejmentida umumiylikni tashkil qiluvchi qismlar alohida e'tibor bilan o'rganiladi.

Situatsion menejment uchun aniq bir qabul qilingan shakl va shablon bo'lmaydi. Har bir holat alohida o'rganiladi.

Risk qarorlarini algoritmik – bu aniq, oldindan belgilangan ma'lumotni shakllantirish jarayonidir. Qarorlarni tayyorlash jarayonining mantiqiy bajarilishi .

Har qanday tizimda ikki turdagi qarorlar tayyorlanadi va realizatsiya qilinadi:

Algoritmizatsiya qaror – bu aniq belgilangan ketma-ketlik. Har bir ketma-ketlik jarayoni vaqt va muddat, harakat va javobgarlik bo'yicha aniq belgilanadi. Bunday qarorlar byurokratik tashkilotlarda va boshqaruvning avtomatik rejimida foydalaniladi:

Noaniq qarorlarda harakatlar va ularni bajarish vaqti aniq belgilanmaydi. Majburiyatlar ham aniq taqsimlanmaydi.

Risk qarorlarning bajarilish shartlarini o'zgarishini hisobi olishiga qarab ixcham, qattiq algoritmi tizimlarga bo'linishi mumkin.

Ixcham tizimda qarorlarni realizatsiya qilish algoritmi oldindan, bir nechta variantda belgilanadi.

Qattiq algoritmi tizimda boshqaruv ob'ektining va sub'ektlarining holatidan qat'iy nazar qaror qabul qilish va bajarishning faqat bir varianti mavjud bo'ladi.

Risk qarorlarining maxsus algoritmini ishlab chiqish tashkiliy qarorlarning sifat darajasini oshiradi va sub'ektiv faktorlar ta'sirini keskin kamaytiradi.

Umuman olganda har bir korxonaga uchun uning risk muammosini echish da unga xos bo'lgan risk qarori ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Tizimli risk menejmentda risk qarorlarini qabul qilishi algoritmini qabul qilish quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- risk muammoni aniqlash;
- zararli omillar haqida ma'lumotlar manbasi to'g'risida ma'lumot yig'ish;
- ma'lumotni tahlil uchun qulay ko'rinishda aks ettirish;
- risklar to'g'risidagi ma'lumotni ob'ekt bilan va keltirilishi mumkin bo'lgan zararlarni bog'liq holda tahlil qilish;
- har bir elementning risklar nisbatini o'rganishi;
- risklarning turli fizik tabiatini nisbiy o'rganish;
- alohida elementlarning risklari olib keluvchi zararlari nisbiy o'rganish;
- qarorlar variantlarini baholash va aniqlash;
- qabul qilish, rasmiylashtirish, bajaruvchiga etkazish, bajarish, qaror bajarilishini nazorat qilish.

An'anaviy risk menejmenti risk, qarorlarini qabul qilish algoritmi quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- risk muammoni aniqlash;
- zararli omillar to'g'risidagi ma'lumotlar manbasini yig'ish;
- tahlil uchun qulay kurinishda ma'lumotlarni aks ettirish
- ob'ektlar bilan bog'liq holda risk to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish;
- risk muammoni qarorini boshqaruv maqsadida aniqlash;
- risk muammoni oldin ro'y berganligi to'g'risidagi ma'lumotni aniqlashtirish;
- risklarni boshqarish usullarining o'rganish;
- maqsadga muvofiqligini inobatga olgan holda amalga qo'llanuvchi variant tanlash.

Situatsion risk menejmentida qaror qabul qilish algoritmi quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- risk muammosini aniqlash;
- aniq sharoit bilan bog'liq bo'lgan zararli omillar va risklar to'g'risida ma'lumot yig'ish;
- ma'lumotni tahlil uchun qulay qilib aks ettirish;
- holat risklari to'g'risidagi ma'lumot tahlili;
- muammolar diagnostikasi va holat risklarini guruhlash;
- bor resurslarni hisobga olgan holda riskni boshqarish maqsadini aniqlash;
- aniq holatda riskni boshqarish samarasini baholash kriteriisini ishlab chiqish;
- risk qarorlari variantlarining baholash aniqlash.

- qabul qilish, rasmiylashtirish bajaruvchilarga etkazish, qaror bajarilishini nazorat qilish.

Risklarni moliyaviy boshqarish algoritmi va sub'ektlarni.

Moliyaviy risklarni boshqarish risklarni boshqarishda muhim o'rin egallaydi. Chunki:

Birinchiidan, har qanday riskning natijasi moliyaviy ahvolga ta'sir qiladi. Ikkinchiidan, qo'ldagi moliyaviy resurslar miqdoriga qarab risklarni samarali boshqarish usuli tanlanadi.

Risk menejmentda markaziy harakatdagi shaxs – bu sub'ektidir. Risk sub'ekti deb riskni qabul qiluvchi shaxs va risk realizatsiyasi ehtimolini boshqaruvchi tushuniladi.

Risk sub'ektini ko'rsatish va unga tushuncha kiritish ularning maqsadi va o'rganilish yo'nalishlarini aniqlash uchun zarur.

Risk sub'ektlarining quyidagi turlarini ko'rsatamiz:

- etnos - umumiy xususiyatlar asosida yig'ilgan odamlar yig'indisi. Bunday odamlar ma'lum geografik hududida iqtisodiy faoliyat olib boradi.

Etnos elitasi – bu etnosning bir qismi bo'lib, umri nomidan boshqaruv qarorlarini qabul qiladi;

- etnos aktiv qismi – bu etnosning boshqaruv qaroriga ta'sir qiluvchi qismi. Davlat idoralari ishlab qaror bajarilishi samarasiga ta'sir qiluvchi kishilar; - tadbirkor – bu etnos a'zosi bo'lib tadbir korlik faoliyati bilan shug'ullanadi;

5.3 Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda sug'urtalovchilar tomonidan risklarni boshqarish bosqichlari

Investitsion loyihalar yuridik, jismoniy shaxslar yoxud hukumat buyurtmasi asosida ixtisoslashgan loyiha tashkilotlari tomonidan ishlab chiqiladi va yuqorida ko'rsatib o'tilgan manbalar hisobidan moliyalashtirilishi mumkin. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonida turli risklar paydo bo'ladi va ularni oldini olish, bir so'z bilan aytganda risklarni boshqarish muhim ahamiyatga ega.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda mavjud risklarni batafsil ilmiy tadqiq etishdan oldin "risk" tushunchasiga to'xtalib o'tishni joiz deb bilamiz.

Xalqaro amaliyotda «Risk-menejment» degan atama tez-tez ishlatilib turiladi. Yirik sanoat ishlab chiqarish konsernlari va kompaniyalari o'z tarkiblarida risklarni boshqarish bilan shug'ullanadigan bo'linmalarga ega. Ular nafaqat, ehtimol tutilgan xavf-xatarlarni oldindan bashorat qilishadi, balki ularni kamaytirish, oldini olish va cheklash bo'yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqadilar. Bu chora-tadbirlarni amaliyotga tadbir etish mazkur kompaniya va konsernlarni raqobat sharoitida barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

I.f.d., prof. I.T.Balabanov risk haqida o'z fikrini davom ettirib shunday yozgan edi: "insoniyat faoliyati turlari va tabiatning u yoki bu vaqeliklarini o'ziga xosligidan kelib chiquvchi yo'qotishlarning ehtimoliy xavfi risk tushunchasini anglatadi". Riskning bo'lishi uch xil natijani berishi mumkin: salbiy hol (zarar), o'zgarishsiz (nollik), ijobiy (foyda) bo'lishi mumkin".

Turli choralar ko'rish yo'li bilan riskli hodisa ro'y berishini bashorat qilish va uning darajasini kamaytirish, ya'ni riskni boshqarish mumkin. Riskni samarali boshqarish ko'p jihatdan uni to'g'ri tasniflashga bog'liq. Riskni ilmiy asoslangan holda tasniflash umumiy risk tizimida har bir riskning o'rnini aniqlash imkoniyatini beradi. Bu o'z navbatida har bir riskga mos keluvchi boshqaruv uslubini qo'llashga shart-sharoit yaratadi. Risklarni ehtimol tutilgan natijasiga ko'ra ikkita katta guruhga ajratish mumkin.

- sof risklar.
- sun'iy risklar.

Sof risklar salbiy yoki o'zgarishsiz (nollik) natijalar olish ehtimolini bildiradi. Bunday risklarga quyidagilarni kiritish mumkin: tabiiy, siyosiy, transport va tijorat risklarining bir qismi (mulkiy, ishlab chiqarish va savdo).

Sun'iy risklar yuz berishi ham salbiy, ham ijobiy natija olish ehtimolini ifodalaydi. Bunday risklarga tijorat riskining bir qismi bo'lgan moliyaviy risklar kiradi. Risklar paydo bo'lish sabablariga ko'ra tabiiy, ekologik, siyosiy, transport va tijorat risklariga bo'linadi. Tabiiy risklar tarkibiga zilzila, suv toshqini, bo'ron, chaqmoq urishi, yong'in va har xil yuqumli kasalliklarni kiritish mumkin. Atrof-muhitni ifloslanishi bilan bog'liq risklar ekologiya risklarini tashkil etadi. Masalan, orol dengizida suv hajmining keskin kamayib ketishi orol bo'yi mintaqasida istiqomat qiladigan aholi sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatyapti.

Siyosiy risklar bevosita hukumat tomonidan urush holatlarini c'lon qilinishi, harbiy harakatlar, fuqarolar g'alayonlari, ish tashlashlar, davlat tuzumining o'zgarishi, qonunchilik hujjatlarining o'zgarishi natijasida zarar ko'rishni anglatadi. Siyosiy risklardan farqli ravishda tijorat risklari moliyaviy-xo'jalik faoliyatni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziyon ko'rish xavfini bildiradi.

Tijorat risklari mulkiy, ishlab chiqarish, savdo va moliviy risklarni o'z ichiga oladi. Mulkiy risklar deganda o'g'irlik, diversiya, sovuqqonlik va texnologik tizimlarning ishdan chiqishi natijasida vujudga keladigan risklar tushuniladi. Turli omillarni ta'siri ostida, dastavval, asosiy va aylanma fondlarni nobud bo'lishi va zararlanishi oqibatida ishlab chiqarishni to'xtab qolishi tufayli ziyon ko'rish bilan bog'liq risklar ishlab chiqarish risklari deyiladi. Moliyaviy risklar moliyaviy resurslarni yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq risklarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, likvidlilik, boy berilgan foyda bilan bog'liq risklar ham mavjud.

Risklarni ro'y berishini oldini olish, bartaraf etish va kamaytirishda ularni boshqarish alohida ahamiyatga molik. YUqorida qayd etganimizdek, risklarni boshqarish tizimi chet mamlakatlarda «risk-menejment» nomi bilan mashhurdir. Rus olimi I.T.Balabanovning fikricha «risk-menejment moliyaviy menejmentning bir qismidir». Risk-menejment deganda, muayyan riskni aniqlash, bashorat qilish, oldini olish va uni kamaytirish bilan bog'liq chora-tadbirlar yig'indisi tushuniladi.


Taniqli olim N.V.Xoxlov risk-menejment haqida shunday yozadi: «Risklarni boshqarish – bu ko'p pog'onali jarayon bo'lib, uning asosiy maqsadi ko'ngilsiz hodisalar ro'y berishi natijasida ob'ektga shikast etganda ko'rilgan zararlarni qoplash va kamaytirishdan iborat».

Risklarni boshqarish yoki boshqacha aytganda risk-menejment bir qancha

bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat:

- Riskni tahlil etish.
- Risklarni taqqoslama samaradorligini baholashda unga ta'sir etuvchi metodlarni tanlash.
- Qaror qabul qilish.
- Riskka bevosita ta'sir ko'rsatish.
- Nazorat va boshqaruv jarayoni natijalarini ixchamlashtirish.

Riskni tahlil etish risk-menejmentda boshlang'ich bosqich bo'lib, u risk xususiyatlari va tuzilishi to'g'risida muayyan ma'lumot olish imkoniyatini beradi. Tahlil natijasida olingan ma'lumotlar keyingi bosqichlarda riskni boshqarish bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilish uchun asos bo'ladi.




1-chizma. Risklarni boshqarish bosqichlarini quyidagi chizmada aks ettiramiz³⁸

Chizmadan ko'rinib turibdiki, risklarni tahlil etish uni aniqlash va baholashdan iborat. Riskni aniqlash jarayonida uni paydo bo'lish sabablari va vujudga kelishiga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi. Bir so'z bilan aytganda, riskning sifat jihatlarini aniqlanadi. Riskni baholash – bu aniqlangan riskni miqdoriy tasniflash bo'lib, unda

³⁸Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган

zarar ko'rish ehtimoli va miqdoriga e'tibor qaratiladi. Riskni aniqlash va uni baholash bir-birga juda ham yaqin, ularni ajratish murakkabdir. Amaliyotda aksincha, risk aniqlanmasdan avval uni baholashga o'tiladi. Keyingi bosqichda riskka ta'sir etish usullari va uslublari ko'rib chiqiladi. Odatda, riskni kamaytirishning bir nechta variantlari ishlab chiqiladi va qiyoslash asosida ko'proq samara beradigan usul qo'llaniladi. Ana shunday keyin bevosita qaror qabul qilinadi va riskka ta'sir ko'rsatiladi. Riskka ta'sir ko'rsatish jarayonini quyidagicha tasvirlash mumkin (chizmaga qarang).



2-chizma. Riskka ta'sir ko'rsatish jarayoni³⁹

Riskni kamaytirish ehtimol tutilgan zarar miqdorini kamaytirish yoki ko'ngilsiz hodisa ro'y berish holatini kamaytirishni nazarda tutadi. Riskni saqlash tijorat banklarida yoki boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda riskni bartaraf etish yoki kamaytirishdan butunlay voz kechishni anglatmaydi. Banklarda ehtimol tutilgan zararlarni qoplash uchun o'ziga xos zahira fondlarini, ya'ni o'z-o'zini sug'urtalash fondlarini tashkil etish mumkin. Masalan, tijorat banklari ixtiyorida qaytib kelishi dargumon bo'lgan kreditlar bo'yicha zahira shakllantiriladi.

Riskni uzatish, o'z-o'zidan ma'lumki, ushbu risk uchun javobgarlikni boshqa tashkilotlarga berishdir. Jumladan, sug'urta tashkilotlari tegishli haq evaziga investitsion loyihalarni moliyalashda mavjud risklarni qabul qilib olishlari va ular uchun javob berishlari mumkin.

³⁹ Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган

Nazorat savollari:

1. Risk tushunchasini iqtisodiy mohiyati va mazmuni deganda nimani tushunasiz.

2. Risklarni boshqarishda sug'urtaning tutgan o'rni va ahamiyati tushuntirib bering.

3. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda sug'urtalovchilar tomonidan risklarni boshqarish deganda nimani tushunasiz.

4. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda sug'urtalovchilar tomonidan risklarni boshqarish bosqichlarini aytib bering.

VI BOB. SUG'URTA FAOLIYATI BOSHQARUV TIZIMIDA MARKETINGNING O'RNI

6.1 Sug'urta kompaniyalarida marketing faoliyatini tashkil etishning nazariy asoslari

Sug'urta marketingi sug'urta qiluvchi va sug'urtalanuvchining o'zaro manfaatlari va ehtiyojlarini hisobga olishga yo'naltirilgan munosabatlarni tizimidir. Sug'urta marketingi deganda ko'pincha sug'urta qiluvchi tomonidan iste'molchining ehtiyojlarini imkon qadar to'la qondirish orqali foydani maksimallashtirish tushuniladi. Sug'urta marketingini bunday ifodalash bir muncha tor bo'lsada, bugungi kunda keng tarqalgan va asosiy ta'rif bo'lib hisoblanadi. Sug'urta marketingi umumiy marketingdagi kabi, o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- ❖ bozorni va o'z sug'urta portfelini tadqiq etib borish;
- ❖ sug'urta mahsulotlari (xizmatlari) ga bo'lgan talabni ishlab chiqish;
- ❖ sug'urta mahsulotlarini bozorga olib chiqish.

Bozorni tadqiq qilish bu – ehtimoldagi mijozlar guruhlaridan sug'urta xizmatiga jalb etilgan taqdirda sug'urta qiluvchiga eng ko'p foyda ketirishi mumkin bo'lganlarini topish nuqtai nazaridan o'rganishdan iborat. Sug'urta bozorini o'rganish bu bozorni tabaqalashtirilishini, ya'ni maqsadga muvofiq tabaqalarni ajratib olinishini ko'zda tutadi va ehtimoldagi mijozlarning quyida keltirilgan xususiyatlarini hisobga olish orqali amalga oshiriladi.

- ✓ mijozlarning sug'urtaga ehtiyojlari;
- ✓ jug'rofiy va ijtimoiy-siyosiy taqsimlanishi;
- ✓ iste'molchilarning to'lov qobiliyati;
- ✓ sug'urta mahsulotidan foydalanishga rag'bat uyg'otish maqsadida mijozlarga reklama yoki boshqa vositalar orqali ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari;
- ✓ mijozlarni kompaniyaga jalb etish qiymati;
- ✓ mijozlarning sug'urta ehtiyojlari va qiziqishlari evolyusiyasining yo'nalishlari;
- ✓ sug'urta bozoridagi raqobatning va raqobatchilarning ehtimoldagi xatti-harakatlari;
- ✓ sug'urtalanuvchilarning turiga ko'ra sug'urta holati vujudga kelishi xatarliligi darajasini baholash;
- ✓ ehtimoldagi sug'urtalanuvchilarning turli toifasi uchun sug'urta holatining o'rtacha qiymatini baholash.

Sug'urta portfelini tadqiq etish bu – sug'urta holatlari vujudga kelishi ehtimollarini tahlil qilish va mijozlarning turli xususiyatlariga: jug'rofiy joylashuvi, kasb-kori, faoliyat turi, jinsi, yoshi, sug'urtalanayotgan mol-mulk yoki boshqa boyliklar ustidagi xatarning xususiyatiga bog'liq ravishda kompaniya uchun ana shu sug'urta holatlari qiymatini hisoblashdan iboratdir.

Sug'urta mahsulotlariga bo'lgan talabni ishlab chiqish bu – ana shu mahsulotning sug'urtalanuvchilar manfaatlarini eng ko'p darajada qanoatlantiradigan va iste'molchilik qiziqishlariga sug'urta mahsulotini tashkil etish jihatidan mos keladigan xususiyatlarini aniqlash jarayonidir. Bu o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- ✓ sug'urtalash uchun qabul qilinayotgan manfaatlar (sug'urta ob'ektlari);
- ✓ sug'urta xatarlari (sug'urtaning qoplanishi);
- ✓ sug'urta mahsulotining narxi;
- ✓ sug'urtalovchi tomonidan zararni qoplashdan tashqari taqdim etiladigan qo'shimcha xizmatlar;

✓ sug'urta shartnomasi amal qilgan muddatda mijozga ko'rsatiladigan xizmatning to'laligi va sifati.

Sug'urta mahsulotlarini bozorga olib chiqish quyidagilardan iborat:

✓ mavjud sug'urta mahsulotlari va ularning ijobiy xususiyatlari to'g'risida ehtimoldagi iste'molchilarni boxabar etish, ehtimoldagi sug'urtalanuvchini sug'urta qoplanasini sotib olish zarurligiga ishonitirish ya'ni sug'urta mahsulotining maqsadli reklamasi;

✓ sug'urta mahsuloti sotilishini butun sug'urta kompaniyasi to'g'risidagi tasavvur va shon-shuhratini oshirish orqali rag'batlantirish yoki sug'urta qiluvchining imij reklamasi;

✓ eng samarali sotuvni ta'min etadigan sug'urta mahsulotini etkazib berish tizimini yaratish;

✓ sug'urta qiluvchilar uchun imtyozlar, sug'urta mahsuloti sotuvchilari uchun mukofotlar tizimini joriy etish, sotuv o'tkazilayotgan joyda tanlovlar, lotereyalar, reklama o'tkazish orqali sug'urta mahsulotini o'tkazishni rag'batlantirish.

Zamonaviy marketing paydo bo'lgandan buyon bir necha bosqich bosib o'tdi. Bu o'zgarishlar maxsulotni seriyali va ommaviy ishlab chiqishi bilan bog'liq bo'ldi.

Shuningdek marketingni maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirish asoslari XX asrning boshlariga to'g'ri keladi. Chunki bu davrda keng miqyosda ishlab chiqarish rivojlanib, raqobot rivojlana boshlangan davrga to'g'ri keldi. Bu davrda marketing quyidagi bosqichlar orqali shakllana boshlandi.

Birinchi bosqich. Bu bosqich ishlab chiqarishning mujassamlashuvi, mexanizatsiyatlashuvi va avtomatlashtirilishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda marketing tushunchasi maxsulotni ishlab chiqaruvchidan xaridorgacha bo'lgan nazorat qilish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlikdan iborat edi.

Ikkinchi bosqich. Ushbu bosqich 1929-1933 yillarda yuzaga kelgan qayta ishlab chiqarishda krizis bilan bog'liq bo'lib, bunda marketing sotuv bilan bog'liq bo'lgan mazmunni yo'qotadi. Marketing bilan shug'ullanuvchi tijorat tashkilotlari tashkil etila boshlandi. SHuningdek 1926 yilda AQSHda marketing va reklama bo'yicha milliy assotsatsiya tashkil etildi va 1973 yilda Amerika marketing uyushmasiga qayta tashkil etildi. Bugungi kunda bu tashkilot o'z atrofiga 25 mingga yaqin tadqiqotchilar, biznes vakillarini birlashtirgan.

Uchinchi bosqich. Bu bosqichda marketing boshqaruv rusumidan ishlab chiqarishning bozoriga arenditorlangan tizimiga o'zgaradi. U quyidagi xolatlarni o'z ichiga olib, bunda korxonalar xoridorga kerak bo'lgan maxsulotnigina ishlab chikaradi., sotuvchi bozori xoridor bozoriga aylanadi, korxonona, firmalar ko'p maxsulot ishlab chiqarishiga yo'naltiriladi, bozorda maxsulot ko'payib raqobat keskinlashadi, aholi va korxonalar daromad ulushi ortib boradi, faqat talab uslubigina qolmasdan maxsulotni tanlash ham ortadi.

To'rtinchi bosqich. Bu bosqich marketingni mintaqalararo korporatsiyalarning faoliyatlarini muvofiqlashtiruvchi tizimga aylanishi bilan harakatlanadi. Bunda marketing rejaları xaridorning talablari maqsadlarini birlashtiradi, davlat tomonidan bozorning boshqarilishi va resurslarni baholanishi mazkur rejalariga kiritiladi. Bugungi kunda AQSH, Yaponiya, G'arbiy Evropa va boshqa rivojlangan davlatlar o'z faoliyatlarini marketingga asoslaydilar.

Masalan, 1970 yillarda 1 mln. AQSH dollar bahosidagi mahsulotning 55 senti marketingga, 45 sentni ishlab chiqarish, sotish bilan bog'liq xarajatlarni va foydani tashkil etadi.

Shu bois marketing bu - har bir xo'jalik faoliyatini yurituvchi sub'ektlarni ish faoliyatidagi xizmatlarini boshqarish hisoblanadi. SHuning uchun biz marketingni boshqarishga bo'lgan tarifni quyidagicha izohlaymiz.

Marketingni boshqarish - bu analiz, rejalashtirish, hayotga tatbiq etish va korxonaga uchun foyda keltiradigan sotish hajmini ko'paytirish, bozorda o'z mavqesini oshirish kabi korxonaga maqsadlarini amalga oshirish uchun xizmat qiladigan xaridor bilan bo'ladigan samarali ayirboshlashni tashkil qilish va mustahkamlashga qaratilgan harakatlarni nazorat qilishdir.

Marketing boshqaruvchisi ko'pincha mutaxassis sifatida yuzaga chiqib, o'z kompaniyasi ishlab chiqargan maxsulotlarni olishga qancha mijoz kerak bo'lsa, shuncha mijozni topish astoydil harakat qiladi. Marketing boshqaruvchisi faqatgina talabni yaratish va kengaytirish bilangina emas, balki talabning o'zgarishi muammolari bilan, ba'zida esa qisqartirish bilan ham shug'ullanadilar. Marketingni boshqarish vazifasi talabning darajasiga, vaqtiga va xarakteriga shunday ta'sir ko'rsatish kerakki, bunda korxonaga o'z oldida turgan maqsadlariga tuliq erishsin. Bozor tilida aytganda, marketing boshqarish - bu talabni boshqarishdir. SHuningdek har qanday marketing faoliyati bir-biriga sinonim yoki antonim ya'ni ma'nosi bir xil lekin faoliyat yo'nalishlari har xillikdan dalolat beradi.

Marketing so'zini sodda qilib ma'nosini aytganda bu- tovar va xizmatlar bozorini o'rgansh va tashkil qilish yoki bozorshunoslik ma'nosini bildiradi. Chunki, korxonaga o'z tovarlariga bo'lgan talab darajasini oldindan o'zi uchun qulay variantini ishlab chiqadi. Har qanday paytda talabning haqiqiy darajasi korxonaga uchun qulay variantdan past, unga teng yoki undan yuqori bo'lishi mumkin. SHuning uchun barcha korxonalar shu holatlar bilan marketingni boshqarib ishlashga to'g'ri keladi.

Sug'urta marketingni boshqaruvchilari - bu sug'urta kompaniyasining mansabdor shaxslari bo'lib, marketing holatlarini analiz qilish bilan rejalashtirish faoliyatlarini hayotga tatbiq qilish yoki tekshiruv funksiyasini amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi shaxslar hisoblanadilar.

Sug'urta marketingni boshqarishni asosiy mazmuni bu talabni boshqarish deb qarasa juda o'rindir. Shunday ekan biz talabni turlari va bu talabning turli xolatlarida marketingning qanday yo'l tutishini ko'rib chiqish mumkin. Bunda talabning turlari 8 ta bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Qarshi talab. Bunda bozor qarshi talabga uchragan bo'lib, sug'urta maxsulotni yoqtirmaganlar bu maxsulotni chetlab o'tish uchun xarajat qilishga tayyor bo'ladi. Bu holda marketing vazifasi - nega sug'urta bozori ushbu maxsulotni

yoqirtmayapti degan savolni analiz qilib, bu holatni marketing programmasi orqali maxsulotni o'zgartirish, narxini pasaytirish orqali hal qilish mumkinmi degan savolga javob berishi kerak.

2. Talabning yo'qligi. Xaridorlar qiziqishlari yo'q yoki umuman befarq bo'ladilar. Marketing bu holatda xaridorlarni tovarga qiziqishlarini oshirish yo'llarini topishi zarur hisoblanadi.

3. Yashirin talab. Ko'p xaridorlar o'z ehtiyojlarini namoyon qiladilar, ammo bu ehtiyojlarni qondirib bo'lmaydi. Marketing bu holatda iste'molchi talabini qondiruvchi samarali xizmatlarni yaratishi lozimdir.

4. Pasayuvchi talab. Erta yoki kech har bir korxonada talabning pasayishi bilan to'qnashadi. Marketing bunda bu tendensiyani ya'ni o'z maxsulotiga va xizmatlariga bo'lgan taklifini o'zgartirish orqali teskarisiga aylantirishi lozim.

5. Doimiy bo'lmagan talab. Ko'pchilik hollarda tashkilotlar mavsumiy, kunlik tarzda ishlaydi va ishning ortib ketishi va kamayib ketishi muammosi kelib chiqadi. Marketing bunda talabni vaqt bo'yicha taqsimlanishini egiluvchan narxlar orqali to'g'irlashi zarur.

6. Tuliq talab. Korxonada o'z savdo oboroti bilan mamnun bo'ladi. Marketing bunda mavjud talabni kechayotgan raqobatga qaramasdan saqlab turishi lozim.

7. Ortiqcha talab. Ko'p korxonalarda talab hajmi ular qondira olish hajmidan yuqoridir. Marketing bunda vaqtincha yoki doimiy talabni pasaytirish yo'llarini izlab topishlari zarur.

8. Ratsional bo'lmagan talab. Sog'liq uchun zararli bo'lmagan mahsulotlarga bo'lgan talabni kamaytirishga harakat qilish zarur. Marketing bunda har xil qo'rqinchli xabarlarini tarqatib, narxni tezda ko'tarib, odamlarni o'zi sevgan zararli odatlarini tashlashga undaydi.

Marketing boshqarish faoliyatida boshqaruv ob'ekti va sub'ekti bo'lib, ob'ekt tashkil topgan butun bir tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ob'ektlar o'zaro aloqada bo'lib, boshqaruvchi organlar sub'ekt boshqaruvchilariga doimo bog'liq ravishda faoliyat ko'rsatadi. Ular doimo aloqada bo'ladilar. Sub'ektlar deganda tovar va xizmatlarni taklif etuvchilar tushuniladi ya'ni sug'urta sohasida sug'urtalovchi yoki sug'urta faoliyatiga ixtisoslashgan sug'urta kompaniyasidir.

Marketingni boshqarishni tashkil etishning shart-sharoitlari quyidagilardan iborat:

1. Ilmiy-texnik programmani tez suratlari bilan o'stirish.
2. Katta firmalararo bozorda tovar sotishni raqobatlashuvini ko'paytirish.
3. Maxsulotga va xizmatga bo'lgan talablarni chuqur o'rganib chiqish, uning natijasida ilmiy texnika yuto'qlarini tez sur'atlar bilan amalda tatbiq etib, yangi xizmat turlarini ishlab chiqish.

4. Xaridorlar tomonidan maxsulot va xizmat sifatiga bo'lgan talabni o'stirish.


5. Konyukturani o'rganishda ma'lum mezonlarga asoslangan holda o'sish darajasini o'rganib borish.

6. Bozor sharoitida aholiga yuqori xizmat ko'rsatish darajasini o'stirish.

7. Bozorda tovar reklamalarini to'g'ri yo'lga qo'yishdir.

Shuni diqqatga sazovorki, har bir xo'jalik faoliyatini yurituvchi sub'ekt tijorat xarakatlarini intensivlashtirishni ta'minlash uchun marketing konsepsiyasini

ko'pincha adashtirishadi. Ammo ular o'rtasida juda katta farq bor. Masalan: Marketing konsepsiyasi bu - korxonaning o'z maqsadlariga erishishning kafolati hamda bozorning nimaga muxtojligini aniqlash va kerakli maxsulotlar bilan ta'minlashni boshqa raqobatchilardan samaraliroq bajarishga harakat qilishdan iborat. Bu konsepsiyasining ma'nosini quyidagi iboralardan topish mumkin: «Ehtiyojlarni qidiring va qondiring», «ishlab chiqarib sotishga harakat kilgandan ko'ra, sota oladigan mahsulotingni ishlab chiqar», «mijozlarni seving, maxsulotni emas». degan naqillar o'z o'rniga egadir. Tijorat xarakterlarini intensivikasiya qilish konsepsiyasi bu-xaridor ehtiyojini, ya'ni uning muammolarini hal etsa, marketing konsepsiyada xaridor ehtiyojini, ya'ni u muxtoj bo'lgan tovarlar bilan ta'minlanib, uning talabini qondira olish hisoblanadi. Bu ikkala konsepsiyani quyida keltirilgan rasmda taqqoslashimiz mumkin.



3-rasm. Marketing konsepsiyasi va tijorat xarajatlarini intensivikasiya qilish konsepsiyasi⁴⁰.


Tijorat harakatlarini intensivikasiya qilish konsepsiyasining asosiy ob'ekti kompaniyaning mijozlari va ularning ehtiyojlari, talablari kiradi. Kompaniya o'z faoliyatini iste'molchilar talabi evaziga, ya'ni o'z mijozlari talabini qondirgan holda yuqori foйда olishga intilayotganidan dalolat beradi.

Agar biz sug'urta marketingi faoliyatiga astoyidil to'xtaladigan bo'lsak, sug'urta marketingi bu - sug'urta qiluvchi va sug'urtalanuvchining o'rtasidagi o'zaro manfaatli va ehtiyojlarini hisobga olishga yo'naltirilgan munosabatlar tizimi bo'lib hisoblanadi. Sug'urta marketingi deganda ko'pincha sug'urta qiluvchi

⁴⁰ Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

tomonidan iste'molchining ehtiyojlarini o'rganish va ularni imkon qadar to'la qondirish orqali foydani maksimallashtirish tushuniladi.

Sug'urta ishida marketing o'tkazishning aniq maqsadini qisqacha qilib quyidagi ta'rif bilan ifodalash mumkin: Agar "SHunday sug'urtalanuvchilarni topish kerakki, ular kompaniyaga o'zlarini jalb etish uchun va mavjud sug'urta ehtiyojlarini qondirish uchun qilingan sarf-xarajatlardan ko'proq naf keltirsinlar. Bu mijozning ko'nglini topa bilish san'atidirki. Undan tashqari bir vaqtning o'zida sug'urta kompaniyasi xo'jayinlarini ham qanoatlantira bilish shart» bo'ladi. Shu sababli, sug'urta sohasidagi marketingda mavjud va ehtimoldagi sug'urta bozorining tahliliga suyanilmas ekan, samaraga erishish qiyin, ya'ni sug'urta marketingi asosan mijozlarning va bozorning daromadlilikini oldindan tahlil qilishga, ularni jalb eta bilish va saqlab qolish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Buni quyida keltirilgan chizmadan ko'rish mumkin.



3-chizma. Sug'urta sohasida marketing tutgan o'rnini umumiy ko'rinish⁴¹

⁴¹Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta marketingi korxonani boshqarish amaliyotlarini maksimal darjada soddalashtirish va uning bozor talablariga moslashuvini oshirishga qaratilgan. Bu o'zgarishlar sug'urta qiluvchining istemolchilarning ehtiyojlarini e'tiborga olishiga ketadigan vaqtini qisqartirishga, narxlarni pasaytirishga, maxsulotning va iste'molchiga xizmat ko'rsatishning sifatini oshirishga yo'naltiriladi. Ayni vaqtda, zamonaviy marketing manfaatlari bir-biriga zid bo'lgan turli guruhlarining manfaatlarini uyg'unlashtirishdan iboratdir. Kompaniya egalari o'zlari olayotgan foyda miqdorini oshirishga intiladilar, bunga esa sug'urta mahsuloti narxini oshirish orqali, ya'ni sug'urtalanuvchi hisobidan, shuningdek kompaniya faoliyati uchun xarajatlarni (xodimlarning ish haqi va ishni tashkil etish xarajatlarini) qisqartirish hisobiga erishish mumkin. Mijozlar esa, aksincha, sug'urta kompaniyalarining daromadlilik darajasini tushirish va xarajatlarni kamaytirish hisobiga narxlarning pasaytirilishini zarur deb hisoblaydilar.

6.2 Sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni shakllantirishda marketing faoliyatining tutgan o'rni

Sug'urta kompaniyalari faoliyatining jahon tajribalari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab kun sayin oshib bormoqda. Iste'molchilarga ta'sir ko'rsatishning quyidagi usul va vositalari: aniq maqsadga yunaldirgan reklama, axborot olish, sug'urta shartnomalari tuzish sohasidagi tashkiliy tadbirlar majmuidan, narxning shakllanishi, sug'urta xizmatlari toifalarini tabaqalashtirishdan va qo'shimcha xizmat ko'rsatishlar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Sug'urta shartnomasining tuzilishi muayyan sug'urta kompaniyasining xizmatiga bo'lgan talabning shakllanishining yakunlovchi bosqichidir. Bunda potensial sug'urtalanuvchi hali sug'urta kompaniyasining mijozi bulmaganligi sababli sug'urta xizmatlariga talabni jonlantirishga ahamiyat berish muhimdir. Sug'urta xizmati ko'rsatishning yuqori darajada madaniyatli bo'lishi potensial sug'urtalanuvchilarda sug'urta xizmatlariga talabning shakllanishi garovidir. SHuning uchun muayyan sug'urtalovchi ko'rsatadigan servis darajasi qancha yuqori bo'lsa, uning sug'urta xizmatlariga talabi ham shuncha yuqori bo'ladi. Lekin servis darajasini oshirish xarajatlarni ko'paytirishga olib keladi. Bu holda sug'urtalovchi amalga oshiradigan marketing xizmatining vazifasi xizmat ko'rsatish bilan sug'urta xizmatlariga talabning iqtisodiy omillari o'rtasidagi o'zaro nisbatning qonuniyligini aniqlashdan iborat bo'ladi. Sug'urtalanuvchilarga xizmat ko'rsatish sifat mezonini ular tomonidan e'tirozlarni yo'qligi hisoblanadi.

Sug'urta kompaniyalari faoliyati davomida sug'urta xizmatlariga talabni shakllanishida quyidagi bosqichlarni belgilash mumkin:

- ❖ sug'urta bozorini o'rganish va tahlil qilish uchun kerakli axborotlarni toplash;
- ❖ aniq sug'urta xizmati turlariga talabni o'rganish va ularning raqobatqodir narxlarini aniqlash;
- ❖ sug'urtalovchining reklama faoliyatini tadqiq etish.

Sug'urta bozoriga chiqishda axborotlarni to'plash birinchi galdagi vazifa hisoblanadi. Marketing axborotlari birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlardan iborat

bo'ladi. Birlamchi ma'lumotlar aniq masalani echish maqsadida yangitdan to'planadi. Ikkilamchi ma'lumotlar esa mazkur muammoning echimiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan va oldindan tayyorlangan ma'lumotlardir. Ammo marketing axborot tizimida biror aniq bozorga kirish muammosi belgilanmaguncha ikkilamchi axborotlar o'rganilmaydi. SHu bilan birga ikkilamchi axborotlar tula o'rganilmaguncha ma'lumotlar tuplanmaydi. Undan tashqari, birlamchi ma'lumotlarni yig'ish faqat ikkilamchi ma'lumotlar etishmay qolganligi uchun zarar bo'ladi.

Ammo marketing axborotlari ishonchli, tula, uzluksiz, taqqoslanuvchan va o'z vaqtida yig'ilgan bo'lishi shart. Marketing axborot tizimida, eng avvalo ikkilamchi ma'lumotlar yig'ish va baholashdan boshlanadi. Ular ichki va tashqi axborotlarga bo'linadi. Ichki ma'lumotlar firmaning o'zida bo'ladi, ular firma rejaları va uning bajarilishi, sotish tug'risidagi ma'lumotlar, foyda va zararlar, xaridorlar bilan xisoblar, zahiralalar, oldingi taftish natijalari, natijalarni solishtirish uchun standartlar va boshqalardir. Tashqi ma'lumotlar esa davlat va nodavlat tadqiqot tashkilotlarining axborotlari, nashr qilinayotgan ommaviy axborot ma'lumotlari va statistik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Birlamchi axborotlar tuplash uchun aloxida tadqiqotlar olib borishni talab etiladi. Buning uchun nimani yoki kimni o'rganish aniqlanadi. Ko'pincha tadqiqot ob'ekti qilib iste'molchilar (hozirgi, oldingi, bulajak), firma xodimlari olinadi.

Axborotlarni to'plashdan oldin kompaniya quyidagi savollarga javob topishi lozim buladi:

➤ Qanday axborot tuplash kerak? – Uning xili va xajmi aniqlanadi.

➤ Ma'lumotni kim tuplaydi? – Korxonaga o'z kuchi bilan yoki maxsus tadqiqotchi guruhlar va muassasalar orqali yig'iladi.

➤ Axborot yig'ishning qaysi uslubidan foydalaniladi? – Amaliyotda ma'lumotlar yig'ishning to'rt xil usuli ishlatiladi: so'rov, ko'zatish, ekperiment va o'xshatish.

Jahon tajribasi bozorni o'rganish uchun anketa so'rovlaridanki o'proq foydalanishni taqozo etadi. Chunki anketa so'rovlari orqali iste'molchilar talabi to'g'risida aniqroq va tezkor javob olinadi.

Firma va bozor imkoniyatlari to'g'risida axborotlar to'planganda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

❖ To'planadigan ma'lumotning oldindan maqsadini belgilash va mukammal rejasini tuzish;

❖ hal qilish uchun eng muhim ahamiyatga ega vazifalarni aniqlash;

❖ turli manbalardan olingan ma'lumotlarni solishtirib ko'rish;

❖ yo'l quyilishi mumkin bo'lgan xatolarni baholash va ularning sabablarini tahlil qilish.

❖ noaniq, noxoslilik va boshqalarni ta'siriga yo'l quymaslik uchun tuzatish koefitsentini qo'llash;

❖ kutilmagan natijalar, notug'ri axborotlar, ataylab qilingan g'arazli xarakatlar va boshqalardan emasligidan ishonchni hosil qilish.

Quyidagi ma'lum o'ziga hos xatolardan chetlashish zarur:

✓ yig'ilyotgan axborotlarni nima uchun kerakligi haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lmaslik;

✓ murakkab va qiyin usullar ishlatish yo'li bilan "yuzada yotgan" eskirgan ma'lumotlarni yig'ish;

✓ maqsadlar haqida tasavvuri bo'lmagan yoki yanglishgan shaxslardan konfidensial ma'lumotlar olishga o'rinish.

✓ Axborotlarni to'plash ishlari mazmuni va tuzilishi sug'urta mahsulotining hayotiy sikli bilan bog'liq. Bozorga chiqishda axborotlar ma'lum sug'urta mahsulotini tanlash uchun qaror qabul qilish va sug'urta bozorini segmentlashda ishlatiladi.

Birinchi bosqichda hal qilinadigan vazifalar quyidagilardan iborat:

✓ sug'urta bozorining konyukturasini tahlil qilish;

✓ turli xil sug'urta xizmatlarining imkoniyatlarini iqtisodiy – texnologik jihatdan baholash;

✓ bozor omillarini tahlil qilish;

✓ bozorga chiqishda uning sig'imini va imkoniyatlarini o'rganish;

✓ mahsulotning huquqiy jumladan potentsial ximoya qilish usullarini baholash;

✓ iste'molchilar va ularning ehtiyojlarini tahlil qilish;

✓ o'xshash xizmatlar ko'rsatuvchi raqobatlarini o'rganish;

✓ narxlarni o'rganish;

✓ yangi ishlab chiqiladigan va raqobatdamavjud mahsulotning solishtirma tahlil qilish;

✓ raqobatqodir narxlar doirasida sug'urta xizmatlari ko'rsatish imkoniyatlarini baholash.

Ikkinchi bosqichda bozorga chiqish natijasida birinchi bosqichda qo'llashdan xosil bo'lgan empirik axborotlardan foydalanish mumkin. Bu o'z navbatida sotuv xajmini va sug'urta xizmatining foydaliligini, aniq sug'urta xizmatiga bozorning ta'sirlanishini, iste'molchi motivatsiyasini, sug'urta xizmatlarining bozorga chiqish yo'llari, reklamaning samaradorligini kearkli investitsiyalarning ratsional xajmini belgilashni tahlil qilishga imkon beradi.

Axborotga ishlov berishning uchinchi bosqichi ommaviy sug'urta xizmati ko'rsatish va bozorni tuyintirish davri bilan bog'liqligi uning vazifalarini belgilaydi: sug'urta xizmatining yuqori sifatli yoki noyob iste'molchilik xususiyatlarini samaradorligini rag'batlantirish tahlili, uning turlanish imkoniyatlarini o'rganish, iste'molchilarga xizmat ko'rsatish va muvofiq servisni standartlashtirish.

To'rtinchi bosqichda sug'urta xizmati ko'rsatishning to'xtatish va yangilarini ishlab chiqilishi bilan bog'liq muammolar tahlil qilinadi. Bundan keyin butun sikl yangi mahsulotlar uchun qaytariladi. Axborotlarni to'plashning maqsadi shuki, bunda muayyan sug'urta kompaniyasini real va potentsial bozorini aniqlashda talabni va mazkur bozorning rivojlanishga moyilligi o'rganiladi. Bozorni batafsil o'rganishda uni segmentlarga ajratish katta ahamiyatga ega. Sug'urtalovchilar bozor segmentatsiyasi orqali marketing yo'nalishlaridan eng muxim bo'lgan xaridor ehtiyojlarini va talablarini aniqlash tadbirlarini amalga oshiradilar.

Axborot to'plash va uni tahlil qilish mijozlar muhitini va tavsiflarini o'rganish asosida sug'urtalovchining marketing imkoniyatlari aniqlanadi. Ular bozor

imkoniyatlari sug'urtachining ichki imkoniyatlari hamda maqsadlarini tutashgan joyidadir. Maqsadli marketing uchta asosiy tadbirni amalga oshirishni, bozorni bug'inlarga ajratishni (bozorni bug'inlarga ajratish tamoyillarini aniqlash va olingan bug'inlarning profillarini tuzishni), bozorni maqsadli bug'inlarini tanlashni (olingan bug'inlarning jozibadorligiga baho berish bitta yoki bir nechta bug'inni tanlash) hamda bozordagi mahsulotlarni joylashtirishni talab qiladi.

Bozorni segmentlarga ajratish uni aniq, xaridorlar guruhlariga bo'lib chiqishdir, bu guruxlarning xar biriga ayrim maxsulotlar turlari yoki marketing majmualari zarur bo'lishi mumkin. Bozorni segmentlarga ajratishning qandaydir umumiy bir usuli mavjud emas. Sug'urtalovchilar turli o'zgaruvchan mezonlar asosida bozorni segmentlarga ajratishning turli usullarini mustaqil ravishda aniqlashlari, olingan bug'inlar guruhlariga ajratib, ulardan xar birining jozibadorligiga baho berishlari lozim.

Bozor segmenti quyidagi talablarga javob berishi lozim:

Yetarli darajada xajmdor bulishi, yanada rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lishi, raqobatchilarning ustun darajadagi tijoratchilik faoliyatidan holi bo'lishi, sug'urtalovchi muvoffaqiyatli ravishda qondira oladigan ehtiyojlar mavjud bo'lishi kerak. Sug'urta bozorining segmenti – bu bozorning muayyan tarzda ajratilgan qismi bo'lib, unda ma'lum turdagi sug'urta maxsulotlari sotiladi, alohida qismining bitta yoki bir nechta qismini tashkil etuvchi potensial va haqiqiy iste'molchilar guruhlari aniqlanadi⁴².

Sug'urta xizmati ko'rsatayotgan bozor makoni sohasi bozorning ajratilgan bug'unlari tutashgan joyidadir. Sug'urtalovchining mijozlarga xizmat ko'rsatishda foydalanadigan asosiy o'zgaruvchan asosiy o'zgaruvchan narsalar jug'rofiy, demografik, psixografik va hulq-atvor o'zgaruvchanligidir; sug'urta mahsulotlarini bug'unlashtirishda foydalanish va tatbiq etish xarakterlidir; raqobat qiluvchi sug'urtalovchilarni bug'unlashtirishda ixtisoslashuv, faoliyat kulami, tatbiq etiladigan marketing shakllari xarakterlidir.

6.3 Sug'urta kompaniyalarida marketing faoliyatini tashkil etishning xorij tajribasi

Xorijiy mamlakatlarda sug'urta kompaniyalari faoliyatini tashkil qilishdan ma'lumki, marketingning bir qator yo'nalishlari va funksiyalari turli sug'urtalovchilar uchun umumiy bo'lgan holdir. Ularga sug'urta kompaniyalarining bozor kon'yukturasiga asoslanib ish yuritishlari, ehtiyoji qondirilmagan va potensial sug'urtaga ishtiyoq sezganlarga mos keladigan sug'urtaning yangi turlarini yaratishga e'tibor qaratish vazifalari taalluqlidir.

G'arb amaliyotida tan olingan sug'urta menejmentining "4r" (4 miks), to'rtta boshqaruv darajalaridan iborat:

⁴² Абрамов, В. Ю. Страхование: теория и практика / В.Ю.Абрамов — М. Волтерс Клувер, 2007. — 472-477 с

❖ Sug'urtalovchilar - ularni ko'payishi sug'urta marketingining o'rinishlari maqsadi tushuniladi. Har qanday sug'urta kompaniyasi bozor sharoitida uning sug'urta xizmatlariga talab bo'lgandagina mavjud bo'ladi.

❖ sug'urta xizmatlari - muayyan sug'urta kompaniyasining sug'urta shartnomalarining turlarining ro'yxati;

❖ sug'urta xizmati ko'rsatish bahosi - aniq sug'urta xizmatining turi bo'yicha shartnoma tuzishda ishlatiladigan ta'rif miqdori. U sug'urta tavakkalchiligini ulchami qiyoslanadi;

❖ bozor – muayyan sug'urtalanuvchining sug'urta xizmatini yuridik va jismoniy sotib olish imkoniyati. U sug'urta servis infrastrukturasi rivojlanganligi, sug'urtachining egiluvchan ish yuritish strategiyasi va boshqa omillarining mavjudligi bilan o'zviy bog'liq.

Xorijiy mamlakatlar sug'urta kompaniyalarining bozordagi faoliyatida marketingni qo'llanish tajribasi marketing jaryoni o'z ichiga bir qator amallarni olishini ko'rsatmoqdaki, ularni ikkita asosiy vazifadan ya'ni;

1. Sug'urta xizmatlariga talabni shakllantirish;

2. Sug'urta manfaatlarini qanoatlantirishdan iborat.

Iqtisod nazariyasi nuqta nazaridan aytilganda sug'urta xizmatlariga talabni shakllantirish - bu muayyan sug'urta kompaniyasining xizmatlariga mijozlarni ya'ni bo'lajak sug'urtalanuvchilarni turli vosita va usullar yordamida jalb qilish hisoblanadi.

Marketingning ikkinchi asosiy vazifasi sug'urta manfaatlarini qanoatlantirishdan iboratdir. Ushbu vazifani yuqori darajada bajargan sug'urta kompaniyalari madaniyatli sug'urta xizmati ko'rsatishga bo'lgan talablarni vujudga keltiradi⁴³.

Shuningdek sug'urta kompaniyalari sug'urta polislarini sotishni tashkil etishga, mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilashga va imidjini saqlab turishga ko'p mablag'lar sarflaydilar. Marketing sug'urta polislarini sotishda samarali tizimini tashkil etishni nazarda tutadi. Sug'urta bozorida raqobatchilikni keskinlashishi sug'urta polislarini sotish tom ma'noda sug'urta manfaatlarini qondirishni aks etadi va sug'urta xizmatlariga talabni ta'minlaganligini tasdiqlaydi. SHuning uchun sug'urta kompaniyalari alohida tashkiliy va sug'urta polislarini sotish tizimini jadallashtirishga e'tiborini qaratadi. Sug'urta polislarini kompaniya tomonidan sotilishida sotuvni amalga oshiruvchi shahobchalarning keng tizimi sotuvni amalga oshiruvchi kompaniyalarning xizmat ko'rsatish xududlarida keng tarqalgan shahobchalari tizimi orqali amalga oshiriladi. Sug'urtalovchi sug'urtalanuvchilarga sug'urta xizmatlarini ko'rsatish borasidagi vazifalarni agentlar va brokerlar bilan birgalikda amalga oshiradilar.

Sug'urta agenti - bu sug'urta kompaniyasi nomidan va topshiriqnomasiga asosan sug'urta polislarini sotuvchi, sug'urta mukofotini inkassalovchi, xujjatlarni rasmiylashtiruvchi, ba'zan sug'urta qoplamasi to'lovi kabi vazifalar bilan shug'ullanuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs. Sug'urta agentlari, jismoniy shaxslar va

⁴³ Абрамов, В. Ю. Страхование: теория и практика/ В.Ю Абрамов- М. Волтере Клувер. 2007. – 423-428 с

sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlari aks ettirilgan shartnoma asosida tuziladi.

Xorijiy mamlakatlar sug'urta kompaniyalari sug'urta agentlarini ishga qabul qilishda nafaqat sug'urta sohasidagi bilimlariga balki ularga turli soha, yosh, sotsial toifadagi kishilar bilan bimalol so'zlashuvchan, tashqi ko'rinishini, nutq madaniyati, tez kirishuvchanlik ya'ni har qanday qo'yilgan savolga tez va aniq javob berish, nomzodning moliyaviy holati to'g'risida e'tirozlarning yo'qligi kabi talablarni ham qo'yishadi.

Asosiy sug'urta agentlari tizimining afzalligi uning egiluvchan va xarakatchanligidadir. Bunda katta shtatlarni ushlab turishning ahamiyati shartnoma asosida baholash uchun ekspert va mutaxassislarni jalb etish orqali ko'riladi.

Halqaro sug'urta bozorida sug'urta kompaniyasining sug'urta polislarini o'z xududlarida erkin sotilishiga qarshilik ko'rsatgan davlatlar asosiy sug'urta agentliklarining o'ziga xos xususiyatli tizimidan foydalanadilar. Bu xolda mazkur davlatning biron-bir milliy sug'urta kompaniyasi muayyan xorijiy mamlakat sug'urtalovchining asosiy agenti etib tayinlanadi va o'zining sotuv kanallari orqali sug'urta polislarini sotuvini amalga oshirishadi. Asosiy sug'urta agentliklari tizimini qo'llash davlatning proteksionizm siyosati (bu – o'z milliy iqtisodini chet el raqobatchilaridan ximoya qilish)ni olib borishda va milliy sug'urta kompaniyalari manfaatlarini himoya qilish borasida chet el sug'urta kompaniyalarining polislarini o'z xududlarida sotilishiga man etishda qo'l keladi.

Sug'urta polislarini vositachilar yordamida sotish, sug'urta shartnomalarini tuzishni tashkil etish tizimida etakchi hisoblanadi. SHuning uchun vositachilar tarmoqlar qancha keng bo'lsa, shuncha potensial sug'urtalanuvchilar mazkur sug'urta kompaniyasi haqida tushuncha hosil qilishadi va uning xizmatlaridan foydalanishlari mumkin⁴⁴.

Amaliyotda sug'urta bozori xajmini aniqlashda sug'urta kompaniyalari tomonidan sotuv kanallari bo'yicha funksional kartalarni tuzish tadbiriq etilgan.

Sug'urta xizmatlarini sug'urtalovchi tomonidan potensial mijozga sotishning G'arb amaliyotida ikkita usul qo'llaniladi:

- ❖ ekstensiv;
- ❖ tanlanma.

Sug'urta xizmatlarini sotishning ekstensiv usulida sug'urta kompaniyalari tomonidan bir yoki bir nechta turlari bo'yicha shartnoma tuzish imkoni bor va vositachilarni qo'llashni taqazo etadi.

Tanlanma usulida sug'urta xizmatlarini amalga oshirishda sug'urta kompaniyalari ikki va undan ortiq asosiy sug'urta agentlari bilan munosabatda bo'lishib, ular belgilangan xududlarda sug'urtalovchi nomidan va topshirig'i asosida faoliyat olib borishadi.

⁴⁴Абрамов, В. Ю. Страхование: теория и практика/В.Ю.Абрамов- М. Волтерс Клувер, 2007. – 415-419 с

Nazorat savollari:

1. Sug'urta kompaniyalarida marketing faoliyatini tashkil etishning nazariy asoslarini aytib bering.
2. Sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni shakllantirishda marketing faoliyatining tutgan o'rnini aytib bering.
3. Sug'urta kompaniyalarida marketing faoliyatini tashkil etishning xorij tajribasini tushuntirib bering.

VII BOB. SHAXSIY SUG'URTA MENEJMENTI

7.1 Shaxsiy sug'urtaning paydo bo'lishi va rivojlanishi

Shaxsiy sug'urta sug'urtaning alohida tarmoqlaridan biridir. Shaxsiy sug'urta turlari insonning hayoti va turmush tarzi bilan bog'liqdir. Uspirinlik davrda baxtsiz hodisalar ko'p uchraydi. Kishi balog'at yoshiga etgan vaqtda moliyaviy ta'minot asosiy muammo xisoblanadi. Nafaqa davrida inson nafaqa sug'urtasiga talab paydo bo'ladi. Inson butun umr davomida tibbiy sug'urta xizmatiga murojat qilishi mumkin. Amaliyotda, ko'pchilik xolatlarida tibbiy sug'urta va baxtsiz hodisalardan sug'urtalash yagona sug'urta tarmog'iga birlashtiriladi.

Shaxsiy sug'urta o'zga xos xususiyatlaridan biri – uning ko'proq ijtimoiy funksiyani bajarishidir. SHaxsiy sug'urta yordamida insonning sog'lig'ini turli xil baxtsiz hodisalardan muxofaza qilinadi. Inson mehnat qilish qobiliyatini yo'qotganda unga moddiy yordam beradi.

Ixtiyoriy shaxsiy sug'urta davlat ijtimoiy ta'minotiga qo'shimcha yordam tariqasida amlga oshiriladi.

SHaxsiy sug'urtaning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan xayot sug'urtasi milliy iqtisodiyotni muxim mablag' bilan ta'minlashda kata ahamiyatga ega. Hayot sug'urtasi yordamida yig'ilgan mablag'lar sug'urta tashkilotlari tomonidan investitsiya faoliyatiga yo'naltiriladi.

Xalqaro sug'urta bozorida hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofoti etakchi xisoblanadi. Hayot sug'urtasi umumiy sug'urta mukofotlarini ichida 85%ni tashkil qiladi. Tibbiy va xayot sug'urtasiga sarflangan xarajatlar shaxsiy sug'urta xarajatlarining 60-70 foizni tashkil qiladi. Bu o'rta rivojlangan davlatlarda 1000 AQSH dolloridan 4000 AQSH dollarigacha tashkil qiladi. Rossiya Federatsiyasida shaxsiy sug'urta bo'yicha sug'urta mukofotlarining aksariyat qismi ish beruvchilarning majburiy sug'urtasidan kelib tushadi.

Hayot sug'urtasi nafaqa sug'urtasi bilan birgalikda milliy iqtisodning rivojlanishi darajasini asosiy ko'rsatkichi xisoblanadi. Masalan, Evropa Ittifoqi davlatlarida, AQSHda va Yaponiyada xayot sug'urtasiga ixtisoslashgan, axolining mablag'larini uzoq muddatli konsentratsiya qiluvchi sug'urta tashkilotlarining investitsiya imkoniyatlari banklarning investitsiya imkoniyatlaridan bir muncha oshadi.

SHaxsiy sug'urtada sug'urta summasining miqdori sug'urtalanuvchilarning moliyaviy imkoniyatlariga bog'liq. Inson xayoti bo'yicha sug'urtada eng kata sug'urta summasi, 1971 yilda 14 mln. AQSH dollariga tenglashgan. Ushbu sug'urta summasi Kanadalik fermer Jorj Myullerga tegishli bo'lgan. U 1970 yil 14 noyabrda o'ziga tegishli mulkni bezorilardan ximoya qilishda o'lgan.

Sug'urtaning boshqa tarmoqlariga nisbatan shaxsiy sug'urta inflyasiyaga ko'proq yo'liqadi va zarar ko'radi.

Rivojlangan davlatlarda shaxsiy sug'urta o'ndan etti kishining oilaviy byudjeti asosiy moliyaviy manba xisoblanadi. Masalan, AQSH da XXI asr boshlarida 80% axolii shaxsiy sug'urta polislariga ega bo'lgan.

Shaxsiy sug'urta sug'urtaning aloxida tarmog'i sifatida Yevropada XVII-XVIII asrlarda paydo bo'lgan. Dastlab u dengiz sug'urtasiga qo'shimcha sifatida shakllangan. Kemalar va yuklarni sug'urtalash bilan birgalikda kema kapitanlarining xayoti xam sug'urtalana boshladi.

XVII asr boshlarida, «London tug'ulish va o'lim to'g'risidagi ma'lumotlar» nomli kitob tashrifiqlindi. Bir vaqtda «muxtojlariga yordam beruvchi hayot sug'urtasi jamiyati» tashkil qilindi. 1629 yilda beva va etimlarni sug'urta qilish sug'urta jamiyatining ulushchilar yig'ini bo'lib o'tdi. Ushbu jamiyatning maqsadi beva etimlarni boquvchisi vafot etgandan keyin nafaqa bilan ta'minlash bo'ldi. Bunday tashkilotlarni tashkil qilish dastlabki urinishlar muvaffaqiyatsiz tugadi. Muvaffaqiyatsizlikning asosiy sababi sug'urta fondining kichikligi va yirik to'lovlarga talab ko'pligi bo'ldi.

XVII asr o'rtalarida Londonda Flitstrp klubi tashkil qilindi. U hayot sug'urtasi bilan shug'ullana boshladi. Ingliz tadbirkori jeyms Dodson mazkur klubga a'zo bo'lish istagini bildirganda unga rad javobi berildi. Shundan keyin Jeyms Dodson o'zining shaxsiy sug'urtasi jamiyatini tashkil qildi. U London qabristonlari bo'yicha ma'lumotlar yig'di, vafot etganlarning o'rtacha umrini xisoblab chiqdi. Jeyms Dodson Ushbu statistik ma'lumotlarini sug'urta mukofotini hisoblashda foydalanadi.

“Ekvitebl” sug'urta kompaniyasi sug'urta tarixida birinchi marta sug'urta qiymatini xisoblashda statistik ma'lumotlardan va matematik xisob-kitoblardan foydalangan. Ushbu sug'urta kompaniyasining muvaffaqiyati XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi. SHu bilan birga XIX asr boshlarida Germaniyada birinchi sug'urta banki Gote shaxrida ochildi.

1774 yilda Anglyada «Firibgarlik to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunga asosan shaxsiy sug'urta sug'urtasi shartnomasini tuzuvchi shaxs sug'urtalanuvchi xayotda sug'urta manfaati bo'lishi belgilandi.

Shuningdek fan texnika rivojlanishi, shaharlarning kengayishi, savdo – sotiqning rivojlanishi bilan shaxsiy sug'urta tarmog'i uni amalga oshirish tartibi ham takomillasha bordi. Shaxsiy sug'urta “Dalat sug'urta”si tomonidan amalga oshirilgan.

1991 yili O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgandan keyin sug'urta tizimini bozor iqtisodi tamoyillariga mos holda qayta tashkil qila boshladi. Birinchi navbatda sug'urta tizimining huquqiy asosi yaratildi. 1993 yilda “Sug'urta to'g'risida”gi Qonun qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi qabul qilindi. 2002 yilning 4 aprelida “Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi yangi tahrirdagi Qonun qabul qilindi.

Shaxsiy sug'urta bo'yicha sug'urta shartnomalarini tuzish tartiblari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 52 bobi bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston sug'urta bozorida dastlab sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyati amalga oshirish va ularni moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrda “Sug'urta bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 413-sonli qarori qabul qilinib, sug'urta sohasida tub burilish yasadi. Mazkur qarorga asosan 2003 yildan boshlab sug'urta tashkilotlari litsenziyalanadigan bo'ldi va ularga litsenziya berishning asosiy talabi

sifatida ularning ustav kapitallarining eng kam miqdorlari sug'urta sohaslaridan kelib chiqib, quyidagicha etib belgilandi. Buni quyida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

3 -jadval

O'zbekiston sug'urta kompaniyalari uchun belgilangan ustav kapitallarining minimal miqdorlarini yillar bo'yicha o'zgarish dinamikasi

Sug'urta tarmoqlari	2003 yil 1 avgustdan boshlab, ming AQSH dollari	2008 yil 1 yanvardan boshlab, ming AQSH dollari	2010 yil 1 yanvardan boshlab, ming evro	2012 yil 1 iyuldan boshlab, ming evro	2014 yil 1 iyuldan boshlab, ming evro
Umumiy sug'urta tarmog'iga ixtisoslashgan sug'urtalovchilar uchun	150	500	750	1125,0	1500,0
Hayot sug'urta tarmog'iga ixtisoslashgan sug'urtalovchilar uchun	250	750	1000	1500,0	2000,0
Majburiy sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi sug'urtalovchilar uchun	500	1000	1500	2250,0	3000,0
Qayta sug'urta qilish faoliyatiga ixtisoslashgan sug'urtalovchilar uchun	2 mln. AQSH dollari	3000	4000	5000,0	6000,0

Jadvalda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari asosida sug'urta tashkilotlarining ustav kapitallarini minimal miqdorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar o'z aksini topgan. Mazkur qarorlardan kelib chiqib, sug'urta tashkilotlarining ustav kapitalini minimal miqdori yillar davomida oshib borganligini ham ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, 2017 yildan boshlab, sug'urta tashkilotlarining ustav kapitalini minimal miqdori milliy valyuta belgilandi: sug'urta tashkilotlari hayot sug'urta sohasida faoliyatini olib borishi uchun 10,0 mlrd.so'm, umumiy sug'urta sohasida faoliyatini olib borishi uchun 7,5 mlrd.so'm, majburiy sug'urta sohasida faoliyatini olib borishi uchun 15,0 mlrd.so'm, qayta sug'urta sohasida faoliyatini olib borishi uchun 30,0 mlrd.so'm etib belgilandi⁴⁵.

Sug'urta tashkilotlarining ustav kapitallarini oshib borishi sug'urta tashkilotlarining investitsiya imkoniyatlarining kengayishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Sug'urta tashkilotining ustav kapitalini xususiy kapital tarkibiga

⁴⁵O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ba'zi hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ayrimlarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi Farmoni, 2017 yil 29 sentyabrda; PF-5197-son

kirishini e'tiborga oladigan bo'lsak, uning muhimligi yanada yuqori ekanligini his etish mumkin.

Demak, har qanday sug'urta tashkiloti qayta sug'urtalovchi yoki qayta sug'urtalanuvchi sifatida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishi mumkin. Qayta sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun maxsus litsenziyaning talab etilmasligi, sug'urta bozori ishtirokchilari uchun ortiqcha.

7.2 Shaxsiy sug'urtaning ob'ekti va sub'ektlari

Shaxsiy sug'urtaning o'ziga xosligi shundan iboratki sug'urtalanuvchi o'zining shaxsiy xayotida ish beruvchi o'zining ishchilarining hayoti haqida; er-xotin bir birlarining hayoti haqida; ota-onalar o'zlarining bolalarini xayoti haqida, biznes bo'yicha partnerlar; kreditorlar qarzdorlarning xayoti haqida manfaatga ega bo'ladi.

Shaxsiy sug'urta – sug'urta tarmog'i bo'lib, sug'urtalanuvchi va sug'urtalangan shaxslarning nafaqa ta'minoti, mehnatga layoqati, sog'lig'i va hayoti bilan bog'liq mulkiy manfaatlarini sug'urta ob'ekti hisoblanadi.

Hayot sug'urtasining ob'ekti sifatida (yuqorida keltirilgan ta'rif asosida odamning hayoti, sog'lig'i mehnatga layoqati) sug'urta ob'ekti hisoblanadi. Ya'ni insonning hayoti, sog'lig'i va mehnatga layoqati sug'urta muddatigacha yashashi, sug'urtalanuvchi yoki sug'urtalangan shaxsning vafot etishi, yoki sug'urta muddatida sog'lig'ini yo'qotishi hayot sug'urtasi ob'ekti hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek shaxsiy sug'urta davlat ijtimoiy sug'urtasi va ijtimoiy ta'minoti tuzulishga qo'shimcha hisoblanadi. Ular o'rtasidagi farq shundan iboratki, ijtimoiy sug'urta davlat tomonidan amalga oshirilib majburiy shaklga ega bo'lsa, shaxsiy sug'urta ixtiyoriy amalga oshiriladi.

Shaxsiy sug'urtada sug'urtalanuvchi bo'lib: jismoniy va yuridik shaxslar bo'lishi mumkin. Sug'urtalangan shaxs bo'lib faqat jismoniy shaxs bo'lishi mumkin. Sug'urtalanuvchi shaxsiy sug'urtada bir vaqtda sug'urtalangan shaxs ham bo'lishi mumkin.

Rivojlangan davlatlar amaliyotida shaxsiy sug'urta tarkibiga hayot sug'urtasi, baxtsiz hodisalardan sug'urta va tibbiy sug'urtalar kiradi.

Shaxsiy sug'urta tizimi sug'urtalanuvchilarning turli xildagi manfaatlarini inobatga oladi. Shulardan hayot sug'urtasi ommaviy sug'urta shartnomasi bo'lib, u sug'urtaning risk va omonat funksiyalarini o'zida jamlashtiradi.

Sug'urtalanuvchilar kontingenti tanlashda sug'urtachi asosan ikki kriteriya asosida ish yuritadi. Ya'ni shaxsiy sug'urtani amalga oshirishda sug'urtalanuvchi va sug'urtalangan shaxsning yoshi va sog'lig'i holati asosiy omil hisoblanadi. Ko'pchilik shaxsiy sug'urta shartnomalari besh yilga tuziladi va boshqa muddatlarga ham fuzilishi mumkin.

Hayot sug'urtasi shaxsiy sug'urtaning kichik tarmog'i hisoblanadi. Uning asosiy aniqlovchi belgisi bo'lib, sug'urtalangan shaxsning sug'urta shartnomasi bo'yicha belgilangan yoshgacha yashashi yoki vafot etishi sababli pul to'lovlari amalga oshiriladi.

Mazkur sug'urta faoliyati turida sug'urtalangan shaxsning hayoti sug'urta ob'ekti hisoblanadi. Hayot sug'urtasining quyidagi turlarini ko'rsatib berishimiz mumkin:

- sug'urta muddatigacha yoki ma'lum yoshgacha yashashni sug'urtalash;
- ma'lum yoshgacha yoki sug'urta muddatigacha shaxsning vafot etishi;
- hayotni aralash sug'urtalash;
- bollarni nikohga kiritish holatini sug'urtalash;
- renta (annuitet) sug'urtasi;
- nodavlat nafaqa sug'urtasi;
- kasbiy ta'lim uchun to'lovlar sug'urtasi.

Hayot sug'urtasi sub'ektlari – sug'urtachi, sug'urtalanuvchi, sug'urtalangan shaxs, naf oluvchi, sug'urta bozorining qolgan professional ishtirokchilari hisoblanadi.

Sug'urtachi bo'lib sug'urtaning boshqa tarmoq va turlaridagi kabi hayot sug'urtasini amalga oshirishga ruxsat beruvchi maxsus litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxs hisoblanadi.

Baxtsiz xodisalardan sug'urtalash – shartlashgan hodisa ro'y berishi natijasida sug'urtalangan shaxsning vafot etishi, sog'lig'ini yo'qotishi natijasida sug'urta to'lovlari amalga oshirishni nazarda tutuvchi shaxsiy sug'urta turlari yig'indisidir.

Baxtsiz xodisalardan sug'urtalash barcha muomala yoshidagi fuqarolarga, bolalarga maktab o'quvchilariga, yo'ldagi yo'lovchilarga, xavfli mehnat sharoitiga ega bo'lgan ayrim ishchilarga tadbir qilinadi. Maxsus qoida asosida aholining ayrim guruhlarini (bolalar, yo'lovchilar va boshqa) sug'urtalanishi mumkin.

Kasal kishilarni va nafaqa yoshidagi kishilarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashda ayrim chegaralanishlar mavjud.

Baxtsiz xodisalardan sug'urtalash individual va kollektiv shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

Sug'urtalanuvchi bo'lib muomala layoqatiga ega bo'lgan shaxslar hisoblanadi.

Bolalarni baxtsiz hodisalar ehtiyot shart sug'urtalash turlaridan biri bolalarni baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urtalashning individual turidir. Muomala layoqatiga ega bo'lgan har qanday jismoniy shaxs sug'urtalanuvchi bo'lishi mumkin.

Ushbu sug'urta turiga asosan maktab o'quvchilari, kollej, oliy o'quv yurtlari talabalarini baxtsiz hodisalardan sug'urtalanadi.

Tibbiy sug'urta – shaxsiy sug'urtaning kichik tarmog'i hisoblanadi. Uning maqsadli fondlari korxonalar, tashkilotlar, mahalliy hokimiyatlar, fuqarolarning badallari hisobidan shakllantiriladi. Tibbiy sug'urtaning maqsadli jamg'armalari mablag'lari aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish xarajatlari moliyalashtiriladi. Tibbiy sug'urta tibbiy xizmat olishni kafolatlaydi.

Xalqaro amaliyotda tibbiy sug'urta ikki shaklda amalga oshiriladi: majburiy va ixtiyoriy.

Majburiy tibbiy sug'urta – davlat sug'urtasining tarkibiy qismini hisoblanadi. Majburiy sug'urta orqali fuqarolar tibbiy yordami va dori-darmonlar olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tibbiy yordam va dori darmon xarajatlari majburiy sug'urta mablag'laridan qoplanadi. Majburiy tibbiy sug'urta orqali barcha

fuqarolarga minimal tibbiy xizmat ko'rsatilishi ta'minlanadi. Minimal tibbiy xizmat tarkibiga tez yordam, uyda tibbiy yordam ko'rsatish va boshqa yordam kiritiladi.

Ammo tibbiy sug'urtada kasalga qarash, profilaktik chora-tadbirlarni o'tkazish, qimmat baho dori-darmon sotib olish xarajatlari sug'urta javobgarligiga olinmaydi.

Ixtiyoriy tibbiy sug'urta-majburiy tibbiy sug'urtaga qo'shimcha sifatida olib boriladi. Ixtiyoriy tibbiy sug'urta orqali fuqarolar majburiy tibbiy sug'urta dasturida belgilangan tibbiy xizmat ko'rsatish meyoridan oshgan qismi qoplanadi. Ixtiyoriy tibbiy sug'urta ham kollektiv va individual ko'rinishlarga ega.

Tibbiy sug'urta sub'ektlari bo'lib fuqarolar, sug'urtachilar, tibbiy sug'urtatashkilotlari hisoblanadi.

Sug'urta tashkilotlari sug'urtalanuvchi yoki sug'urtalangan shaxs oldida huquqiy va moddiy javobgar hisoblanadi (tibbiy sug'urta shartnomasini shartlarini bajarmasligi uchun).

Fuqarolarning sog'lig'iga zarar etkazgan yuridik va jismoniy shaxslardan, zarar miqdori darajasida sug'urtachi undirib olish xuquqiga ega.

Tibbiy sug'urtada sug'urta xizmati uchun sug'urta mukofotini to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar sug'urtalanuvchi hisoblanadi.

Ishlovchi xodimlarni sug'urtalashda korxonalar va tashkilotlar, ishlamaydigan fuqarolarni sug'urtalashda o'z-o'zini boshqarish idoralari mahalliy hokimiyatlar sug'urtalanuvchi hisoblanadi.

Tibbiy sug'urta tashkiloti – tibbiy sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun etarli ustav jamg'armasiga ega bo'lgan, tibbiy sug'urta bilan shug'ullanishga huquq beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan yuridik shaxslar – sug'urta tashkilotlari.

7.3 Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashning huquqiy asoslari

Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng milliy iqtisodiyotda tub o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan sug'urta tizimida ham iqtisodiy islohotlar natijasida sug'urta sohasida rakobat asosida faoliyat ko'rsatadigan turli mulk shaklidagi sug'urta tashkilotlari vujudga keldi. Sug'urta bozorini barpo etish va uni barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan iqtisodiy va huquqiy asoslar yaratila boshladi.

O'zbekiston Respublikasida shaxsiy sug'urtani amalga oshirishning huquqiy asoslari Fuqarolik kodeksining 921-moddasida aks ettirilgan. Unga ko'ra, shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha bir taraf (sug'urtalovchi) boshqa taraf (sug'urta qildiruvchi) to'laydigan, shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta qildiruvchining o'zining yoxud shartnomada ko'rsatilgan boshqa fuqaro (sug'urtalangan shaxs)ning hayoti yoki sog'lig'iga zarar etkazilgan, u muayyan yoshga to'lgan yoki uning hayotida shartnomada nazarda tutilgan boshqa voqea (sug'urta hodisasi) yuz bergan hollarda shartnomada shartlashilgan pulni (sug'urta pulini) bir yo'la yoki vaqt-vaqti bilan to'lab turish majburiyatini oladi. SHuningdek, kodeksda shaxsiy sug'urta shartnomasi kimning foydasini ko'zlab tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxs sug'urta pulini olish huquqiga ega bo'ladi, deb ko'rsatilgan.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi tuzishda sug'urta qildiruvchi bilan sug'urtalovchi o'rtasida quyidagilar to'g'risida kelishuvga erishiladi:

- sug'urtalangan shaxs to'g'risida;
- sug'urtalangan shaxs hayotida yuz berishi ehtimol tutilib sug'urta amalga oshirilayotgan voqea (sug'urta hodisasi)ning xususiyati to'g'risida;
- sug'urta puli miqdori to'g'risida;
- sug'urta mukofotining miqdori va uni to'lash muddati (muddatlari) to'g'risida;
- shartnomaning amal qilish muddati to'g'risida.

Shu bilan birga taraflarning kelishuviga asosan shartnoma shartlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Agar sug'urta shartnomasi sug'urta qildiruvchi, sug'urtalangan shaxs yoki naf oluvchi hisoblangan fuqaroning ahvolini qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga nisbatan yomonlashtiradigan shartlarni o'z ichiga olsa, shartnomaning ana shu shartlari o'rniga qonun hujjatlarining tegishli qoidalari qo'llaniladi.

Sug'urtalanuvchining hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati bilan bog'liq mulkiy manfaatlari shaxsiy sug'urtaning ob'ekti hisoblanadi. Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilar hamda sug'urtalangan shaxslar shaxsiy sug'urta sub'ektlaridir.

Shaxsiy sug'urta, odatda, fuqarolarni quyidagi xavf-xatarlardan himoyalanihini nazarda tutadi:

- sug'urtalanuvchining yoki sug'urtalangan shaxsning vafot etishi;
- mehnat qobiliyatini vaqtinchalik yo'qotishi;
- nafaqa yoshiga etishi bilan fuqaroning faol mehnat faoliyatini tugashi.

Yuqorida qayd etilgan hamma holatlarda sug'urta hodisasini ro'y berishi sug'urtalanuvchining yoki sug'urtalangan shaxsning daromadini kamayishiga sabab bo'ladi.

Ilmiy-iqtisodiy adabiyotlarda shaxsiy sug'urta turlicha tasniflanadi. Mutaxassislar o'rtasida keng tarqalgan fikrlarga ko'ra, shaxsiy sug'urta 2 ta kichik tarmoqqa bo'linadi:

- hayot sug'urtasi;
 - sog'liqni sug'urtalash;
- Sog'liqni sug'urtalash, o'z navbatida, 2 ta guruhga bo'linadi:
- baxtsiz hodisalardan sug'urtalash;
 - tibbiy sug'urta.

Shaxsiy sug'urtani hayot sug'urtasiga va sog'liqni sug'urtasiga bo'linishiga asosiy sabab sug'urta summalarini jamg'arilib borilishidir. Hayot sug'urtasi uzoq muddatli bo'lib, unda shartnoma bo'yicha belgilangan sug'urta summasi har yili jamg'arilib boradi.

Fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashda sug'urta summalari jamg'arilmaydi, muddati 1 yildan oshmaydi.

2002 yilning 28 mayidan e'tiboran "Sug'urta faoliyati to'g'risida" qonunning qabul qilinishi bilan sug'urta 2 ta tarmoqqa bo'lindi:

- ✓ hayot sug'urtasi;
- ✓ umumiy sug'urta.

Mazkur qonunga asosan sug'urtalovchilarning faoliyati sug'urtaning qaysi tarmog'iga ixtisoslashganligiga qarab alohida litsenziyalanadigan bo'ldi. Hayot sug'urtasini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan sug'urtalovchilar umumiy sug'urta turlarini o'tkazishga haqli emas yoki aksincha.

Shaxsiy sug'urta ixtiyoriy va majburiy shakllar asosida turlarga bo'linadi va amalga oshiriladi.

Shaxsiy sug'urtaning ixtiyoriy shaxsiy sug'urta turlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- hayot sug'urtasi;
- fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash;
- fuqarolarning sog'lig'ini va kasalliklardan sug'urtalash;
- fuqaroni ma'lum yoshgacha etishish sug'urtasi;
- vafot etish holatidan uzoq muddatli sug'urta;
- tibbiy sug'urta;
- chet elga ketuvchilarni kasalliklardan sug'urta;
- maktab o'quvchilarini baxtsiz hodisalardan sug'urtalash.

Shu bilan bir qatorda shaxsiy sug'urtani majburiy tarzda amalga oshiriladigan turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- yo'lovchilarni baxtsiz hodisalardan majburiy sug'urtalash;
- soliq organlari xodimlarini baxtsiz hodisalardan majburiy davlat sug'urtasi;
- O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo'mitasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlarini baxtsiz hodisalardan majburiy davlat sug'urtasi.

Shaxsiy sug'urtaning ba'zi bir majburiy shakldagi turlari va majburiy davlat sug'urtasini 2003 yil 1 yanvardan boshlab "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi o'tkazib kelmoqda. Ushbu sug'urta turlari bo'yicha sug'urta tarifi bir sug'urtalanuvchiga bir yilga eng kam oylik ish haqining 20 foizi miqdorida belgilangan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan sug'urta tashkilotlari, asosan quyidagi sug'urta turlarini amalga oshirib kelmoqdalar:

- baxtsiz hodisalardan sug'urtalash;
- ixtiyoriy tibbiy sug'urta va kasal bo'lish holatidan sug'urta;
- chet elga ketayotgan shaxslarni sug'urtasi;
- hayot sug'urtasi.

Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashda sug'urta shartnomasini tuzishdan oldin sug'urta tashkiloti vakili sug'urtalayotgan shaxslarni fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash qoidalar bilan tanishtirishi lozim. Mazkur sug'urta turi bo'yicha fuqarolarni baxtsiz hodisa ro'y berish natijasida sog'lig'i va hayotini saqlash bilan bog'liq manfaat sug'urta ob'ekti hisoblanadi. Sug'urtalovchi, odatda, asab va ruxiy kasallikka duchor bo'lgan, falaj, ko'zi ojiz shaxslar, eshitish qobiliyati zaif bo'lgan va nogiron shaxslar bilan sug'urta shartnomasini tuzmaydi.

Sug'urtalangan shaxsning hayotiga va sog'lig'iga quyidagi baxtsiz hodisalarni ro'y berishi natijasida shikast etganda va tasdiqlanganda sug'urta summalari berilishi mumkin:

- jarohat olganda;
- suyaklarni sinishi, chiqishi;
- ichki organlarni zararlanishi;
- kuyishi;
- teri qatlamlarini sovuq urishi;
- elektr toki ta'sirida jarohatlanishi;
- kimyoviy moddalar va zararli o'simlik ta'sirida zararlanishi;
- tish sinishi.

Bundan tashqari yuqorida qayd etilgan holatlar natijasida o'lim xolati yuz berganda xam sug'urta summasi to'lanadi.

Quyidagi hodisalarni ro'y berishi oqibatida sug'urtalangan shaxsning hayoti va sog'lig'iga shikast etkazilsa yoxud o'limga olib kelsa sug'urta summasi to'lanmaydi:

- ❖ yadro portlashi;
- ❖ radiatsiya va nurlanish;
- ❖ sug'urtalangan shaxsning atayin hatti-harakati natijasida baxtsiz hodisalar yuz berganda, o'z joniga qasd qilganda va jinoyat harakatlar natijasida ro'y berishi.

Sug'urta mukofoti sug'urta tashkilotining hisob-kitob raqamiga kelib tushgandan so'ng u shartnomada ko'rsatilgan muddat ichida fuqarolarga sug'urta polisini berishi shart. Agar sug'urta polisi yo'qotilgan taqdirda sug'urta tashkiloti sug'urtalangan shaxsga uning dublikatini beradi.

Sug'urtalanuvchilarning huquqlari:

- sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda sug'urtalangan shaxs sug'urta tashkilotidan sug'urta masalalari bo'yicha maslahatlar olishi;
- sug'urta polisi yo'qotilganda uning dublikatini olish.

Fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashda sug'urtalangan shaxslar yana quyidagi huquqlarga ega bo'lishi mumkin:

- sug'urta summasini olishda nizolar paydo bo'lganda mustaqil ekspertni jalb etish;
- sug'urtalanuvchi bilan kelishilgan holda amaldagi sug'urta shartnomasiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish;
- sug'urtalovchi bilan kelishgan holda sug'urta shartnomasini muddatdan oldin bekor qilish.

Sug'urtalanuvchi majburiyatlari:

- sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan muddat va shartlarda sug'urta mukofotlarini to'lash;
- sug'urtalangan shaxslarga sug'urta shartnomasi shartlari to'g'risida ma'lumotlar berish.

Sug'urtalovchining huquqlari:

- sug'urta hodisalari sug'urtalovchi tomonidan tan olinmaganda sug'urta summalarini to'lamaslik;
- sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan muddatda sug'urta mukofoti to'lanmasa sug'urta shartnomasini bekor qilish.

Sug'urtalovchining majburiyatlari:

➤ fuqarolarni baxtsiz hodisalardan ixtiyoriy sug'urtalash qoidalari va sug'urta shartnomasi shartlari bilan sug'urtalanuvchini tanishtirish;

➤ sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan muddatda sug'urta polisini berish;

➤ sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urta summasini to'lash;

➤ sug'urta summasini to'lashdan voz kechilganda, u holda 10 kun muddatda sug'urtalanuvchiga yozma ravishda xabar berish.

Sug'urta hodisasi ro'y berganda bu haqida sug'urtalangan shaxslar qisqa muddatda sug'urtalovchiga xabar berishi lozim. Baxtsiz hodisa ro'y berganda sug'urtalangan shaxslar sug'urtalovchiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

➤ sug'urta polisi;

➤ davolash profilaktika muassasidan baxtsiz hodisa natijasida sug'urtalangan shaxsning davolanganligini tasdiqlovchi ma'lumotnoma.

Zaruriyat bo'lganda sug'urtalovchi sug'urta summasini to'lash masalasini hal etish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlarni so'rashga ham haqli.

Baxtsiz hodisalar ro'y berish natijasida o'lim hodisasi ro'y berganda quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

➤ sug'urta polisi;

➤ FXDYO bo'limidan o'lim holati ro'y bergani to'g'risida ma'lumotnoma;

➤ merosxurlik huquqini tasdiqlovchi hujjat;

➤ agar o'lim hodisasi yo'l-transporti natijasida ro'y bergan bo'lsa, yo'l harakati xavfsizligi organidan olingan ma'lumotnoma;

➤ shaxsni tasdiqlovchi hujjat.

Sug'urtalovchi zarurat bo'lganda yuqoridagi hujjatlardan tashqari boshqa hujjatlarni so'rashi ham haqlidir.

Individual shaxslarni baxtsiz xodisalardan sug'urtalash holati quyidagi ko'rinishlarga ega:

- sug'urtalangan shaxsning mehnatga layoqati vaqtincha yo'qotilishi;

- sug'urtalangan shaxsning mehnatga layoqati umrbod yo'qotilishi;

- baxtsiz hodisa natijasida sug'urtalangan shaxsning vafot etishi.

Sug'urta shartnomalari muddatlari turli xil bo'lishi mumkin: bir qancha soatga, bir qancha kundan bir yilgacha, bir necha yilga, umrbod yoki ayrim ish va tashrif davomiga. Baxtsiz hodislardan sug'urtalashda sug'urta qoplamasi to'lash vaqti ham har xil bo'lishi mumkin.

Nazorat savollari:

1. Shaxsiy sug'urtaning paydo bo'lishini aytib bering.
2. Shaxsiy sug'urtaning rivojlanish bosqichlarini aytib bering.
3. Shaxsiy sug'urtaning ob'ekti va sub'ektlari bo'lib kimlar hisoblanadi.
4. Fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashning huquqiy asoslarini aytib bering.

VIII BOB. MULKIY SUG'URTA MENEJMENTI

8.1 Mulkiy sug'urtaning kelib chiqishi va rivojlanishi

Ma'lumki, mol-mulklarni sug'urta qilish kishilik jamiyatining turli bosqichlarida mavjud bo'lgan va uzoq tarihgaga ega. Mulkiy sug'urta insoniyat va uning mol-mulkini ishonchli himoyalashning muhim vositasi sifatida o'z rivojlanish tarixida ikki bosqichni boshidan kechirgan.

❖ tijoratga asoslanmagan sug'urta xizmatlari:

❖ tijoratga asoslangan sug'urta xizmatlari.

Tijoratga asoslanmagan xizmatlari sug'urta ibtidoiy jamoa, quldorlik va feodal jamiyatlariga hos bo'lib, unda sug'urtalovchilar ittifoqi o'z oldiga foyda olishni maqsad qilib qo'yishmagan.

Ibtidoiy jamoa tuzumida qabila shaklida turmush kechirgan insonlar qurg'og'chilik va boshqa tabiiy ofatlardan saqlanish uchun oziq-ovqat, suv zahiralarni shakllantirganlar. Keyinchalik qo'l mehnatining takomillashishi va ishlab chiqarish jarayonida asbob-uskunalardan foydalanish va asta-sekinlik bilan tabiiy boyliklarni sanoat usulida o'zlashtirilishi qo'shimcha havf-hatarlarni: ishlab chiqarish, texnik omillarni paydo bo'lishiga olib keldi.

Dastlab, insonlar turli tabiiy ofatlar va boshqa oldindan ko'rib bo'lmaydigan hodisalar ro'y berishini oldini olish maqsadida hudolarga sig'inishgan. Stihiyali hodisalarning ro'y berishi, bu tabiiy qol ekanligini anglagan insonlar quldorlik davridayoq, yongin, qurg'oqchilikdan saqlanish uchun natura shaklidagi sug'urta fondlarini tashkil etishgan.

Tarixiy hujjatlarga ko'ra, notijorat sug'urtaning dastlabki shakllari, eramizdan 2000 yil oldin Vavilon podshohi Hammurapi qonunlarida, shuningdek, Fors ko'rfazi, qadimgi Greciya va Misr, qadimgi Rimdagi savdogarlarning o'zaro tuzgan bitimlarida o'z aksini topgan. Bu bitim shartlariga muvofiq, umumiy karvon safida savdo qiluvchi savdogarlardan birortasi stihiyali hodisalar yoki qaroqchilar hujumi oqibatida zarar ko'rsa, bu zararlar boshqa savdogarlar tomonidan qoplanishi belgilangan. Bu davrlarda mahsus sug'urta tashkilotlari bo'lmagan va sug'urta badallari to'lanmagan.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish natijasida sug'urtaning mazmuni takomillashib, uning yangi turlari paydo bo'lgan. Hususan, qadimgi Rimda kasbiy va diniy belgilarga ko'ra, o'z ustavlariga ega bo'lgan kollegiya, ittifoqlar bo'lgan. Kollegiya yoki ittifoq a'zolari sug'urta badallarini to'lashgan hamda Ustavda qayd etilgan shartlarda ko'rilgan zararni qoplash uchun qoplamalar olish huquqiga ega bo'lgan. Qadimgi Rimda birinchi bizning eramizdan 133 yil oldin Lanuviylar kollegiyasi tashkil topgan va faoliyat yuritgan.

Lanuviylar Ustaviga muvofiq, unga a'zo bo'ladigan shahslar 100 sistem miqdorida kirish badalini to'lashgan. Oylik badal summasi - 5 assani tashkil etgan. Mabodo, kollegiya a'zosi vafot etsa, uning merosho'riga 300 sistemni ajratilgan. Agar, kollegiya a'zosi o'zini-o'zi o'ldirsa yoki vafot etish arafasida oylik badallar to'lash muddati 6-10 oy cho'zilgan bo'lsa, bunday holatda uning merosho'rlariga sug'urta summasi to'lanmagan.

Qadimgi Rimda notijorat sug'urtaning rivojlanganligiga yana bir misol keltirish mumkin. Harbiy kollegiyaga a'zo bo'lgan shahslar kassaga 750 dinariy (1 dinariy 4 sistern) to'lashgan. Bu badal bir marotaba to'liq to'lanmasdan, oy-oy to'lanishiga ruhsat etilgan. To'langan badal evaziga, kollegiya a'zosi hizmat yuzasidan ko'tarilsa, unga 500 dinariy; boshqa legionga o'tkazilganda 500 dinariy; vafot etsa, uning merosho'riga 500 dinariy to'langan.

X-XIII asrlarda sug'urta gildiy va cehtar tomonidan amalga oshirila boshladi. Masalan, X asrda Angliyada gildiya a'zolariga tegishli o'g'irlangan hayvonlarni qoplash uchun anglosaksoniya Gildiyasi tashkil etilgan. XI asrda Daniyada gildiya a'zolari, ulardan qaysi biri kema avariyasiga uchrasa yoki asirga tushsa, unga umumiy kassa hisobidan zarar qoplangan yoki asirdan qutqarish uchun sotib olingan.

Keyinchalik gildiya sug'urtasi himoya qiluvchi va kasbiy gildiyalariga bo'linishgan. Himoya qiluvchi gildiyalar o'z a'zolarining mol-mulkini turli havf-hatarlardan himoya qilishgan.

Hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi shahslar cehtarga birlashishgan. Ceh o'z a'zolariga bahtsiz hodisalar ro'y berganda, qarilik tufayli mehnat qobiliyatini yo'qotganda va vafot etganda yordam ko'rsatgan. Ceh halok bo'lgan a'zosining oilasini boqish majburiyatini olgan.

Notijorat shaklidagi sug'urta qadimgi Rusda ham mavjud bo'lgan. Jumladan, agar okrug hududida o'lim hodisasi ro'y berib, qotil aniqlanmasa: knyazlik erkagi uchun - 80 griven (1 griven=409,536 gr. og'irlikka ega kumush qo'yilmasi), oddiy fuqaro uchun esa- 40 griven qoplama to'langan.

1. Yevropada tijorat sug'urtasi paydo bo'lishining birinchi bosqichlari (XV-XVI asr ohiri).

2. Tijorat sug'urtasi rivojlanishining ikkinchi bosqichi (XVI asr ohiri- XX asr ohiri).

3. Tijorat sug'urtasining uchinchi bosqichi (XX asr ohiri-XX asr o'rtalari).

Tijorat sug'urtasi paydo bo'lishining birinchi bosqichida sug'urta hizmati oldi-sotdi ob'ektiga aylandi; ikkinchidan, sug'urta faoliyati shakllanayotgan bozor ho'jaligining muhim tarmog'iga aylandi; uchinchidan, sug'urta bitimlari shartnoma asosida tuziladigan bo'ldi.

XV asrda sug'urta operasiyalarini amalga oshirish orqali foyda olish, Italiyada, dengiz orqali yuk tashish amaliyotida joriy etilgan. O'sha davrda O'rta er dengizi orqali yuklarni tashishda Italiya ustun mavqeyga ega bo'lgan. Dengiz sug'urtasi rivojlanganligini, 1393 yilda birgina notarius orqali bir haftada 80 ta sug'urta shartnomasi tuzilganligi bilan tushuntirish mumkin.

Bu davrlarda dengiz sug'urtasi Ispaniya va Portugaliyada ham taraqqiy eta boshlagan. Birinchi sug'urta polisi 1347 yilda Barselonada berilgan. 1468 yilda dengiz sug'urtasi bo'yicha Veneciya Kodeksi yaratiladi.

Keyinchalik, XVI asrga kelib dengiz sug'urtasi bo'yicha hizmatlarni ko'rsatish Angliyaga ko'chadi. 1601 yilda bu erda dengiz sug'urtasida yuzaga keladigan nizolarni ko'rib chiqadigan sudlar tashkil etilgan. XVI asrdasanoat ishlab chiqarishining manufaktura shakli o'z o'rnini fabrika shakliga berdi. Bu o'z navbatida, sug'urta yanada rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratdi.

Tijorat sug'urtasi shakllanishining ikkinchi bosqichida mulk sug'urtasining bir shakli sifatida dengiz sug'urtasi asosiy sug'urta turi sifatida o'z mavqeini saqlab qoldi.

Dengiz sug'urtasi bo'yicha dastlabki jamiyat 1668 yilda Fransiyada tashkil etilgan. XVI asr ohirlarida Londonda hususiy sug'urtalovchilarning uyushmasi tashkil etilgan. 1871 yilgacha ushbu uyushma "London lloydi" nomi bilan faoliyat ko'rsatib kelgan. Germaniyadagi dastlabki sug'urta jamiyatlari 1765 yilda Gamburg va Berlinda tuzilgan.

Dengiz sug'urtasini paydo bo'lishi va rivojlanishiga stihiyali hodisalar qurg'oqchilik ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, Yevropa mamlakatlaridagi urbanizasiya mulk sug'urtasining boshqa turlarini vujudga kelishiga olib kelgan. 1666 yilda Londonda katta yong'in bo'lgan va natijada 70,0 ming kishi halok bo'lgan. Bu Yevropada yong'indan sug'urtalashni paydo bo'lishiga sharoit yaratgan. Angliyada ko'plab yong'indan sug'urtalash bilan shug'ullanuvchi jamiyatlar barpo etilgan.

Germaniyada dastlabki yong'indan sug'urtalash bo'yicha aksiyadorlik sug'urta jamiyati 1812 yilda tuzilgan.

Hayotni sug'urtasi bo'yicha birinchi sug'urta jamiyati "Ekvitebl" nomi bilan 1762 yilda tashkil etilgan. 1830 yilga kelib, Angliyada 35 ta yirik hayotni sug'urtasi bo'yicha jamiyatlar faoliyat ko'rsatgan. Hayotni sug'urtalash bo'yicha dastlabki aksiyadorlik sug'urta jamiyatlari 1787 yilda Fransiyada tashkil etilgan. Germaniyada esa 1806 yilga kelib hayot sug'urtasi bo'yicha aksiyadorlik jamiyati tuzilgan.

XVI asr ohiri va XX asrning boshlariga kelib sanoat ishlab chiqarilishini rivojlanishi mulkiy va shahsiy sug'urtani taraqqiy etishini ancha tezlashtirdi.

XX asr ohirlarida sanoat sohasidagi tub o'zgarishlar, hususan, ishlab chiqarishda ilmiy-tehnika yutuqlaridan foydalanish, elektr energiyasidan keng foydalanish tehnologik harakterdagi risklarni keltirib chiqardi.

1776 yili Rossiyada Davlat banki huzurida sug'urta ekspeditsiyasi tashkil etilgan.

1800 yilda Imperator farmoni bilan kema va tovarlarni sug'urtalash bo'yicha sug'urta jamiyati tashkil etildi, biroq uning mijozlari bo'lmaganligi uchun tugatilgan. Bu sug'urta jamiyatini qo'llab-quvvatlash uchun Rossiya Hukumati unga eng asosiy gubernalarda sug'urta ishini mutloq amalga oshirish uchun 20 yil muddatga huquq bergan.

1835 yilda ikkinchi yong'indan sug'urtalash bo'yicha jamiyat tuzilgan. 1890-1900 yillarga kelib, o'zaro sug'urtalash bo'yicha shahar jamiyatlari bo'lgan va rivojlangan. 1909 yilda markazi Peterburg shahrida bo'lgan o'zaro sug'urtalash jamiyatlarining Rossiya ittifoqi tashkil etilib, 1914 yilda uning tarkibida 300 ga yaqin sug'urta tashkiloti bo'lgan. 1894 yilda Rossiya Ichki Ishlar Vazirligiga sug'urta jamiyatlari ustidan nazorat olib borish yuklatiladi. 1917 yilga qadar, Rossiyada sug'urta ishi raqobatga asoslangan holda rivojlanishning yuqori darajasiga erishilgan edi.

Insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida ham sug'urta tushunchasi bilan bog'lig munosabatlarning mavjud bo'lganligi tarihdan bizga ma'lum. Ibtidoiy jamoa tuzumida o'ruh va qabila shaklida hayot kechirgan shahslar har hil oldindan ko'rib bo'lmaydigan hodisalardan saqlanish maqsadida oziq-ovqat zararlarni yaratganlar.

Ayrimlar esa, sodir bo'lgan suv toshqinlari va qo'rg'oqchilik kabi nohush hodisalarni qandaydir hudoning qarq'ishi deb qabul qilganlar. Nima bo'lganda ham o'sha davrlarda kutilmagan va behosdan bo'ladigan, bir so'z bilan aytganda, inson irodasi bilan bogliq bo'lmagan vaqea-hodisalar ro'y berganda ko'riladigan zararlarni qoplash uchun zahiralarni tashkil etganliklari, shubhasiz.

To'g'ri, insoniyat sivilizatsiyasi boshlangan davrdan to bugungi kungacha bir necha ming yillar o'tgan. Ammo, sug'urtaning fundamental, ilmiy asoslangan prinsiplaridan biri bo'lgan turli hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararlarni qoplash maqsadida zahiralarni shakllantirilishi bugungi kunda ham saqlanib qolgan. Bu o'z navbatida, bizga sug'urta munosabatlari ko'p ming yillik tarihga ega deb ta'kidlashimiz uchun asos bo'ladi.

Ko'pchilik mutahassislar, jumladan mana shu sohaga yaqin ba'zi mutahassislarimiz sug'urtani himoya vositasi sifatida tushunishadi. Haqiqatan ham shundaymi? Biz bu erda sug'urta nazariyasi qoidalarni chugur o'rganishni va ular ustida ilmiy bahs-munozara yuritishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yishdan aslo yiroqmiz. Zero, bu masala alohida ilmiy-tadqiqot predmeti bo'lishi mumkin. Fikrimizcha, sug'urtani faqat falokat yuz berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash nuqtai nazaridan himoya vositasi deb talqin etish unchalik ham to'g'ri emas. Buning boisi shundaki, sug'urta qoq u korhona, tashkilot bo'ladimi yoki fuqarolarni hamma uchun himoya vositasi bo'la olmaydi. Demak, kimlar sug'urta himoyasida bo'lishi mumkin? Bu mulohaza bizga sug'urtaning ikkinchi bir fundamental prinsipini bayon etishimizga imkon beradi. Faqat shunday yuridik yoki jismoniy shahslar sug'urta himoyasiga olinishi mumkinki, ular albatta, sug'urta zahirasini tashkil etishda ishtirok yetgan bo'lishi lozim. Soddaroq qilib aytganda, fuqaro yoki korxonalar ma'lum bir haq evaziga sug'urta hizmatini sotib oladilar. Ular to'lagan haqning bir qismi sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi mahsus tashkilot – sug'urta tashkiloti barpo etadigan zahira fondida saqlanadi. Oldindan ko'rib bo'lmaydigan hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan ziyon, shubhasiz, uning ishtirokida shakllangan sug'urta zahira fondi hisobidan qoplanadi. Ko'rinib turibdiki, sug'urta himoyasiga faqat sug'urta tashkiloti hizmatini sotib olgan shahslargina muyassar bo'lishlari mumkin. Kimki, u yuridik yoki jismoniy shahs bo'lishidan qat'iy nazar, sug'urta tashkiloti hizmati uchun haq to'lamasa, ya'ni sug'urta polisini sotib olmasa, o'z-o'zidan ularga ko'rilgan zararlarni qoplash uchun mablag' berilmaydi.

Sug'urta o'zi nima degan savolga javoban ta'kidlash joizki, oldindan ko'rib bo'lmaydigan turli nohush hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash uchun maqsadli pul zahiralarni shakllantirilishi va ulardan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarga sug'urta deyiladi. Bu yerda darhol aniqlik kiritish zarur. Gap shundaki, ayrim sug'urta hodisalarini ro'y berishi oldindan ma'lum bo'ladi. Masalan, fuqarolarning hayotini sug'urta qilishda uning ma'lum bir yoshga etishi sug'urta hodisasi sifatida baholanadi.

Iqtisodi taraqqiy etgan davlatlarda sug'urta kundalik hayotning ajralmas bir bo'lagiga aylanganligini alohida qayd etish lozim. Bugungi kunda AQSH, Yaponiya va Yevropa Ittifoqi davlatlarida ko'pchilik fuqarolar faqat o'z hayotlarinigina emas, balki butun mol-mulkini, farzandlarini to'liq sug'urtalagani ayni haqiqatdir. Bu bejiz

emas, albatta. Ular sug'urtani «tinch hayot kechirish uchun to'lov» deb talqin etishadi.

Sug'urta rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida muhim o'rin tutishini quyidagi raqamlardan ham anglab olish mumkin. Yaponiya yalpi ichki mahsulotida sug'urta xizmatlarining hajmi qariyb 12 foizni tashkil etadi. Kunchiqar mamlakat aholisining yarmidan ko'pi o'z hayotlarini sug'urta qilishgan.

Sug'urta mustaqillik yillarida O'zbekistonda yangi bosqichga ko'tarildi. Agar, o'sha sobi? sovet davrida mamlakat ichkarisidagi barcha sug'urta ishlari faqat «Gosstrah» deb atalmish davlat sug'urta organlari tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, bugungi sug'urta bozorida 33 ta sug'urta tashkiloti 200 dan ortiq sug'urta xizmatlarini ko'rsatishmoqda.

Birinchidan, biz o'z mol-mulkimizni sug'urtalasak, moboda sug'urtalangan mol-mulk biror oldindan ko'rib bo'lmaydigan hodisalarni yuz berishi natijasida shikastlansa, ko'rilgan zarar miqdori sug'urta tashkiloti tomonidan qoplanadi. Demak, o'z mol-mulkini sug'urta qildirgan shahs sug'urta tashkiloti to'lagan sug'urta qoplamasi evaziga yo'qotilgan moddiy boyliklar qiymatini tiklaydi. Agar, sug'urtalovchi tegishli sug'urta qoplamasini bermaganida, ehtimol, zarar ko'rgan shahs o'z mol-mulki qiymatini tiklay olmasligi mumkin edi.

Ikkinchidan, sug'urtalangan shahsga to'langan sug'urta qoplamalari va summalari soliqqa tortilmaydi. Bu juda muhim. Gapning ochig'i ko'pchilik fuqarolarimiz, sug'urtaning mana shu hususiyatidan to'liq habardor emaslar. Amaldagi soliq qonunchiligi hujjatlariga muvofiq, fuqarolar va korxonalar oladigan daromadlar belgilangan tartibda daromad (foyda) solig'iga tortilishi lozim, ular uchun berilgan imtiyozlar bundan mustasno. Ammo, sug'urta hodisalari ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararlarni qoplash uchun sug'urta tashkilotlari tomonidan to'langan pul mablag'lari fuqaro yoki korhonalarning daromadi sifatida baholanmaydi.

Uchinchidan, korhona va tashkilotlarning o'z mol-mulki yoki boshqa manfaatlarini ixtiyoriy sug'urta qilish bilan bog'liq harajatlari daromad (foyda) solig'i bazasidan chiqariladi. Shu erda alohida ta'kidlash kerakki, 2002 yilning boshlariga qadar korhona va tashkilotlar o'z mol-mulkini ixtiyoriy sug'urta qilish bo'yicha to'lagan sug'urta mukofotlari soliqqa tortiladigan bazaga kiritilar edi. Bu holat ularni ixtiyoriy sug'urtaga bo'lgan manfaatdorligini yanada pasaytirar edi. Mamlakatimizdagi mavjud korhona va tashkilotlarning anchagina qismi sug'urta himoyasiga olinmaganligining omillaridan biri ham ana shunda desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

To'rtinchidan, sug'urta qilish yo'li bilan to'plangan sug'urta mukofotlarini bir qismi, aniqroq aytadigan bo'lsak, katta qismi sug'urta zahiralari saqlanadi va u sug'urta tashkilotlarini iqtisodiyotni turli tarmoqlarini investisiya resurslari bilan ta'minlovchi yirik investorga aylantiradi. Bir so'z bilan ta'kidlaydigan bo'lsak, sug'urta himoya vositasi bo'lish bilan bir qatorda iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta'minlovchi omillardan biridir.

Sug'urta haqida, uning jamiyatga qanday naf keltirishi haqida fikr-mulohaza yuritar ekanmiz, beihiyor, halqimiz orasida tez-tez ishlatib turiladigan bir naql

hayolimizga keladi; «Falokat oyoq ostida». Bu naql bizga juda ham tanish va uning zamirida chuqur bir ma'no borligini ilg'ab olish qiyin emas. Haqiqatan, biz yoki siz kundalik turmush yumushlari bilan band bo'lib, bizni oldinda nimalar kutayotganligini gohida unutib ham qo'yamiz. Ishonchimiz komil bo'ladiki, bizga hech narsa havf solmaydi. Ba'zan, to'satdan bahtsiz hodisa yoki boshqa kutilmagan falokat ro'y berishi natijasida sog'ligimizga putur etsa uni tiklash uchun ko'p harajat ham qilamiz. Avvalo, har bir insonni hudo o'z panohida asasin, deymiz. Ammo tajriba shuni ko'rsatadi, «ko'za kunda emas, kunida sinadi». Huddi shunday, falokatning ham qachon bo'lishini oldindan bashorat qilish murakkab. Yuqorida qayd etganimizdek, oldindan ko'rib bo'lmaydigan vaqea-hodisalarni ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash uchun insonlar o'z hayotlarini bahtsiz hodisalardan, korxon va tashkilotlar esa tabiiy hamda boshqa havf-hatarlarni ro'y berish holatlaridan sug'urta qilishadi.

Umuman, sug'urtaning insoniyat hayotidagi va iqtisodiyotni uzluksiz rivojlanishini ta'minlashdagi ahamiyati beqiyos. Buni e'tiborga olib, mamlakatimizda bozor infratuzilmasining ushbu bug'inini rivojlantirishga katta e'tibor berilyapti. Birgina, 2002 yilda sug'urta sohasini rivojlantirish yuzasidan davlat darajasida bir qator chora-tadbirlarni belgilanganligi fikrimizni tasdiqidir. Hususan, 2002 yilning 31 yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmonining e'lon qilinishi sug'urta tizimini taraqqiy ettirish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Mazkur Farmonga muvofiq, mulk shaklidan qat'iy nazar barcha sug'urta tashkilotlari 2002 yilning 1 fevralidan boshlab uch yil muddatga daromad (foйда) solig'i to'lashdan ozod etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2002 yil 27 noyabrda qabul qilgan qarori sohani rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etishi hech kimda shubha tug'dirmaydi. Bugungi kunda sug'urta xizmatlari bozori o'z rivojlanishining yangi bosqichiga ko'tarildi, deb aytish uchun ham bizda asos bor. Faqat bugina emas. 2002 yilning 5 aprelda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi «Sug'urta faoliyati to'g'risida» yangi qonun qabul qildi. Bu qonunning qabul qilinishi sug'urta munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va manfaatlarini qonuniy jihatdan himoyalashga muhim hissa bo'lib qo'shildi. Sug'urta sohasini tartibga soluvchi qonunchilik hujjati normalari halqaro standartlarga muvofiqlashtirildi. Jumladan, rivojlangan chet mamlakatlardagidek bizda ham sug'urta xizmatlari bozori ikkiga ajratildi: Hayotni sug'urta qilish bilan bog'liq xizmatlar bozori va umumiy sug'urta xizmatlari bozori. Hayotni sug'urta qilishga ixtisoslashgan tashkilotlar umumiy sug'urta turlarini o'tkazish, aksincha umumiy sug'urta turlarini amalga oshiruvchi tashkilotlar hayotni sug'urtalash huquqiga ega bo'lmaydi. To'g'ri, bizda hayotni sug'urta qilish, ayniqsa uzoq muddatli sug'urta turlarini rivojlantirishda ba'zi muammolar mavjud. Bu sug'urta turini amalga oshirish uchun fuqarolarda sug'urta tashkilotlariga ishonch bo'lishi bilan bir qatorda yetarli miqdorda mablag' ham bo'lishi zarur. Faqat hayot sug'urtasi bilan boqliq xizmatlarni ko'rsatishda emas, balki korxon va tashkilotlarning mol-mulki hamda boshqa ixtiyoriy sug'urta turlarini o'tkazishda ham talay muammolar mavjud. Bu muammolarni hal etish sug'urta

tashkilotlari va ularning salohiyatli mijozlari bo'lmish ko'p ming sonli aholi, yuridik shahslar rahbarlarining o'zaro hamkorligiga bog'liq. Jamiyatda aholi va korxonalar hamda tashkilot rahbarlarining sug'urtaga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirish lozim. Bu o'z navbatida sug'urta tashkilotlari tomonidan faol tushuntirish, targ'ibot ishlarini olib borishni taqozo etadi.

8.2 Mulkiy manfaat va uni sug'urtalashning zarurligi

Mulkiy sug'urta hayot sug'urtasidan tashqari umumiy sug'urta tarmog'ida eng asosiy sug'urta turlarini o'z tarkibiga oladi. Hayotiy tajribadan ma'lumki, har qanday korxonalar, tashkilot yoki fuqaro o'z mol-mulkini avaylab-asrashga harakat qiladi. Ammo, oldindan ko'rib bo'lmaydigan ko'ngilsiz voqealarning tasodifan sodir bo'lishi oqibatida bu mol-mulklar zararlanadi yoki butunlay nobud bo'ladi. Rejali iqtisodiyot tizimida barcha korxonalar davlat tasarrufida bo'lganligi bois bunday voqealarning ro'y berishi natijasida etkazilgan zararlar, aksariyat holatlarda, davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplangan.


Ammo, iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tkazish bilan bog'liq iqtisodiy islohotlar mulkiy munosabatlarni tubdan o'zgartirib yubordi. Mulklar davlat tasarrufidan chiqarilishi tufayli xususiy va boshqa mulkchilik shaklidagi korxonalar va tashkilotlar barpo etildi. Tabiiyki, yangi sharoitda davlat xususiy sektordagi korxonalar va tashkilotlarning mulkiy manfaatlariga etkazilgan zararlar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olmaydi. Bir tomondan, bozor sharoitida raqobatning mavjud bo'lishi hamda turli ichki va tashqi xavf-xatarlar tadbirkorlik faoliyatini bir maromda amalga oshirishga tahdid solsa, ikkinchi tomondan, yuqori foyda olishga intilish katta tavakkalchiliklar qilishni talab etadi.

Sug'urta korxonalar va tashkilotlarning mulkiy manfaatlarini ishonchli himoya etuvchi samarali vosita sifatida bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlarini sug'urta himoyasiga olish katta qiyinchilikka uchrayapti. Bunga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi.

- Yuridik shaxslar to'lov qobiliyatining past darajada bo'lishi;
- Sug'urta tashkilotlariga bo'lgan ishonchni kamligi;
- Yuridik shaxslar rahbarlarining sug'urtaning mazmun-mohiyati va ahamiyatini to'liq tushunib etmasligi.

Har qanday yuridik va jismoniy shaxsda o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkni saqlashga, avaylab-asrashga manfaat bo'ladi. Bu mulkiy manfaat sug'urta ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 916-moddasida sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydigan manfaatlar keltirilgan. Uni chizmada quyidagicha tasvirlash mumkin:



Yuridik shaxslarning quyidagi mol-mulklar bilan bog‘liq mulkiy manfaatli sug‘urta ob‘ekti sifatida qabul qilinishi mumkin:

- binolar, inshootlar, tugallanmagan qurilish ob‘ektlari;
- ishchi mashinalar, uzatish qurilmalar, quvvat beruvchi uskunalar;
- inventar;
- tovar zahiralari, xom-ashyo, materiallar, yoqilg‘i va boshqalar;

Sug‘urtalanuvchiga mulk huquqi sifatida tegishli bo‘lgan mol-mulklar ham, ijara va keyinchalik egalik huquqini berish sharti bilan qabul qilingan mol-mulklar ham sug‘urtalanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 915-moddasiga muvofiq, mulkiy sug‘urta shartnomasiga muvofiq bir taraf (sug‘urtalovchi) shartnomada shartlashilgan haq (sug‘urta mukofoti) evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqea (sug‘urta hodisasi) sodir bo‘lganda boshqa tarafga (sug‘urta qildiruvchiga) yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo‘lsa, o‘sha shaxsga (naf oluvchiga) bu hodisa oqibatida sug‘urtalangan mulkka etkazilgan zararni yoxud sug‘urtalanuvchining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog‘liq zararni shartnomada belgilangan summa (sug‘urta puli) doirasida to‘lash (sug‘urta to‘lash) majburiyatini oladi.

Mulkiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha quyidagilar sug‘urtalanishi mumkin:

muayyan mol-mulkning yo‘qotilishi (nobud bo‘lishi), kam chiqishi yoki shikastlanishi xavfi;

fuqarolik javobgarligi xavfi – boshqa shaxslarning hayoti, sog‘ligi yoki mol-mulkiga zarar etkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar bo‘yicha javobgarlik, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, shuningdek shartnomalar bo‘yicha javobgarlik xavfi;

tadbirkorlik xavfi - tadbirkorning kontragentlari o‘z majburiyatlarini buzishi yoki tadbirkorga bog‘liq bo‘lmagan vaziyatlarga ko‘ra bu faoliyat shart-sharoitlarining o‘zgarishi tufayli tadbirkorlik faoliyatidan kutilgan daromadlarni ololmaslik xavfi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkini sug'urtalash shartnomasi ularning yozma arizasiga asosan tuziladi. Mol-mulkni sug'urtalash shartnomasi tuzilayotganida sug'urtalovchi sug'urta qilinayotgan mol-mulkni ko'zdan kechirishga, zaruriyat bo'lgan taqdirda uning haqiqiy qiymatini belgilash maqsadida ekspertiza tayinlashga haqli. Mol-mulkni yoki tadbirkorlik xavfini sug'urta qilishda, agar sug'urta shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lsa, sug'urta puli ularning haqiqiy qiymatidan (sug'urta shartnomasini tuzish kuni turgan joyidagi haqiqiy qiymati) oshmasligi lozim.

Sug'urtalovchilarning faoliyati tijoratga asoslangan, binobarin, foyda olishga qaratilgan ekan, ular har qanday risklarni sug'urtaga qabul qilavermaydi. Boshqacha so'z bilan ifodalaganda, risklar tanlanadi. Risklarni tanlash - sug'urta shartnomasini tuzish bo'yicha mijozlardan kelib tushgan takliflarni tahlil etishga qaratilgan sug'urta kompaniyasining faoliyati. Sug'urta kompaniyasining muvozanatlashgan sug'urta portfelini shakllanishida risklarni tanlash iborasini amaliy jihatdan ishlatish muhimdir. Sug'urta amaliyotida risklarni tanlash ishini syurveyerlar amalga oshiradi. Risklarni tanlash - bu risk menejment sohasida olib boriladigan chora - tadbirlarning bir qismidir.

Yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlarini sug'urta qilishda quyidagi risklar asosiy rolni o'ynaydi.

Avariya – arabcha «avar» so'zidan olingan bo'lib, shikast, ziyon degan ma'noni anglatadi. Avariya transport vositasiga, tashish jarayonida yuk va transport vositasiga etkazilgan zarar, ziyon. Ko'p sonli insonlar o'limiga sabab bo'lgan avariya-halokat deyiladi. Dengiz huquqida kemaga, yukga, fraxtga atayin yoki atayin bo'lmagan holda etkazilgan zararga avariya deyiladi. Avariya 2 ga bo'linadi: umumiy avariya, qisman avariya. Umumiy avariya-kemani, fraxtni va unda tashilayotgan yukni qutqarish maqsadida yuzaga kelgan hamma xarajatlar. Qisman avariya-kema yoki yukning shikastlanishi natijasida unga etkazilgan zarar. Odatda, qisman avariya ko'rilgan zararni qoplash mas'uliyati bir tomonning zimmasiga tushadi.

Buron - 1) past haroratli havo sharoitida paydo bo'ladigan kuchli shamol. Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta hodisasini ro'y berishiga olib keluvchi va risk darajasini oshiruvchi omil sifatida qaraladi. 2) dengizda yirik to'lqinni keltirib chiqaruvchi, quruqlikda esa katta vayronagarchilikka sabab bo'luvchi juda kuchli shamol. Er yuzasida shamolning tezligi 20 m/s dan oshadi.

Do'l-atmosfera xarakteridagi yog'ingarchilikning bir ko'rinishi; yilning iliq vaqtlarida zich muz bo'laklari shaklida yog'adi. Do'l qishloq xo'jalik sohasiga katta zarar etkazadi, fuqarolik aviatsiyasi harakati uchun ham xavf to'g'iradi.

Zilzila – er qa'rida to'plangan energiyani otilishi natijasida paydo bo'ladigan er osti tulqinlari. Zilzilaning davomiyligi ballar orqali aniqlanadi. Evropa mamlakatlarida 12-balli, Lotin Amerikasida 10-balli, Yaponiyada esa 7-balli shkaladan foydalanishadi. Jahonda kuchli 2 ta seysmik zona mavjud: tinch okean va O'rta er-dengizida.

YAshin (chaqmoq chaqishi) – bulutlar va er o'rtasida kuchli elektr razryadlari o'rtasida paydo bo'ladigan atmosfera hodisasi. YAshin urishi erda turli darajadagi

yong'in va boshqa falokatlarni keltirib chiqarishi mumkin. YAshin urishi sug'urta hodisasi sifatida baholanadi va sug'urta qoplamasini to'lashga asos bo'ladi.

Suv toshqini - qorning haddan ziyod erishi va kuchli yomg'ir yog'ishi yoki jala qo'yishi natijasida daryo, ko'l havzalarida suv sathining keskin oshishi tufayli katta hajmdagi er maydonini suv bosishi. O'zbekistonda, ayniqsa, bahor faslida tog'li hududlarda va daryo o'zanida joylashgan hududlarda bunday hodisalar tez-tez uchrab turadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli qaroriga binoan "Sug'urta faoliyati klassifikatori" tasdiqlangan. Ushbu klassifikatorning 8 va 9-klasslari mos ravishda "Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish" hamda "Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish" deb ataladi.

SHuni alohida ta'kidlash kerakki, sug'urta shartnomasi tuzishdan oldin, sug'urta tashkilotining vakili sug'urta himoyasiga olinajak asosiy vositalarni diqqat bilan ko'zdan kechirishi shart. Ammo, hamma joyda ham bu muhim qoidaga rioya etilmaydi. Oqibatda, ba'zi sug'urtalanuvchilar sug'urta ob'ekti haqida noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etishi mumkin. Moboda, sug'urtalangan mol-mulk haqida sug'urta tashkilotiga noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilganligi ma'lum bo'lsa, bunday holatda sug'urtalovchi sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urta qoplamasini to'lamaslik huquqiga ega bo'ladi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkini sug'urta qilish bo'yicha shartnomalar tuzishdan oldin, ularda bo'sh mablag' bormi yoki yo'qmi ekanligini bilish muhim ahamiyatga ega. Tajribaning ko'rsatishicha, tegishli shartnomalar tuziladi, korxonalarda mablag' etishmasligi tufayli ular yuridik kuchga kirmasdan qoladi. Sug'urta shartnomasi tomonlar imzolagandan so'ng kuchga kiradi, ammo sug'urta tashkilotining sug'urta hodisasi ro'y berishi oqibatida ko'rilgan zararni qoplash majburiyati uning hisob-kitob raqamiga sug'urta mukofoti kelib tushgandan so'ng boshlanadi. Bu haqda shartnomada alohida ko'rsatiladi. Sababi, sug'urta mukofoti kelib tushmasdan sug'urta qoplamasini to'lash mantiqsizdir va sug'urta nazariyasining fundamental prinsiplariga mos kelmaydi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkini va boshqa asosiy vositalarini ixtiyoriy sug'urta qilish qoidalariga ko'ra, korxonalarga sug'urta polisi ular tomonidan sug'urta tashkilotining hisob-kitob raqamiga sug'urta mukofoti kelib tushgandan keyin shartnomada kelishilgan muddatda beriladi. Sug'urta polisi- sug'urta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlovchi xujjat. Sug'urta polisida quyidagi rekvizitlar bo'lishi shart: sug'urta kompaniyasining yuridik manzili, sug'urtalanuvchining nomi, sug'urta ob'ekti, sug'urta badalining miqdori, shartnomaning amal qilish muddati. Sug'urta qoplamasini to'lashda sug'urtalanuvchi sug'urta polisini sug'urta kompaniyasiga taqdim etishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2002 yilning 27 noyabridagi 413-sonli qarorida "mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish" 8-klassga oid ekanligi ko'rsatilgan. YOng'in, portlash, bo'ron, dovul, jala, ko'chki, tuproqning cho'kishi, emirilish, er osti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila,

yadro energiyasi ta'siri natijasida mol-mulk yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlarining jami hukumat qarori bilan tasdiqlangan "Sug'urta faoliyati klassifikatori" ning 8-klassiga mos keladi. Do'l, qalin qor yog'ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o'g'irlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari 9-klass doirasida amalga oshiriladi.

Sug'urta hodisalari sug'urtalanuvchilarning qo'pol ehtiyotsizligi, atayin hatti-harakati natijasida sodir etilsa va uning natijasida mol-mulkka zarar etkazilsa, bu zararlar sug'urtalovchi tomonidan qoplanmaydi. Shu yerda siyosiy risklarni sodir bo'lishi oqibatida ko'rilgan zararlar ham qoplanmasligini eslatib o'tish o'rinni deb hisoblaymiz.

Yuridik shaxslar mol-mulkini sug'urtasi bo'yicha sug'urta summasi mol-mulk balans qiymatiga nisbatan foizlarda hisoblanadi. Tarif stavkasini aniqlashda mol-mulkning joylashgan o'ni, eskirganlik va risk darajasi kabi omillar hisobga olinadi.

Har qanday shartnomada bo'lgani kabi, yuridik shaxslar mol-mulkini sug'urtalash shartnomasida ham unda ishtirok etuvchi tomonlar tegishli huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi. Chunonchi, sug'urtalovchining huquqiga quyidagilarni kiritish mumkin: sug'urtalangan mol-mulkning holatini, saqlanishini butun sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda tekshirish, sug'urtalanuvchi tomondan sug'urta shartnomasi shartlari bajarilmaganda uni bekor qilish, mol-mulklarni zararlanishiga va nobud bo'lishiga aybdor bo'lgan shaxslar aniqlanganda sug'urta qoplamasini ulardan undirib olish va boshqalar. Sug'urta shartnomasiga muvofiq, sug'urtalovchi shartnomada belgilangan muddatda sug'urta polisini sug'urtalanuvchiga berishi, sug'urta hodisasi tufayli ko'rilgan zararlarni aniqlash va uni qoplash chora-tadbirlarini ko'rish shart. Sug'urta tashkiloti sug'urtalanuvchining mol-mulki holatiga oid ma'lumotlarini sir saqlashi talab etiladi.

Yuridik shaxslar-sug'urtalanuvchilar sifatida sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda sug'urtalovchidan maslahatlar olish, sug'urtalash qoidalari bilan tanishish kabi huquqlarga ega. Ayni paytda, sug'urtalangan korxonalar mol-mulk zararlanganda yoki nobud bo'lganda uni oldini olish chora-tadbirlarini ko'rish zarur, sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan muddatda sug'urta mukofotini to'lashga majbur. Aks holda, sug'urta shartnomasi o'z kuchini yo'qotishi mumkin.

Yuridik shaxslarning mol-mulkini sug'urtalash sug'urta tashkilotlari tomonidan "Sug'urta faoliyati klassifikatori" ga muvofiq, umumiy sug'urta tarmog'ining 8-klassi - "Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish" da qayd etilgan shartlarda, ya'ni yong'in, portlash, bo'ron, dovul, jala, ko'chki, tuproqning cho'kishi, emirilish, er osti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta'siri natijasida mol-mulk yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, mazkur klassifikatorning 9-klassi ham mol-mulklarni sug'urta qilishga oid bo'lib, u "Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish" deb ataladi. 9-klassning mazmuni 8-klassda ko'rsatilmagan do'l, qalin qor yog'ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o'g'irlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jamidan iborat.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yuridik shaxslarning mol-mulkini sug'urta qilish huquqiga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 8 va 9- klasslar bo'yicha litsenziya olgan barcha sug'urta tashkilotlari haqlidir.

Yuridik shaxslarning mol-mulkini sug'urta qilish sug'urtalovchilar bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

Sug'urta shartnomasi - tomonlarning aniq yuridik va moliyaviy munosabatlarini belgilab beruvchi xujjatdir. SHartnomada franshiza qo'llanilishi mumkin. Franshiza-YUridik shaxslar ko'rgan zararining muayyan qismi bo'lib, sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta tashkiloti ana shu qism doirasida javobgar bo'lmaydi va u to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta qoplamasidan chegirib tashlanadi.

Sug'urtalovchi yuridik shaxslarga tegishli mol-mulklarni yong'in, zilzila, toshqin, suv bosishi, ko'chki, bo'ron, er cho'kishi, ichki sanitariya texnikasi tizimlari buzilishi natijasida to'liq yoki qisman nobud bo'lganda sug'urta qoplamasini, sug'urtalanuvchi bo'lgan yuridik shaxslar esa sug'urta mukofotini o'z vaqtida to'lash va shartnomaning boshqa shartlarini bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Mana shu qayd etilgan holatlar sug'urta tashkiloti va yuridik shaxslar o'rtasida mol-mulkni sug'urtalash bo'yicha tuzilgan shartnomaning predmetini tashkil etadi.

Suturtalovchining majburiyatlari sug'urta mukofoti suturtalovchining hisob-kitob raqamiga kelib tushgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi. So'ng sug'urta polisi sug'urtalanuvchiga shartnomada ko'rsatilgan muddat ichida beriladi.

Yuridik shaxslarning hamda sug'urtalovchi o'rtasida tuzilgan sug'urta shartnomasida tomonlarning huquq va majburiyatlari aks ettiriladi.

Sug'urtalanuvchi bo'lgan yuridik shaxslarning majburiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Sug'urta ob'ektini ko'zdan kechirish uchun imkoniyat yaratib berish;
- Sug'urta mukofotlarini o'z vaqtida to'lash;
- Shartnoma tuzilayotganda sug'urtalovchiga sug'urta tavakkalchiligini baholash uchun ahamiyat kasb etuvchi o'ziga ma'lum barcha holatlar haqida, shuningdek mazkur sug'urta ob'ekti bo'yicha tuzilgan yoki tuzilajak hamma sug'urta shartnomalari to'g'risida ma'lumot berish;

- Sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urtalangan mulkiga zarar etkazilishining oldini olish va zararni kamaytirish uchun zarur choralarni ko'rish va sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi haqida sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan muddatlarda xabar berish.

Yuridik shaxslar sug'urtalangan mulkini ko'zdan kechirish uchun sug'urtalovchiga taqdim qilishi yoki mulkning barcha zararlangan qismlarining fotosurati yoki video suratini oldirishi va tiklash ishlari boshlangunga qadar o'zi qiladigan ishlarni sug'urtalovchi bilan kelishib olishi kerak.

YUridik shaxslar quyidagi huquqlarga ega bo'lishi mumkin:

- butun mulkni va ayrim ob'ektlarni tomonlarning qo'shimcha kelishuvi yoki yangi sug'urta shartnomasi shartlari asosida qo'shimcha sug'urtalash;
- sug'urta hodisasi sodir bo'lganda mustaqil ekspertiza o'tkazilishini talab qilish;
- sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda sug'urtalovchidan sug'urta masalalari borasida maslahatlar olish;

• sug'urtalovchi bilan kelishgan holda sug'urta shartnomasiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish.

Yuridik shaxslar oldida sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tashkiloti quyidagi majburiyatlarga ega bo'ladi:

• shartnomada belgilangan muddatlarda sug'urta polisini berish va shartnoma tuzishda asoslanilgan sug'urtalash qoidalarini bilan tanishtirish;

• sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan sug'urta hodisalari yuz berganda sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi haqidagi dalolatnoma asosida sug'urta qoplamasi to'lash;

• sug'urtalanuvchi bilan bo'ladigan munosabatlarda mahfiylikni ta'minlash.

Shu bilan bir qatorda sug'urta tashkilotining huquqlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

• agar sug'urta hodisasi:

a) sug'urtalovchining sug'urta hodisasini keltirib chiqarish uchun ataylab qilgan hatti-harakatlari natijasida yuz bergan bo'lsa;

b) sug'urtalanuvchi tavakkalchilikdagi jiddiy o'zgarishlar haqida sug'urtalovchini boxabar qilgan bo'lmasa;

v) sug'urtalanuvchi sug'urta hodisasi to'g'risida sug'urtalovchiga xabar bermagan yoki etkazilgan zarar tafsilotlari, turi va miqdorini aniqlashda sug'urtalovchi yoxud uning vakili ishtirok etishiga to'sqinlik qilgan bo'lsa;

g) sug'urtalanuvchi zararni aniqlash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etmagan bo'lsa, sug'urta to'voni to'lashni rad etish;

• sug'urta shartnomasining muddati mobaynida sug'urtalangan mulkning ahvoli va qiymatini, shuningdek sug'urtalanuvchi o'z mulki haqida ma'lum qilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish;

• sug'urtalanuvchidan sug'urta hodisasi haqida xabar kelishini kutib o'tirmasdan, sug'urta hodisasi etkazgan zararni ko'zdan kechirish va baholashga kirishish;

• sug'urta hodisasi yuz berishi xavfining darajasini ifodalovchi qo'shimcha hujjatlarni talab qilib olish.

Sug'urtalanuvchi bo'lgan yuridik shaxslar sug'urta mukofotini shartnomada ko'rsatilgan muddatda to'lamaganda shartnoma yuridik kuchini yo'qotishi mumkin.

Agar sug'urtalangan mulkning yo'qolishi yoki zararlanishiga quyidagilar sabab bo'lsa sug'urta tashkiloti sug'urta javobgarligidan ozod etilishi mumkin:

a) sug'urtalanuvchining majburiyatlari kuchga kirgunga qadar mulkda mavjud bo'lgan hamda sug'urtalanuvchi yoki uning vakillariga ma'lum bo'lgan kamchilik va nuqsonlar;

b) sug'urtalangan mulkdan foydalanish qoidalarining sug'urtalanuvchi yoki uning vakillari tomonidan buzilishi natijasida zarar etkazilishi;

v) sug'urtalanuvchining yoki uning shartnoma bo'yicha sug'urtalangan mulk ishonib topshirilishi mumkin bo'lgan xodimlaridan, vakillaridan yoki boshqa shaxslardan birining chtiyotsizligi, vijdotsizligi, nosamimiyligi, shuningdek mulkka mulkdorlik yoxud egalik huquqining qalloblik yo'li bilan boshqa shaxsga o'tkazilishi;

g) doimiy ta'sir ko'rsatuvchi foydalanish omillari (eskirish, zanglab chirish) va ob-havo omillari ta'sirida yoxud sug'urtalangan narsalardan foydalanmaslik oqibatida asta-sekin zararlanish;

d) sug'urtalanuvchi yoki uning vakillari tomonidan yong'in xavfsizligi qoidalarining buzilishi;

e) engil alanganadigan modda va materiallarni saqlash yoki ulardan foydalanish qoidalarining buzilishi;

z) sug'urtalanuvchi zararlangan narsalarni yoki ularning qoldiqlarini sug'urtalovchiga ko'rsatishdan bosh tortgan taqdirda, butunlay yo'q bo'lib ketishi mumkin bo'lgan narsalar bundan mustasnodir;

i) urush yoki urush harakatlari (urush e'lon qilingani-qilinmaganidan qati nazar), g'alayon, inqilob, qo'zg'olon, isyon, fitna, ish tashlash, noqonuniy yo'l bilan hokimiyatni qo'lga olish, suiqasd, qo'poruvchilik harakati, amalda yoki qonuniy mavjud bo'lgan hukumatning yoki biror hokimiyat organining farmoyishi bilan musodara qilish, rekvizitsiya, buzish yoki zararlantirish, yadro reaksiyasi, yadro nurlanishi yoxud radioaktiv zararlanish.

Ichki sanitariya texnikasi tizimlari buzilganda quyidagi hollarda sug'urta tashkiloti etkazilgan zarar uchun javob bermaydi:

a) agar falokat sug'urtalanuvchining ehtiyotsizligi yoki noshud hatti-harakatlari tufayli yuz bergan bo'lsa;

b) basharti falokat uchinchi shaxslarning ataylab qilgan yoki ataylab qilmagan xatti-harakatlari oqibatida yuz bergan bo'lsa;

Sug'urta qoplamasi sug'urtalanuvchining zararni qoplash to'g'risidagi yozma arizasi, shuningdek vakolatli organlardan olingan tegishli hujjatlar asosida to'lanadi. Bunday hujjatlarning taqdim etilmasligi sug'urtalovchiga ushbu hujjatlar bilan tasdiqlanmagan zarar uchun tovon to'lashni rad etish huquqini beradi.

Sug'urtalanuvchi sug'urta hodisasi sodir bo'lgani haqida ariza bergach, komissiya tuzilib, uning tarkibiga sug'urtalanuvchining, sug'urtalovchining, zarur hollarda esa vakolatli tashkilotlarning ham vakillari kiritiladi.

Komissiya muayyan muhlat ichida zararlanish sabablari va mikdori aniklaydi. Komissiya sug'urta hodisasini e'tirof etgan taqdirda yo'qotish va zararlarni mikdori, shuningdek to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta qoplamasining mikdori aniqlanadi. Tomonlar buni dalolatnomada qayd etadilar.

Mazkur dalolatnoma sug'urtalanuvchiga sug'urtalovchi tomonidan suturta tovonni to'lanishi uchun asos bo'ladi.

Zarar sabablari va mikdori xususida tomonlar o'rtasida nizolar paydo bo'lgan hollarda mustaqil ekspertiza o'tkazilishi mumkin.

Sug'urtalanuvchi zararni qoplash haqidagi arizasida quyidagilarni ko'rsatishi shart:

-sug'urta hodisasi yuz bergan sana va uning tavsifi;

-sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urtalanuvchi qilgan ishlar;

-zarar miqdori va sug'urtalanuvchi da'vo qilayotgan sug'urta tovonining miqdori. Bunda tegishli ro'yxat va summa ko'rsatilishi kerak;

-zararni qoplash uchun uchinchi shaxslardan olingan tovon miqdori.

Mabodo zarar to'liq qoplangan bo'lsa yoki sud qaroriga ko'ra zarar aybdor shaxs tomonidan qoplanadigan bo'lsa sug'urtalanuvchi sug'urta to'voni olish huquqidan mahrum bo'ladi.

Quyidagi hollarda sug'urta to'voni to'lanmaydi:

-agar sug'urtalanuvchi zarar etkazilishiga olib keluvchi hatti-harakatlarni ataylab yoki qo'pol ehtiyotsizligi tufayli sodir etgan yoki ularga yo'l qo'ygan bo'lsa;

-basharti zarar kelib chiqishiga olib kelgan holatlar huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan tekshirilayotgan bo'lsa, tekshiruv tamom bo'lgunga qadar.

Mabodo sug'urtalanuvchi yoki naf oluvchi shaxs zarar uchun aybdor yoki uchinchi shaxslardan tovon olgan bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urta shartlariga ko'ra to'lanishi lozim bo'lgan pul bilan aybdor yoxud uchinchi shaxslardan olingan pul o'rtasidagi farqning o'zini to'laydi.

Shartnoma imzolagandan so'ng tavakkalchilik darajasida ro'y bergan va sug'urta hodisasi yuz berish ehtimolini oshiradigan barcha o'zgarishlar sug'urtalovchiga sug'urta shartlarini o'zgartirish hamda qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lanishi talab qilish huquqini beradi. Sug'urtalanuvchi qo'shimcha sug'urta mukofotini to'lashdan bosh tortgan taqdirda mazkur shartnoma yuridik kuchini yo'qotadi, to'langan sug'urta mukofoti esa qaytarib berilmaydi.

Shartnomada kelishilgan zararlarni qoplash uchun sug'urtalovchi tomonidan amalga oshirilgan har bir to'lov majburiyatlar chegarasini ana shu to'lov miqdorida, ammo agar mas'uliyat chegarasini qayta tiklash uchun qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lanmasa, dalolatnomada qayd etilgan zarar miqdoridan ko'p bo'lmagan hajmda kamaytiradi.

Shartnoma tomonlar unda kursatilgan majburiyatlarini bajarmay qo'ygunlariga qadar kuchda bo'ladi.

Tomonlardan birining kamida 30 kun oldin beriladigan yozma arizasiga binoan shartnoma istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin.

Agar sug'urtalanuvchi shartnomani muddatidan oldin bekor qilishini ma'lum qilsa, sug'urta mukofoti unga qaytarilmaydi.

Sug'urta shartnomasi bekor qilinishini sug'urtalovchi talab etgan taqdirda:

a) sug'urtalanuvchiga sug'urta mukofoti muddati tamom bo'lmagan davrga mutanosib miqdorda qaytariladi, bunda o'tgan davrda qilingan xarajatlar sug'urta mukofotidan ushlab qolinadi;

b) basharti sug'urta shartnomasi bekor qilinishining talab etilishiga ushbu shartnomada kelishilgan shartlarning sug'urtalanuvchi tomonidan buzilishi sabab bo'lsa, faqat sug'urta mukofoti muddati tamom bo'lmagan davrga mutanosib miqdorda qaytariladi.

Sug'urta to'voni to'lash haqida dalolatnoma tuzilgandan keyin sug'urtalanuvchining zarar etkazilishi uchun javobgar shaxslarga nisbatan bo'lgan huquqlari to'langan pul miqdorida sug'urtalovchiga o'tadi. Bunda sug'urtalanuvchi aybdor shaxslardan talab qilish huquqini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni sug'urtalovchiga berishi shart.

Sug'urtalanuvchi zarar etkazgan shaxsga bo'lgan da'vosidan yoki unga nisbatan bo'lgan talablarning amalga oshirilishini ta'minlovchi huquqlaridan voz kechganda, shuningdek regress talabni qo'yish uchun zarur bo'ladigan hujjatlarni sug'urtalovchiga berishdan bosh tortganda sug'urtalovchi sug'urta to'lashdan ozod bo'ladi.

Shartnomaga kiritiladigan hamma qo'shimcha va o'zgartirishlar, shuningdek prolongatsiya, bekor qilish yoki to'xtatish tomonlarning roziligi bilan o'zaro xabar berilgan holda yozma ravishda amalga oshirilmog'i dardkor.

Sug'urta shartnomasidan kelib chiquvchi barcha nizo va kelishmovchiliklar tomonlarning muzokara olib borishi yo'li bilan hal etiladi, kelishuvga erishib bo'lmagan taqdirda esa tegishli muddat ichida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qarab chiqish uchun xo'jalik sudiga oshiriladi.

8.3 Mol-mulk sug'urtasini reklama qilishda marketing uslublaridan foydalanish yo'llari

Mol-mulk sug'urtasida sug'urta qiluvchining reklama faoliyati umumiy marketing konsepsiyasi va sotuv siyosatiga bo'ysunishi lozim. Reklama kampaniyasi rejasini ishlab chiqishda rejalashtirilayotgan reklama kampaniyasi kimga yo'naltirilishini, maqsadli muloqot doirasini aniqlab olish zarur.⁴⁶ Buning uchun potentsial sug'urta qildiruvchilarning asosiy tavsifnomalarini bilish va ularni ma'lum bir guruhlarga taqsimlash zarur: masalan, yuridik yoki jismoniy shaxslar, potentsial yoki amaldagi sug'urta qildiruvchilar, naqd pulga yoki pul o'tkazish yo'li bilan sug'urta polisi xarid qiluvchilar, bitta, ikkita, uchta yoki undan ortiq sug'urta turlarini yoki aralash sug'urta polislarini xarid qiladigan sug'urta qildiruvchilar. Bunda shuni hisobga olish kerakki, agar reklama asosan sug'urta qiluvchiga ishonch va xayrixoh munosabat shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lsa, muloqot doirasi quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim: amaldagi yoki potentsial sug'urta qildiruvchilar; sug'urta vositachilari; mavjud yoki potentsial xodimlar; hamkorlar yoki raqobatchilar; butun jamoatchilik. Reklama rejasini tuzishda shuni hisobga olish kerakki, reklama aksiyalari muvaffaqiyatining negizi – ularning ketma-ketlikda davriy ravishda takrorlanishidir. Ketma-ketlik xabardorlikka, xabardorlik ishonchga, ishonch esa muvaffaqiyatga, sug'urta xizmatlari sotilishiga olib keladi. Rossiyalik tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra muloqot doirasi bilan har bir yangi muloqotda sug'urta qiluvchi taklif qilayotgan axborotni eslab qoladiganlar soni o'rtacha 10-15%ga ortadi.

Shuning uchun har bir reklama rejasini sog'lom bozor tamoyillariga, potentsial bozorning o'tkazilayotgan tadqiqotlariga asoslanadi va xarajatlar smetasi tuzishni talab qiladi. Bunda muayyan sharoitlarga bog'liq bo'lgan va o'tkazilayotgan reklama tadbirlari maqsadi bilan belgilanadigan reklama vositalari differentsiatsiya qilingan to'plami ko'zda tutiladi.

Sug'urta qiluvchining reklama maqsadlarini reklamani rejalashtirishga kirishishda uning maqsadlarini aniq belgilab olish zarur, reklama aksiyasining

⁴⁶ Jask Kinder, Jr.Garry Kinder"Secrets of Successful Insurance Sales"

maqsadi qanchalik aniq belgilangan bo'lsa, unga erishish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Sug'urta qiluvchining reklama maqsadlari ancha keng va xilma-xil ekanligida ularni shartli ravishda quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin:

- bevosita sug'urta xizmatlarini sotish hajmini oshirish uchun mo'ljallangan reklama;

- ma'lum bir istiqbol uchun mo'ljallangan va potensial sug'urta qildiruvchini asta-sekinlik bilan sug'urta xizmatlari xarid qilishiga tayyorlashga yo'naltirilgan reklama;

- sug'urta qildiruvchida muayyan sug'urta qiluvchiga moyillik yaratishga yo'naltirilgan reklama.

Har bir guruh uchun sug'urta qiluvchining reklama faoliyati maqsadlarini batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Bevosita sug'urta xizmatlari sotish hajmini oshirish uchun mo'ljallangan reklama maqsadlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- potensial sug'urta qildiruvchilarga sug'urta himoyasi xarid qilish zarurati haqida eslatib turish;

- sug'urtaning yangi imkoniyatlarini ochib berish;

- sug'urta xizmatlari sotish hajmining ortishini ta'minlash;

- sug'urta xizmatlari potensial iste'molchisining e'tiborini sug'urta polisini zudlik bilan xarid qilishga undaydigan sabablarga qaratish (chegirmalar, turli bonuslar, imtiyozli shartlar, lotereya);

- sug'urta polisini zudlik bilan (birinchi istak bilan) xarid qilishni rag'batlantirish (masalan, vaqt bo'yicha kamayib boradigan chegirmalar bilan);

- sug'urta qildiruvchilar boshqa sug'urta qiluvchilarga o'tib ketishining oldini olish;

- raqobatchilarning sug'urta qildiruvchilarni o'z mijozlariga aylantirish;

- potensial sug'urta qildiruvchilarni faqat sizning polisingizni xarid qilishga rag'batlantirish;

- hozircha AVS sug'urta turidan foydalanmayotgan shaxslarni aynan sizning kompaniyada ushbu turdan foydalanuvchilarga aylantirish;

- tasodifiy mijozlarni sizning kompaniyangiz doimiy mijozlariga aylantirish;

- sug'urta agentlariga sug'urta polislari sotishda yordam ko'rsatish (yangi bitimlar tuzish va yangi mijozlar jalb qilish);

- sug'urta agentlariga eski mijozlardan ko'proq sug'urta mukofotini yig'ishda yordam ko'rsatish;

- potensial sug'urta qildiruvchilarni kompleksli (aralash) sug'urta polislari xarid qilishga rag'batlantirish.

Ma'lum bir istiqbolga mo'ljallangan va potensial sug'urta qildiruvchini asta-sekinlik bilan sug'urta xizmatlari xarid qilishga tayyorlashga yo'naltirilgan reklama. Bunday reklama maqsadlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- potensial sug'urta qildiruvchilarni u yoki bu sug'urta turlari yoki sug'urta polislari mavjudligi haqida xabardor qilish;

- sug'urta qildirish zarurligi, uning iqtisodiyotdagi yoki oila byudjetidagi roli haqida xabardor qilish;

➤ muayyan sug'urta qiluvchida sug'urta xizmatlari va ularga hamrohlik qiladigan xizmatlarining yuqori sifati haqida axborot tarqatish;

➤ sug'urta xizmatlariga iste'molchilar talabini shakllantirish;

➤ bozorga yangi sug'urta mahsulotlari chiqarish uchun "reputatsion asoslar" yaratish;

➤ yolg'on tasavvurlar, axborot to'liqsizligi va sug'urta xizmatlari sotish yo'lida boshqa to'siqlarning oqibatlarini bartaraf qilish.

Sug'urta qildiruvchida muayyan sug'urta qiluvchida sug'urta qildirishga moyillik yaratishga yo'naltirilgan reklama. Bu reklamaning eng maqbul keladigan maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

➤ kelajakdan umid qilgan holda kompaniyaga ishonch shakllantirish;

➤ sug'urta qiluvchining xodimlari yoki agentlarni uning savdo belgisi (logotipi) yoki polislari bo'yicha ishonch bilan tanishib olish uchun sharoitlar yaratish;

➤ sug'urta qildiruvchilarni kuponlar qaytarish, sug'urta qiluvchi tomonidan o'tkazilayotgan lotoreya, konkurs va boshqa tadbirlarda ishtirok etishga rag'batlantirish;

➤ muayyan sug'urta qiluvchida sug'urta qildirishni obro'li an'anaga aylantirish;

➤ raqobatchilar harakatlarini bartaraf qilish;

➤ sug'urta qildiruvchilarni o'z kompaniyasining tanishlariga tavsiya qilish hamda sug'urta qiluvchining sotuv bo'yicha mutaxassislari va savdo agentlariga xayrixoh munosabatda bo'lishga undagan holda o'z kompaniyasi haqida yaxshi taassurotlar uyg'otish.

Maqsadlar aniqlab olingach, reklama kompaniyasida foydalaniladigan reklama tadbirlari yoki reklama axborot uzatish vositalarini tanlash zarur.

Nazorat savollari:

1. Mulkiy sug'urtaning kelib chiqish tarixini aytib bering.
2. Mulkiy sug'urtaning rivojlanish bosqichlarini aytib bering.
3. Mulkiy manfaatlarni sug'urtalashning zarurligini aytib bering.
4. Mol-mulk sug'urtasini reklama qilishda marketing uslublaridan foydalanish yo'llari aytib bering.

IX BOB. JAVOBGARLIK SUG'URTASI MENEJMENTI

9.1 Javobgarlikni sug'urta qilishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

Sug'urta ishlab chiqarishni rivojlanishiga ko'maklashgan holda bozor munosabatlariga asoslangan o'zgaruvchan iqtisodiyotda noaniqlik xavfi darajasini kamaytirish imkonini beradi va sug'urta shartnomasida ko'zda tutilgan muayyan hodisa ro'y berganida tadbirkorga ko'rilgan zararlar muvofiq tarzda qoplanishini kafolatlaydi. Sug'urta tabiiy, texnogen va boshqa ko'rinishdagi favqulodda hodisalar, shuningdek maishiy sug'urta hodisalari ro'y berganida buzilgan mulkiy manfaatlar tiklanishini uchun kafolatlarni taqdim etadi, davlat iqtisodiyotiga umumiy ijobiy ta'sir qiladi. zararlarni qoplashda byudjet mablag'larini tegash imkoni beradi, uzoq muddatli investitsiyalarning eng barqaror manbalaridan biri hisoblanadi.⁴⁷

Javobgarlikni sug'urta qilish sug'urta faoliyatining mustaqil yo'nalishi bo'lib, mamlakatimizdagi sug'urta faoliyati uchun nisbatan yangi hisoblanadi. Sug'urtaning ushbu turida sug'urta ob'ekti sifatida uchinchi shaxslarning shaxsan o'zi yoki mulkiga etkazilgan zarar uchun sug'urtachining qonun bo'yicha (noshartnomaviy) yoki shartnomaga ko'ra (shartnomaviy) javobgarligi ko'zda tutiladi.⁴⁸ Javobgarlikni sug'urta qilishda sug'urtalovchining javobgarligi boshlanganligi sug'urta xavfi deb hisoblanadi. Bunda javobgarlik sud organlari tomonidan aniqlanishi yoki zarar etkazuvchining ko'ngilli iqrori orqali belgilanishi mumkin. Mamlakatimizdagi bir qator sug'urta kompaniyalari sug'urta hodisasi sifatida sug'urtalovchining faqat sud organlari tomonidan aniqlangan javobgarligini tan oladilar.

Javobgarlikni sug'urtalash, ehtimol, etkazilgan zarar miqdorini aniqlash eng oson bo'ladigan sug'urta turi hisoblanadi. U sud qarori bilan belgilanadi, «suddan tashqari» to'lovlarni, sud xarajatlarini, shuningdek, sug'urta shartnomasida kelishib olingan boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi.⁴⁹

Sug'urta amaliyotida fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish, professional xizmatlar ko'rsatishdagi javobgarlikni sug'urta qilish, majburiyatlarni bajarmaslik uchun javobgarlikni sug'urta qilish, shuningdek biron shaxsning mulkiy manfaatlari sug'urta qilingan bo'lib, bu to'g'rida shartnoma (sug'urta qilingan) tuzilgan va ushbu shaxsning fuqarolik qonunchilik tartibida uchinchi shaxslarga etkazilgan zararni qoplash majburiyati bilan bog'liq holatlar sug'urta predmeti deb hisoblangan javobgarlikni sug'urta qilishning boshqa turlari qo'llaniladi.

Fuqarolik javobgarlik mulkiy tusga ega: zarar etkazgan shaxs jabrlanuvchiga, ya'ni uchinchi shaxsga zararni qoplab berishi lozim. Fuqarolik javobgarlikni sug'urta qilish shartnomasi orqali ushbu majburiyat sug'urtalovchi zimmasiga o'tkaziladi. Sug'urta qilinuvchi jinoiy, ma'muriy javobgarlikka tortilishi, ya'ni o'zining uchinchi shaxsga nisbatan qonunga zid harakatlari uchun qonun oldida javobgar bo'lishi

⁴⁷Insurance: Principles and Practice Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institut, Great Britain,1993, 105pg

⁴⁸Рейтман Л.И. Страховое дело. М., 2010 (перевздание)

⁴⁹Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institut, Great Britain,1993, 270 pg

mumkin. Lekin, uchinchi shaxsga etkazilgan mulkiy zarar sug'urtalovchi zimmasiga yuklatiladi.

Professional xizmatlarni ko'rsatishdagi javobgarlikni sug'urta qilish professional vazifalari bilan band bo'lgan yoki tegishli xizmatlarni ko'rsatayotgan jismoniy yoki yuridik shaxslarga nisbatan mulkiy da'volarga taalluqlidir. Jismoniy yoki yuridik shaxslarga qo'yiladigan mulkiy da'volar professional faoliyat yoki xizmat ko'rsatishdagi e'tiborsizlik, mas'uliyatsizlik, xatolar va kamchiliklar bilan bog'liq. E'tiborsizlik va mas'uliyatsizlikka yo'l qo'yilishi bo'yicha mulkiy da'volarni qoniqtirish masalalari bilan sug'urta qilish orqalisug'urtalovchi shug'ullanadi. Professional javobgarlikni sug'urta qilishni belgilash ma'lum doiraga mansub kasblar bilan shug'ullanuvchi shaxslarni (xususiy praktikaga ega vrachlar, notariuslar, advokatlar va b.) mijozlar tomonidan qo'yiladigan yuridik da'volarga qarshi sug'urta himoyasidan iborat.

Javobgarlikni sug'urta qilish ham majburiy, ham ixtiyoriy asosda amalga oshirilishi mumkin. Agar zarar etkazganlik uchun javobgarlik uni sug'urta qilish majburiy bo'lgani sababli sug'urtalangan taqdirda, shuningdek qonunda yoki bunday javobgarlikni sug'urta qilish shartnomasida nazarda tutilgan boshqa hollarda sug'urta shartnomasi o'z foydasiga tuzilgan deb hisoblanuvchi shaxs zararni sug'urta puli doirasida to'lash to'g'risida bevosita sug'urtalovchiga talab qo'yishga haqli.

Etkazilgan zarar uchun javobgarlikni sug'urta qilishning o'ziga xususiyati shundan iboratki, bunday sug'urta zarar etkazilishi mumkin bo'lgan shaxslar (naf oluvchilar) foydasiga tuziladi.

Javobgarlikni sug'urta qilish shartnomalarida sug'urtalovchi va sug'urta qilinuvchilar bilan qatorda sug'urta munosabatlarining uchinchi tomoni sifatida avvaldan belgilanmagan uchinchi shaxslar ham ishtirok eta oladilar.⁵⁰

Javobgarlikni sug'urta qilish – sug'urta qilinuvchiga ehtimoliy zararlar o'rmini qoplovchi sug'urtadir. Sug'urta qilinuvchi – jismoniy shaxs uchun zararlar shundan iboratki, unga nisbatan da'vo qo'zg'atilganida, mulkni sug'urta qilishda bo'lganidek mulkni faqat bir qismi, biron aniq buyumi emas, balki uning barcha moddiy boyliklari xavf ostida qolishi mumkin. Sug'urta qilinuvchi – yuridik shaxs, agar unga nisbatan uchinchi shaxslar tomonidan da'vo qo'ysalar, javobgarlikni sug'urta qilinishi doirasidagi passivlar ortishini kompensatsiyalaydi.

Shartnomasiz (delikt) javobgarlikni sug'urta qilish (O'zbekiston Respublikasi FKning 918-moddasi) hamda etkazilgan zararni qoplash va fuqarolik javobgarlikni shartnomaviy sug'urta qilinishiga sabab bo'luvchi fuqarolik qonunlari buzilishi uchun javobgarlikni sug'urta qilish (O'zbekiston Respublikasi FKning 919-moddasi) turlari mavjud.

Javobgarlikni sug'urta qilishning maqsadi – sug'urta qiluvchi bo'lmagan jabrlanuvchiga zararni qoplash.

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikni sug'urta qilishda sug'urta qiluvchi (yoki bunday javobgarlik yuklatilish mumkin bo'lgan boshqa shaxs)ning

⁵⁰Глещков А.П., Орлова И.В. Очерки зарубежного страхования // НИИ Мин.финансов РФ //М.: «Анкил», 1997. – 200с

jismoniy shaxsga yoki uning mulkiga, shuningdek yuridik shaxsga etkazgan zararini qoplashi bilan bog'liq bo'lgan manfaatlarini sug'urta ob'ekti deb hisoblanadi.

Javobgarlik deganda bir shaxs tomonidan boshqa shaxsga etkazilgan zararni qoplash tushuniladi va bu holat fuqaroviy javobgarlik deb hisoblanadi. Bu javobgarlik boshqa shaxsning biron manfaatlariga zarar etkazilganidagi muayyan harakatlar (yoki harakatsizliklar) mavjud bo'lganidagina yuzaga keladi. Jinoiy javobgarlikka tortiladigan jinoyat yoki huquqbuzarlikni ongli ravishda sodir etgan shaxslarni jazolash maqsadidagi jinoiy javobgarlik sug'urta ob'ekti bo'lib xizmat qila olmaydi.⁵¹

Javobgarlikni sug'urta qilishda sug'urtalovchi tomonidan javobgarligi sug'urta qilingan shaxsning xarajatlari doirasidagi sug'urta to'lovi amalga oshiriladi. Bu xarajatlar javobgarligi sug'urta qilingan shaxsning o'zi etkazgan zararlarni (delikt yoki shartnoma buzilishi natijasida) jabrlanuvchiga to'lab berish, shuningdek jarima to'lash (shartnomaviy javobgarlik majburiyatlari kuchga kirgan hollarda) tufayli yuzaga keladi.⁵²

Sug'urta qilishning bu turida zarar etkazilguniga qadar shartnomaviy munosabatlar mavjud bo'lgan yoki bo'lmagan uchinchi shaxs jabrlanuvchi hisoblanadi. To'g'ridan-to'g'ri jabrlanuvchidan tashqari yana bilvosita jabrlanuvchilar, ya'ni zarar ularga bevosita emas, balki uchinchi shaxsga etkazilgan zarar orqali etkazilgan shaxslar ham mavjud bo'ladi.

Javobgarlikni sug'urta qilish – sug'urta qilinuvchining ehtimoliy zararlarini qoplab beruvchi sug'urta hisoblanadi. Sug'urta qilinuvchi – jismoniy shaxs uchun zararlar shundan iboratki, unga nisbatan da'vo qo'zg'atilganida, mulkni sug'urta qilishda bo'lganidek mulkni faqat bir qismi, biron aniq buyumi emas, balki uning barcha moddiy boyliklari xavf ostida qolishi mumkin. Sug'urta qilinuvchi – yuridik shaxs, agar unga nisbatan uchinchi shaxslar tomonidan da'vo qo'ysalar, javobgarlikni sug'urta qilinishi doirasidagi passivlar ortishini kompensatsiyalaydi.⁵³

Sug'urta qilinganlar uchun javobgarlikni sug'urta qilish, bu:

- javobgarlik bo'yicha ehtimoliy da'volardan himoya qilinish;

- sug'urta ishtirokchilari - sug'urta qilinuvchilar va sug'urta kompaniyasi o'rtasidagi javobgarlikni sug'urta qilish turi bo'yicha qayta taqsimlanishi va shu yo'l bilan o'z xarajatlarini minimallashtirish;

- mutaxassislar – sug'urta kompaniyasining huquqshunoslaridan yuridik maslahat olish va sud harajatlarini qoplashdir.⁵⁴

Javobgarlikni sug'urta qilishdagi xarajatlar deganda huquqlari buzilgan shaxs huquqini tiklagani yoki tiklashi uchun sarflanadigan mablag'lar, uning mulki yo'qolgani yoki shikastlangani (real zarar), shuningdek, ushbu shaxs, agar uning huquqi buzilmaganida, odatdagi fuqaroviy munosabatlarda olishi mumkin bo'lgan foydasi (boy berilgan foyda) tushuniladi.⁵⁵

⁵¹Басаков М. И. Страховое дело в вопросах и ответах. Ростов-на-Дону. Феникс, 2001. С. 318-344.

⁵²Юлдашев Р.Т. Страховой бизнес. Словарь-справочник. М.: АНКИЛ, 2005.

⁵³Федорова Т.А. Основы страховой деятельности. - М.: БЕК, 2001

⁵⁴Мирсадыков М. Основы страхового бизнеса. // Т.: ТКС, 2009. - 116с.

⁵⁵Гвозденко А.А. Основы страхования: Учебник //М. Финансы и статистика, 1998. - 304с.

Fuqaroviy javobgarlik bo'yicha da'vo taqdim etish uchun quyidagilar mavjud bo'lishi lozim:

- jismoniy, ma'naviy, moliyaviy, moddiy va boshqa zararlar;
- huquqbuzarning aybi yoki qonunga zid harakati (harakatsizligi), ular orasidagi bog'liqlik;

Javobgarlikni sug'urta qilishdagi sug'urta hodisasini tartibga solishda sug'urta qilinuvchi, sug'urtalovchi va jabrlanuvchi o'rtasidagi munosabatlar muhim ahamiyatga ega.

Sug'urta qilinuvchi va sug'urtalovchi o'rtasidagi munosabatlarni o'z mohiyatiga ko'ra sug'urtachining butun ehtimoliy javobgarligiga o'xshamagan qoplash munosabatlar sifatida belgilash mumkin. Sug'urta qilinuvchi cheklanmagan miqdorda javob beradi, lekin zararlarni qoplash faqatgina sug'urta puli chegarasida taklif qilinadi. Boshqa tomondan, javobgarlikni sug'urta qilish doirasida sug'urtalovchi javobgarlik bo'yicha jabrlanuvchining to'g'ridan-to'g'ri da'volari bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlarini (masalan, asoslanmagan vajlardan himoya qilish uchun sarflangan sud xarajatlari va hk.) to'lashi mumkin.⁵⁶

Javobgarlikni sug'urta qilish texnik taraqqiyot, fuqarolar o'z huquqlarini anglab etishi, aholining moddiy farovonligini o'sishi, zarar miqdorining ortishi bilan birga rivojlanib boradi va hayotning deyarli barcha sohalarini qamrab oladi, bu holat, o'z navbatida, bu turdagi sug'urta turi kelajakda etakchi o'rinlarni egallashini shartlab beradi.⁵⁷

Fuqarolik javobgarlikning sug'urta ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq asosiy xususiyatlar hamda sug'urta himoyasi mexanizmining moliyaviy-iqtisodiy o'ziga xos jihatlari jadvalda keltirilgan. Jadvalning tahlili sug'urtaning ushbu sohasi alohidaligi va mustaqilligini isbotlab beradi. Etkazilgan zarar uchun javobgarlikni sug'urta qilishning o'ziga xosligi shundan iboratki, sug'urta shartnomasi zarar ko'rishini mumkin bo'lgan shaxslar (naf oluvchilar) foydasiga tuziladi. Javobgarlikni sug'urta qilish shartnomalarida sug'urta munosabatlarining uchinchi tomoni sifatida sug'urtalovchi va sug'urta qilinuvchidan tashqari avvaldan ma'lum bo'lmagan istalgan shaxslar ham ishtirok etishi mumkin.

6-jadval

Fuqaroviy javobgarlikni sug'urta qilishning o'ziga xos xususiyatlari

t/r	O'ziga xos xususiyatlari	Tusi va mazmuni
1	Sug'urta ob'ekting spetsifikatsiyasi	<p>Qonuniy javobgarlikning iqtisodiy oqibatlari sug'urta ob'ekti sifatida boshqa tarmoqlardagi ob'ektlardan prinsipial farqlanadilar: 1) sug'urta ob'ekti pullik bahoga ega emas, sababi, sug'urta qilinuvchining boshqa shaxslarga etkazilgan zararlar bo'yicha javobgarligi sug'urta qilinadi;</p> <p>2) bu toifa hiron-bir omillar mustaqil va (shaxsiy sug'urta ishtirokchisi yoshi, jinsi va b.)ga bog'liq emas;</p> <p>3) yuridik-huquqiy toifaga mansubdir va</p> <p>4) ob'ektning tiklanishi – qismandir.</p>

⁵⁶Гинзбург А. Страхование. Краткий курс //С - СПб: Питер, 2002. - 176с.

⁵⁷Журавлев Ю.М., Секерж И.Г. Страхование и перестрахование (теория и практика). М., 1993.

2	Sug'urta pullarini oluvchilar	Faqat fuqaroviy javobgarlikni sug'urta qilinishi uchun uchinchi shaxs – sug'urta qilinuvchining qasddan bo'lmagan harakatlari tufayli zarar ko'rgan va sug'urta tovonini olish huquqiga ega shaxs qatnashadi.
3	Sug'urta qilinuvchilarning alohida ajratilgan tarkibi, kontingenti	Bu xavfli ob'ektlar (avtomobillar, havo kemalari, neftni qayta ishlash va kimyoviy zavodlardan va sh.k.)dan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, o'z faoliyatlari davomida boshqa shaxslarga zarar etkazishlarining xavfi yuqori hisoblanadi
4	Zarar tavsifi	Zarar ham moddiy boyliklarga, shu jumladan mulkiy huquqlar buzilganida ham, va nomoddiy boyliklarga, shu jumladan shaxs qadr-qimmatiga ham etkazilishi mumkin.
5	Zarar qoplanishning ekvivalentligi	Jabrlanuvchiga zarar to'liq hajmda qoplanadi, ya'ni javobgarlik qiymatining etkazilgan zarar miqdoriga ekvivalentligi prinsipiga rioya qilinadi.
6	Bazaviy atamalar spetsifikasi	Sug'urtaviy baholanish, sug'urta summasi atamalari va to'liq bo'lmagan, qisman sug'urta tushunchasi mavjud emas. "Sug'urta summasi" atamasining o'miga "javobgarlik limiti" degan atama qo'llaniladi.
7	Sug'urta hodisasi yuzaga kelishining oqibatlari	1) sug'urta hodisasining halokatli tarzda yuzaga kelishi ham sug'urta qilinuvchi, ham sug'urtalovchi uchun xosdir; 2) ehtimoliy zarurlar miqdori juda katta bo'lishi mumkin (masalan, ekologik xavflar sug'urta qilinganida); 3) zarar etkazilishi faktlarini aniqlash davomiyligining sug'urta muddatlaridan chiqib ketishi

Shunday qilib, javobgarlikni sug'urta qilishning iqtisodiy mohiyati sug'urta qilingan shaxsning harakati (yoki harakatsizligi) tufayli uchinchi shaxsning sog'lig'iga va hayotiga, mulkiga etkazilgan zararni qoplashdan iboratdir. Javobgarlikni sug'urta qilish sug'urta faoliyatining mustaqil sohasi hisoblanadi va mahalliy sug'urta bozori uchun sug'urtalashning nisbatan yangi turi deb e'tiroflanadi.

Sug'urtaning ushbu turida sug'urta ob'ekti bo'lib sug'urta qilinuvchining mulkiy manfaatlari xizmat qiladi. Sug'urta qilinuvchining bu kabi mulkiy manfaatlari sug'urta qilinuvchilarning qonun bo'yicha javobgarligi (shartnomaviy emas) yoki uchinchi tomon shaxsi yoki mulkiga etkazilgan zarar bo'yicha shartnomaviy javobgarligi (shartnomaviy) yuzaga kelishi bilan bog'liqdir. Javobgarlikni sug'urta qilishda sug'urtalovchining javobgarligi boshlanganligi sug'urta xavfi deb hisoblanadi. Bunda javobgarlik sud organlari tomonidan aniqlanishi yoki zarar etkazuvchining ko'ngilli iqrori orqali belgilanishi mumkin. Mamlakatimizdagi bir qator sug'urta kompaniyalari sug'urta hodisasi sifatida sug'urtalovchining faqat sud organlari tomonidan aniqlangan javobgarligini tan oladilar.

Aholining mushkul ahvolda tushib qolgan turli guruhlarini moddiy ta'minlash maqsadida tashkil qilinadigan jamg'armalarning shakllanishi va sarflanishiga yordam beruvchi ijtimoiy munosabatlar aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi hisoblanib, bozor sharoitlarida ham ijtimoiy sug'urta, ham tijorat sug'urtaga asoslanishi lozim.⁵⁸

Jamoaviy ishlab chiqarishning xavfli tusi, ma'lumki, biznesning barcha sohalarida va ko'rinishlarida namoyon bo'lib, iqtisodiy sub'ektlar va jismoniy shaxslar hayot faoliyatiga doimiy xavf soluvchi, ularga moddiy, moliyaviy va shaxsiy zarar yetkazadigan omil hisoblanadi. Bunda aybdor tomon, qonunchilikka muvofiq, uchinchi shaxsga etkazilgan zararni to'liq qoplashi lozim. Fuqaroviy sug'urtalash ana shu majburiyatni sug'urta kompaniyasi zimmasiga yuklatish va aybdor tomonni

⁵⁸Гражданское право / под ред. Е.Н.Суханова. Т. 2. М., 2009. С. 32.

qo'yilayotgan da'vordan halos qilish imkonini beradi.

XIX asrda sanoat miqyosidagi ishlab chiqarish jarayonlarining shiddatli rivojlanishi fuqaroviy javobgarlikni sug'urta qilish sug'urta faoliyatidagi mustaqil soha sifatida yuzaga kelishi uchun tarixiy dastlabki shart bo'lib xizmat qildi. Sanoat revolyusiyasi sharoitlarida ishlab chiqarish keng ko'lamda kengayib bordi, unga aholining keng qatlamlari jalb qilindi, ishlab chiqarish jarayoni mexanizatsiyalashtirildi va transport sohasi tezkor rivojlandi. SHu bilan birga, ishchilarning shikastlanishi, jarohatlanishi, ish joyidagi o'lim kabi noxush hodisalar soni ko'payib bordi. Bularning hammasi fuqaroviy javobgarlik to'g'risidagi qonunlar ishlab chiqarishga turtki bo'lib xizmat qildi. Masalan, 1871 yil Germaniyada sanoat javobgarligini sug'urta qilish paydo bo'ldi, keyinroq esa boshqa ko'pgina mamlakatlar qonunchiligida ham tadbirkorlarning ayrim toifalari uchun ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni fuqaroviy sug'urta qilish majburiy ekanligi qayd etildi. Bunda etkazilgan zararda aybdor bo'lgan shaxslar bo'lmaganida ham sug'urta puli to'lanishi belgilab qo'yildi. Bu holatlar tadbirkorlarning fuqaroviy sug'urta qilinishlari uchun turtki bo'lib xizmat qildi. Tadbirkorlar shikast ekan yoki jiddiy jarohatlangan ishchilarga yirik summalarni to'lashdan ko'ra, sug'urta jamiyatiga muayyan miqdorda sug'urta badallarini to'lab borilishini afzal ko'rdilar, natijada iqtisodiy holatlariga jiddiy ziyonlar etkazilishini oldini oldilar.

Karl Gotlob Molt (Germaniya) javobgarlikni sug'urta qilish tarmog'ining asoschisi hisoblanadi. U tomonidan 1875 yilda tashkil etilgan "Umumgermaniya sug'urta ittifoqi" kompaniyasi birinchi bo'lib fabrikantlarning xavflar bo'yicha javobgarliklarini qabul qila boshlagan va aynan u baxtsiz hodisa va javobgarlik xavfi o'rtasidagi farqni belgilab bergan.

Javobgarlik xavfi – yuridik va jismoniy shaxslarning uchinchi shaxslar hayoti, sog'lig'i, mulki va boshqa manfaatlariga zarar etkazilishiga olib kelgan harakatlari uchun pullik majburiyatlaridir.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida qayd etilganki, fuqaroning shaxsiga yoki mol-mulkiga etkazilgan zarar, shuningdek yuridik shaxsga etkazilgan zarar, shu jumladan boy berilgan foyda zararni etkazgan shaxs tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim.

Zarar deganda "qonun tomonidan himoya qilinadigan istalgan moddiy yoki nomoddiy boyliklarning kamaytirilishi" deb tushuniladi. Fuqaro, tashkilot yoki mulkini yo'q qilish yoki buzish yohud yaroqsiz holatga keltirish mulkka zarar etkazish deb hisoblanadi. Jismoniy shaxsni mehnat layoqatining pasayishi yoki yo'qotilishiga yoxud o'limiga sabab bo'luvchi tan jarohati yoki uning sog'lig'iga boshqa shikastlar etkazish shaxsga zarar etkazish deb hisoblanadi.

Fuqaroviy javobgarlik – qonunda tutilgan davlat majburiyati chorasi bo'lib, jabrlanuvchi (uchinchi) shaxsning buzilgan huquqlarini tiklash, uning manfaatlarini qoidabuzar hisobiga qoniqtirishdan iboratdir. Fuqaroviy javobgarlik tasofidiy va kompensatsion tusga ega – qasddan (ataylab) zarar etkazmagan shaxs jabrlanuvchiga etkazilgan zararni qonunga muvofiq qoplab berishi shart. Sug'urta shartnomasi tuzilganida bu majburiyat sug'urta qiluvchi zimmasiga yuklatiladi va, natijada, sug'urta qilinuvchi o'z majburiyatlaridan ozod bo'ladi.

Fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish bilan bo'lgan holatdagi kabi, duch kelishi mumkin bo'lgan risklar soni cheksizdir. Quyida ularning ayrimlarini keltirib o'tamiz:

► Syurveyer mijozga nuqsonlarga ega bo'lgan ko'chmas mulk xarid qilinishiga olib kelgan xulosa bergan.

► buxgalterning hisob-kitoblarda xatoga yo'l qo'yishi hech qanday qimmatga ega bo'lmagan aksiyalar xarid qilinishiga olib kelgan.

► dorixonachi dorini noto'g'ri tayyorlagan.

► advokat moliyaviy yo'qotishlarga olib keladigan noto'g'ri maslahat bergan.

► sug'urta brokeri sug'urta qoplami mavjudligini tasdiqlashi, lekin uni hujjatlar bilan rasmiylashtirishni yoddan chiqarishi mumkin.⁵⁹

Bu sug'urta bozorining o'ziga xos segmenti bo'lib, kam sonli sug'urta qiluvchilargina bunday risklar bilan ishlaydi, chunki da'volar yuzuga kelish ehtimoli juda yuqori.

Ma'lumki, fuqaro o'zi etkazgan zarar uchun jinoiy, fuqaroviy va ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin. Jinoiy javobgarlikning maqsadi – ongli ravishda jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni jazolashdan iborat. Fuqaroviy javobgarlikning maqsadi esa – qasddan emas (ongsiz ravishda) sodir etilgan zararni qoplab berish. Fuqaroviy javobgarlikning maqsadi – ongli ravishda ijtimoiy xavfning intizomiy nojo'ya darajasidan yuqori, lekin jinoyatdan pastroq bo'lgan ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsni jazolashdan iborat. Jinoiy va ma'muriy javobgarliklar sug'urta ob'ekti bo'la olmaydilar. Faqatgina fuqaroviy javobgarlik sug'urta qilinishi mumkin, chunki u tasodifiy, qasddan emas tusga ega bo'lib, fuqaro tomonidan uchinchi shaxsga ehtimoliy zarar etazilgani to'g'risida ma'lumotlar bo'lishi mumkin. Undan tashqari, jinoiy va ma'muriy javobgarliklardan farqli o'laroq, fuqaroviy javobgarlikka nafaqat jismoniy shaxslar, balki yuridik shaxslar ham tortilishi mumkin.⁶⁰

Qonunchilik bazasidan kelib chiqqan holda sug'urtaning ushbu tarmog'ining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati:

- sug'urta qilinuvchini uchinchi tomonga zarar etkazgani natijasida unga nisbatan zararni qoplash bo'yicha qo'yilgan fuqaroviy-huquqiy da'vodan himoya qilish;

- aybdor tomonda etkazilgan zararni qoplash uchun mablag' mavjud bo'lmaganida uchinchi shaxslarning manfaatlarini himoya qilishdan iborat.


Fuqaroviy javobgarlik sug'urtasining ikki tomonli bo'lishi quyidagi ikkita sabab bilan shartlangan:

- texnik revolyusiya sababli ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarni oldini olishdek ijtimoiy vazifani hal qilishning tarixiy ob'ektiv dastlabki shartlari mavjudligi;

- sug'urta munosabatlarining mohiyati.

⁵⁹Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institut, Great Britain, 1993, 272pg

⁶⁰Страхование от А до Я / Под ред. Л.И. Корчевой, К.Е. Турбиной. М.



4-rasm. Fuqaroviy javobgarlik sug'urtasining iqtisodiy mexanizmi

Nemis olimi A.Manes fikrichi, "qonuniy javobgarlikdan sug'urta qilishning vazifasi, bu uchinchi shaxs yoki begona mulkka etkazgan zarari uchun qo'yilgan talab bo'yicha to'lov uchun pul taqdim etib, sug'urta qilinuvchini tovon to'lash majburiyatlaridan himoya qilishdir"⁶¹. Ushbu ta'rifga ko'ra, sug'urta qilinuvchiga sug'urta hodisasi yuz bergani sababli uning shaxsiy mulki yo'qolgani yoki hayotida o'zining shaxsiy sug'urtasi bilan bog'liq muayyan hodisalar yuz bergani uchun emas, balki uchinchi shaxsga etkazilgan zararni qoplashi uchun pul taqdim etilayapti. Shunday qilib, fuqaroviy javobgarlikni sug'urta qilishning maqsadi, bu zarar etkazuvchilar (sug'urta qilinuvchilar)ning iqtisodiy manfaatlarini uchinchi shaxslarning da'volarini qondirish shaklida himoya qilishdan iborat. Bunda uchinchi shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish ushbu sohaning iqtisodiy mazmuni va spetsifikasini tavsiflab beradi.

Fuqaroviy javobgarlikni sug'urta qilishning shunga o'xshash ta'riflanishi ko'pgina xorijiy mutaxassislar va olimlar tomonidan berilgan. Masalan, Fransiya da "sug'urta qilinuvchi fuqaroviy javobgarlikni sug'urta qilish yordamida o'zining nojo'ya harakatlari yoki uchinchi shaxslar oldida javobgar bo'lishiga sabab bo'luvchi biron fakt yuzaga kelgani tufayli mulkiga etkaziladigan zarar oqibatlaridan himoya qilinadi"⁶². Amerikalik mutaxassislarning fikricha, "baxtsiz hodisalardan sug'urta qilishga ixtisoslashgan kompaniyalar tomonidan ko'plab shartnomalar tuziladi. Bu shartnomalarning asosiy maqsadi sug'urta polisi egalari ehtiyotkorsizlik tufayli sodir etilgan zararlarni qoplash da'vosida himoya qilishdir"⁶³.

⁶¹Манзс А. Основы страхового дела. М., 2010. С. 105.

⁶²Жюлио деля Морандьер. Гражданское право Франции. Т. 3. М., 1916. С. 339 (Перевод с французского Е. А. Флейшица. М.: Иностранная лит-ра. 1960. – 728 с.)

⁶³Merh R., Cammack E. Principles of Insurance. Homewood, 1975.P. 294.

Demak, fuqaroviy javobgarlikni sug'urta qilishda sug'urta qilinuvchi – zarar etkazuvchi uchunchi shaxsga etkazgan zararni qoplash xususida qo'yilgan da'vo qondiriladi va ana shunday iqtisodiy munosabat fuqaroviy javobgarlik sug'urtasining bosh mazmun-mohiyati hisoblanadi. Yuridik nuqtai nazardan shartnomaning tomonlari faqat ikkita – sug'urta qilinuvchi va sug'urtalovchi va iqtisodiy munosabatlar, majburiyatlarning ma'lum doirasi va ularni bajarish majburiyati faqat shu ikkita ishtirokchi o'rtasida o'rnatiladi. SHuning uchun, sug'urtaning bu turida sug'urta qilinuvchidan boshqa biron shaxsni himoya qilinishi to'g'risida so'z yuritilmaydi.

Fuqaroviy javobgarlikni sug'urta qilishning asosiy ijtimoiy funksiyasi, bu uchunchi, ya'ni jabrlanuvchi shaxslarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishdan iborat, bu holat xorijiy mutaxassislar, olimlar va amaliyotchilar tomonidan ham ta'kidlanadi. Uchunchi shaxslarning zararlarini qoplash, shuningdek ma'lum ko'rinishdagi zararlarni qoplash majburiyati ushbu tarmoqning ichki mazmunini aks ettiradi. Undan tashqari, sug'urta qilinuvchiga da'vo qo'yish va zararlarni belgilangan limit chegarasida qoplash kabi holatlarning mavjudligi ham sug'urtaning bu turiga xos iqtisodiy munosabatlarni belgilab beradi.

9.2 Javobgarlik sug'urtasining turlari ularni boshqarish mexanizmi

Transport vositalari egalaringning fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urta turining sug'urtalash qoidalari

Oxirgi yillarda aholi daromadlarini o'sishi natijasida ular o'zlarining shaxsiy transport vositalarini sotib olishga bo'lgan imkoniyati kengayib bormoqda. SHu bois Respublikamizda harakatlanadigan transport vositalar sonini ortishi ular o'rtasida turli hodisalarni keltirib chiqarmoqda. Bundar turli xil hodisalarni oldini olish yoki etkazilgan zararlarni qoplash yuzasidan arzigulik ishlarni amalga oshirish maqsadida javobgarlik sug'urtasini amalga oshirish va uni kelgusida rivojlantirish maqsadida bir qancha me'yoriy va huquqiy asoslar yaratildi. Bugungi kunda javobgarlikni sug'urta qilish turlaridan tarqalgan transport vositalari egalaringning fuqorolik javobgarligini sug'urtasi hisoblanadi. Ma'lumki transport yuqori xavfni keltirib chiqaruvchi manbalardan biri hisoblanadi. Transport haydovchisi transport vositasini boshqarish jarayonida uchunchi shaxslarning muayyan manfaatlariga, sog'lig'iga zarar etkazishi mumkin.

Shu bilan birga yo'l transport hodisasi natijasida zarar ko'rgan shaxslar, ko'p holatlarda aybdorlardan zararni undirib ololmaydilar. G'ayri qonuniy harakat tufayli yuridik yoki jismoniy shaxslarning sog'lig'i, hayoti yoki mol-mulkiga etkazilgan aybdor shaxs tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim. Qonun hujjatlarida zararni to'lash majburiyati zarar etkazuvchi bo'lmagan shaxsga yuklatilishi mumkin. Zarar etkazgan shaxs agar zarar o'z aybi bilan etkazilmaganligini isbotlasa zararni to'lashdan ozod etilishi mumkin.

Hozirda aholi turmush darajasining doimo oshib borishi transport vositalarining yanada takomillashishi jahonda avtomobillar sonining muntazam o'sishiga olib kelayapti.

Respublikamizda engil avtobil ishlab chiqarish sanoatining sanoatining

rivojlanishi ma'lum bir ma'noda transport vositalari sug'urtasini hamda transport vositalari egalarini fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasini rivojlanishiga va sug'urta kompaniyalariga ma'lum bir ma'noda aniq vazifalarni yuklashi tabiiy albatta. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Respublikamiz xududida engil avtomobillar sonining keskin ravishda o'sib borishi jamiyatimiz va uning vakillari uchun foydali hisoblanadi. Lekin shu bilan bir qatorda shuni unutmaslik kerakki, avtotrasport soning keskin ravishda ortib borishi o'z-o'zidan yo'llarimiz hududida hunuk va noxush hodisalarni yuzaga keltirishi mumkin.

Ma'lumki 2008 yil 22 oktyabrda O'zbekistonda "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida"gi Qonun kuchga kirdi. 2009 yilning 22 yanvaridan boshlab transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash (FJMS) polisiga ega bo'lmaganlar, eng kam ish haqi miqdorida, mansabdor shaxslar esa eng kam ish haqining uch barobari miqdorida jarima to'ladilar.

Shuningdek transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda jabrlanuvchining mulkiga zarar etganda eng ko'pi bilan \$1050. jabrlanuvchining sog'lig'i yoki hayotiga zarar etganda esa eng ko'pi bilan \$1950 miqdordagi mablag'ni ko'zda tutadi. Sug'urta qoplarnasi sug'urtalovchi tomonidan bevosita jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar miqdorida, lekin yuqorida qayd etilgan qiymatdan ortiq bo'lmagan miqdorda to'lanadi.

Bunda o'z-o'zidan nega zararning barchasi to'lanmaydi degan savol tug'iladi? Zararning hammasi ham qoplanishi mumkin, lekin buning uchun sug'urtalanuvchi majburiy sug'urtadan tashqari fuqarolik javobgarligini ixtiyoriy sug'urtalash polisiga ega bo'lishi kerak. Chunki etkazilgan zarar o'rnatilgan limitdan yuqori bo'lish holatlari ham kam emas.

Masalan, sug'urtalanuvchi fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash polisiga ega bo'lsa, Qonunga muvofiq jabrlanuvchining mulkiga zarar etkazilganda sug'urta qoplarnasi \$1050ga teng miqdorda chegaralanadi, etkazilgan zarar miqdori \$3000 ni tashkil etadi. Bu holda sug'urta kompaniyasi faqat ko'zda tutilgan \$1050 ni to'laydi, qolgan qiymatni esa sug'urtalanuvchi o'z yonidan to'lashiga to'g'ri keladi.

Shu bilan bir qatorda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda sug'urta polisi qiymati birinchi navbatda transport vositasining turi va quvvatiga bog'liq (yillik baza stavkasi). Masalan, engil avtomobil dvigatelining hajmi, avtobus va mikroavtobusning yo'lovchi sig'imi, yuk avtomobilining yuk ko'tarish qobiliyati qanchalik katta bo'lsa, polis narxi ham shuncha yuqori bo'ladi. Keyin quyidagilarga ko'ra sug'urta polisi narxini orttiruvchi va pasaytiruvchi koeffitsientlar qo'llaniladi:

- transport vositasi ro'yxatga olingan joy;
- transport vositasini boshqarishga ruxsat etilgan shaxslar soni;
- o'tgan davr va haydovchi staji davomida sug'urta hodisalarining ro'y bergan yoki bermaganligi;
- transport vositasidan foydalanishning mavsumiyligi;
- qoida buzish holatlarining mavjudligi;
- haydovchining yoshi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha maksimal sug'urta mukofoti yillik baza stavkasiga muvofiq ravishda uning besh barobaridan yuqori bo'lmasligi kerak. Unga ko'ra, agar sug'urtalanuvchi, masalan, divigatel hajmi 1200-2000 sm³ atrofida bo'lgan engil avtomobil egasi bo'lsa va undan taksi sifatida foydalanilmasa, fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashning yillik polisi miqdori yuqorida qayd etilgan omillarga ko'ra \$10,8 dan \$67,5 gacha bo'lgan qiymatni tashkil etadi.

Shuningdek 1941-1945 yilgi urush qatnashchilari yoki partizanlari yohud ularga tenglashtirilgan shaxslar, 1941-1945 yildagi urush davri melnat faxriylari, bolaligida ota-onalaridan biri yoki qayta turmushga chiqmagan beva ayol bilan birga konsentratsion lagerda bo'lgan sobiq asirlar, xarbiy xizmatni o'tash chog'ida yarador, kontuziyasi yoki nogiron bo'lgan va shuning natijasida haok bo'lgan yoki frontda orttirilgan kasallik oqibatida vafot etgan xarbiy xizmatchilarning farzandlari, Chernobil AESidagi avariya natijasida jabrlanganlar, nafaqadagilar va nogironlar uchun sug'urta mukofoti narxining 50 foizi miqdorida chegirma belgilanadi.

Shu bilan birga transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda sug'urtalanuvchi yo'l-transport hodisasi aybdori bo'lib qolsa va uchinchi bir shaxsga zarar etkazsa, bunday vaqtda sug'urtalanuvchi yoki sug'urtalanuvchining vakolatiga ega bo'lgan shaxs yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgandan so'ng 72 soatdan kechigmagan holda sug'urta kompaniyasining, yo'l harakati xavfsizligi xizmatining hodisa sodir bo'lgan va transport vositasi ro'yxatga olingan xududlardagi bo'limlarini yozma ravishda voqeadan xabardor qilishi lozim.

Shu bilan bir qatorda sug'urta kompaniyasiga sug'urta polisining asli yoki nusxasini ilova qilgan holda sug'urta to'lovini to'lash haqidagi ariza, etkazilgan zarar fakti va miqdorini, mulkka etkazilgan zarar vaqti va miqdorini, jabrlanuvchining shaxsini, vorislik yoki huquqqa egalikning kuchga kirishini tasdiqlovchi hujjatlarni, shuningdek, vorislarning shaxsini va huquqqa egalikning davlat ro'yxatidan o'tganini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi lozim.

Shu bilan birga, sug'urta kompaniyasi 15 kun muddatdan kechiktirmagan holda sug'urta qoplamasini to'lash to'g'risidagi arizani ko'rib chiqishi va o'z qarorini sug'urtalanuvchiga ma'lum qilishi shart. Sug'urta qoplama to'lash rad qilinganda, rad qilish to'g'risidagi qarorda asoslovchi dalillar ko'rsatilgan bo'lishi shart.

Sug'urtalanuvchi, birinchi navbatda, o'z tashabbusi yoki sug'urta kompaniyasining talabi bilan zararlangan mulkni yoki uning qoldiqlarini zarar etkazilish holatlarini aniqlash va qoplanishi talab etiladigan zarar miqdorini aniqlash maqsadida ko'rib chiqish va mustaqil ekspertizadan o'tkazish uchun sug'urta kompaniyasiga taqdim etishi shart.

Sug'urta kompaniyasi esa, o'z navbatida, agar o'zaro yozma ravishda boshqa muddat kelishilmagan bo'lsa, zararlangan mulk yoki uning qoldiqlarini besh kundan ortiq bo'lmagan muddat ichida ko'rib chiqishi va mustaqil ekspertizasi o'tkazishi darkor.

Sug'urta kompaniyasi zarlangan mulkni yoki uning qoldiqlarini ko'rib chiqmasa va yuqorida qayd etilgan muddat ichida mustaqil ekspertiza o'tkazmasa, sug'urtalanuvchi shunday ekspertizani mustaqil ravishda tashkil etishi

mumkin. Bundan tashqari, bunday holda sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga zaralangan mulk yoki uning qoldiqlarini taqdim etmaslikka haqlidir, sug'urta kompaniyasi esa mazkur mustaqil ekspertiza natijalariga e'tiroz bildirishi mumkin emas.

Sug'urta to'lovi uchun asos bo'lgan mustaqil ekspertiza qiymati sug'urta kompaniyasi tomonidan qoplanuvchi zarar tarkibiga kiritiladi, ammo har qanday takdirda ham umumiy to'lov o'rnatilgan sug'urta sununasidan oshmasligi kerak. SHuni unutmazlik kerakki, sug'urta qoplamasini to'lash sug'urta kompaniyasi tomonidan zararini qoplash to'g'risidagi qapor qabul qilingandan keyin 5 kundan kechiktirmay amalga oshiriladi

Boshqa variant. Mijoz jabrlanuvchiga etkazgan zararni o'z yonidan to'laydi, sug'urta kompaniyasi esa o'rnatilgan limit (sug'urta miqdori) doirasida mijozning xarajatini qoplaydi. Ammo sharti shundaki, bu ishni mijoz o'z sug'urta kompaniyasining yozma roziligi asosida amalga oshirgan bo'lsa va unga etkazilgan zararni qoplaganini tasdiqlovchi hujjatlarni takdim etgan bo'lishi kerak. Agar mijoz zararni qisman qoplagan bo'lsa, sug'urta kompaniyasi sug'urta to'lovining tegishli qismini mijoziga, qolgan qismini esa jabrlanganga (uning vorisi yoki xuquqa egalik qiluvchi shaxsga) yuqoridagi shartga asosan to'laydi. Yana bir variant mavjud. Jabrlanuvchi hayotiga, sog'lig'iga va (yoki) mulkiga etkazilgan zararni qoplashni so'rab yozma ravishda o'zi polis olgan sug'urta kompaniyasiga murojat qiladi. O'z navbatida, ushbu kompaniyaning sug'urta qoplamasini to'lash bilan bog'liq barcha harajatlarni qoplaydi. Bu sug'urta holati zararni bevosita bartaraf etishi deb ataladi. Ta'kidlash joizki, sug'urta kompaniyasi mijozining tashabbusi yoki sug'urta kompaniyasining talabi bilan qabul qilingan zararni bartaraf etish yoki kamaytirish bo'yicha kechiktirib bo'lmas choralar bilan bog'liq mijozning barcha talab qilingan va isbotlangan (sud xarajatlari, jarimalar va boshqa shunga o'xshash to'lovlardan tashqari) xarajatlarni qoplaydi.

Mamlakatimiz sug'urta tarixida shu kunga qadar ushbu sug'urta turi bo'yicha faoliyat yurituvchi biror sug'urta kompaniyasining bankrotga uchrash holati kuzatilmagan. Ammo shunga qaramay, kelajakda bu holatning yuzaga kelmasligiga hech kim kafolat berolmaydi.

Shundan kelib chiqqan holda qonunchilikka muvofiq O'zbekistonda transport vositalari egalarining fuqarolik jvobgraligini majburiy sug'urtalash bo'yicha to'lovlarni to'lash yuzasidan kafolat jamg'armasi tashkil etilgan. Jamg'arma zimmasiga sug'urtalovchi bankrotga uchraganda etkazilgan zarar uchun javobgar shaxs noma'lum bo'lganda transport vositasi egasi tomonidan etkazilgan zarar uning o'z fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash majburiyatlarini bajarmagan holda majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta to'lovlarni qoplash majburiyati yuklangan.

Bundan tashkari, Jamg'arma yilida qayd etilgan shaxslar tomonidan sug'urta mukofotlari uchun chegirmalarni ham qoplaydi.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligiga oid to'lovlarni kafolatlash fondi fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash (FJMS) tizimining asosiy ijtimoiy yo'naltirilgan belgisi sanaladi. Fond FJMS mexanizmining ajralmas

qismini hisoblanadi. Ushbu majburiy sug'urta turlarining ijtimoiy yo'naltirilgan vazifalarning ko'pchiligi Fond ishiga asos qilib olingan. Fondning asosiy vazifalardan biri transport vositalaridan foydalanish paytida etkazilgan zarar FJMS to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiq tovon to'lovlarini to'lab berish yo'li bilan kafolatli qoplab berilishini ta'minlashdir.

Fond tashkil etilgandan beri yo'l-transport hodisalaridan jabr ko'rganlarning tovon puli olish haqidagi arizalarini ko'rib chiqish hamda jabr ko'rganlarga qonunchilikka binoan tovon to'lash tartibini muvofiqlashtiruvchi ichki xujjatlar ishlab chiqildi. Mazkur xujjatlar jabr ko'rganlarning arizalarini o'z vaqtida ko'rib chiqishni ta'minlash va Fond tomonidan tovon to'lovlarini to'lash mexanizmini shakllantirishga imkon berdi.

2009 yil boshida to'lovlarni kafolatlash fondi fuqarolik javobgarligining majburiy sug'urtasiga oid axborot bazasini yaratdi. Mazkur baza muntazam ravishda sug'urta polislarining sotilishi, majburiy sug'urta shartnomalari, sug'urta xodisalari, sug'urtalovchilar va jabr ko'rganlarning shaxsiga oid ma'lumotlardan iborat axborotlarni shakllantirib boradi.

Qayd etish kerakki, mazkur axborot bazasi FJMS ga oid ma'lumotlarni joriy rejimda to'plashga imkon beradi, shuningdek, Fondga sug'urtalovchilarning FJMS bo'yicha faoliyat yuritayotganlarida sug'urtalovchilar, jabr ko'rganlar, sug'urtalanuvchilar, transport vositalari kabilarga oid axborotlar bilan almashish orqali o'z harakatlarini muvofiqlashtirishga imkon yaratadi.

Mana shunday axborot bazasi sug'urta firibgarligini oldini oladi. Bundan tashqari, har bir transport vositasi egasi va jabr ko'rgan shaxs darajasida nazorat o'rnatishga imkon beradi. Bu esa sug'urtalanuvchi o'z sug'urtalovchisini o'zgartirib, firibgarlik qilish extimolining oldi olinadi.

Axborot bazasini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish va Fond uchun foydali bo'lgan xorijiy tajribadan foydalanish maqsadida 2009 yilda Rossiya avtosug'urtalovchilar ittifoqi, Turkiyaning "TRAMER" axborot tizimi va MDH mamlakatlaridagi shunga o'xshash tashkilotlar bilan munosabatlar yo'lga qo'yildi. Ayni damda Fond mutaxassislarini ushbu tashkilotlarga yo'llash va aksincha, xorijiy mutaxassislarning tajriba almashish va ishchi munosabatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

To'lovlarni kafolatlash fondi va fondga a'zo bo'lgan sug'urtalovchilar o'rtasidagi munosabatlar fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urtasiga oid qonunchilik me'yorlari, shuningdek, a'zolik to'g'risidagi kelishuv asosiga quriladi.

Ushbu sug'urta turi bo'yicha tanlov imkoniyati keng bo'lganda, sug'urtalanishni istagan shaxs uchun tanlash oson kechmaydi. Qaltislikni qaysi kompaniyaga ishonish va bu bilan zarar ko'rmaslik mumkin. Qaysi biri afzalliroq: yuqori darajada xizmat ko'rsatiluvchi kompaniyaga murojaat etishmi, ancha taniqli brendga ega sug'urtalochini tanlashmi? Bu savolga birdaniga javob topish biroz mushkuldir.

Sug'urta kompaniyasini tanlayotgan odam uchun ikki asosiy jihatni bilish darkor: sug'urta kompaniyasi qay darajada maqbul shartlar taklif etyapti va uning xaqiqiy moliyaviy ahvoli kanday?

Birinchi holatda muammo yo'q. Chunki transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta miqdori, sug'urta tarifi, mazkur sug'urta turini amalga oshirish shartlari, sug'urta da'volarini ko'rib chiqish tartibi va boshqa shartlar qonunchilikka asosan o'rnatilgan va ular barcha sug'urta kompaniyalarida bir xil. Shunday bo'lsada, barcha sug'urta kompaniyalarida turli odamlar ishlaydi va tabiiyki, ulardagi xizmat ko'rsatish darajasi turlicha. Yirik nufuzli kompaniyaning ustunligi uning nisbatan moliyaviy barqarorligidadir. Bunday kompaniyaning inqirozga uchrashiga ishonish ancha qiyin. Sug'urta hodisasi yuzaga kelganda, agar mijoz barcha harakatlarni to'g'ri amalga oshirsa, to'lov unga albatta ta'minlanadi. Ammo kompaniyalarda mijozlar portfeli kam bo'lsa, har birining ahamiyati sug'urtalovchi uchun shunchalik yuqori bo'ladi. Bu erda, har holda, mijozga alohida e'tibor bilan qarashadi, sug'urta holati yuz berganda nima qilishni mufassal tushuntirishadi, sug'urtaning mijozga eng maqbul variantini tanlashda ko'mak berishadi. Bir narsa aniq: sug'urtalanuvchi hamkorlik qilmoqchi bo'lgan sug'urta kompaniyasi haqida va sug'urta holati yuz berganda nima qilishni qanchalik ko'p bilsa, shunchalik yaxshi. Ammo, baribir, fikrimizcha, mazkur sug'urta turi bo'yicha sug'urta kompaniyasini tanlashda quyidagilarga e'tibor qaratish joiz:

- kompaniyaning nufuzi (obro'si). Shubhasiz, bu omil ham muhim, biroq u sug'urta kompaniyasini tanlashda yagona omil bo'lib qolmasligi kerak.

- sug'urta holati yuzaga kelganda bunga sug'urta kompaniyasi qanday munosabatda bo'ladi, sug'urta qoplamasini qancha muddatda olish mumkin bo'ladi. Aks holda mijoz kompaniyani sug'urta holati yuzaga kelgani haqida talab qilinuvchi shaklda xabardor qilolmaslik oqibatida sug'urta qoplamasini ololmay qolish yoki sug'urta to'lovi juda uzoq muddatga cho'zilib ketishi sababli noqulay ahvolda tushib qolishi mumkin.

- bozorda faoliyat yuritayotgan muddat. Albatta, yaxshisi sug'urtachini fuqarolarga ancha uzoq - to'rt-besh yildan beri xizmat ko'rsatib kelayotganini tanlash kerak. Faoliyat muddatining yuqoriligi kompaniyaning barqarorligi va doimiy rivojlanishda ekanligini anglatadi.

- kompaniya shug'ullanuvchi sug'urta turlari. Qoida bo'yicha, kompaniya qanchalik ko'p sug'urta turlari bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, uning moliyaviy barqarorligi ham shuncha yuqori bo'ladi.

- katta to'lovlar. Agar kompaniya katta qaltisliklar buyicha to'lovlarni amalga oshirgan bo'lsa, mijozining FJMS bo'yicha to'lovlarini to'lash uchun ham unda mablag' topiladi.

Sug'urta kompaniyasining ishonchligini belgilovchi asosiy ko'rsatkich uning to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligi sanaladi. Buni aniqlash uchun bo'lajak mijoz aksariyat holatda kompaniya nufuzi va obro'si tug'risidagi tasavvur bilan cheklanadi. Kompaniya ofisida balans, litsenziya nusxasi va ruyxatdan o'tganlik tug'risidagi guvohnomani so'rash mumkin.

Shuningdek, aktivlarning tuzilishi, o'z mablag'lari va nizom jamg'armasi hajmi, sug'urta zahirasi kattaligi, sug'urta zaxirasi tuzilishi va boshqa ko'plab jihatlarni ham o'rganish mumkin. Ammo ular asnosida to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorlikni qanday aniqlash mumkin? Buni maxsus bilimlarsiz aniqlash imkonsiz.

SHunday ekan, bu aksariyat mijozlar, ayniqsa jismoniy shaxslar uchun «xitoy savodxonligi» bilan barobar. Qolaversa, faqat malakali mutaxassislarigina ushbu ko'rsatkichlarni xolis baholashi mumkin.

Aynan shunday paytda yordamga reyting tashkilotlari keladi. Mazkur tashkilotlar uz metodikasi asosida sug'urta kompaniyalarining ishonchliligini o'rganadi va to'lov qobiliyatining u yoki bu darajasini namoyon etuvchi reyting indekslarini taqdim etadi. Mijoz biror qaror qabul qilishi uchun ushbu reytingni ko'rib chiqishning o'zi kifoya.

Ta'kidlash joizki, sug'urta kompaniyasining reytingi juda yuqori bo'lmagan taqdirda ham, uning reyting tashkilotlariga o'zining «sir pardasi» — buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarini taqdim etishga tayyorligi ushbu kompaniyaning moliyaviy jihatdan yomon ahvolda emasligini ko'rsatib beradi.

O'zbekiston Respublikasining «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida»gi qonuni transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligining majburiy sug'urtasini (keyingi matnlarda - FJMS) amalga oshiruvchi sug'urta tashkilotlari uchun alohida sug'urta zahiralari shakllantirish tartibini nazarda tutadi. YUqorida ko'rsatilgan qonunning 17-moddasiga muvofiq agar sug'urtalovchining ushbu sug'urta turi buyicha daromadlari va harajatlari o'rtasidagi farq daromadlarning 5%idan oshsa, oshgan summa keyingi yillarda sug'urta qoplamlarini amalga oshirish bo'yicha harajatlarni kompensatsiya qilishga mo'ljallangan zahiraga yunaltiriladi. YA'ni agar sug'urtalovchi majburiy sug'urta bo'yicha daromadlarning 5%idan ortik miqdorida foyda ko'rsa, foydaning ushbu 5%dan ortgan qismi keyingi yillarda sug'urta qoplamlarini amalga oshirishni kompensatsiya qilishga mo'ljallangan zahiraga yunaltiriladi.

Sug'urta qoplamlarini amalga oshirish bo'yicha xarajatlarni kompensatsiyalovchi shakllantiriladigan zahira, mohiyatan barkarorlashtiruvchi zahira bo'lib, FJMS buyicha zararlilik darajasi tebranishlarini pasaytirishga mo'ljallangan «moliyaviy yostiqcha» vazifasini bajaradi, ya'ni ushbu zahira FJMS buyicha zararlilik darajasi keskin ravishda tebrangan holatlarda sug'urtalovchilarning daromadliligini va to'lov qobiliyatini ta'minlab beradi.

2008 yilning dekabr oyi oxirlaridan boshlab O'zbekiston Pecpublikasi Adliya vazirligidan 2008 yil dekabrda ruyxatdan o'tgan 1882-sonli «Sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralari to'g'risida»gi Nizomamalqila boshladi va ushbu Nizom 2006 yil 6 mayda ro'yxatga olingan «Sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta zahralarini shakllantirish tartibi shartlari to'g'risida»gi Nizom o'miga qabul qilindi.

Yangi nizom sug'urtalovchilar tomonidan, xususan FJMSni amalga oshiruvchilar tomonidan sug'urta zahirlarini shakllantirish va joylashtirish mexanizmini belgilab beradi.

Shunday qilib, FJMSni amalga oshiruvchi sug'urtalovchilar quyida umumiy tartibda o'rnatilgan:

- ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi (IMZ);
- xabar qilingan, lekin baparaf qilinmagan zararlar zaxirasi (XBZ);
- sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi (XBEZ) dan tashqari, keyingi yillarda FJMS buyicha sug'urta qoplamlarini amalga oshirish harajatlarini

kompensatsiya qilishga mo'ljallangan, FJMS bo'yicha barqarorlashtiruvchi zaxirani (BZ FJMS) tashkil etishlari shart.

Yuqoridagi nizomga muvofiq BZ FJMS texnik zaxiralardan biri hisoblanib, sug'urtalovchi faoliyatining moliyaviy natijasi shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

FJMS buyicha barqarorlashtiruvchi zaxirani (BZ FJMS) hisoblash uchun FJMS bo'yicha moliyaviy natija aniqlanadi. FJMS bo'yicha moliyaviy natija FJMS bo'yicha xisobot davridagi daromadlari va harajatlari o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

FJMS bo'yicha daromadlarga xisobot davrida hisoblangan sug'urta mukofoti va sug'urta zaxiralari (IMZ, XBZ, XBEZ) hajmlarining kamayish tomoniga o'zgarishi kiradi.

FJMS bo'yicha xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- FJMS bo'yicha shartnomalarning muddatidan oldin tugatilganligi sababli, sug'urtalanuvchilarga qaytarilgan sug'urta mukofotlari summalari;

- FJMSni amalga oshirish xarajatlari, shu jumladan FJMS buyicha ogohlantirish chora-tadbirlarini moliyalashtirish zaxirasini shakllantirishga ajratmalar;

- FJMS bo'yicha joriy sug'urta to'lovlarini ta'minlash bo'yicha xarajatlar, shu jumladan xisobot davri uchun FJMS bo'yicha to'lovlarni kafolatlash jamg'armasiga to'langan majburiy badallar;

- sug'urta zaxiralari (IMZ, XBZ, XBEZ) hajmlarining salbiy tomonga o'zgarishining natijasi;

- majburiy sug'urta buyicha sug'urta qoplamalari.

Sug'urta zaxirlarining o'zgarishi natijasi hisoblanganda, sug'urta zaxiralari har bir sug'urta turi bo'yicha emas, balki FJMS bo'yicha sug'urta zaxiralari hisobga olinadi. Ya'ni FJMS bo'yicha moliyaviy natijani aniqlashda barcha sug'urta zaxirlari turlari faqatgina FJMS shartnomalari bo'yicha hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, BZ FJMSni hisoblashda FJMS bo'yicha qilingan xarajatlar (shu jumladan, FJMS bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlarini moliyalashtirish zaxirasini shakllantirishga ajratmalar), hisobot davrida FJMS shartnomalari bo'yicha hisoblangan sug'urta brutto mukofotining 25%i bilan chegaralangan.

Shu bilan birgalikda, FJMS buyicha xizmatlarni ko'rsatuvchi sug'urtalovchilar FJMS bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasini (OCHZ FJMS) shakllantirishlari shart. Ushbu zaxiraning maqsadi sug'urta hodisasining yuz berishini oldini olish va ogohlantirishga yo'naltirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga qaratilgan bo'lib, tadbirlar ro'yhati va zaxira mablag'laridan foydalanish tartibi sug'urtalovchi tomonidan belgilanadi va O'zdavqsug'urtanazorat bilan kelishilishi shart. OCHZ FJMSga ajratmalar miqdori hisobot davrida FJMS shartnomalari buyicha hisoblangan sug'urta brutto-mukofotidan 5% miqdorida belgilangan.

FJMS buyicha daromadlar va harajatlar summasi aniqlangandan so'ng ular o'rtasidagi farq hisoblanadi. Agar farq summasi daromadlar summasining 5%idan oshsa oshgan summa BZ FJMSga yunaltiladi.

BZ FJMSni shakllantirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1) agar sug'urtalovchi hisobot yili boshiga BZ FJMSni hisoblamagan bo'lsa, yil boshi holatiga uning hajmi nolga teng deb olinadi;

2) agar FJMS buyicha daromadlar va harajatlar o'rtasidagi farq daromadlarning 5%idan oshsa, BZ FJMS hisobot yili oxiri holatiga ushbu oshgan sumмага ko'payadi;

3) agar FJMS bo'yicha harajatlar summasi daromadlardan oshsa, BZ FJMS hisobot yili oxiri holatiga ushbu oshgan sumмага kamaytiriladi;

4) agar hisobot yili yakunlariga ko'ra FJMS bo'yicha moliyaviy natija nolga teng bo'lsa, yoki daromadlarning harajatlardan oshgan qismi daromadlarning 5%idan oshmasa, BZ FJMSning o'zgarishi (ko'payishi yoki kamayishi) yuz bermaydi va zaxiraning qoldig'i keyingi yilga o'tkaziladi;

5) agar BZ FJMSni hisoblash natijasida uning miqdori manfiy qiymatga ega bo'lsa, uning hajmi nolga teng deb olinadi.

BZ FJMS shakllantirishning yana bir xususiyati, texnik zaxiralardagi kayta sug'urtalovchining ulushi hisobga olinmaydi. Bu o'z navbatida FJMS bo'yicha sug'urta polislarining qayta sug'urtaga berilishini foydasiz bo'lishiga olib keladi.

BZ FJMS mablag'lari sug'urtalovchilar tomonidan boshqa umumiy va hayot sug'urtasi sohalaridagi zaxiralar kabi investitsiya qilinishi mumkin. Ya'ni zaxiralarning 70 % idan kam bo'lmagan qismi quyidagilarga joylashtirilgan bo'lishi shart:

- O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari;
 - bank qo'yilmalari (depozitlar);
 - kassadagi yoki bankdagi hisob va boshqa raqamlardagi pul mablag'lari.
- shuningdek ularga tenglashtirilgan mablag'lar;
- O'zbekiston Respublikasi hududida qonunchilikamuvofiq chiqarilgan va ruxsat berilgan yoki tegishli vakolatli opgan tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorda savdoni tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha litsenziyaga (ruxsatga) ega chet el emitentlari tomonidan chiqarilgan va qimmatli qog'ozlar bozorida muomлага qo'yilgan qimmatli qog'ozlar.

*Ish beruvchining fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urta turining
sug'urtalash qoidalari*

Ish beruvchining javobgarligini sug'urta qilish qonun bo'yicha javobgarlik holatlarida o'z xizmatchilarining funksional majburiyatlarni bajarish jarayonida etkazilgan jarohat, shikastlanish yoki vujudga kelgan kasb kasalliklari va etkazilgan zarar uchun tovon to'lanishini ko'zda tutadi. to'lanadigan tovon miqdoriga da'vogarning sud ishini yuritish bo'yicha xarajatlari ham kiritiladi. Bunday sug'urtadan maqsad – ish beruvchining uning xizmatchilari halok bo'lgan yoki jarohatlangan holatlarda da'vo arizalari bilan bog'liq har qanday xarajatlarini qoplashdir. Xizmatchilar kiyim-boshiga yoki mulkiga etkazilgan zarar bunga kiritilmaydi (garchi ish beruvchi buning uchun javobgar bo'lishi mumkin bo'lsada quyida V2 bo'limda).

Sug'urta mukofoti hajmi odatda turli toifadagi ishchi va xizmatchilarning ish haqiga bog'liq bo'ladi. Buning sababi shundaki, ishchi va xizmatchilar bajaradigan

ishlar ularga zarar etkazilish ehtimoli bo'yicha farqlanadi. Eng xavfsiz xodimlar toifalari bu – xizmatchilar va boshqaruv personalidir. Qurilishdagi risklar esa jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi turli toifadagi ishchilarni namoyish etish uchun yaxshi misol bo'la oladi. Ularning orasida portlatuvchilar, g'isht teruvchilar va deyarli bitkazilgan binoda ishlaydigan suvoqchilar bor. Sug'urta qiluvchi idoralar sug'urta tariflarini belgilashda bu farqlarni hisobga olishga harakat qiladi.

Odatda «tartibga solinadigan» mukofot foydalanilib, u dastlab nazariy jihatdan hisoblab chiqiladi, so'ngra real ish haqi dinamikasiga karab tartibga solinadi.

Ish beruvchining javobgarligini sug'urta qilish bo'yicha to'lanadigan tovon hajmi qonunchilik bilan belgilanishi mumkin. Ayrim mamlakatlarda ishchi va xizmatchilarga shikast etkazilgan yoki ular halok bo'lgan holatlarda to'lanadigan tovon miqdorini aniqlashning asosida «Xodimlarga tovon to'lash (kompensatsiya)» sxemalari yotadi.⁶⁴

2009 yilning 17 aprelida O'zbekiston Respublikasining "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonun sug'urta bozorini isloh qilish va rivojlantirishning 2007-2010 yillarga mo'ljallangan Dasturida ko'zda tutilgan majburiy sug'urtaning ikkinchi turini tadbiiq etishni nazarda tutadi. Ushbu Qonunni qabul qilishdan ko'zda tutilgan maqsad mehnat jarayonida jarohat olgan, kasb kasalligi yoki xizmat burchini bajarayotgan vaqtda salomatligiga ziyon etkazgan kishilarning ijtimoiy himoyasini ta'minlashdan iborat.

Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi bugungi kunda xizmat burchini bajarayotgan paytida jarohat olgan xodimlarning ijtimoiy muhofazasini ko'zda tutadi. Mehnat Kodeksi ish beruvchining xodimiga etgan ziyon uchun javobgar ekanini belgilagan. Ma'lumki, Mehnat Kodeksining 189 va 192-moddalariga binoan, ish beruvchi olgan jarohati, kasb kasalligi yoki mehnat jarayoni bilan bog'liq ravishda sog'lig'iga etgan zararni, shuningdek boquvchisini yo'qotganlik uchun etgan zararni belgilangan tartibda to'liq qoplashi shart.

Ko'rinib turibdiki, xizmat burchini o'tayotgan paytda jarohat olgan xodimlarni moddiy jihatdan himoyalash ish beruvchi hisobidan amalga oshiriladi. Xodimning xizmat burchini o'tayotgan paytda olgan jarohati uchun ish beruvchi javobgar hisoblanadi.

Shu bilan birga, ish beruvchi qoplashi kerak bo'lgan zarar hajmi doim ham ish beruvchining moliyaviy imkoniyatlariga mos kelavermaydi yoki ish beruvchining faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Chunki ish beruvchi qoplashi kerak bo'lgan zarar hajmiga bir vaqtda va har oyda to'lanishi kerak bo'lgan kompensatsiya to'lovlari kirishi mumkin. Masalan, Mehnat Kodeksining 190-moddasiga binoan, xodimning sog'lig'iga etgan zarar uchun qoplanishi kerak bo'lgan mablag' xodim jarohat olgan vaqtga qadar olgan oylik o'rtacha ish haqiga qo'shimcha ravishda, xodim olgan jarohat darajasiga qarab belgilangan oylik foiz, jarohat olishi bilan bog'liq harajatlarni qoplash, shuningdek, bir martalik nafaqa ko'rinishidagi to'lovdan

⁶⁴ Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institut, Great Britain, 1993. 271 pg.

iborat. Bir martalik nafaqa hajmi jamoa shartnomasida, agar shartnoma tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi va kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakolatli organi o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Bunda jarohat olgan xodimga to'lanadigan bir martalik nafaqa hajmi jaroxatlangan xodimning bir yillik o'rtacha ish haqidan kam bo'lmisligi, halok bo'lgan xodimning oila a'zolariga beriladigan bir martalik nafaqa hajmi esa xalok bo'lgan xodimning oltita o'rtacha yillik ish haqidan kam bo'lmisligi kerak.

Shu munosabat bilan, "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida"gi Qonun barcha ish beruvchilarga ularning xodimlari xizmat burchini o'tayotgan paytda hayoti yoki salomatligiga ziyon etgan taqdirda majburiy tarzda sug'urta himoyasini taqdim etishni ko'zda tutadi.

Qonun xodimlarning xizmat burchini o'tayotgan paytda hayoti yoki salomatligiga ziyon etishi yoki kasb kasalligiga uchrashi, halok bo'lishi yohud kasb kasalligi oqibatida vafot etishi bois ish beruvchining javobgarligi yuzaga kelgan hollarda sug'urta kompaniyalari tomonidan davriy va bir martalik to'lovlarni to'lash uchun zarur mablag'larni to'lashlarini ta'minlovchi murakkab tizim uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Sug'urtaning ushbu turining majburiyligi birinchi navbatda mamlakatning barcha ish beruvchilarini qamrab olish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida sug'urtaning ushbu turi bo'yicha minimal sug'urta tariflarini qo'llash imkonini yaratadi. Mohiyatan, majburiy sug'urtaning bu turi mamlakat ish beruvchilari o'rtasidagi jabr ko'rgan ish beruvchilar ko'rgan zararlarni qoplash uchun mo'ljallangan mablag'larni qayta taqsimlash mexanizmi sifatida ish ko'radi.

Bu mexanizm birinchi navbatda jabr ko'rgan xodimlar ko'rgan zararni qonunda belgilangan sug'urta summasi doirasida qoplash kafolatini ta'minlaydi. Ikkinchidan, majburiy sug'urta ish beruvchi o'zining jabr ko'rgan xodimga zararni qoplab berganda ham moliyaviy barqarorligi saqlanib qolishi va ish beruvchining faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi real usul bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur sug'urta turiga asosan ish beruvchi, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini sug'urtalash shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi, annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi, jabrlanuvchi va naf oluvchi ushbu majburiy sug'urta turining sub'ektlari sanaladi. Jismoniy shaxs bilan qonunchilikda belgilangan tartibda mehnat shartnomasini tuzgan yuridik yoki jismoniy shaxs ish beruvchi deb tan olinadi.

Mehnat jarohati, kasb kasalligi yoki xizmat burchini bajarayotgan vaqtda salomatligiga ziyon klib, sug'urta qoplamasini olish huquqiga ega bo'lgan xodim jabrlanuvchi hisoblanadi.

Naf oluvchi – xodim o'z xizmat burchini o'tayotgan vaqtda halok bo'lgan hollarda sug'urta qoplamasini olish huquqiga ega bo'lgan shaxslardir. Masalan, halok bo'lganining qaranog'ida bo'lgan mehnatga layoqatsiz shaxslar, shuningdek, o'n olti yoshga etmagan farzandlari, otasining o'limidan keyin tug'ilgan bolasi, halok bo'lgan kishining ishlamaydigan yo bo'lmasa, bolalar tarbiyasi bilan band bo'lgan xotini (yoki eri), yoki halok bo'lgan kishining farzandlari, uch yoshga etmagan uka

va singillari, nabiralarini tarbiyalayotgan oilaning boshqa a'zosi yoki halok bo'lganning o'limi kunida uning qaramog'ida bo'lish huquqiga ega bo'lganlar.

Mehnat jarohati, kasb kasalligi yoki xizmat burchini bajarayotgan vaqtda salomatligiga ziyon ktib, sug'urta qoplamasini olish huquqiga ega bo'lgan xodim jabrlanuvchi hisoblanadi.

Naf oluvchi – xodim o'z xizmat burchini o'tayotgan vaqtda halok bo'lgan hollarda sug'urta qoplamasini olish huquqiga ega bo'lgan shaxslardir. Masalan, halok bo'lganning qaramog'ida bo'lgan mehnatga layoqatsiz shaxslar, shuningdek, o'n olti yoshga etmagan farzandlari, otasining o'limidan keyin tug'ilgan bolasi, halok bo'lgan kishining ishlamaydigan yo bo'lmasa, bolalar tarbiyasi bilan band bo'lgan xotini (yoki eri), yoki halok bo'lgan kishining farzandlari, uch yoshga etmagan uka va singillari, nabiralarini tarbiyalayotgan oilaning boshqa a'zosi yoki halok bo'lganning o'limi kunida uning qaramog'ida bo'lish huquqiga ega bo'lganlar.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi umumiy sug'urta sohasida faoliyat olib borish huquqini beruvchi tegishli litsenziyaga, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomalari yoki annuitet shartnomalarini tuzish, ish beruvchi yoki jabrlanuvchi (naf oluvchi)larning sug'urta qoplamasini to'lash haqidagi talablarini belgilangan tartibda ko'rib chiqishga vakolatlangan alohida bo'linmalarga ega bo'lishi kerak. Annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchilarga ham shunga o'xshash talablar qo'yilgan. Hayot sug'urtasi sohasida faoliyat yuritayotgan sug'urtalovchilar annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchilar sifatida ish ko'rishlari mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan sug'urta sub'ektlarining majburiy sug'urtaning ushbu turini amalga oshirish chog'ida o'zaro munosabatda bo'lish tartiblari va shartlari Qonunda belgilab qo'yilgan. Sug'urta sub'ektlari o'zaro munosabatlari tartibi va shartlari majburiy sug'urtalashning ish mexanizmini tashkil etadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash jarayonini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich majburiy sug'urta shartnomasi imzolangan paytdan sug'urta hodisasi sodir bo'lgan kun yoki majburiy sug'urta shartnomasi tugagan sanagacha davom etadi. Ikkinchi bosqich majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta hodisasi yuzaga kelgan paytdan boshlanadi.

Birinchi bosqich sug'urta munosabatlarida faqat sug'urtaning ushbu turini amalga oshirgan sug'urtalovchi va ish beruvchi kabi sub'ektlar qatnashadi. Mazkur bosqichda majburiy sug'urta shartnomasi tuziladi va sug'urtaning ushbu turi bo'yicha sug'urta mukofoti to'lanadi. Sug'urta shartnomasiga binoan, sug'urtalovchi kelishilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta hodisasi yuzaga kelganda ish beruvchi va jabrlanuvchi, yoki naf oluvchiga sug'urta shartnomasida kelishilgan sug'urta summasi doirasida sug'urta to'lovlarini to'lash majburiyatini zimmasiga oladi.

Ta'kidlash kerakki, majburiy sug'urta shartnomasining asosiy shartlari Qonunning o'zi bilan muvofiqlashtiriladi. Mazkur shartlar asosida Vazirlar

Mahkamasining 177-sonli Qarori bilan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash Qoidalari tasdiqlangan.

Ushbu Qoidalar majburiy sug'urtalashning mazkur turini amalga oshirishning umumiy qoidalari, subrogatsiya, sug'urtalovchini almashtirish yoki annuitetlar shartnomasiga ko'ra sug'urtalovchini o'zgartirish, yakuni qoidalar kabi umumiy shartlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, Qoidalar fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasiga tegishli shartlarni ham o'z ichiga oladi. Bu shartlar majburiy sug'urta shartnomasini tuzish, o'zgartirish va muddatidan avval bekor qilish, sug'urta summasi, sug'urta mukofoti va uni to'lash qoidalari, majburiy sug'urta shartnomasida tomonlarning huquq va majburiyatlari, sug'urta hodisalarini ko'rib chiqish tartibi, ko'rilgan zarar hajmini aniqlash va majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta qoplamasini to'lash, shuningdek, annuitetlar shartnomasiga tegishli, annuitetlar shartnomasini tuzish tartibini belgilovchi shartlar, sug'urta summasi, sug'urta mukofoti va annuitetlar shartnomasi bo'yicha qaytarib sotib olish summasi, annuitetlar shartnomasida tomonlarning huquq va majburiyatlari, annuitetlar shartnomasi bo'yicha joriy to'lovlar shaklida sug'urta qoplamlarini to'lash tartibi, annuitetlar shartnomasini o'zgartirish va muddatidan avval bekor qilish tartibidan iborat.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasi oshkora shartnoma hisoblanadi va bir yil muddatga tuziladi. Lekin agar ish beruvchining faoliyati bir yildan kam muddat davom etishi mo'ljallangan bo'lsa, u holda shartnoma ish beruvchi tomonidan ushbu faoliyatni olib borish muddatiga tuziladi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda sug'urta mukofoti quyida keltirilgan formulalar orqali aniqlanadi:

Shartnoma 1 yil muddatga tuzilganda:

$$SMQ = SS \times YBS \times STK / 100$$

Shartnoma 1 yildan kam muddatga tuzilganda:

$$SQM = SS \times YBS \times STK / 100 / 365 \times K$$

Bu erda:

SMQ – Sug'urta mukofoti qiymati;

SS – Sug'urta summasi;

YBS – Yillik bazaviy stavka;

STK– Sug'urta tarifining mos koeffitsenti;

K – Shartnoma tuziladigan kunlar soni.

Majburiy sug'urtaning ushbu turi bo'yicha sug'urta summasi quyidagicha belgilanadi:

- majburiy sug'urta shartnomasi tuzilayotgan sanaga kelib bir yildan ko'p faoliyat olib borgan ish beruvchi uchun – ish beruvchining barcha xodimlarining ushbu shartnoma tuzilgunigacha o'tgan o'n ikki oyda olgan yillik ish haqi hajmida;

- o'z faoliyatini yangitdan boshlayotgan ish beruvchi uchun – barcha xodimlarning majburiy sug'urta shartnomasi tuzilgandan keyin keladigan o'n ikki oy uchun oladigan ish haqi hajmida. Bunda yillik ish haqi miqdori birinchi oydagi ish haqini o'n ikkiga ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi;

- o'z faoliyatini kamida bir yil avval boshlagan ish beruvchi uchun ish beruvchining barcha xodimlari ish beruvchining ushbu faoliyatini amalga oshirish muddatida olgan ish haqi hajmida.

Majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta mukofoti sug'urta tariflari asosida hisoblanadi. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha sug'urta tarifi ikki tarkibiy qismdan shakllantiriladi: bazaviy stavka va ish beruvchi olib borayotgan faoliyatning xavflilik darajasiga qarab bazaviy stavkaga ko'paytiriladigan koeffitsent.

Bazaviy stavka ish beruvchilar va sug'urtalovchilar uchun yagona hisoblanadi va ish beruvchining fuqarolik javobgarligi shartnomasi bo'yicha sug'urta summasining yillik 0,1% miqdorida belgilanadi.

Bazaviy stavkaga ko'paytiriladigan koeffitsent ish beruvchi olib boradigan faoliyatning xavflilik darajasiga qarab belgilanadi. Faoliyat xavflilik darajasi Klassifikatsiyaga muvofiq belgilanadi.

Ish beruvchining faoliyat turining xavflilik darajasi Klassifikatsiyasi Qoidalari asosida tasdiqlangan. Ushbu Klassifikatsiyaga binoan, iqtisodiyot sohalari kasbiy xatarlarning 20 ta sinfiga ajratilgan. har bir sinf bo'yicha tegishli koeffitsentlar belgilangan. Agar ish beruvchi Klassifikatsiyada keltirilmagan faoliyat turi Bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, faoliyatning bu turiga nisbatan kasbiy xatarlar sinflari bo'yicha o'rtacha sug'urta tariflariga teng 3,400 hajmidagi koeffitsent qo'llaniladi.

Shuningdek, sug'urtaning ushbu turi bo'yicha sug'urta tariflari tarkibi ham belgilangan bo'lib, bunda sug'urta mukofoti hajmidagi nettog'stavka va sug'urta mukofoti hajmida majburiy sug'urtani amalga oshirish harajatlari ulushi belgilab beriladi. Sug'urta tarifi tarkibiga muvofiq, tarif stavkasining 70% ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasi bo'yicha to'lovlar va 30% ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash xarajatlari (shu jumladan, sug'urta hodisalarining oldini olishga oid ogohlantirish tadbirlari zahirasiga chegirmalar tarifining 5% ni tashkil etadi) dan iborat.

Bundan tashqari, majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta tariflari koeffitsentini qo'llash tartibi 1 yildan kam muddatga shartnomalar tuzilishini ham hisobga oladi. Majburiy sug'urta shartnomasi 1 yildan kam muddatga tuzilganda Ushbu shartnoma bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta mukofoti hajmi sug'urta summasining yillik bazaviy stavkaga, sug'urta tarifining tegishli koeffitsenti va majburiy sug'urta shartnomasi yilning necha kuniga tuzilayotganiga qarab kunlar soni ulushiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Shuningdek, Qoidalar Bilan quyidagi hujjatlarning namunalari tasdiqlangan:

- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasi va annuitetlar shartnomasi;

- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasini tuzish va annuitetlar shartnomasi haqidagi arizalar;

- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasi bo'yicha sug'urta polisi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta polisi blankalari;

- sug'urta qoplamasini to'lash haqidagi ariza;

- ishlab chiqarishdagi baxtsiz xodisa va boquvchisini yo'qotganlik bilan bog'liq zararlarni qoplash haqidagi buyruqlar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ikkinchi bosqichda sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta hodisasi yuzaga kelganda boshlanadi. Qonunga muvofiq sug'urta hodisasi bu – majburiy sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan vaqtda xodimning jarohat olishi, kasb ksalligi yoki xizmat burchini bajarayotgan vaqtda salomatligiga etgan zararlarni qoplash bo'yicha ish beruvchining javobgarligi yuzaga kelganini tasdiqlovchi holatdir.

Ikkinchi bosqichda majburiy sug'urta munosabatlari tomonlariga jabrlanuvchi, naf oluvchi va annuitet shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi qo'shiladi. Sug'urta hodisasi yuzaga kelganda jabrlanuvchi va naf oluvchi majburiy sug'urta shartnomasiga asosan sug'urta qoplamasini oluvchilarga aylanadilar.

Majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta qoplamasi quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

- jabrlanuvchining mehnat jarayonida jarohat olguniga qadar bo'lgan o'rtacha oylik ish haqiga xodimning kasbiy layoqatini yo'qotish yoki kasb kasalligi darajasiga nisbatan foizlar ko'rinishidagi har oylik to'lovlar;

- halok bo'lganning o'rtacha oylik ish haqidan uning o'ziga tegishli bo'lgan hamda uning qaramog'ida bo'lib, mehnatga layoqatli bo'lgan, lekin yetkazilgan zararni qoplashga huquqi bo'lmagan shaxslarga tegishli ulushi chegirib tashlangan har oylik to'lovlar;

- jabrlanuvchi yoki manfaat ko'ruvchiga qonunchilikda belgilangan hollarda bir martalik nafaqa to'lovlari;

- majburiy sug'urta shartnomasida belgilangan hajmda Dafn marosimlari xarajatlari;

- ish beruvchining qonunchilikka muvofiq qo'shimcha xarajatlari.

Shuni ta'kidlash zarurki, sug'urta qoplamalarini to'lash muddatiga qarab uni to'lash tartibi belgilanadi. Agar yetkazilgan zararni qoplash bir yildan ortiq muddatga mo'ljallangan to'lovlarni ko'zda tutsa, u holda sug'urta to'lovlari bevosita jabrlangan yoki naf oluvchiga to'lanadi.

Agar yetkazilgan zararni qoplash bir yildan ko'p muddatga mo'ljallangan to'lovlarni ko'zda tutsa, u holda sug'urta to'lovlari sug'urtalovchi tomonidan ish beruvchiga to'lanadi. Bunda ish beruvchi sug'urtalovchi Bilan annuitetlar shartnomasini tuzishi shart va majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha olgan sug'urta to'lovlarini faqat annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofotlarini to'lashga sarf qilishi kerak. Bu holda sug'urta munosabatlariga annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi ham qo'shiladi. Sug'urta to'lovlari muntazam asosda va bir yildan ortiq muddatga to'lanishi munosabati bilan ish beruvchi va hayot sug'urtasiga ixtisoslashgan sug'urtalovchi o'rtasida annuitetlar shartnomasi tuziladi. Shu tariqa, keyinchalik jabrlanuvchi yoki manfaat ko'ruvchi annuitetlar shartnomasi bo'yicha muntazam ravishda zararni qoplash hisobiga to'lovlar oladi.

Anuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta summasi jabrlanuvchi yoki manfaat ko'ruvchiga etkazilgan zararning qonunchilikka muvofiq ravishda qoplab berilishi kerak bo'lgan hajmda belgilanadi.

Annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofotlari ish beruvchi tomonidan annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta muddatining hammasi uchun bir martada to'lab beriladi.

Shuni aytish kerakki, bugungi kunda respublikada majburiy sug'urtaning ijtimoiy yo'naltirilgan tizimi qurilmoqda. Bu tizim mamlakat iqtisodiyotining zamonaviy talablariga to'la javob beradi. Majburiy sug'urta turlarining manna shunday tizimlarining tatbiq etilishi yaqin yillar ichida mamlakat sug'urta bozorini rivojlantirishga qudratli turtki beradi va majburiy sug'urtaning aholini ijtimoiy himoyalashda ishtirokini kengaytiradi.

Nazorat savollari:

1. Javobgarlikni sug'urtasi deganda nimani tushunasiz.
2. Javobgarlikni sug'urta qilishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati deganda nimani tushunasiz.
3. Javobgarlik sug'urtasining turlarini aytib bering.
4. Javobgarlik sug'urtasining boshqarish mexanizmini aytib bering.

X BOB. QAYTA SUG'URTALOVCHILAR FAOLIYATINI BOSHQARISH

10.1 Qayta sug'urta tushunchasining iqtisodiy mohiyati

Qayta sug'urtalash o'z mohiyatiga ko'ra sug'urtalashning bir turi bo'lib, tahlikani qayta taqsimlashning muhim mexanizmidir, tebranishlarni kompensatsiya qilish va zarar potensialini qisqartirish imkonini beradi. Bu iqtisodiy munosabatlar tizimi, unga muvofiq sug'urta qiluvchi tahlikani sug'urtaga qabul qilarkan, u bo'yicha javobgarlikning bir qismini (o'z moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda) imkon qadar mutanosib sug'urta portfeli yaratish, moliyaviy barqarorlikni va sug'urta operatsiyalari rentabelligini ta'minlash maqsadida kelishilgan shartlarda boshqa sug'urta qiluvchilarga o'tkazadi. Bu qay tariqa amalga oshiriladi? Masalan, biron mintaqada ishlaydigan biron sug'urta kompaniyasi ma'lum davr davomida o'z majburiyatlarini namunali bajarib kelgan. Ammo, kutilmaganda mintaqada kuchli jala quyadi, daryolar qirg'og'idan toshib chiqadi va deyarli hamma erni bosadi. Bir zumda to'lovlar summasi sug'urta jamg'armasidan oshib ketadi va kompaniya ularni qondirishga qodir bo'lmay qoladi.

Endi, faraz qilaylik, bularni hammasini tushungan holda, kompaniya o'z tahlikasini boshqa sug'urta yoki qayta sug'urtalash kompaniyalarida qayta sug'urta qilgan. Unda, mazkur sug'urta kompaniyasi mablag'ning faqat bir qismini to'laydi, qolgan qismini esa bunday to'lovlar katta qiyinchilik tug'dirmaydigan boshqa sug'urta va qayta sug'urtalash kompaniyalari to'laydi, chunki ular nafaqat ushbu mintaqani sug'urtalaydilar.

Butun dunyo bo'lab xizmat ko'rsatadigan SwissRe, sindikatlar, Lloyds, Hannover Re, AXARe va boshqa kompaniyalar yanada ishonchliroq. Er yuzining ma'lum joylaridagi tabiiy ofatlar ularning moliyaviy barqarorligiga hech qanaqasiga ta'sir qilmaydi, chunki ularning tahlikasi er yuzining barcha hududlari bo'ylab taqsimlangan.

Shunday qilib, qayta sug'urtalash tahlikani kamaytiradi va barqarorlikni oshiradi – bu bir tomondan, ammo sug'urta mukofotlari tushumini qisqartiradi, chunki ularning bir qismi qayta sug'urtalash himoyasini ta'minlashga ketadi. Shuning uchun, jamiyat manfaatlarini himoya qiladigan davlat sug'urta kompaniyalarining qayta sug'urtalash me'yorlari bilan tartibga solinadigan to'lovga qodirligiga katta e'tibor beradi.

Shuningdek o'zaro birgalikda olinadigan majburiyatlar sharti bo'yicha qayta sug'urtalash shartnomalari fakultativ (majburiy bo'lmagan) va obligatorli (majburiy) shartnomalarga farqlanadi.

Fakultativ shartnomalar, yoki «ochiq qoplanishli» shartnomalar bitta tahlikaga taalluqli individual bitim bo'lib, sug'urta qiluvchiga tahlikani individual tartibda baholash imkoniyati beriladi. Masalan, sug'urta qiluvchiga tahlikaning qancha qismini o'z chegirmalarida qoldirish masalasini hal qilishda, qayta sug'urtalovchiga esa tahlikani u yoki bu hajmda qabul qilish masalasini hal qilishda.

Obligator shartnomasi bo'yicha qayta sug'urtalovchiga sug'urtaga qabul qilingan barcha tahlikalarning ma'lum qismini qayta sug'urtalash majburiyatini yuklaydi. Mazkur shartnoma qayta sug'urtalovchiga unga taklif qilingan ushbu

tahlikalar qismini qabul qilish majburiyatini yuklaydi. Bu turdagi shartnoma sug'urta qiluvchi uchun ayniqsa foydali, chunki oldindan belgilangan tahlikalar avtomatik tarzda qayta sug'urtalovchining sug'urta qoplamasiga ega bo'ladi. SHu bilan birga shartnomaning fakultativ-obligatorli shakli sug'urta qiluvchiga qaysi tahlikalarni qancha hajmda qayta sug'urtalovchiga o'tkazish borasida qaror qabul qilishda erkinlik yaratib beradi. O'z navbatida, qayta sug'urtalovchi tahlikalar qismini oldindan kelishib olingan shartda qabul qilishga majbur. Qayta sug'urtalovchiga shartnomaning bu shakli foydali ham emas, xavfsiz ham emas, chunki sug'urta qiluvchi sug'urta portfelidagi tahlikalarni saralab, eng xavfli tahlikalarni qayta sug'urtalashga o'tkazishi mumkin.

Qayta sug'urtalash turlariga qarab proporsional va noproportional qayta sug'urtalashga ajratish mumkin.

Proporsional qayta sug'urtalashda qayta sug'urtalash shartnomasi bo'yicha tomonlarning qayta sug'urtalash mukofotini to'lash, ko'rilgan zararda qayta sug'urtalovchi ishtiroki ulushini aniqlash borasidagi majburiyatlari qayta sug'urtalash shartnomasi imzolalanayotganda kelishilgan proporsional tarzda belgilanadi. Proporsional kvotali qayta sug'urtalash va summa eksседenti asosida qayta sug'urtalash farqlanadi.

Kvotali qayta sug'urtalash (ingl. quota) deganda barcha sug'urta shartnomalari ma'lum ko'rinishda qayta sug'urtalash kompaniyasida yagona va ma'lum foiz nisbati asosida (kvota bo'yicha) qayta sug'urtalanishi nazarda tutiladi.

Eksседent asosida qayta sug'urtalash (ingl. surplus) deganda sug'urta summasi sug'urta qiluvchining o'z chegirmalaridan oshadigan barcha to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalaridan qayta sug'urtalovchi ma'lum miqdordagi mablag'ni olishi nazarda tutiladi.

Noproportional qayta sug'urtalashning mohiyati shundan iboratki, qayta sug'urtalovchining to'lovlari faqat ko'rilgan zarar miqdoridan kelib chiqib belgilanadi, ya'ni bu holatda alohida tahlikani va uning uchun olingan mukofotni proporsional ravishda bo'lish qo'llanilmaydi. Zarar eksседenti asosida qayta sug'urtalash va zararlilik eksседenti asosida qayta sug'urtalash farqlanadi.

Zarar eksседenti asosida qayta sug'urtalash (ingl. XL-excessofloss) quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) zarar eksседenti (oshib ketishi) (ingl. WXL-working catastrophe excessofloss), u bitta tahlika bo'yicha sug'urta qiluvchi prioritetidan (o'z chegirmalari) oshib ketuvchi zararni qoplaydi,

b) zararlilar kumulyatsiyasi eksседenti (ingl. CXL-catastrophe excessofloss), u bitta xodisa oqibati bo'lgan barcha zararlarni qoplaydi va u ham sug'urta qiluvchi prioriteti oshib ketishiga olib keladi.

Shuningdek zararlilik eksседenti asosida qayta sug'urtalash (ingl. Stopofloss) sug'urtaning ma'lum turida yoki portfelining bir qismida zararlilik rivojlanishidagi o'zgarishlarda sug'urta qilinuvchiga to'liq qoplanish taqdim etilishini anglatadi.

Qayta sug'urtalashning bu turida qayta sug'urta qiluvchi ishlab topilgan yoki to'langan mukofotdan ma'lum foiz ko'rinishida ifodalangan va o'z chegirmalaridan oshgan zararni qoplash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Bunda, prioritet kichik

zarar va o'рта miqdordagi zarar kumulyasiyasi tufayli yuzaga kelganmi yoki bir martalik yirik zarar oqibatida yuzaga kelganmi, farqi yo'q.

Eng maqbul qayta sug'urtalash himoyasini aniqlash prinsipi sug'urta kompaniyasining sug'urta portfeli uchun maksimal himoya yaratishdan iborat. Hozirgi kunga qadar qayta sug'urtalash himoyasini optimizatsiyalash masalasining universal matematik echimi topilmagan. Qisman, bu zararlarining tasodifan yuzaga kelishi, rezervlanishi va tartibga keltirilishini matematik hisoblab chiqish va modellashtirish murakkabligi bilan bog'liq. Bo'lajak natija oldindan ma'lum emas, kelajakda ishga solinadigan qayta sug'urtalash dasturini esa faqat oldingi davrning ma'lum natijalari va biznesni kelajakda rivojlantirish bo'yicha oqilona takliflar asosida tanlash mumkin.

Statistika ma'lumotlari va rivojlanish tendensiyalari mavjud bo'lsada, zararlar tabiati tasodifiy bo'lgani sababli, ba'zi hollarda, haqiqiy natijalar shunchalik farq qilishi mumkinki, oldindan tanlangan qayta sug'urtalash dasturi muvaffaqiyatsiz bo'lib chiqishi mumkin. SHuning uchun qayta sug'urtalash himoyasi variantlari faqat nazariy nuqtai nazardan maqbul bo'lishi mumkin, ba'zida bozorda tegishli takliflar yo'qligi sababli umuman amalga oshirib bo'lmaydigan bo'lishi ham mumkin. Shu sababdan, amalda ko'p hollarda himoya tuzilmasi va parametrlarini tanlash to'g'risidagi qaror tajriba va sog'lom aqldan kelib chiqqan holda qabul qilinadi.

Milliy sug'urtachilarga bo'lgan talab ortib borayotgani munosabati bilan chet el kompaniyalarida sinalgan va O'zbekiston uchun yangi bo'lgan qayta sug'urtalash usullarini tatbiq qilish choralarini ko'rish zarur.

Bugungi kunda, zarar ko'rish noaniq bo'lgan va ma'lumot etishunaydigan sharoitda eng maqbul qayta sug'urtalash himoyasini excessoflosspo WXL va CXL proporsional va noproporsional qayta sug'urtalash mushtarakligida shakllantirish mumkin, bunda proporsional qayta sug'urtalashdagi o'z chegirmalari foiz ko'rsatkichi WXL va CXL tayanch prioritetlariga nisbatan qo'llanilishi kerak. Bunday vaziyatda noproporsional qayta sug'urtalashdan maqsad sug'urta kompaniyasining proporsional chegirmalarini yirik zararlardan yoki bitta xodisa oqibatida yuz bergan bir biri bilan bog'liq qator zararlardan himoya qilishdir.

10.2 Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyati va uni amalga oshirishning huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2009 yil 3 iyuldagi 68-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009 yil 16 iyulda 1982-son bilan ro'yxatga olingan "Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Nizomda investitsiya faoliyati ob'ektlari, investitsiya faoliyatiga oid asosiy talablar, investitsiya faoliyatini amalga oshirish tartibi hamda mas'ul shaxsga qo'yiladigan malaka talablar belgilangan.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi PQ-618-son "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyatiga oid talablarni belgilaydi. Unga ko'ra

sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyati ob'ektlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- ❖ O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari;
- ❖ xorijiy davlatlarning davlat qimmatli qog'ozlari;
- ❖ bank sertifikatlari (depozit sertifikatlari);
- ❖ kredit tashkilotlariga qo'yilgan omonatlar (depozitlar);
- ❖ ko'char va ko'chmas mol-mulk (binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa moddiy boyliklar) hamda ularga doir huquqlar;
- ❖ yuridik shaxslarning ustav kapitalida ishtirok etish ulushi;
- ❖ O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududida chiqarish va muomalaga kiritishga ruxsat berilgan, yoki tegishli vakolatli organ tomonidan berilgan qimmatli qog'ozlar bozorida savdoni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyaga (ruxsatnomaga) ega bo'lgan xorijiy emitentlar tomonidan chiqarilgan hamda qimmatli qog'ozlar bozorida muomalaga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar.

Shuningdek sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchi investitsiyalarni qonun hujjatlariga zid bo'lmagan investitsiya faoliyatining boshqa ob'ektlariga ham amalga oshirishi mumkin. SHu bilan birga barpo etilishi va foydalanilishi qonun hujjatlarida belgilangan sanitariya-gigiena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlikka oid va boshqa talablarga javob bermaydigan, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan ob'ektlarga investitsiya kiritish taqiqlanadi.

Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyatiga oid asosiy talablar bo'lib, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchi o'z aktivlarini qaytarilish, likvidlik, diversifikatsiya va foydalilik tamoyillari asosida joylashtirishi lozim.

Shu bilan birga sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchi investitsiya faoliyatini amalga oshirishda quyidagi asosiy shartlarga rioya etishga majbur:

- investitsiyalar va ular bilan bog'liq tavakkalchiliklarni malakali boshqarish;
- axborotlarning shaffofligi va konfidensialligini ta'minlash.

Shuningdek investitsiyalar va ular bilan bog'liq tavakkalchiliklarni malakali boshqarish sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tomonidan quyidagi yo'llar bilan ta'minlanadi:

- sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) investitsiya faoliyatining asosiy yo'nalishlari ko'rsatiladigan investitsiya siyosatini tasdiqlash;
- zarurat bo'lganda, investitsiya faoliyatini tashkil etishga investitsiya maslahatchilari, investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilar va qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa professional ishtirokchilarini jalb qilish;
- investitsiyalash ob'ektlarini tahlil qilish va olingan daromadlilikni davriy baholash.

Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchi joriy moliyaviy yilning 20 dekabriga qadar keyingi moliyaviy yil uchun sug'urtalovchining va qayta sug'urtalovchining kuzatuv kengashi yoki boshqa vakolatli organi tomonidan tasdiqlanadigan investitsiya siyosatini har yili ishlab chiqadi.

Investitsiya siyosatini amalga oshirishda quyidagi asosiy elementlarni nazarda tutadi:

➤ investitsiya faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq tavakkalchiliklarning tahlili,

➤ sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchi aktivlarining investitsiya faoliyati ob'ektlari bo'yicha uzoq muddatli taqsimlanishi;

➤ sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchi aktivlarining investitsiya faoliyati ob'ektlari, geografik hududlar va iqtisodiyot sohalari bo'yicha taqsimlanish limitlari;

➤ investitsiya faoliyatining ma'lum bir ob'ektlariga investitsiya qilishning cheklovlari va taqiqlari;

➤ mas'ul shaxslarning qarorlarni qabul qilishdagi vakolat chegaralari va sug'urtalovchining va qayta sug'urtalovchining aktivlarini investitsiya qilishdagi cheklovlarni belgilash;

➤ mas'ul shaxslarga qo'shimcha malakaviy talablar;

➤ mas'ul shaxs tomonidan ekspertiza o'tkazish va xulosa tayyorlash tartibi;

➤ investitsiya faoliyati bilan bog'liq yomon sharoitlar oqibatlarini yumshatishga oid favqulodda holatdagi tadbirlar rejasini.

Shu bilan birga sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchi quyidagilarni o'z ichiga olgan qarorlar qabul qilish va investitsiya faoliyatidagi cheklovlar bo'yicha majburiyatlarning turli bo'linmalari o'rtasida taqsimlanishini ta'minlash uchun tegishli nazoratni amalga oshirishi lozim:

▪ mas'ul shaxs buxgalteriya operatsiyalarini o'tkazmasligi, pul mablag'larini qabul qilmasligi, buxgalteriya provodkalari solishtirmasini tasdiqlamasligi va amalga oshirmasligi lozim;

▪ investitsiya faoliyatini tashkil etish hujjatlar bilan tasdiqlangan hamda birlamchi hujjatlar va buxgalteriya yozuvlari bilan solishtirilgan bo'lishi shart.

Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchi har yili o'z investitsiya faoliyatining qonunchilik shartlari va talablari va tasdiqlangan investitsiya siyosatiga rioya etilishi yuzasidan ichki nazoratni amalga oshirib borishi shart.

Sug'urta va qayta sug'urta faoliyati bo'yicha mas'ul bo'lgan shaxslarga qo'yiladigan malaka talablari quyidagilardan iborat:

▪ O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida olingan oliy (iqtisodiy, moliyaviy, buxgalteriya, matematik) ma'lumotga yoki xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalarida olingan hamda qonun hujjatlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasidagi oliy ma'lumotga ekvivalent deb tan olingan oliy (iqtisodiy, moliyaviy, buxgalteriya, matematik) ma'lumotga ega bo'lishi kerak;

yuridik shaxsning moliyaviy va iqtisodiy faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan 2 yildan kam bo'lmagan ish stajiga ega bo'lishi kerak (yordamchi, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar lavozimlaridagi ish staji hisobga olinmaydi)⁶⁵.

⁶⁵O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2009 yil 3 iyuldagi 68-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Nizom.

10.3 Chet mamlakatlarda qayta sug'urta faoliyatini tashkil etish asoslari

1688 yilda Edvard Lloydning kofe uyi sug'urta munosabatlari shakllanib, mana 330 yildan ortiq davr mobaynida yangi sug'urta mahsulotlarini yaratilishiga asosiy zamin bo'lmoqda. Qayta sug'urta 150 yildan beri muhim ahamiyatga ega yo'nalish hisoblanadi. Dunyoning birinchi qayta kompaniyasi Keln Re 1842 yilda tashkil etilgan. 1852 yilda dunyoda birinchi qayta sug'urta shartnomasi Keln Re tomonidan tuzilgan. Swiss Re va Munich Re 1863 va 1880 yillarda tashkil etilgan bo'lib, hozirgi kunga qadar jahon sug'urta bozorining eng yirik 2 ta qayta sug'urtalovchilar hisoblanishadi.

"Fitch" Xalkaro reyting agentligi 12 ta sug'urta va qayta sug'urta bozorlari reytingi prognozini barqarorlikdan salbiy ko'rsatkichlarga tushirdi. Prognoz o'zgarishiga xalqaro moliyaviy bozordagi sharoitlarning sezilarli darajada yomonlashgani sabab bo'ldi. Shunday qilib, "Fitch" barqarorlikdan salbiy ko'rsatkichlarga Fransiya, Yaponiya, Shveysariya va Buyuk Britaniya, shuningdek, AQSH va Italiya sug'urta bozorlari reytingini ham tushirdi. Agentlik shuningdek, Germaniya tibbiy sug'urta reytingi bo'yicha prognozlarni ham, xalqaro qayta sug'urta bozori reytingi bo'yicha prognozlarni ham o'zgartirgan.

Germaniyada "Myunxen Ryuk" qayta sug'urta qilish kompaniyasi mavjud. U dunyodagi eng yirik 10 ta qayta sug'urtalovchi kompaniyalar qatoriga kiradi. "Myunxener Ryuk" 1880 yili tashkil etilgan. Hozirgi paytda kompaniya dunyoning 135 ta mamlakatida o'z faoliyatini olib boradi.

"Kafolat" aksiyadorlik jamiyatida SCOR Global P&C SE (Fransiya) vakillari bilan ishbilarmonlik uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda tomonlar qayta sug'urtalash sohasiga oid masalalar yuzasidan muzokara olib bordi.

Uchrashuvda SCOR Global P&C SE kompaniyasining Markaziy va SHarqiy Evropa mintaqalari bo'yicha rahbari Fabris de Diano hamda ushbu tashkilotning Rossiya Federatsiyasidagi vakolatxonasi ("SKOR Perestraxovanie" kompaniyasi) bosh direktori Dmitriy Blagutin ishtirok etishdi. Muzokara chog'ida tomonlar bir-birlarini sug'urta bozorida qayta sug'urtalash bo'yicha joriy holat bilan tanishtirib, tizimni rivojlantirish choralari yuzasidan fikr almashdi. Shuningdek, qayta sug'urtalash bo'yicha butun jahon bozorida kechayotgan jarayonlar, uni taraqqiy ettirish istiqbollari va muammolari muhokama qilindi. Uchrashuvda Fabris de Diano kelajakda O'zbekistonda sug'urta va qayta sug'urtalash sohasini rivojlantirish potentsiali katta ekanligini alohida ta'kidlab, bu borada mahalliy sug'urta tashkilotlari bilan hamkorlik qilishga tayyorligini qayd etdi.

O'z navbatida, "Kafolat" aksiyadorlik jamiyati vakillari ham qayta sug'urtalash sohasida dunyoda etakchilik qilayotgan kompaniyalar, jumladan, SCOR Global P&C SE bilan o'zaro hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yishdan manfaatdor ekanligini bildirishdi. Ayni paytda kompaniya qayta sug'urtalash sohasida dunyo bo'yicha etakchilik qilayotgan beshlik tashkilotlari qatoridan o'rin olgan. Kompaniya tarkibi – Scor Global P&C (qayta sug'urtalash va mol-mulk sug'urtasi), SCOR Global Life (hayot sug'urtasi va qayta sug'urta), Scor Global Investments (kompaniya aktivlarini boshqarish) kabi asosiy guruhlardan iborat.

AQSH va Buyuk Britaniyada qayta sug'urtachi jamiyatlar ro'yxatdan o'tishi zarur bo'lsa, Germaniya, Fransiya davlatlarida qayta sug'urtachi jamiyatlar faoliyati ro'yxatga olinmaydi va sug'urta nazorati tomonidan nazoratga olinmaydi⁶⁶.

Qayta sug'urtalash bozorini jahon talablariga mos ravishda rivojlantirish va xalqaro sug'urta bozorida faoliyat olib borish uchun xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish muhim rol o'ynaydi. Xalqaro sug'urta bozorida dunyoning yirik sug'urta kompaniyalari birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urtalash operatsiyalarini amalga oshirish uchun birlashadilar.

Qayta sug'urta xizmatini ko'rsatishga qo'yilgan talabga ko'ra qayta sug'urtalovchilar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

❖ faqat qayta sug'urta qilish faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega sug'urtalovchi;

❖ sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega va ustav kapitalining shakllantirilgan qismi faqat qayta sug'urta qilish faoliyatini amalga oshiradigan sug'urtalovchi uchun sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan ustav kapitalining eng kam miqdorida kam bo'lmagan ustav kapitaliga ega sug'urtalovchi;

Hisobot yili boshiga quyidagi reytinglardan biriga ega chet el sug'urta tashkiloti:

❖ "Moody's Investors Services" (AQSH) reyting agentligi tasnifi bo'yicha "Vaa3" dan past bo'lmagan;

❖ "Standard & Poors Corporation" (AQSH) reyting agentligi tasnifi bo'yicha "VV+" dan past bo'lmagan;

❖ "Fitch, Inc" (Buyuk Britaniya) agentligi tasnifi bo'yicha "VV-" dan past bo'lmagan;

❖ "A.M. Best Company, Inc." (AQSH) reyting agentligi tasnifi bo'yicha "V+" dan past bo'lmagan;

❖ "Ekspert-RA" (Rossiya Federatsiyasi) reyting agentligi tasnifi bo'yicha "A++" dan past bo'lmagan.

Dunyoning yetakchi sug'urta va qayta sug'urtalash hamda risklarni diversifikatsiya qilish brokeri "Aon benifield" ning so'ngi tahlil ma'lumotlariga ko'ra yalpi qayta sug'urtalash kapitali dunyo bo'yicha 2012 yilda 505 mlrd AQSH dollariga etgan va o'tgan yilga nisbatan 11 foizga oshgan.

Inqiroz davrini hisobga olmaganda barcha yillarda qayta sug'urtash mukofotlarining yildan-yilga o'sib borishi kuzatilgan. Hozirgi kunga tahlilchilar fikriga ko'ra jami sug'urta mukofotlarining 35-40 foizini qayta sug'urtalash mukofotlari tashkil qiladi.

G'arbiy Evropa va AQSH da ro'yxatga olingan qayta sug'urta jamiyatlarining qayta sug'urta mukofotlarini jahon qayta sug'urta tashkilotlari sug'urta mukofotlari hajmidagi ulushi 75% dan ko'proq qismini tashkil qiladi. Keltirilgan ma'lumotlar

⁶⁶ Noelia Bernal, I., Miguel A. Carpiob, Tobias J. Klein. The effects of access to health insurance: Evidence from a regression discontinuity design in Peru. journal homepage: www.elsevier.com/locate/jpube

hozirgi zamon jahon qayta sug'urta bozorida barqaror, turg'un qayta sug'urta markazlari shakllanganligini tasdiqlamoqda⁶⁷.

Oxirgi 10 yil davomida ro'y berayotgan biznesning globallashuv protsessi, qayta sug'urta operatsiyalarining konsentratsiyalashuviga va yirik qayta sug'urta guruhlarini shakllanishiga olib keldi.

Shunday guruhlardan biri Swiss Re kompaniyasidir. Uning tarkibiga quyidagi kompaniyalar kiradi:

Shvetsariyaning Syurix shahrida ro'yxatga olingan Swiss Re kompaniyasi, Swiss Re Amerika, Swiss Re Angliya, Swiss RE Italiya, hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi Life Re, Mevcantile & General Re, Union Re.

Shuningdek London sug'urta bozorida faoliyat olib boruvchi General Re (Evrope), London sug'urta bozorining sug'urta xizmatini ko'rsatuvchi General Star, brokerlar orqali qayta sug'urta qiluvchi sindikat Dode VR Mann.

Dunyoning 75 ta mamlakatida o'zining vakolatxonalariga, sho'ba korxonalariga ega. Dunyoning eng yirik qayta sug'urta kompaniyalari tomonidan 2016-2017 yillarda netto qayta sug'urta mukofotlarini quyida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

7-jadval

**Dunyoning eng yirik qayta sug'urta kompaniyalari⁶⁸
(2016 – 2017 yillar)**

t/r	Sug'urta kompaniyalar nomi	Mamlakat	Netto qayta sug'urta mukofoti (mln. doll.)	
			2016 yil	2017 yil
1.	Munich Reinsurance Co	Germaniya	31,839.4	36,454.4
2.	Swiss Reinsurance Co	Shveysariya	33,570.0	32,316.0
3.	Berkshire Hathaway Re	AQSH	13,917.0	24,212.0
4.	Hannover Rück SE	Germaniya	15,363.4	19,321.4
5.	SCOR SE	Fransiya	13,231.0	16,163.5
6.	Lloyd's	Buyuk Britaniya	8,958.8	10,746.5
7.	China Reinsurance (Group) Corp	Xitoy	7,513.8	9,970.3
8.	Reinsurance Group of America, Inc	AQSH	9,248.9	9,841.1
9.	Everest Re Group Ltd	Bermud orollari	5,270.9	6,244.7
10.	GIC of India	Hindiston	4,674.7	5,796.3

Ushbu jadvalda dunyoning eng yirik qayta sug'urta kompaniyalari tomonidan 2016-2017 yillar yig'ilgan netto qayta sug'urta mukofoti to'g'risida ma'lumotlar o'z aksini topgan. Mazkur jadvalga ko'ra Germaniyaning Munich Reinsurance Co qayta

⁶⁷ Ulrik Franke. The cyber insurance market in Sweden. Journal homepage: www.elsevier.com/locate/eos

⁶⁸ Manba: Special Report Global Reinsurance ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

sug'urta kompaniyasi netto qayta sug'urta mukofotini yig'ish bo'yicha birinchi o'rinni egallab, u tomonidan 2016 yilda yig'ilgan netto qayta sug'urta mukofoti 31,839.4 mln.dol.ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2017 yilda 36,454.4 mln.dollorni tashkil qilgan.

Shuningdek Shveysariyaning Swiss Reinsurance Co qayta sug'urta kompaniyasi tomonidan netto qayta sug'urta mukofotini yig'ish bo'yicha 2-o'rinni egallab, u tomonidan 2016 yilda yig'ilgan netto qayta sug'urta mukofoti 33,570.0 mln.dollorni tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2017 yilda 32,316.0 mln.dollorni tashkil etgan.

Shu bilan birga AQSH ning Berkshire Hathaway Re qayta sug'urta kompaniyasi 2016-2017 yillarda netto qayta sug'urta mukofotini yig'ish bo'yicha 3-o'rinni qo'lga kiritib, u tomonidan 2016 yilda yig'ilgan netto qayta sug'urta mukofoti 13,917.0 mln.dollorini tashkil qilib, 2017 yilda 24,212.0 mln.dollorni tashkil etmoqda. Qolgan Germaniyaning Hannover Rück SE, Fransiyaning SCOR SE, Buyuk Britaniyaning Lloyd's, Xitoyning China Reinsurance (Group) Corp, AQSH ning Reinsurance Group of America, Inc, Bermud orollarini Everest Re Group Ltd hamda Hindistonning GIC of India qayta sug'urta kompaniyalari yig'ilgan netto qayta sug'urta mukofotlari bo'yicha keyingi o'rinlarni egallab kelmoqdalar⁶⁹.

Qayta sug'urta qilish faoliyatining doimiy rivojlanishda bo'lishi va kelajakda qayta sug'urta qilishni amalga oshirishda yangi uslublar (shakllar), guruhlar va turlar paydo bo'lishi ehtimoli inobatga olinib, qayta sug'urta qilishning uslublar (shakllar), guruhlar va turlari bo'yicha biz taklif etayotgan tasnifi barcha masalalarni o'zida qamrab olmaydi.

Nazorat savollari:

1. Qayta sug'urta tushunchasining iqtisodiy mohiyatini aytib bering.
2. Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyati deganda nimani tushunasiz.
3. Sug'urta va qayta sug'urta faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslarini aytib bering.
4. Chet mamlakatlarda qayta sug'urta faoliyatini tashkil etish asoslarini aytib bering.

⁶⁹ Manba: Special Report Global Reinsurance ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

XI BOB. SUG'URTA TASHKILOTLARIDA TARIF SIYOSATINI BOSHQARISH

11.1 Sug'urta tarifi tushunchasi uning iqtisodiy mohiyati

Iqtisodiyotimizda xo'jalik faoliyatini yurituvchi, barcha sub'ektlar faoliyatini to'g'ri va aniq ko'zlagan maqsadlariga etishlari uchun ularning ichki siyosatini olib borilishiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, sug'urta kompaniyalari faoliyatini to'g'ri va aniq ko'zlagan maqsadlariga erishishlari uchun sug'urta tarif siyosatining amalga oshirishiga bog'liq bo'ladi. Buning sug'urta kompaniyalari faoliyatida risklar transferini to'g'ri qo'llanilishi ularning kelgusida kutilayotgan risklilik darajasini belgilashda aniqlik kiritadi. Sug'urta kompaniyalarida risklar transferini funksional mazmun-mohiyatiga ko'ra o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan sug'urta xizmatlarini tashkil etish hamda ularni ko'rsatish sa'y-harakatlari majmuasi, deb ta'kidlash mumkin. Mazkur faoliyatning asosiy maqsadi iqtisodiyot sub'ektlarining talablariga ko'ra, ularni sug'urta risklaridan himoyasini ta'minlashga qaratilgandir. Bu jarayonda risklar yuz berishi oqibatida ko'rilishi ehtimol bo'lgan zararlarni qoplashda sug'urta tizimi barqarorligini ta'minlashning ahamiyati ortmoqda. SHuning uchun risklar transferida tariflarni optimal darajada belgilash sug'urta tizimi barqarorligini ta'minlashning muhim omili sifatida qaralmoqda.

Sug'urta tarifi - bu sug'urta riskini bahosi bo'lib, sug'urta summasiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan brutto-stavkadir. Sug'urta tarifi (brutto-tarif) ikki qismdan iborat: netto-tarif va netto-tarifga yuklama. Netto-tarif sug'urta kompaniyasining sug'urta fondidan qiladigan xarajatlarini ifodalaydi. Netto-tarifga yuklama sug'urta kompaniyasining ish yuritish xarajatlarini, komissiya haqini va boshqa xarajatlarini o'z ichiga oladi. SHaxsiy sug'urta bo'yicha tarif stavkasi mol-mulk sug'urtasining tarif stavkasidan keskin farq qiladi. Hayot sug'urtasidagi tarif stavkasi hayotiylik jadvali va daromad normasiga muvofiq hisoblab chiqiladi.

Sug'urtada tarif siyosati deganda sug'urta operatsiyalarini zararsiz amalga oshirilishini va sug'urtalanuvchilarning manfaati yo'lida sug'urta tariflarini belgilash, aniqlash, tartibga solish va tabaqalashtirish bo'yicha sug'urta kompaniyasining maqsadli yo'naltirilgan sug'urta tashkilotlarining maqsadli faoliyati tushuniladi. Sug'urtada tarif siyosati quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

➤ Netto-mukofotlar va sug'urta qoplamasi o'rtasidagi ekvivalentlik. Har bir sug'urta turi bo'yicha netto-stavka zararlarning ehtimol tutilgan miqdoriga maksimal darajada to'g'ri kelishi zarur.

➤ Sug'urtalanuvchilarning asosiy qismi uchun sug'urta tarifi miqdoring qulayligi. Tarif stavkalarini yuqori darajada belgilanishi sug'urta ishini rivojlanishi uchun to'siq bo'ladi.

➤ Sug'urta tarifi stavkalarining barqarorligi. Agar uzoq yillar mobaynida tarif stavkalari o'zgarmasa, bu holat sug'urtalovchining nufuzini oshiradi. Sug'urta summalarining zararlilik ko'rsatkichi kamaysa, sug'urtalanuvchilarning manfaati uchun sug'urta tarifi stavkasini o'zgartirmasdan javobgarlik xajmini ko'paytirish maqsadga muvofiqdir.

➤ Sug'urta operatsiyalarining rentabelligini ta'minlash.

Sug'urta bozori o'ziga xos iqtisodiy munosabatlarni qamrab olib, ushbu munosabatlarning asosiy ishtirokchilari sug'urta kompaniyasi va sug'urtalanuvchilar hisoblanadi. Sug'urta bozorining o'ziga xos tovari, sug'urta kompaniyalari tomonidan ko'rsatiladigan sug'urta xizmatlaridir. Har qanday tovar singari sug'urta xizmati ham o'zining qiymati va iste'mol qiymatiga ega.

Sug'urta xizmatining iste'mol qiymati sug'urta himoyasini ta'minlashdan iborat bo'ladi. Sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta himoyasi shartnoma asosida etgan zararining qoplamasi yoki hayot sug'urtasi shartnomasida sug'urta ta'minotini to'lashda moddiy ko'rinish kasb etadi.

Sug'urta xizmatining qiymati (yoki narxi) sug'urtalanuvchi to'laydigan sug'urta mukofotida ifodalanadi. Sug'urta mukofoti shartnoma tuzilganda belgilanib, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, shartnoma muddati davomida o'zgaray qoladi.

Sug'urta mukofotining hajmi quyidagilarga etarli bo'lishi zarur:

- sug'urta muddati davomida kutilayotgan da'volarni qoplashga;
- sug'urta zaxiralarini shakllantirishga;
- sug'urta kompaniyasining ish yuritish xarajatlarini qoplash;
- ma'lum darajadagi foyda hajmini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 942-moddasi sug'urta mukofoti tushunchasini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, jumladan unda quyidagilar haqida to'xtalib o'tilgan. Sug'urta mukofoti deganda sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta shartnomasida belgilangan tartibda va muddatlarda sug'urtalovchiga to'lashi shart bo'lgan sug'urta haqi tushuniladi. Sug'urtalovchi sug'urta shartnomasi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta mukofoti miqdorini belgilashda sug'urta ob'ekti va sug'urta xavfi xususiyati hisobga olingan holda o'zi tomonidan ishlab chiqilgan, sug'urta puli birligidan undiriladigan mukofotni aniqlaydigan sug'urta tariflarini qo'llashga haqli.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda sug'urta mukofotining miqdori davlat sug'urta nazorati organlari tomonidan joriy etilgan yoki tartibga solinadigan sug'urta tariflariga muvofiq belgilanadi. Agar sug'urta shartnomasida sug'urta mukofotini bo'lib-bo'lib to'lash nazarda tutilgan bo'lsa, shartnomada navbatdagi sug'urta badallarini belgilangan muddatlarda to'lamaslik oqibatlari ko'rsatib qo'yilishi mumkin. Agar sug'urta hodisasi to'lash muddati o'tkazib yuborilgan navbatdagi sug'urta badali to'lanishidan oldin yuz bergan bo'lsa, sug'urtalovchi mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta to'voni yoki shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta puli miqdorini sug'urta mukofotining o'ziga to'langan qismiga mutanosib summada cheklashga va muddati o'tkazib yuborilgan sug'urta badali summasini hisobga olishga haqli.

Sug'urta mukofoti o'ziga xos tarkibiy tuzilishga ega bo'lib, uning har bir tarkibiy qismi kompaniyaning ma'lum bir funksiyasini amalga oshirishni ta'minlaydi. Sug'urta mukofotining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilar: netto-mukofot, sug'urta kompaniyasi xarajatlarini qoplash yuklamasi, foyda yuklamasi.

Netto-mukofot zararlarni qoplash uchun mo'ljallanadi. Sug'urta mukofotining mazkur qismini hisoblashning o'ziga xos xususiyati shundaki, sug'urta zararlarning

qancha bo'lishini oldindan aniqlashning imkoni yo'q. O'tgan davrlardagi ma'lumotlarni tahlil qilish asosida kelgusida kutiladigan zararni aniqlash va ularni taqsimlanishini hisoblash hamda natijada, netto-mukofotining summasini keltirib chiqarish mumkin, lekin mazkur summa zararlarni to'liq qoplash ehtimolining yuqoriligini ta'minlay olmaydi. SHu narsa ma'lumki, izchil ma'lumotlar asosida hisoblangan kutilayotgan zarar summasi 50% holatlarda o'zini oqlamagan. Buning natijasida sug'urtalovchilar deyarli ikki yilda bir marta mazkur holat natijasida zarar ko'rish holatlari mavjud bo'ladi. Mijozlarga sug'urta qoplamasini kafolatlash maqsadida netto-mukofotga zararlarni yuklamasi qo'shiladi. Agarda zarar yuklamasi kutilayotgan zararning noto'g'ri hisoblanishi holatlarida zararlilikning oshib ketishi xavfini kamaytiradi.

Sug'urta kompaniyasining xarajatlarini qoplash yuklamasi sug'urta kompaniyasining ish yuritish xarajatlarini qoplash uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari sug'urta tashkiloti to'laydigan soliqlar, masalan mol-mulk solig'i ham sug'urta mukofotining tarkibiga kiritilishi zarur.

Sug'urta mukofotini hisoblashda chegirmalar kompaniyaning investitsiya daromadi evaziga amalga oshirilishi mumkin. Lekin bu har doim ham amalga oshirilavermaydi. Mablag'larni joylashtirishdan olingan daromadlar barcha zararlarni qoplash va foyda olishning manbai hisoblanadi.

11.2 Sug'urtaning umumiy sug'urta tariflarini ishlab chiqish uslubi

Respublikamiz milliy sug'urta bozorida, sug'urtalovchilar faoliyatida sug'urta tarif siyosatini yurg'uzishning o'ziga xos tartibi ishlab chiqilgan. Bunday tartib qoidalarni ishlab chiqilishi sug'urtalovchilar faoliyatida sug'urta turlarini tabaqalarga ajratish va uni tartibga solish mexanizmini belgilashdan iboratdir. Umumiy sug'urta bo'yicha tariflarni hisoblashda sug'urta turlarini ommaviy va yirik risklarga ajratish mumkin. Ommaviy sug'urta turlari deganda, ma'lum toifadagi sug'urtalanuvchilar va ularga tegishli sug'urta risklarini qamrab oluvchi va ular bo'yicha sug'urta ob'ektlari sug'urta qoplamalarining bir xilligini ifodalovchi sug'urta turlari tushuniladi. Yirik yoki alohida risklar bo'yicha sug'urta turlari sug'urta hodisasining yuz berish chastotasi past bo'lganligi, lekin sug'urta zarari hajmlari kattaligi bilan ajralib turadi. Mazkur sug'urta turida bir nechta sug'urta ob'ektlarini sug'urtalash mumkin, lekin sug'urta summasining taqsimlanishi katta hajmda bo'ladi. Ushbu sug'urta turlari bo'yicha sug'urta tariflarini hisoblashning o'ziga xos jihatlarini quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin.

8-jadval

Netto-stavkalarini hisoblash bo'yicha sug'urta turlarining tasniflanishi

Sug'urta turlari			
Hayot sug'urtasi	Umumiy sug'urta		
	Ommaviy sug'urta turlari	Yirik risklar bo'yicha sug'urta turlari	
Ayrim tegishli bo'lgan sug'urta turlari			
<ul style="list-style-type: none"> • Ma'lum yoshgacha yashash sug'urtasi • Vafot etishdan sug'urtalash 	<ul style="list-style-type: none"> • Baxtsiz sug'urtalash 	<ul style="list-style-type: none"> • hodisalaridan 	<ul style="list-style-type: none"> • Sanoat korxonalarini sug'urtalash

• Rentalar to'lovini nazarda tutuvchi barcha sug'urta turlari (shu jumladan, pensiya sug'urtasi, nogironlik sug'urtasi va boshqalar)	• Tibbiyot sug'urtasi • Fuqarolik javobgarligi sug'urtasi • Mol-mulk sug'urtasi va boshqalar.	• Aviatsiya va kosmik sug'urta • Tabiiy ofatlardan sug'urtalash
Netto-stavkaning hisoblanishiga ta'sir etuvchi sug'urta turlarining xususiyatlari		
• Ehtimollik elementi insonning hayot davomiyligi ehtimolligi bilan bog'liq	• Bir turdagi ko'p sonli ob'ektlar va ular to'g'risidagi statistik ma'lumotlar	• Sug'urta hodisalari kamdan kam sodir bo'ladi. sug'urta ob'ektlari soni chegarlangan
Netto-stavkani hisoblashning xususiyatlari		
• Ma'lumotlar sifatida demografik statistikadan foydalaniladi, vafot etish darajasi jadvali, sug'urta tariflarining diskontlanishi	• Tariflarning hisobi statistik usullar yordami o'rtacha ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.	• Netto-stavkani hisoblashda bir nechta o'n yillik ma'lumotdan foydalanish taqozo etiladi. kam sonli ob'ektlar uchun maxsus tariflarni hisoblash usullarining xalqaro darajada kelishuvi

Har bir sug'urtalanayotgan ob'ekt o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlaridan kelib chiqib mazkur ob'ektni ma'lum ob'ektlar guruhiga kiritish mumkin. Ob'ektlarning ushbu guruhi o'ziga xos ehtimollik va zararining og'irlik ko'rsatkichlariga ega. Shuning uchun mazkur guruh uchun uning xususiyatlarini hisobga oluvchi netto-stavkani hisoblab chiqish mumkin. Hisoblangan netto-stavka barcha ob'ektlar uchun o'rtacha bo'lib, guruhga kiruvchi ob'ektlarning ko'rsatkichlaridagi chetlanishlarni hisobga oladi. Har bir ob'ektning ma'lum o'ziga xos xususiyatlari sug'urta hodisasining yuz berishiga, zararining kutilayotgan hajmiga yoki ikkala ko'rsatkichga birdaniga ta'sir etuvchi xususiyatlari bo'lishi mumkin. Yuqoridagi keltirilgan ko'rsatkichlarga ta'sir ko'rsatuvchi omillar *risk omillari* deb nomlanadi. Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-son qaroriga "Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida"gi nizomida sug'urta faoliyatini klassifikatorlari, sug'urta tarmog'ini ikkita tarmog'iga ajratilgan holda belgilab qo'yilgan bo'lib, buni quyidagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin⁷⁰.

9-jadval

Umumiy sug'urta tarmog'i

Klass tartib raqami	Klassning nomi	Mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar
1-klass	Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish	Quyidagi hollarda: a) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida sog'liqning qattiq shikastlanishi, yoxud; b) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida vafot etgan taqdirda, yoxud, v) kasallik yoki muayyan turdagi kasallik natijasida mehnat qobiliyatini yo'qotish, shu jumladan ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb

⁷⁰ Manba: Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-son qaroriga asosan.

		kasalliklari, biroq 2-klass va IV klass bo'yicha sug'urta shartnomalarini istisno qilgan holda, sug'urta qilingan shaxsga sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi yoki pul kompensatsiyasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
2-klass	Kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish	Sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi to'lanishini yoki kasallik yoki sog'liqning izdan chiqishi munosabati bilan sug'urta qildiruvchining pul kompensatsiyasi (yoki uning ham, buning ham kombinatsiyasi)ni ta'minlovchi sug'urta turlari jami, biroq hayotni sug'urta qilish tarmoqlarining IV klassi bo'yicha shartnomalarni istisno qilgan holda
3-klass	Er usti transport vositalarini sug'urta qilish	Transport vositalari, o'zi yurar mashina va mexanizmlar, harakatlanadigan temir yo'l tarkibi bundan mustasno, yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
4-klass	Harakatlanadigan temir yo'l tarkibini sug'urta qilish	Harakatlanadigan temir yo'l tarkibi yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
5-klass	Aviatsiya sug'urtasi	Havo kemasi, havo kemasining mashina asbob-uskunolari, jihozlari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
6-klass	Dengiz sug'urtasi	Dengiz va ichki daryo kemalari, kemalarning mashina asbob-uskunolari, asbob-uskunolari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
7-klass	Yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish	Transportning har xil turlari bilan tashishda yuklar, bagaj va boshqa mol-mulk yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
8-klass	Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish	Yong'in, portlash, bo'ron, dovul, jala, ko'chki, tuproqning cho'kishi, emirilish, er osti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta'siri natijasida mol-mulk (3 va 7- klasslarda ko'rsatilganlar bundan mustasno) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
9-klass	Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish	8-klassda ko'rsatilmagan do'l, qalin qor yog'ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o'g'irlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk (3 va 7-klasslarda ko'rsatilgandan boshqa) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
10-klass	Avtofuarolik javobgarligini sug'urta qilish	Er usti transport vositalari va boshqa o'ziyurar mashinalar va mexanizmlardan foydalanish oqibatida, tashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlag kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar etkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
11-klass	Aviatsiya sug'urtasi doirasidagi javobgarlikni sug'urta qilish	Havo kemasidan foydalanish oqibatida, aviatashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlag kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar etkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
12-klass	Dengiz sug'urtasi doirasida javobgarlikni sug'urta qilish	Dengiz va ichki kemalardan foydalanish oqibatida, dengiz tashuvchisining javobgarligi ham shu jumlag kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar etkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
13-klass	Umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	10, 11 va 12-klasslarda ko'rsatilmagan tavakkalchiliklar oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar) oldida fuqarolik javobgarligi paydo bo'lgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami

14-klass	Kreditlarni sug'urta qilish	Sug'urta qildiruvchining debitori nochorligi (bankrotlik) yoki debitorning sug'urta qildiruvchi oldidagi qarzlarni qaytarish majburiyati bajarilmasligi (nochorlikdan tashqari) natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
15-klass	Kafillikni (kafolatlarni) sug'urta qilish	Sug'urta qildiruvchining o'ziga berilgan kafolatni bajarishi majburiyati natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
16-klass	Boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug'urta qilish	Quyidagi hollarda: a) sug'urta qildiruvchining biznesi (xo'jalik faoliyati) uzilib qolishi yoki sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan biznes (xo'jalik faoliyati) ko'lami kamayishi natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda; b) oldindan nazarda tutilmagan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda (17-klassda ko'rsatilgandan tashqari); v) shartnomalar tuzilishi va bajarilishi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish natijasida mazkur darajaning a) va b) bandlarida ko'rsatilgandan boshqa nobudgarchiliklarga uchraganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
17-klass	Huquqiy himoya qilish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta qilish	Sud muhokamasi bilan bog'liq ko'rilgan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami

Jadvalda keltirib o'tilgan ma'lumotlarda, umumiy sug'urta tarmog'i bo'yicha 17 ta klass mavjud bo'lib, ular o'ziga xos mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar belgilab qo'yilgan.

Umumiy sug'urta qilish tarmog'i klasslari bo'yicha «yuk» sug'urta ishini yuritish xarajatlaridan tashqari ogohlantirish zaxirasiga ajratmalar qilish va rejalantirilgan foyda summalarini ham o'zida aks ettiradi.

Umumiy tartibda barcha tarifkatsiya tizimlarida sug'urtalanayotgan ob'ektlar bir nechta guruhlarga ajratiladi. Har bir guruh uchun bazaviy tarif stavkasi ishlab chiqiladi. Bundan tashqari sug'urtalovchi aks ettirishni lozim topgan barcha risk omillarining ro'yxati keltiriladi. Har bir omilning sug'urta ob'ektida mavjudligi tarifni hisoblashda maxsus koeffitsientlar orqali hisobga olinishi belgilanadi. Koeffitsientlarning bir qancha turlari bo'lib, ular ko'paytiruvchi, qo'shiluvchi yoki boshqa shakllarga ega bo'lishi mumkin. Kerakli bo'lgan koeffitsientni tanlash tarifkatsiya tizimini yaratishda sug'urta turining xarakteridan kelib chiqib sug'urtalovchi tomonidan tanlanadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urtalovchilarning faoliyatida sug'urta zararlgi darajasi juda past bo'lib, bozor rivojlanish bosqichida bo'lganligi sababli, sug'urta tariflari yuqori darajada belgilangan. Albatta bu holat sug'urta tashkilotlari uchun foydali bo'lib, ular bu holatdan foydalanmoqdalar. Lekin sug'urta bozorining rivojlanishi bilan unda raqobatning keskinlashuvi vujudga keladi. Mazkur

holatda sug'urta kompaniyasi faoliyatining samaradorligini ta'minlashda tarifkatsiya tizimi asosiy omil sanaladi.

11.3 Hayot sug'urtasi tarmog'ida tariflarni hisoblashda aktuar hisob-kitoblardan foydalanish tartibi

Mustaqillik tufayli milliy sug'urta tizimiga xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan atama va tushunchalar kirib keldi. Ulardan biri "aktuar", "aktuariy", "aktuar hisob-kitoblar" atamasidir. Qizig'i shundaki, ayrimlar "aktuar" atamasini eshitganlarida rus tilidagi "aktual" so'zini noto'g'ri talqin etgan bo'lsalar kerak, deb o'ylashadi. Aslida aktuar tushunchasi 100 yillar mobaynida rivojlangan chet davlatlar sug'urta faoliyatida ishlatilib kelinadi. Dastlab, ushbu atamaning lug'aviy ma'nosi haqida qisqcha izoh bersak.

"Aktuar" atamasi "aktuariy" tushunchasi bilan uzviy bog'langan va inglizcha «actuaru», lotincha «actuarmus» so'zlaridan olingan bo'lib, hisobchi, tez yozuvchi degan ma'nolarni anglatadi. Aktuariy sug'urta kompaniyalarida ishlaydigan mutaxassis bo'lib, u sugurta turlari buyicha tarif stavkalarini xisoblash usullarini ilmiy jixatdan asoslab beradi. Ma'lumki, sug'urta tariflari sug'urtalovchilarning moliyaviy jihatdan barqaror faoliyat ko'rsatishlarida muhim omil bo'lib hisoblanadi. Xo'sh shunday ekan, rivojlanishning hozirgi bosqichini boshidan kechirayotgan milliy sug'urta kompaniyalarimiz sug'urta tariflarini ishlab chiqishda aktuar hisob-kitoblarning usullaridan qanchalik foydalanishmoqda? Respublikamizda aktuar hisob-kitoblarni mukammal biladigan mutaxassislar etarli mi? Sug'urta tariflarini ishlab chiqishda aktuar hisob-kitoblardan foydalanish hozirgi sug'urta kompaniyalari uchun qanchalik samara beradi?

Avvalo, yuqorida sanab o'tilgan savollarga javob berishdan oldin aktuar hisob-kitoblarning maznun-mohiyati xususida biroz to'xtalib o'tsak.

Aktuar xisob-kitoblar uzida statistik va iktisodiy-matematik usullar asosida tarif stavkalarini xisoblash tizimini mujassamlashtiradi. Sugurtalovchi tomonidan sugurtalanuvchiga kursatiladigan xizmatlarning tannarxini xisoblash aktuar xisob-kitob kalkulyasiyasi deb ataladi. Aktuar xisob-kitob kalkulyasiyasi shartnomadagi sugurta tulovlarini aniqlash imkonini beradi.

Aktuar xisob-kitoblar sugurtaning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, amalga oshiriladi:

- sugurta hodisalari sodir bo'lishining ehtimollik xususiyatiga ega ekanligi va ularning baholanishi. Bu sugurta mukofotlarining xajmiga uz ta'sirini o'tkazadi;

- sug'urtalovchi tomonidan sug'urtalanuvchiga ko'rsatiladigan xizmatlarning to'liq tannarxi sug'urta shartnomasida ko'rsatiladigan sug'urta mukofotlari summasida o'z aksini topadi;

- sugurtalovchining sug'urta zaxiralarini optimal hajmini aniqlash va shakllantirishning zarurligi;

- sugurta hodisasi ro'y berishi natijasida yuzaga keladigan qisman yoki umumiy zararlarning mavjudligi;

- sug'urta risklarining guruhlariga ajratilishi;

Sug'urta faoliyatida aktuar hisob-kitoblarning vazifalari quyidagilardan iborat:⁷¹

- jami sug'urta hajmida risk guruhlarini klassifikatsiyasini o'rganish;
- sug'urta hodisasi ruy berishining matematik ehtimolligini hisoblash;
- sug'urtalash jarayonini tashkil etishda kerakli xarajatlarning matematik asoslanganligi;
- sug'urtalovchilarning zaxira fondini shakllantirishning matematik asoslanganligi;
- Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta mukofotlarini investitsiya maqsadlarida ishlatishda foiz normalarini aniqlash;

Aktuar hisob-kitoblarning nazariy asoslari XVII asrda D.Graund, YA. De Vitt va E.Galley kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan hamda hozirgi paytda ancha takomillashtirilgan.

Sug'urta tarmoklariga kura aktuar hisoblar shaxsiy sug'urta bo'yicha hisob-kitoblar, mol-mulk sug'urtasi va javobgarlik sug'urtasi bo'yicha aktuar hisob-kitoblarga guruhlanadi. Vaqt ko'rsatkichlari esa reja asosidagi hisob-kitoblarga guruhlanadi. Bu hisob-kitoblar kelajakda ushbu sug'urta turini amalga oshirishda sug'urtalovchiga tayanch bo'ladi. SHuning uchun bu aktuar hisob-kitob turi kelgusidagi hisob-kitob deb xam ataladi.

Rejali aktuar hisob-kitoblar yangi sugurta turini joriy kilish vaktida risklar kuzatuvini buyicha kursatkichlar mavjud bulmagan takdirde kullaniladi. Bunday xolatda sugurta kompaniyasi tomonidan mazkur sugurta turiga o'xshash sugurta turlari buyicha o'tkazilgan operatsiyalar natijalari asos kilib olinadi.

Boshqaruv xususiyatlariga ko'ra aktuar hisob-kitoblar respublika miqyosida aktuar hisob-kitoblar, viloyatlar miqyosida aktuar hisob-kitoblar va ma'lum bir sug'urta kompaniyasi miqyosidagi aktuar hisob-kitoblarga bulinadi. Respublika miqyosida aktuar hisob-kitoblar respublikadagi sugurta bozoriga tegishli, viloyatlar miqyosidagi esa viloyat xususiyatlariga ko'ra ishlab chiqiladi, shu bilan birgalikda har bir sug'urta kompaniyasi o'z zaxira fondiga ko'ra aktuar hisob-kitoblarni ishlab chiqadi.

Aktuar hisob-kitoblarni yuritishda sug'urta statistikasi ma'lumotlaridan foydalaniladi. Sug'urta statistikasi sugurta ishining umumlashgan yakuniy kursatkichlarini kayta ishlash usullarini sugurta operatsiyalarning takrorlanish tizimini o'rganishni o'zida mujassamlashtiradi.

Respublikamiz milliy sug'urta bozorida, hayot sug'urta tarmog'i alohida tarmoq sifatida, sug'urta kompaniyalari faoliyatida qo'llanilib kelinmoqda. Ushbu sug'urta tarmog'ini tasniflanishini quyida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

⁷¹ И.Т. Башбилов, А.И. Башбилов «Страхование» Москва изд-во «Питер» 2004 г.

Hayotni sug'urta qilish tarmog'i

Klass tartib raqami	Klassning nomi	Mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar
I klass	Hayot va annuitetlar	Quyidagi hollarda sug'urta summalari to'lash bo'yicha sug'urtalovchining majburiyatlarini nazarda tutuvchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami: - sug'urta qilinuvchining sug'urta muddati tamom bo'lgungacha yoki sug'urta shartnomasida belgilangan yoshgacha yashashi, - sug'urta qilinuvchining vafot etishi. shuningdek sug'urta shartnomasi amal qilishi davridagi joriy to'lovlar (annuitetlar). III klass bundan mustasno
II klass	Nikoh va tug'ilish	Nikohga kirishda yoki bola tug'ilganda sug'urta summasi to'lanishini ta'minlovchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami
III klass	Hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish	Umrbod renta to'lanishi bilan birgalikda hayotni sug'urta qilish turlari jami
IV klass	Sug'urtani sug'urta qilish	Ko'rsatib o'tilgan sug'urta davri kamida besh yildan kam bo'lmagan muddatga yoki sug'urta qilinuvchining pensiya yoshiga etgunga qadar belgilanishi sharti bilan baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa yoki kasallik yoki kasallanish tufayli qattiq shikastlanish natijasida mehnatga layoqatlilikni yo'qotganda sug'urta summalari to'lanishini ta'minlovchi hayotni sug'urta qilish turlari jami Bunda shartnomada ko'rsatilgan sug'urta davri sug'urtalovchi tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin emas

YUqorida keltirib o'tilgan jadval ma'lumotlarida sugurta tarmoklariga kura aktuar xisoblar shaxsiy sugurta buyicha xisob-kitoblar, mol-mulk sug'urtasi va javobgarlik sug'urtasi bo'yicha aktuar hisob-kitoblarga guruhlanadi. Vaqt ko'rsatkichlari esa reja asosidagi hisob-kitoblarga guruhlanadi. Bu hisob-kitoblar kelajakda ushbu sug'urta turini amalga oshirishda sug'urtalovchiga tayanch bo'ladi. SHuning uchun bu aktuar hisob-kitob turi kelgusidagi hisob-kitob deb xam ataladi.

Nazorat savollari:

1. Sug'urta tarifi tushunchasi uning iqtisodiy mohiyatini aytib bering.
2. Sug'urtaning umumiy sug'urta tarmog'ida sug'urta tariflarini ishlab chiqish uslubini aytib bering.
3. Hayot sug'urtasi tarmog'ida tariflarni hisoblashda aktuar hisob-kitoblardan foydalanish tartibini aytib bering.

⁷² Manba: Vazirlar Ma'hamasining 2002 yil 27 noyabrda 413-son qaroriga asosan.

XII BOB. SUG'URTA TASHKILOTLARI BARQARORLIGINI BOSHQARISH

12.1 Sug'urta kompaniyalarida moliyaviy menejmentning tamoyillari

Moliyaviy resurslar harakati asosida sug'urta tashkilotlarining kapitali harakati yotadi. Shuning uchun sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmentini barcha usullari tarkibida pul munosabatlari yotadi.

Harakat yo'nalishiga qarab sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmenti usullarini 4 guruhga ajratish mumkin:

- ❖ pul mablag'larini o'tkazishga yo'naltirilgan usullar;
- ❖ kapitalni oshirishga qaratilgan usullar;
- ❖ spekulativ xususiyatga ega usullar;
- ❖ kapitalning yuqori daromad keltirish qobiliyatini saqlashga yo'naltirilgan usullar;

Pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha usullar xizmatlar uchun hisoblashlar bilan bog'liq usullardir. Ularning asosini ushbu xizmatlarni oldi-sotdisi bilan bog'liq pul munosabatlari tashkil etadi.

Kapitalni o'stirish bilan bog'liq kapital harakati – bu qoida tariqasidagi kapitalni uzoq muddatli qo'yilmasiga asoslangan investitsion bitim. SHuning uchun kapital harakatlantirish bilan bog'liq usullar o'zida shu kapitalni o'stirish, shu kapitalning daromad olish (ya'ni uni o'stirish shaklida) kabilarni aks ettiradi.

Spekulyativ operatsiya deganda narxlar farqi hisobidan foyda olish maqsadida tuzilgan qisqa muddatli bitimlar tushuniladi.

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmentiga integral xoldagi turli shaklda namoyon bo'ladigan xodisa sifatida qarash lozim.

Funktsional nuqtai nazardan sug'urta tashkilotlarida moliyaviy menejment o'zida iqtisodiy boshqaruv tizimini va moliyaviy mexanizmi o'zida aks ettiradi.


Institutsion (muassasaviy) nuqtai nazardan sug'urtada moliyaviy menejment boshqaruv organidir.

Huquqiy – tashkiliy nuqtai nazardan sug'urta tashkilotlarida moliyaviy menejment – bu tadbirkorlik faoliyatining bir turidir.

Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy menejment bajaruvchi funksiyalar mavjud.

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmenti boshqaruvchi tizimning strukturaviy shakllanishini aks ettiradi. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmenti funksiyalarini 2 guruhga aratamiz: boshqaruv ob'ekti funksiyalari va boshqaruv sub'ekti funksiyalari. Moliyaviy menejmentning umumiy chizmasi quyida keltirilgan⁷³.

⁷³ David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Proccers 2005p.8



Boshqaruv ob'ekti funksiyalariga quyidagilar kiradi⁷⁵:

- ❖ pul aylanishini tashkil etish;
- ❖ moliyaviy mablag'lar va investitsion instrumentlar (vosita) bilan ta'minlash moliyaviy ishni tashkil etish va boshqalar.

Boshqaruv sub'ekti funksiyasi umumiy faoliyat turini aks ettirib, u moliyaviy ishda va xo'jalik jarayonida odamlarning munosabatlariga ta'sir qilishni amalga oshirish yo'nalishini ifodalaydi. Bu funksiyalar boshqaruv faoliyatining aniq bir ko'rinishi bo'lib, ular axborotlarni yig'ish, bir tizimga solish, uzatish, saqlash, qarorni ishlab chiqish, qabul qilish va uni buyruqqa aylantirish kelib chiqadi. Gap rejalashtirish, prognozlashtiruv, (bashorat) tashkillashtirish, tartibga solish, muvofiqlashtirish, rag'batlantirish, nazorat kabilarda borayapdi.

Rejalashtirish sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmentda muhim ahamiyat kasb etadi. Buyruq berish uchun topshiriq tuzish lozim, harakat dasturini ishlab chiqish kerak, buning uchun moliyaviy chegara tadbirlar, daromad olish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish rejalari ishlab chiqiladi. Boshqaruv funksiyasi – moliyaviy rejalashtirish – reja topshirig'ini ishlab chiqish bo'yicha ham, ularni amalga oshirish bo'yicha ham barcha chora tadbirlar majmuasini qamrab oladi. Yana moliyaviy rejalashtirish odamlar tomonidan aniq moliyaviy chora – tadbirlar rejasini ishlab chiqish jarayonini o'zida aks ettiradi.

⁷⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

⁷⁵ David F Babbel Anthony M Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Proccess 2005p.6

Prognozlashtirish – (greekcha prognoses – oldindan ko‘rish) moliyaviy menejmentda uzoq istiqbolga moliyaviy holatni o‘zgartirishni ishlab chiqish tushuniladi.

Prognozlashtirish rejalashtirishdan farqli hamda ishlab chiqilgan prognozni bevosita amaliyotga tadbiiq etish vazifasini oldiga qo‘ymaydi. Prognozlar tegishli o‘zgarishlarni oldindan ko‘rishni o‘zida aks ettiradi. Prognozlashtirishning o‘ziga xos tomonlaridan yana biri moliyaviy ko‘rsatkichlarni tashkil etishdagi muqobillikdir. YUqoridagi ko‘rsatkichlar moliyaviy holat rivojlanishini variantlilikini aniqlaydi. Ushbu variantlar ob‘ektidagi jarayonlardagi xodisalarning variantlilikini namoyon bo‘layotgan tendensiyalar asosida ishlab chiqiladi. Prognozlashtirish eksport baholarini hisobga olgan holda o‘tmishni kelajakka ekstraponiyasiyalash asosida ham amalga oshirilishi mumkin. Ushbu o‘zgarishlar tasodifan yuz berishi mumkin.

Tashkil qilish – funksiyasi sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy menejmentda ma‘lum bir qoida va ko‘nikmalar asosida moliyaviy dasturni birgalikda amalga oshiruvchi odamlarni birlashtirishdan iborat. Ularga boshqaruv organlarini tashkil qilish, boshqaruv apparati strukturasi qurish, boshqaruv bo‘linmalari o‘rtasida o‘zaro aloqalarni o‘rnatish, me‘yoriy qoida va me‘yorlarini, uslubiyotlarini ishlab chiqish va boshqalar.

Tartibga solish – sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy menejmentda boshqaruv ob‘ektiga ta‘sir qilish bo‘lib, u orqali moliyaviy tizim barqarorligiga erishiladi. Tartibga solish asosan grafiklar chetlashishlari, rejalarni olish chora – tadbirlarini o‘z ichiga oladi.

Muvofiqlashtirish – sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy menejmentda boshqaruv tizimining barchasi, ya‘ni boshqaruv apparati va mutaxassislarining kelishuvini ta‘minlab turish.

Rag‘batlantirish – sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy menejmentda moliyaviy xizmatchilarning o‘z ish natijalariga qiziqishni uyg‘otishda ifodalanadi. Rag‘batlantirish vositasida sarf qilingan mehnat miqdori va sifatiga qarab moddiy va ma‘naviy qiymatlari, boyliklarni taqsimlashni boshqarish amalga oshiriladi.

Nazorat – sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy menejmentda moliyaviy ishlarni tashkil qilish, moliyaviy rejalarni tekshirishdan iborat.

Nazorat vositalarida – moliyaviy mablag‘larni ishlatilganligi haqida ma‘lumotlar yig‘iladi, ob‘ektning moliyaviy xolati tekshiriladi, qo‘shimcha rezrvlar topiladi, imkoniyatlar qidiriladi.

U orqali moliyaviy dasturlarni moliyaviy menejment qayta tashkil (ya‘ni moliyaviy menejment dasturini) qilish zaruriyati ko‘rib chiqiladi. Nazorat moliyaviy natijalarni tahlil qilishni ko‘zda tutiladi.

Tahlil – moliyani rejalashtirishning bir qisimidir. Demak, moliyaviy nazorat moliyaviy rejalashtirishning bir qismi deb qaralishi lozim bo‘lib, u moliyaviy rejalarning bajarilishini, qabul qilingan qarorlarning bajarilishini nazorat etadi.

Boshqaruv topshiriqlarini qilishga yondoshish turli tushgan bo‘lishi mumkin. SHuning uchun sug‘urta tashkilotlarida moliyaviy menejment ko‘p

variantlidir. Moliyaviy menejmentning ko'p variantliliigi va moliyaviy kombinatsiyalarining o'xshash bo'lmashligi, moslashuvchan va notakror bo'lgan xo'jalik vaziyatlarga ta'sir qilish usullarini anglatadi⁷⁶.

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmentida asosiysi maqsadni to'g'ri qo'yish zarur. Qo'yilgan maqsad boshqaruv ob'ekti manfaatlariga javob berishi lozim. Moliyaviy menejment dinamik xarakterga ega. Uning samaradorligi moliyaviy bozordagi o'zgarishlarga, moliyaviy holat va ob'ektning moliyaviy holatiga bog'liq. SHu sababli moliyaviy menejment boshqaruvning standart usullarini bilishga asoslanadi. Bundan tashqari moliyaviy menejment moliyaviy vaziyatni tezkor va to'g'ri baholash, yagona boshqa yo'llarni ham qidirib topish larni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'yyadi.

Moliyaviy menejment amal qilish sanoat moliyaviy bozor hisoblanadi. Moliya bozorida moliyaviy resurslar va investitsion boyliklar bilan oldi – sotdi qiluvchilar o'rtasida iqtisodiy munosabatlar namoyon bo'ladi. Moliyaviy resurslar harakatini, hamda moliyaviy munosabatlarni boshqarish sohasida tadbirkorlik qilishga asos yaratadi. Moliyaviy menejmentni qo'llash samaradorligi moliyaviy mexanizm dasturlari va harakat metodlarini amal qilinganligini mujassam, uyg'un holda qo'llagan holda erishiladi.

Moliyaviy menejment – bu sug'urta tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish jarayonini ratsional boshqarish tizimidir. Moliyaviy menejment sug'urta tashkilotini boshqarishning umumiy sistemasini bo'linmas qilish hisoblanadi. Moliyaviy menejment tizim sifatida 2 ta kichik tizimlardan tarkib topadi: boshqaruv ob'ekti (boshqaruvchi tizim) va boshqaruv sub'ekti (boshqaruvchi kichik tizim).

Moliyaviy menejmentda boshqaruv asosiy ob'ekti sifatida doimiy pul to'lovlari va tushumlari pul oborotini tashkil qiladi. Pul oborotni boshqarish uning xolatini yaqin va uzoq istiqboldagi mulkini xolatini ko'rish, pul mablag'ining kelib tushishi xajmini va intensivligi va ularning sarfini yaqin sana va uzoq kelajakdagi sodir bo'lishini aniqlab bilish demakdir.

Sug'urta tashkilotining pul oboroti xajmi va intensivligini aniqlash uchun barcha kapitalning doiraviy aylanish jarayonini va pul oborotini amalga oshirish shart – sharoitlari va tomonlarini tahlil qilish talab qilinadi. Tahlil jarayoniga moliyaviy resurslar harakatini, moliyaviy munosabatlari xolati ko'rib chiqish ham talab qilinadi.

Boshqaruv sub'ekti bo'lib sug'urta tashkilotlarining moliya bo'limlarini rahbarlari, hamda moliyaviy menejerlar hisoblanadi. Boshqaruvchi tizim moliyaviy menejmentning maqsadlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Moliyaviy menejmentning asosiy yakuniy maqsadi bo'lib sug'urta tashkilotining raqobatbardoshligini oshirishdan iborat.

Samaradorlikni oshirish maqsadida moliyaviy menejment moliyaviy resurslar va kapital harakatiga boshqaruv ta'sirini o'tkazadi.

⁷⁶ David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005,p.11

Moliyaviy menejmentning maqsadlari boshqaruv ob'ekti va sub'ekti funksiyalari orqali amalga oshiriladi.

Boshqaruv ob'ektining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

1) qayta tiklash funksiyasi. Kapitalni qayta tiklanishini ta'minlaydi. Kapitalning qayta tiklanishi sug'urta tashkilotlarining tijorat faoliyatini moliyalashtirishga imkon beradi.

Moliyaviy menejmentning qayta tiklash funksiyasining samaradorligini quyidagi ko'rsatkichlar asosida baholash mumkin:

- o'ziga tegishli kapitalning o'sishi;
- Foydaning kapitallashuvi darajasi;
- Daromadlilikning ortishi (rentabellik);
- Aylanma kapitalning aylanma tezligining ortishi.

2) Sug'urta tashkilotining aktivlarini joylashtirishni tartibga solish, zarur pul fondlarini shakllantirish va joriy faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatini (manbasini) yaratish.

Ushbu funksiyaning samaradorligini baholash quyidagicha ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi:

- Kapital strukturasi;
- Balans foydasini taqsimlash strukturasi;
- Mahsulot tannarxi darajasi va dinamika hamda 1 birlik mahsulotga qilingan xarajatlar;
- Bir birlik mahsulotga qilingan sarf darajasi va dinamikasi;
- Mehnatga xaq to'lash fondi darajasi va dinamikasi.

3) nazorat funksiyasi. Moliyaviy resurslarni foydalanish ustidan nazorat. Har bir xo'jalik operatsiyasi yakuniy maqsadlar kelib chiqqan xolda, sug'urta tashkilotlari manfaatiga mos bo'lishi lozim. SHuning uchun operatsiyalarning maqsadga muvofiqligi ustun nazorat beto'xtov amalga oshirilishi kerak. Nazoratga sotilgan mahsulot uchun kelib tushgan tushumgacha davom etishi lozim.

Moliyaviy menejmentning boshqaruv sub'ekti funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- Moliyaviy xolat(vaziyat)ni uzoq muddatga prognozlashtirish;
- Moliyaviy faoliyatni rejalashtirish;
- Tartibga solish. Moliyaviy tizimning barqarorligini ta'minlash bo'yicha moliyaviy faoliyatni tartibga solish;
- Boshqaruv tizimining barcha zvenolarini koordinatsiya qilish;
- Moliya tizimining ishchilarini rag'batlantirish;
- Sug'urta tashkilotining moliya rejasini bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish.

Moliyaviy menejmentning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- sug'urta tashkilotining umumiy tizimi bilan o'zaro aloqadorligi;
- boshqaruv qarorini qabul qilishning kompleks xarakterga egaligi;
- boshqaruvning yuqori dinamikligi;
- boshqaruv qarorlarining ko'p variantligi;
- sug'urta tashkilotining strategik maqsadiga xizmat qilishi.

Moliyaviy menejerning funksional ma'suliyati quyidagilardir:

❖ Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslari va kapitali bilan bo'ladigan operatsiyalarning huquqiy jihatdan qonuniyligi va himoyalanganligini ta'minlaydi⁷⁷;

❖ Tijorat operatsiyalarining barcha ishtirokchilari bilan yaxshi moliyaviy aloqalarni yo'lga qo'yish;

❖ Kapital qo'yilmalar prognozi va rejasini ishlab chiqish va ular samaradorligini baholash;

❖ Sug'urta tashkilotlarining kredit va valyuta siyosatini tanlash va asoslab berish;

❖ Sug'urta tashkilotlari va uning tashkilotlarining daromadlilikini oshirishga yo'naltirilgan investitsion loyihalarni ishlab chiqish va amlga oshirish;

❖ Moliyaviy operatsiya va kapitalni moliyaviy risk (tavakkalchilik) va yo'qotishlarni sug'urtalash;

❖ Sug'urta tashkilotlari va uning raqobatchilari reytingini aniqlash;

❖ Xo'jalik faoliyatining beto'xtov moliyalanish resurslari bilan ta'minlash va ulardan foydalanish samaradorligi ustidan nazorat olib borish;

❖ Sug'urta tashkilotlari moliyaviy xolati va moliyaviy natijalarni tahlil qilish.

Moliyaviy ko'rsatkichlar va ularni shakllantirish tizimi moliyaviy boshqaruvda va iqtisodiy sub'ektlarning faoliyatini baholashda, rejalashtirishda muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

12.2 Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini boshqarish

Bozor sharoitida boshqaruvni tashkil qilish mamlaktimizda iqtisodiy erkinlik mavjud bulishini nazarda tutadi.

Menejment sug'urta tashkilotlari boshqaruvining samarali tizimi sifatida bunday imkoniyatlarga egaligini tasdiqlaydi. Tadibkorlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari, tovarlar, xizmatlar, moliyaviy bozorlar, baxolarni shakllantirish tizimlari, buxgalteriya xisobi tizimlarini o'rganish, marketing tadqiqotlari, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmenti, ishlab chiqarish, sotish jarayonlari, buxgalteriya xisobi va personallarni boshqarish tizimini tahlil qilish shuni kursatadiki, ayrim sug'urta tashkilotlarilari tashki muxit uzgarishlari keltiruvchi noananaviy muammolarni an'anaviy usullar vositasida echishga harakat qilishadilar. SHunin uchun zamonaviy shart sharoitlarda ayrim sug'urta tashkilotlari oldida asosiy vazifa sifatida tashki muxit uzgarishlariga uz faoliyat soxalarini tezlik bilan moslashtira olish va vujudga kelgan muammolarni osonlik bilan uz foydasi xisobiga xal etish masalasi yuzaga keladi. Har kanday sug'urta tashkilotlarining asosiy faoliyat soxalaridan biri sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmenti xisoblanadi. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmentining lug'ay ma'nosi sug'urta tashkilotlarilarda moliyaviy resurslar va kapitallarni boshqarishni anglatadi.

⁷⁷ David F Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Proccess 2005, p.9

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy xo'jalik faoliyatini boshqarishning muammolari azaldan iqtisodchi-olimlar va amaliyotchilarni qiziqtirib kelgan.

Boshqaruv tizimida sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmentining o'z o'ri mavjud. Dastlab boshqaruv tizimida sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmentining o'ri, hamiyati va nazariy asoslari o'rganiladi. So'ngra, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmentining tashkiliy-iqtisodiy asoslari, tarkibi, vazifalari hamda ularga oid qarashlar tahlil etiladi. Bular asosida sug'urta tashkilotlarida sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmenti asoslarini tashkil etish xususiyatlari yoritiladi.

Jamiyatning muhim sohalaridan biri-ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni boshqarishdir. Menejment mohiyatini bir-biri bilan bog'liq bir qancha fundamental asoslar tashkil etadi⁷⁸.

Menejment-biznesni, sug'urta tashkilotlarining ishbilarmonlik faoliyatini boshqarishdir. Tadbirkorlik bozor iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. SHuning uchun biznesni boshqarishning menejment asoslari butun jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Menejmentda bosh vazifa bo'lib, u quyidagidan iborat: qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun kishilar kuchi va ishtiyoqi hamda sug'urta tashkilotlari imkoniyatlarini jalb etishdan iborat.

«Bozor muhiti sug'urta tashkilotlari moliyaviy mexanizmi amal qilish mantiqiga qanday o'zgarishlar kiritmoqda?», «Mazkur yangi mantiq asosida sug'urta tashkilotlari moliyasini qanday boshqarish lozim?», «Sug'urta tashkilotlarilarda moliyaviy qarorlar qabul qilishning bozor mezonlari qanday?», «Yangi sharoitlarda sug'urta tashkilotlari hayotiy faoliyatining uzoq va qisqa muddatli rejalarini qanday qilib muvofiqlashtirish mumkin?» kabi savollar hozirgi kunda barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni qiziqtiruvchin o'ta dolzarb muammolardir. Mazkur savollar sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmenti tashkiliy asoslarining u yoki bu tarkibiy qismiga taaluqli hisoblanadi..

Zamonaviy fanida sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmenti tushunchasining mohiyatiga har-xil fikirlar bildirilayotir.

AQSH va G'arbiy evropa iqtisodchi-olimlari «sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmenti o'zining bosh maqsadi sifatida aksiya kursini, aksiyaga to'g'ri keluvchi sof foyda miqdorini, dividend darajasini, hissadorlar mulkini va h.k. ko'paytirishni ilgari suruvchi firmalar moliyasini boshqarishdir»⁷⁹deb tushuntirishga harakat qilishadilar.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmenti konsepsiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega hisoblanadi. Bunday o'ziga xosliklar tadqiqotning markaziy ob'ekti hisoblanadi. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmenti - sug'urta tashkilotlarini uning umumiy maqsadlariga erishishini ta'minlashga yo'naltiruvchi tizimdir. Birinchidan, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmenti o'zining xususiyatlari va ma'lum

⁷⁸ David F. Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005 p.4

⁷⁹ Chundra Prasanna. Financial Management. Theory and Practice. Third Edition - New Delhi: Tata Mc Graw-Hill Publishing Company Limited, 2005. - 23 p.5

qonuniyatlarga ega bo'lgan boshqariladigan tizimdir. Ikkinchidan, u sug'urta tashkilotlarini boshqarish umumiy tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida boshqaruv tizimi hisoblanadi. Boshqariladigan tizim sifatida, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmentiga soliqlar, baho, mehnatga haq to'lash, investitsiya siyosati, foiz stavkalari kabi davlatning tartibga solish tadbirlari orqali turli xil boshqaruv qarorlari o'z ta'sirini ko'rsatadi. YAqingacha boshqariladigan tizimning etakchi sohasi sifatida xo'jalik mexanizmi hamda uning tarkibiy qismi bo'lgan moliya-kredit mexanizmi o'rganilib kelingan. YAgona boshqaruv ob'ekti sifatida moliya-kredit mexanizmi davlat va sug'urta tashkilotlari pul oborotining birligini tan olishga asoslanadi.

Moliya-kredit mexanizmi orqali sug'urta tashkilotlari moliyasini boshqarish, xususan, ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirishning qo'shimcha imkoniyatlarini aniqlash hamda ulardan keng foydalanishni ta'minlash ta'minlanadi. Moliya-kredit mexanizmi moliya-kredit jarayonlarini boshqarish va tegishli qarorlar qabul qilishga ta'sir ko'rsatuvchi qator zvenolar kompleksiga egadir. Bunday ta'sir ko'rsatish natijasida - umumdavlat miqyosida moliya va kredit normal faoliyatining muhim sharoitlarini ta'minlanadi, kamomadsiz byudjetni shakllantiriladi, rejadagi tadbirlar moliyalashtiriladi. Bundan tashqari pul mablag'lari hisobidan fondlar tashkil etilishi ustidan moliyaviy nazorat o'rnatiladi.

Sug'urta tashkilotlari moliyasini boshqarish sug'urta tashkilotlarining umumiy maqsadlariga erishishni ta'minlashi lozim. Sug'urta tashkilotlarining umumiy maqsadlariga erishish, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmenti konsepsiyasi doirasida erishiladi.

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmentini tashkil etilishi muhim uslubiy omillardan biri hisoblanadi. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmenti sug'urta tashkilotlari miqyosi bilangina chegaralanib qolmaydi, balki byudjet va byudjetdan tashqari fondlar, banklar va boshqa kreditorlar, institutsional investorlar bilan bevosita uzviy munosabatlar tizimiga ham tayanadi.

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmentidan samarali foydalanish orqali sug'urta tashkilotlari iqtisodiy hayotida yangicha tizimini vujudga keltiradi, uning rivojlanish istiqbollari va qonuniyatlarini o'zgartiradi. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy siyosatida uning faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilayotgan qaror qabul qilishning yangicha shakllari va usullari aynan sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmenti muhitining shakllanayotganligini ifodalaydi.

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmenti yo'nalishlarining umumiy maqsadlarga egaligi ularning bir-birini taqozo etuvchi va bir-biri bilan chambarchas bog'liq jarayon ekanligini tasdiqlaydi. Biroq, sug'urta tashkilotlari moliyaviy hayotining u yoki bu bosqichida sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmenti ustivor vazifani bajarishini ta'kidlash lozim. Hozirgi sharoitda sug'urta tashkilotlari moliyaviy faoliyatini tashkil etish xususiyatlari, avvalo, uning asosiga qo'yilgan iqtisodiy kategoriya bo'lmish, moliyaning mohiyatini to'la ifodalamoq'i lozim. Sug'urta tashkilotlarida sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmentini foydani ko'paytirish va sug'urta tashkilotlari bozor qiymatining barqaror o'sishini ta'minlash maqsadida moliyaviy munosabatlarni boshqarishning shakllari, usullari va tamoyillari

yig'indisi sifatida talqin etilishi mumkin. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmenti mazmunini bunday talqin etish sug'urta tashkilotlari moliyaviy faoliyatini tashkil etishning huquqiy va informatsion ta'minotining holatidan kelib chiqadi.

Ushbu tizim boshqaruv tamoyillari, usullari, shakllari yalpi holda o'zida mujassamlashtiradi. Yakka holda menejmentga boshqaruv nazariyasi va samarali boshqaruv amaliy namunalari xos bo'lib, uning zamirida boshqaruv san'ati tushuniladi.

Moliyaviy menejment - pul oqimlari moliyaviy resurslarni boshqarish va moliyaviy munosabatlarni tegishli ravishda tashkil qilishning o'ziga xos tizimidir.

Bu esa aksiyadorlarning foydasiga ham ta'sir qiladi yoki umuman ta'sir qilmaydi. Aniqroq aytganda, bu bahs munozara agentlik manbaalariga borib taqaladi⁸⁰.

Sug'urta tashkilotining moliyaviy boshqaruviga ichki va tashqi omillar ta'sir qiladi.

Tashqi omillarga quyidagilar kiradij

-mamlakatdagi umumiy iqtisodiy faollik darajasi;

- soliq tizimi:

-qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanganlik darajasi va faolligi;

-inflyasiya darajasi.

Ichki omillarga quyidagilar kiradi:

-moliyaviy menejmentning ishlash samaradorligi;

-buxgalteriya hisobining olib borilish darajasi:

-moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi:

-moliyaviy tahlilning tizimli olib borilishi.

12.3 Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejment mexanizmining samarasini oshirish

Moliyaviy menejment - biznesni, sug'urta tashkilotlarining ishbilarmonlik faoliyatini boshqarishdir. Tadbirkorlik bozor iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. SHuning uchun biznesni boshqarishning menejment asoslari butun jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy menejmentda bosh vazifa bo'lib, u quyidagidan iborat: qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun kishilar kuchi va ishtiyoqi hamda sug'urta tashkilotlari imkoniyatlarini jalb etishdan iborat

Sug'urta javobgarligini hajmini oshirish uchun sug'urta tashkilotlariga qo'shimcha moliyaviy resurslar bo'lishi talab qilinadi. Ammo nazarimizda sug'urta tashkilotlarining hozirgi holatidagi moliyaviy resurslari etarli emas.

Moliyaviy resurslarining asosiy manbaasi bo'lgan ustav kapitalining haqiqatdagi darajasi sug'urta faoliyatini keng miqiyosda rivojlantirishga imkon

⁸⁰ David F Babbel Anthony M. Santomero. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005.p.11

bermaydi. Shu sababli mazkur sug'urta tashkilotlarining hususiy kapitali miqdorini rivojlantirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish taklif qilinadi:

➤ sug'urta tashkilotlarining sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ustav kapitalini minimal miqdorini oshirish;

➤ sug'urta tashkilotlarining haqiqatdagi ustav kapitali miqdorini oshirish uchun respublika "Toshkent" birjasida sug'urta tashkilotlari tomonidan qo'shimcha aksiyalar emissiyasini amalga oshirish yo'li bilan qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish;

➤ sug'urta tashkilotlarining yil faoliyati natijasida olingan daromadlarining dividend sifatida ajratilgan qismini ustav kpiatlini oshirishga yo'naltirish;

➤ sug'urta tashkilotlarining ixtiyorida qoluvchi taqsimlanmagan foydani to'liqligicha sug'urta tashkilotlarining sug'urta faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirish.

Sug'urta tashkilotlarining xarajatlarini boshqarish borasida ham ayrim kamchiliklar va muammolar mavjud. Ayrim sug'urta tashkilotlarining sug'urta faolitida raxbar xodimlarinig xizmat avtomobillarini saqlash xarajatlari nisbatan kattaligi va reklamma xarajatlarinig nisbatan pastligi ko'zga tashlanadi. Bunday holatlarda sug'urta tashkilotlarining xarajatlar tarkibini optimallashtirishni talab qiladi. Sug'urta tashkilotlarining ayrim xarajatlarini qisqartirib bo'lmaydi. Masalan. Sug'urta tashkilotlarining zararlarni koplak berish bo'yicha xarajatlari, minimal ish haqi xarajatlari va shu kabi boshqa xarajatlarni qisqartirishni imkoniyati mavjud emas. Ammo boshqaruv bilan bog'liq ayrim xarajatlarni qisqartirsa bo'ladi.

Sug'urta tashkilotlarining rahbar xodimlarining engil avtomobillarini saqlash xarajatlarini qisqartirish lozim bo'ladi. Ortiqcha avtomobillarni sotish zarur. Sug'urta tashkilotlarining raxbar xodimlarini engil avtomobillarini saqlash xarajatlarini iqtisod qilish hisobiga yig'ilgan moliyaviy resurslarini quyidagi maqsadlarga sarflash taklif qilinadi:

✓ sug'urta faoliyatini fuqarolar o'rtasida ommaviylashtirish, sug'urta tashkilotlari tmonidan ko'rsatilayotgan, shuningdek yangidan ishlab chiqarilgan sug'urta mahsulotlarini reklamma qilish, sug'urta tashkilotlarining sug'urta bozoridagi nufuzini oshirish maqsadida sug'urta tashkilotlarining sug'urta xizmatlarini va ularning firma nomlarini keng miqiyosda reklamma qilish maqsadida reklamma xarajatlarini oirish;

✓ sug'urta qoplamalarini to'lash bo'yicha xarajatlarini kamaytirish maqsadida sug'urta hodisalarini oldini olish bo'yicha rejalashtirilgan xarajatlar miqdorini oshirish, ya'ni oldini olish chora-tadbirlari bo'yicha tashkil qilinuvchi jang'armaga qilinuvchi ajratma miqdorini oshirish;

✓ sug'urta agentlariga karnission haq sifatida to'lanuvchi xarajatlar miqdorini oshirish zarur. Sug'urta agentlari uchun to'lanadigan komission haq maksimal meyorini 25% dan 40% ga o'zgartirish zarur. Sug'urta vositachilariga to'lanuvchi komission haqning miqdorini oshirish ularda sug'urta shartnomalarini tuzishga va ularni sifatli bajarishga ko'mak berishga moddiy manfaatdorlik tuyg'ularini yanada kuchaytiradi. Bu esa sug'urta bozorini rivojlanishiga olib keladi.

Moliyaviy resurslar - sug'urta tashkilotlari ixtiyoridagi pul mablaglari bulib, ular joriy xarajatlar va sug'urta xizmatlarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Bundan tashkari sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslari moliyaviy majburiyatlarni bajarish va ishchilarning iktisodiy axvoli barkarorligini ta'minlash uchun ishlatiladi. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy kapitali uning aktivlarini shakllantirishga quyilgan qiymat hisoblandi.

Sug'urta tashkilotlari o'rtasida bo'ladigan, shuningdek, kredit tashkilotlari va nazorat tashkilotlari o'rtasidagi hisob-kitoblarda to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan vaqt bo'yicha debitorlik va kreditorlik qarzlari paydo bo'ladi. Bunda sug'urta tashkiloti tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlar kreditorlik majburiyatlari, olinishi lozim bo'lgan majburiyatlar esa debitorlik majburiyatlar hisoblanadi. Qarshi tomonga to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlar kreditorlik majburiyatlari hisoblansa, qarshi tomondan olinishi lozim bo'lgan majburiyatlar debitorlik majburiyatlari deyiladi.

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejmentini rivojlantirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish taklif qilinadi:

- ❖ sug'urta tashkilotlarining sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ustav kapitalini minimal miqdorini oshirish;

- ❖ sug'urta tashkilotlarining haqiqatdagi ustav kapitali miqdorini oshirish sug'urta tashkilotlari tomonidan qo'shimcha aksiyalar emissiyasini amalga oshirish yo'li bilan qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish;


- ❖ sug'urta tashkilotlarining yil faoliyati natijasida olingan daromadlarining dividend sifatida ajratilgan qismini ustav kpiatlini oshirishga yo'naltirish;

- ❖ sug'urta tashkilotlarining ixtiyorida qoluvchi taqsimlanmagan foydani to'liqligicha sug'urta tashkilotlarining sug'urta faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirish.

Barcha boshqaruv tizimini samaradorligi xizmatchilarni yakka shaxs maqsadlari qanchalik yaxshi va har tomonlama ishlab chiqilishiga bog'liq. Bu kabi maqsadlar bir qator sharoitlarni qondirishi kerak:

1. Yakka shaxs maqsadi o'zi ishlayotgan bo'lim tarkibiga kiruvchi kengroq bo'linmalar maqsadiga bo'ysunishi kerak. Bu kabi maqsadlarni mansablarga bo'ysunishi pirovard natija barcha tashkilotni umumiy va strategik maqsadlariga erishishiga xizmat qiladi (7.1-chizmaga qarang).

2. Xizmatchi o'z oldiga qo'yadigan maqsadlar soni juda ko'p bo'lmasligi, 4 tadan 8 tagacha bo'lishi kerak. Ularning soni juda ko'p bo'lsa, unda inson rejalashtirilgan natijalarga erisha olmaydi, bu esa ish samarasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, tanlangan maqsadlarni ularning ahamiyati bo'yicha tahlil qilish maqsadlar ustunligini o'rnatishning muhim omili hisoblanadi.



5-chizma. MV Oning maqsadlar bog'lami⁸¹

3. Umumiy maqsadlar kabi yakka shaxsning rejali maqsadi aniq natijalar va ularga ega bo'lishni aniq muhlatlari ko'rsatilmog'i kerak. Masalan, sotuv bo'limi xizmatchilari o'zlariga har biri 5 tadan xonalar mebellari buyurtmachilarning keyingi oyni ikki haftasi ichida topish majburiyatini o'z zimmalariga oladilar. Rahbar va xizmatchini faoliyat sohasiga qarab ularni rejalashtirilayotgan maqsadlari son ko'rsatgichida bir necha o'lchamlarda ifodalanishi mumkin: tovarni qiymati bo'yicha foizda, indeksda, hajmda, sonda, taqqoslov miqdorida va hokazolar.

4. Rejalashtirilayotgan maqsadlar etarlicha murakkab va shu bilan bir vaqtda erishiladigan bo'lmog'i kerak. Engil maqsadlarni tanlash tashkilot uchun zarur natijalarni qo'lga kiritishda xizmatchini real ulushi haqida mulohaza yuritishga imkon bermaydi. Boshqa tomondan o'ta og'ir, ayniqsa, umuman erishilishi qiyin bo'lgan maqsadni ko'zlash xizmatchini ijobiy natijaga erishishdan mahrum qiladi.

Bu tez-tez quyidagi ikki holatda hosil bo'ladi:

1. Boshliq qo'l ostidagidan uning imkoniyatlari bilan hisoblashmasdan qo'yilgan masalani bajarishni talab qilsa.

2. Teskari vaziyat xizmatchi o'zini imkoniyatlarini yuqori baholab, muammoga yaxshi tushunib etnasdan o'ta qiyin maqsadni tanlab olsa.

Bunday holatlarda rahbarning vazifasiga xizmatchining maqsadini o'z vaqtida aniqlashtirib turish kiradi. Har qanday rahbar o'z qo'l ostidagilarni tanlagan maqsadlari erishilishi mumkin bo'lishini kuzatib bormog'i kerak.

⁸¹ Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, inson maqsadim og'ir, ammo erishish mumkin deb faraz qilishi mumkin, agar uning ijobiy natija olish kafolati hech bo'lmasa 50 ga teng bo'lsa.

5. MVO ning barcha tizimlarining samaradorligi shu jumladan rahbarlar va xizmatchilarning yakka shaxs maqsadlari sezilarli darajada ularni muvaffaqiyatlari qanchalik to'g'ri va malakali baholashiga rag'batlantirish chora tizimiga juda ham bog'liqdir.

Nazorat savollari:

1. Sug'urta kompaniyalarida moliyaviy menejmentning tamoyillarini aytib bering.
2. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini boshqarish mexanizmini aytib bering.
3. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy menejment mexanizmining samarasini oshirish yo'llarini aytib bering.

XIII BOB. SUG'URTA TASHKILOTLARINI PERSONALLI BOSHQARISH

13.1 Sug'urta kompaniyalarida xodimlar bilan ishlash menejmenti

Bugungi amaliyotda xodimlarni boshqarish muammosiga ikki xil yondoshuv mavjud:

- ✓ inson resurslarini boshqarish;
- ✓ xodimlarni boshqarish.

"Inson resurslarini boshqarish" tushunchasi boshqarishning strategik jihatlarini, shuningdek ijtimoiy rivojlanish masalalarini o'z ichiga oladi va ularga ustuvorlik beriladi. "Xodimlarni boshqarish" tushunchasi esa ko'proq kadrlar bilan tezkor ishlashni anglatadi.

Shuningdek sug'urta kompaniyasi yerlarida chunki moliyaviy yomon ahvol katta miqdorda qiymatning ko'tarilishi olib kelishi haqida dalil mavjud, qiymatning o'sishi inqiroziy jarayonlar: qonuniy qiymatlar va ehtimol menejmentning haqiqiy iqtisodiy baho yaratishdagi e'tiborining og'ishini qo'llab-quvvatlaydi⁸².

Agar birinchi yondoshuv davlat miqyosida bandlik va uni muvofiqlashtirish vazifalaridan kelib chiksa, ikkinchi yondoshuv bevosita sug'urta kompaniyasi darajasidagi mehnat munosabatlari va ularni muvofiqlashtirishdan kelib chiqadi. Bu holatni bizni quyida keltirilgan jadval ma'lumotlarda izohlash mumkin.

Xodimlarni boshqarish deganda sug'urta kompaniyasida band bo'lgan kishilar salohiyatini rivojlantirish va undan samarali foydalanish, ularning faoliyat ko'rsatishi uchun zaruriy shart-sharoit yaratish bo'yicha o'zaro bog'langan tashkiliy - iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlar tizimi tushuniladi.

Bunday boshqaruv funksional va tashkiliy boshqaruvlarga bo'linadi.

Funksional boshqaruv deganda bevosita kadrlar masalasini echish bilan bog'liq masalalar, ya'ni kadrlarni tanlash, ishdan bo'shatish, malakasini oshirish, ish xaki va hokazolar tushuniladi.

Tashkiliy boshqaruv tushunchasi kadrlar ishi uchun bevosita javob beruvchi barcha shaxs va boshqarmalar, ya'ni rahbarlar, kadrlar bo'limi, kasaba uyushmalari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

⁸²David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Proccess 2005 p.4

Inson resurslarini boshqarish⁸³

BOSHQARISH TURLARI	
<i>FAOLIYAT SOHASIGA QARAB</i>	
Inson resurslarini boshqarish (strategik yondoshuv)	Xodimlar bilan ishlash
<i>NIMAGA USTUVORLIK BERILISHIGA QARAB</i>	
mutloq yangi vazifalarni echishga; - global; - uzok muddatli vazifalarni echishga qarab	ma'muriy aralashuvga zaruriyat tug'iladigan kundalik muammolarni echishga
<i>QANDAY FUNKSIYALARNI BAJARISHIGA QARAB</i>	
inson resurslarini rejalashtirish shaxsiy qobiliyat va malakani oshirish; kompaniyaning xodimlarga sarflanadigan xarajat doirasida xodimlar uchun xarajatlarni rejalashtirish	kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish mehnat motivatsiyasini boshqarish texnika xavfsizligini nazorat qilish nizolarni hal qilish
<i>BAJARILISHI TO'G'RISIDA KIMGA MA'LUMOT BERILADI</i>	
Kompaniya bosh menejeriga	Bosh menejer o'rinbosari

⁸³ Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMI

ISH SHAROITI BO'YICHA:

1. Mehnatning ruhiy - fiziologik talablariga to'ya qilish	2. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligini ta'minlash	3. Tabiatni muhofaza qilish		
<i>MEHNAT MUNOSABATLARI BO'YICHA:</i>				
1. SHaxsiy va guruhlar munosabatlarni tahlil qilish va muvofiqlashtirish	2. Rəhbarlar munosabatlarni tahlil qilish va muvofiqlashtirish	3. Xizmat ko'rsatishdagi ixtiloflar, nizolar	4. Asab buzartiklarni boshqarish	5. Kasaba uyushmalari bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish
<i>KADRLARNI HISOBGA OLISH VA RASMIYLASHTIRISH</i>				
1. Ishga qabul qilish, ishdan bo'shatish, bir joydan	2. Ikkinchi joyga o'tishlarni rasmiylashtirish	3. Kadrlar boshqaruvi tizimini axborotlar bilan ta'minlash	4. Kasbiy yo'nalishlarni aniqlash	5. Bandlikni ta'minlash
<i>XODIMLARNI REALASHTIRISH VA XODIMLAR MARKETTINGI</i>				
1. Xodimlarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish	2. Kadrlar salohiyatini tahlil qilish	3. Mehnat bozorini o'rganish, xodimlarga bo'lgan ehtiyojini rəjalashtirish, reklamlarni uyushtirish	4. Kompaniyani kadrlar bilan ta'minlovchi tashqi manbaalar bilan aloqasini o'rnatish; vakant (bo'sh) joylarga nomzodlarni aniqlash va baholash	
<i>KADRLARNI RIVOLLANTIRISH</i>				
1. Kadrlarni joriy baholab borish hamda kadrlarga iqtisodiy va texnikaviy	2. Qayta tayyorlash va malakasini oshirish; zaxiradagi kadrlar bilan ishlash; amal va martabani	3. Yangi xodimlarni kasbiy va ijtimoiy - psixologik ko'nikmasini ta'minlash		

⁸⁴ Mavjud ravjlanish amaliy usullarini

bilimlar bersh		nazorat qilish va rejalashtirish		
MEHNATNI RAG'BATLANTIRISH YOSITALARINI TAKOMILLASHTIRISH				
1. Mehnat jarayonlarini normalashtirish va tartiblashtirish	2. Ish xaqi tizimini ishlab chiqish	3. Ma'naviy rag'batlantirish vositalaridan foydalanish	4. Foyda va kapitalga qatnashish xissasini ishlab chiqish	5. Motivatsiya va uni boshqarish
XUQUQIY XIZMAT				
1. Mehnat munosabatlari dagi huquqiy masalalarni, echish	2. Xodimlarni boshqarishga taalluqli farmoyishni hujjatlarni kelishish	3. Xo'jalik faoliyatidagi huquqiy masalalarni echish		
IJTIMOIY TUZILMANI RIVOJLANTIRISH				
1. Umumiy o'qatlarish muassasalari boshqarish; kommunal xo'jalik sohani boshqarish	2. Jismoniy tarbiya va madaniyatni rivojlantirish; sog'liqni muhofaza qilish va hordiq chiqarishni ta'minlash	3. Bolalar muassasalari bilan ta'minlash	4. Jitiroviy nizolarni boshqarish	5. Xalq iste'mol mollari va oziq-ovqat maxsulotlari sotilishini ta'minlash
BOSHQARISHNING TASHKILY TARKIBINI ISHLAB CHIQISH TIZIMI				
1. Boshqarishning shakllangan tashkiliy tarkibini tahlil qilish	2. Boshqarishning tashkiliy tarkibini loyihalashtirish	3. SHtarlar to'yxatini ishlab chiqish	4. Boshqarishning yangi tashkiliy tarkibini tuzish	

Sug'urta kompaniyasida band bo'lgan barcha xodimlar ikki toifadan iborat:

- xizmat ko'rsatuvchilar;
- boshqaruvchilar (rahbarlar, mutaxassis-menejerlar).

Xodimlarni, ya'ni inson omilini boshqarish quyidagi jihatlarni boshqarishni o'z ichiga oladi.

Sug'urta kompaniyalarini boshqarish tizimida mehnat resurslarini boshqarish juda ham murakkabdir. Chunki, xizmatlar ko'rsatish va boshqarish masalalarining markazida odamlar - ishchilar, mutaxassislar va rahbarlar turadi. Sug'urta kompaniyasi oldida turgan maqsadga erishish va rejalarning bajarilishi faqat shular ishtirokida bo'ladi. Inson omilini hisobga olmaslik. insonga e'tiborsizlik oxir-oqibatda, sug'urta faoliyati samaradorligini pasayishiga olib keladi. Mehnat resurslarini boshqarishning asosiy maqsadi ishchilar va xodimlarning qobiliyatlarini, yanada jadal va unumli mehnat qilishga safarbar etishdir.

Mavjud xodimlarni baholashda, eng avvalo ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi omillarga, xususan mehnat bozoridaagi vaziyatga e'tiborni qaratmoq lozim. Zero, mehnat bozoridaagi holat, ko'p jihatdan kuyidagilarga bog'liq:

- ❖ aholi soni, yoshi, jinsi salmog'idagi o'zgarishlarga;
- ❖ tarmoq va hududiy bandlikdagi o'zgarishlarga;
- ❖ qo'shimcha ishchi kuchini yollash darajasiga;
- ❖ ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'atiga;
- ❖ mehnat resurslarini boshqarish usuliga va hokazo.

Ichki omillarni baholash uchun quyidagi ma'lumotlar tahlilini bajarmoq zarur:

- doimiy band bo'lgan xodimlar soni, familiyasi, yashash joyi. ishga qabul qilingan vaqti va hokazo;
- xodimlarning tarkibi (malakasi, mutaxassisligi, yosh tarkibi, milliy tarkibi, nogironlar salmog'i, ishchi va xizmatchilar va hokazo).
- xodimlar qo'nimsizligi;
- ish kunining davomlilikigi (to'liq yoki qisman bandligi, necha va qaysi smenada ishlashi, ta'tilning davomlilikigi va hokazo);
- ish xaqi, uning tarkibi, qo'shimcha ish xaki, ta'rif yoki ta'rifdan yuqori to'lov va hokazo.

Qayd qilingan tashqi va ichki omillarning ta'sirida mehnat bozoridaagi vaziyat o'zgarib turadi va shunga mos ravishda mehnat resurslariga bo'lgan talab va taklif ko'lami aniqlanadi.

Mehnat resurslariga bo'lgan talabni rejalashtirish xodimlarni rejalashtirish jarayonining boshlangich bosqichi bo'lib, uni tuzishda quyidagi ma'lumotlar asos vazifasini bajaradi⁸⁵:

- mavjud va rejalashtirilayotgan ish joylari;
- tashkiliy va texnik tadbirlar rejasi;
- shtatlar ro'yxati va bo'sh lavozimlarni to'ldirish rejasi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv vazifalarining murakkablashuvi sug'urta kompaniyasi rahbarlariga xodimlarni to'g'ri tanlash, ularni joi-joyiga kuyish va tarooyalash ishlariga juda katta ma'suliyat bilan

⁸⁵ David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Proccess 2005, p.8

yondoshishni talab kiladi. Bu erda soʻz, eng avvalo ish tavsifi va ishga kabul kilinadigan xodimga nisbatan talablarni belgilash toʻgʻrisida borayapti.

13.2 Sugʻurta tashkilotlarida xodimlarni boshqarish samaradorligi

Xodimlarni boshqarish samaradorligi, koʻp jihatdan xodimlarni tanlashga bogʻliq. Xodimlarni tanlash - bu ikki tomondan jarayondir. Bir tomondan, sugʻurta kompaniyasi daʼvogarga ish berish yoki bermaslikni hal qilsa, ikkinchi tomondan daʼvogar, agar uni ishga taklif qilishsa, u bu taklifni qilishi kerakmi yoki kerak emasligini hal qiladi. Bu jarayonda rahbar quyidagi holatlarga oʻz eʼtiborini qaratmogʻi lozim:

✓ daʼvogarlarni, ayniksa, oʻzi toʻgʻrisida kishqacha maʼlumotlarni taqdim etganlarni bilib olish uchun iloji boʻlgan barcha tadbirlarni koʻrmoq kerak.

✓ ochiq berilgan tavsiyalarga ortiqcha ishonmasdan, oʻzingiz shaxsan, surishtirib bilganingiz durust. Ancha ochiq fikr olish uchun nomzodning sobiq ish beruvchisiga koʻngʻiroq qilish yoki u bilan shaxsan uchrashish lozim. Oʻsha rahbarning mazkur xodimdan ajralayotganiga qanday qarayotganini eʼtibor bilan kuzatish kerak.

✓ har bir daʼvogarning oilaviy xotirjamligini surishtirib koʻrish lozim.

✓ birinchi navbatda shuni taʼminlamok kerakki, ishga qabul qilinayotgan odam muzokaralar chogʻida oʻzining boʻlajak ishining barcha xususiyatlarini tasavvur qilsin, kelgusida xafa boʻlib yurmasin, bunda biron bir salbiy xollarga yoʻliqmasin.

✓ daʼvogarga berilgan baholar va tavsiyalarni tahlil qilganda, shuningdek muzokaralar olib borilganda:

* uning topshirilayotgan ishini bajara olishiga;

* zarur boʻlib qolganda kasbiy maʼlumotini oshira bilishiga;

* texnikaga nisbatan eʼtiboriga;

* feʼl-atvoriga;

* xalolligi, mulohazaliligi, turmushda hozir-nozirliги va toʻgʻriligiga;

* tashabbuskorligi, hayotga talabchanligiga;

* ishga hamda ish kunining davomiyligiga;

* ogʻir sharoitda oʻzini tutishiga;

* salomatligi, tashki koʻrinishi, vaqtni taqsimlay bilishiga;

* hunari va boʻsh vaqtlardagi mashgʻulotlariga diqqat qilish lozim.

* har bir daʼvogarga, u bilan turmushi toʻgʻrisida suhbatlashish va barcha zarur savollarga javob olish uchun etarli darajada vaqt ajratish kerak⁸⁶.

Bulardan tashqari unutmazlik kerakki, ishga qabul qilinayotgan nomzod topshiriladigan ishini bajarishga yarokligina boʻlib qolmay, balki sugʻurta kompaniyasining boshqa xodimlari bilan chiqishib ketadigan ham boʻlish kerak. Agar u soʻngi talabga muvofiq kelmasa, odatda yaxshi mustaxassisning ham

⁸⁶ David F. Bubbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005, p.13

bahridan o'tish kerak. Ishga qabul qilingan odam o'z hamkasblariga qo'shilib ketganda o'zini o'z uyidagidek his etishi muhimdir. U o'z burchlarini qanday eplayotganini diqqat bilan quzatishi, bunda unga yordam berishi kerak, uning yangi joyda o'zini tutib olish uchun vaqt kerakligini anglamoq lozim.

Sug'urta kompaniyalarida xodimlarni tanlash va ularga adolatli baho berish boshqarishning eng murakkab qirralaridan hisoblanadi. SHu sababli, ularni to'g'ri tanlash va joy-joyiga qo'yishda zarur mas'uliyat bilan yondoshilmasa, ish yakunlari kutilgan samarani bermasligi aniq. Xodimlarni tanlash uslubi qanchalik puxta ishlab chiqilgan bo'lsa, shunchalik sug'urtalovchining mehnat faoliyatida kutilmagan samaradorlikka tez erishish amaliyotida isbot etilgan.

Sug'urta kompaniyalarida xodimlarni tanlashda ularning ko'p qirrali xislatlarini aniqlash imkonini beruvchi quyidagi maxsus usullar qo'llaniladi:

- ❖ anketa ma'lumotlarini tahlil qilish usuli;
- ❖ ruhiy test o'tkazish usuli;
- ❖ amaliy ish o'yinlarini o'tkazish usuli;
- ❖ malakaviy test o'tkazish usuli;
- ❖ taqrizlarni tekshirish usuli;
- ❖ suhbat o'tkazish usuli;
- ❖ attestatsiyadan o'tkazish usuli;
- ❖ reyting usuli.

Baholash mezonlari va kaysi bir usullar samaraliroq yoki an'anaviy usul ekanligini tasvirlovchi kursatkichlarni quyidagi jadvalda keltiramiz.

13-jadval

Xodimlarni tanlash va ularga baxo berish usullari

№	Baholanuvchi sifatlar	Anketa ma'lumotlari ni taxlili	Ruhiy testlarni o'tkazish	Amaliy ish o'yinlari	Malakaviy testlar o'tkazish	Takriz larni tekshirish	Suxbat o'tkazish
1	2	3	4	5	6	7	8
1.	Idrokililigi (intellekt)		++	++			+
2.	Bilimdondligi (umumiy, iqtisodiy va savodxon)	+			++		+
3.	Kasbiy bilimi va tajribasi	+		+	++	+	+
4.	Tashkilotchiliyu qobiliyati va tajribasi	+		++	+	+	+

5.	Kirishimligi va tajribasi		+	++			++
6.	SHaxsiy xislatlari va qobiliyati		++	+		+	++
7.	Sog'lig'i va ish qobiliyati	+		+		+	+
8.	Tashki ko'rinishi va o'zini tuta bilishi			+			++
9.	Motivatsiya						++

Izoh: (+) - mazkur sifatni baxolash uchun samaraliroq usul

(+) - keng va tez-tez ko'llaniladigan an'anaviy usul.

Ko'rib turibmizki, xodimning intellektual qobiliyatini baxolashda ruxiy testlarni va amaliy ish o'yinlarini o'tkazish usuli ko'proq samara berar ekan. Suhbat o'tkazish esa mazkur sifatni aniqlashda odatiy usul bo'lib hisoblanadi. Ammo bu usul 5, 6, 7, 8 va 9 sifatlarini aniqlashda samarali usullar katoriga kiradi⁸⁷.

Bu usullar rahbar xodimlarning ham qo'yidagi xislatlarini aniqlash imkonini beradi:

Ijtimoiy-fuqarolik etukligi, ya'ni:

- ijtimoiy manfaatni shaxsiy manfaatidan yuqori qo'ya olishi;
- tanqidni qabul qila olishi va o'z-o'zini tanqidga moyillik darajasi;
- jamoa ishlariga faol katnashishi;
- siyosiy, ma'naviy etukligi.

Mehnatga bo'lgan munosabati, ya'ni:

- berilgan topshiriqqa bo'lgan mas'ullikni sezish darajasi;
- kishilarga bo'lgan e'tiboriligi;
- o'zining va boshqalarning intizomiga bo'lgan talabi;
- ishidagi estetik (badiiy) daraja.

Bilim darajasi va ish tajribasi, ya'ni:

- egallayotgan lavozimiga ixtisosligining mos tushishi;
- sug'urta faoliyatini boshqarishning ob'ektiv asoslarini bilishi;
- boshqarishning ilg'or usullarini bilishi;
- mazkur kompaniyadagi ish staji;
- omilkorligi;
- yangilikni xis qila olish tuyg'usi va h.k.

Tashkilotchilik qobiliyati, ya'ni:

- boshqaruv tizimini tashkil qila olishi;
- o'z mehnatini tashkil qila bilishi;

⁸⁷ David F.Babbel Anthony M. Santometro Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005.p.6

- ishchan majlislarni olib bora olishi;
- o'z imkoniyatlarini va mehnatini baholay olishi;
- boshqalar imkoniyati va mehnatini baholay olishi.

Odamlar bilan ishlay olishi, ya'ni:

- bo'ysinuvchilar bilan til topa bilishi;
- turli korxonalar rahbarlari bilan ishlay olishi;
- jamoani jipslashtira olish krbiliyati;
- kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'ya olish krbiliyati;

Hujjatlar va axborotlar bilan ishlay olishi, ya'ni:

- maqsadni aniq va qisqa qo'ya bilishi;
- farmoyish, buyruk va amaliy xatlarni tuza bilishi;
- hujjatlarni o'qiy olish krbiliyati;
- topshiriqlarni aniq bera olishi;
- zamonaviy kompyuter texnologiyalarini bilishi va ularni o'z ishida qo'llay olishi;

Ma'naviy-axloqiy xislatlari, ya'ni:

- halol, vijdonli, to'g'ri;
- insofli, muruvvatli;
- xushmuomala, og'ir, vazmin;
- chidamli, sabotli;
- kamtar, sodda;
- sog'lom.

Har bir aniq holatda qayd qilingan xislatlar ekspertlar tomonidan (mazkur ishga kabul kilinayotgan xodimga mosini) tanlab olinadi va aksincha unga mos keluvchi boshqa xislatlar bu tarkibda bo'lmasa, u xolda qo'shimcha maxsus fazilatlar baholash mezonlariga kiritiladi.

Baholashning belgilab ko'yilgan tartibi attestatsiya deb ataladi. U mutaxassislarining lavozimga layoqatini, malakasini, bilim darajasi va xulq-atvorini aniqlashga va shu asosda ishga tayinlash yoki unvon berishga, shuningdek, ishdan chetlatishga xizmat qiladi⁸⁸.

Attestatsiya jarayonida xodimlarning malakasiga, uning bajarayotgan ishiga yoki lavozimiga loyikliliga xolisona baho berilishi kerak. Attestatsiya kilinayotgan xodimning ishiga baho berishda, uning reja topshiriqlarini bajarishdagi shaxsiy xizmati, mehnat intizomi, o'z vazifasini sidqidildan bajarishi kabilar inobatga olinishi zarur. Ana shular asosida attestatsiya qiluvchilar ochiq ovoz berish yuli bilan qo'yidagi baholarni berishi mumkin:

- * bajarayotgan lavozimiga loyiq;
- * xodim ko'rsatilgan nuqsonlarni keyingi o'tkaziladigan attestatsiyagacha yo'qotsa, bajarayotgan lavozimiga loyiq;

⁸⁸ David F Babbel Anthony M Santometro Risk Management by Insurers: An Analysis of the Proccess 2005, p.3

* egallab turgan lavozimiga loyiq emas.

Shuningdek, sug'urta kompaniyalarida xodimlar bilan ishlashni boshqarishda ana shu xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash muhim o'rin tutadi.

13.3 Sug'urta kompaniyalarida sifat menejmentini joriy etish

Sifatni boshqarish tizimi, zamonaviy tilda aytganda, sifat menejmenti, o'zida boshqaruvning me'yoriy uslublarini aks ettiruvchi standartlarga asoslanadi. Uning ta'siri, huquqiy kuchga ega bo'lgan, me'yoriy hujjatlar ko'rinishida shakllanadigan me'yor va qoidalarni o'rnatish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Standart - mahsulot sifatiga qo'yiladigan asosiy talablarni o'zida aks ettiruvchi texnik-me'yoriy hujjatdir. Sifatni boshqarishda texnik shartlar qisman rol o'ynaydi⁸⁹. Texnik shartlar – bu davlat standartlariga qo'shimcha tarzda belgilanadigan, agar ular mavjud bo'lmagan taqdirda mahsulot sifat ko'rsatkichlariga mustaqil talab qo'ya oladigan texnik me'yoriy hujjatdir.

Standartlar mahsulotning barcha hayotiylik sikli bosqichlarida uning sifatini oshirishni rejalashtirish tartibi va uslublarini belgilaydi, sifatni nazorat qilish va baholash uslublari va vositalarga talabni belgilaydi. Mahsulot sifatini boshqarish davlat, xalqaro, tarmoq va korxonalar standartlari asosida amalga oshiriladi.

Taklif darajasining talab darajasidan ortib ketishi, xaridorlar uchun raqobat kurashining olib borilishi sug'urtalovchi ishlab chiqarayotgan mahsulotni baholay olish imkonini beruvchi ob'ektiv ko'rsatkichlarni ishlab chiqishni zaruriyat qilib qo'yadi. Bunda shartnoma amal qiladigan barcha muddatlarda sug'urta mahsulotlarning sifat darajasi barqaror, muqarrar bo'lishi kerak. Sug'urta kompaniyasida xalqaro standartlarga muvofiq keluvchi sifat tizimining mavjud bo'lishi barqarorlik kafolati bo'lib xizmat qiladi⁹⁰.

Xalqaro standart tashkiloti (International Standart Organization - ISO) mahsulotlar yoki xizmatlar sifatini boshqarish bo'yicha standartlar ishlab chiqadi. Xalqaro standart tashkiloti 1946 yilda BMT qoshidagi standartlarni muvofiklashtirish bo'yicha qo'mita yig'ilishida dunyo miqyosida xalqaro tovarlar almashinish va o'zaro yordamni engillashtirish; intellektual, ilmiy, texnik, iqtisodiy faoliyat muhitida hamkorlik qilishni kengaytirish maksadida tashkil qilindi.

Xalqaro standart tashkiloti (International Standart Organization – ISO)ning faoliyat turi xalqaro standartlarni ishlab chiqish hisoblanadi. ISO standartlari ko'llash uchun juda kullari hisoblanadi. Milliy standartlashtirishda ulardan foydalanish sotuv bozorini, eksportni kengaytirish, ishlab

⁸⁹ David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005, p.9

⁹⁰ David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005, p.12

chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishni qo'llab quvvatlash imkonini beradi.

Standartlash bo'yicha xalqaro tashkilot mahsulotlar va xizmatlarga qo'yiladigan talablarni belgilaydi va ISO standartlarida 9000 seriyasini vujudga keltirdi.

Sifat tizimini sertifikatlashga tayyorlash:

1. aniq belgilangan protseduraning mavjudligi.
2. voz kechish - qaytish sonining kamligi.
3. tekshiruv laboratoriyasining mavjudligi.
4. yuqori darajadagi unumdorlik.
5. kompaniyada sifat bo'yicha menejerlarning mavjudligi.
6. jarayonlarni nazorat qilishning statistiq uslublarini qo'llash.
7. hujjat bilan rasmiylashtirilgan protseduralarning mavjud bo'lishi⁹¹.
8. kompaniyada tashkiliy jihatdan shakllantirilgan sifat tizimining mavjud bo'lishi.
9. kompaniyada sifat bo'yicha bo'limning mavjud bo'lishi.
10. kompaniyada sug'urta mahsuloti ishlab chiqarishni nazorat qilishni tashkil etish.
11. nuqsonlarni aniqlash bo'yicha ishlarni olib borilishi.

Iste'molchilar uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatining yuqori darajadagi barqarorligi va muqarrarligining kafolati bo'lib, sertifikatga ega bo'lgan sifat tizimi hisoblanadi.

Sifat tizimida sertifikatning mavjud bo'lishi bozorda raqobatni saqlashning zaruriy sharti bo'lib hisoblanadi. U o'zida:

1. sug'urta xizmatlarini ko'rsatishni boshqarish bilan bog'liq muammolarning mavjud emasligi;
2. kompaniya tomonidan ishlab chiqilayotgan sug'urta mahsulotlariga buyurtmachilar tomonidan bildirilayotgan shikoyatlar sonining ko'p emasligi;
3. sug'urta mahsuloti iste'molchilarining sug'urta mahsulotini ishlab chiquvchi kompaniyadagi mavjud sifatni boshqarish tizimidan qoniqish hosil qilishi;
4. sug'urta mahsuloti iste'molchilari mavjud sifatni boshqarish tizimi to'g'risidagi hujjatlarni talab qilishi;
5. sug'urta mahsuloti iste'molchilari sug'urta kompaniyasida sifatni boshqarish tizimining mavjudligini shaxsan o'zi tekshirishi va baholay olishi.

Sug'urta mahsuloti iste'molchilari kompaniyadan sifatni boshqarish tizimini sertifikatlagan organ sertifikatini so'rash orqali mijoz sug'urtalovchining sifatni boshqarish tizimini baholashda yuqoridagi variantlaridan foydalanishi mumkin.

Sifatni boshqarish tizimi xalqaro standarti - ISO:9001da qayd etilgan ta'rifga ko'ra, sifat tizimi - bu sifatning umumiy boshqaruvini ta'minlovchi

⁹¹David F.Babbel Anthony M Santometro. Risk Management by Insurers. An Analysis of the Process 2005 p 10

tashkiliy tarkib, javobgarlik, jarayonlar, protsedura va resurslar taqsimotining majmuidir. Mahsulotlar etkazib berish bo'yicha kontrakt tuzish uchun xorijlik xaridor ishlab chiqaruvchida sifat Otizimining mavjudligini va bu sifat tizimiga taniqli sertifikatlash organi tomonidan berilgan sertifikatni kursatishni talab kiladi.

Sifat tizimi sug'urta kompaniyasi oldiga qo'yilgan maqsad va belgilangan siyosatni olib borishni ta'minlovchi omil sifatida tashkil qilinadi va amalga joriy etiladi. Sug'urta kompaniyasining sifat bo'yicha siyosati kompaniyaning yuqori rahbariyati tomonidan ishlab chiqiladi.

Sifat tizimining asosiy vazifalari bo'lib: sifatni ta'minlash, sifatni boshqarish, sifatni yaxshilash hisoblanadi. U sug'urta kompaniyasi rahbariyati tomonidan sifatni ta'minlash bo'yicha siyosatni amalga oshirishning vositasi sifatida tashkil qilinadi.

Sifat tizimida sug'urta mahsuloti iste'molchisi va sug'urta kompaniyasi faoliyat olib boradi⁹².

Sifat muhitida kompaniya siyosati va maqsadini ta'minlash uchun sifat tizimida:

- 1) marketing, bozorni o'rganish;
- 2) texnik talablarni loyihalashtirish va ishlab chiqish;
- 3) material-texnik ta'minot;
- 4) texnik jarayonlarni tayyorlash va ishlab chiqish;
- 5) sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish;
- 6) nazorat, sinov va tadqiqotlar o'tkazish;
- 7) sotish va taqsimot;
- 8) xizmat ko'rsatishga texnik yordam;

Sug'urta kompaniyasi rahbarlari sifat siyosatini olib borishda birinchi navbatda, uni shakllantirib olish va rasmiylashtirishi kerak bo'ladi.

Sifat bo'yicha siyosatni shakllantirishda quyidagi yo'nalishlarni tanlab olish mumkin:

1. Sifatni yaxshilash hisobiga kompaniyaning iqtisodiy holatini yaxshilash.
2. Bozorni kengaytirish va yangilarini egallash.
3. Sug'urta mahsuloti texnik darajasini ilg'or kompaniyalar darajasiga olib chiqish.
4. Mahsulot nuqsonini kamaytirish va boshqalar.

Sifat bo'yicha siyosat dastur ko'rinishida maxsus hujjatlarda bayon etilishi kerak.

Sifat kafolati bo'yicha faoliyat ushbularni o'z ichiga oladi:

- rejalashtirish va loyihalashtirish;
- texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishga tayyorgarlikni loyihalashtirish: mahsulotni tayyorlash;
- sifatni nazorat qilish;

⁹² David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005, p.13

Sifatni nazorat qilish

- *sotishdan keyin xizmat ko'rsatish;*
- *iste'molchidan axborot olish;*
- *sifat kafoloti tizimini nazorat qilish.*

Sug'urta kompaniyasida mahsulot sifatini nazorat qiluvchi sifat xizmati bo'limini tashkil qilish kompaniyada olib borilayotgan sifat bo'yicha barcha faoliyatni muvofiklashtirishga imkon beradi. Sifat xizmati sifat bo'yicha uslubiy takliflarni ishlab chiqadi. Bu xizmat turi faqatgina Bosh direktorga bo'ysunadi.

Sug'urta kompaniyasi rahbariyati bu xizmat orqali, nafaqat mahsulot sifatining halqaro standartlarga javob berishini nazorat qilib boradi, balki mahsulot sifatini doimiy ravishda takomillashtirib borish imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

Sug'urta kompaniyasi rahbari kompaniyada tashkil etilgan sifatni boshqarish tizimi orkin shstematlarchilar ehtiyojini va ularning mahsulot sifatiga qo'yadigan talabini o'rganadn.

Mahsulot sifatashng aniq standartlarga javob bermasligi, bevosita uni ishlab chiqish jarashshza aniqlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun sifatni nazorat qilish quyidagi barcha texnologik zanjir bo'yicha amalga oshirilishi kerak:

- material va butlovchi kislmlarning kirish nazorati laboratoriyalar asosida amalga oshirilishi;
- korxonada ishlab chiqarish jarayonining texnologik jihozlarini faol nazorat qilish uslublarini ishlab chiqish, shuningdek operatsiyalar bo'yicha tanlama yoki to'lik nazorat olib borilishi va tayyor mahsulotning yakuniy nazorati;
- korxonada laboratoriyalari mahsulotning davriy sinovlariga oid maxsus kurgazmalari bilan ta'minlanishi kerak.

Sug'urtalovchi rahbarlari mahsulot sifatining standartdan chetga chiqishini emas, balki uni oldindan aniqlashga va bartaraf etishga alohida e'tibor qaratishi kerak. Barcha xodimlar, sifat bo'yicha ishlarga jalb etiladi. Buning uchun ishchilarni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab olinadi.

Nazorat savollari:

1. Sug'urta kompaniyalarida xodimlar bilan ishlash menejmenti deganda nimani tushunasiz.
2. Sug'urta tashkilotlarida xodimlarni boshqarish samaradorligi deganda nimani tushunasiz.
3. Sug'urta kompaniyalarida sifat menejmentini joriy etish deganda nimani tushunasiz.

XIV BOB. SUG'URTA XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH

14.1 Sug'urta xafsizligini boshqarishning uslubiy asoslari

Sug'urta risklari sug'urta mahsulotlarini sotish orqali jamlangan mablag' orqali kafolatlanadi. To'g'ri biznesni tashkil etish uchun moliyaviy va aktuar risklardan muhofazalanish muhim hisoblanadi. Risklarni kamaytirishning yana boshqa yo'llari qayta sug'urtani tashkil etish, mahsulot narxlar va dizayniga e'tibor berish kabilardir. Shu kabi yo'llar bilan risk boshqa tashkilotga o'tkaziladi yoki risk kamaytiriladi. Bu sug'urta portfelini tashkil etadi, chunki sug'urta sohasi biznesning barcha sohasi bilan ish olib boradi. Bunda sug'urta ko'zda tutilmagan xarajatlar va favqulotda zararlardan himoya qiladi. Risklarni boshqarish jarayonida sug'urta portfelini yaratish muhim hisoblanadi. Qisqacha qilib aytganda, risklarni boshqarish sug'urta sohasining muhim qismidir.

Har qacda moliya tashkilotlari 3 xil turdagi risklarga duch keladilar. Ular:

- a) Biznes jarayonini izdan chiqaruvchi risklar
- b) Boshqa qatnashchilarga o'tkazib bo'ladigan risklar
- c) Qat'iy darajada boshqarilishi kerak bo'lgan risklar

Ba'zi risklar butunlay bartaraf etilishi yoki riskni uzatish orqali sezilarli darajada kamaytirilishi mumkin. Ko'p risklar sug'urta kompaniyalari tomonidan qoplanadi⁹³.

Shaxslar va jamiyat hayotida normalari turli tabiiy hodisalar va sodir ofatlar, og'ishlar, barcha iqtisodiy va maishiy faoliyati *xavf elementlarini* o'z ichiga oladi. Barcha xavf va zararlardan ulardan, shuningdek, ijobiy natijalar har doim ma'lum tabiatda sodir voqealar va xalq harakatlari bilan bog'liq.

Xavfi mos ravishda sabab salbiy va ijobiy voqealar, xalq harakatlari yoki salbiy ijobiy natijalar, deb vakili mumkin. rejalangan xavf ostida haqiqiy natijalarining salbiy qo'yib, tushunib, rejalangan deb nomlangan bir ijobiy burilish "Tasodif". ikkinchi jarohati xavfi,

Birinchi holda bir imkoniyat foyda qilish uchun.

Zarar-muayyan o'lchanadigan haqiqiy olish amalga oshirilgan Pego xavfi orqali, haqiqat salbiy munosabat qilish.

Eng muhim *xavf boshqarish vositasi* - sug'urta. Bu birgalikda sug'urta munosabatlarini tashkil qilish bilan bog'liq tushunchalarni asosiy sug'urta xavfi. SHuning uchun, har doim sug'urta oqibatida to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita zarar jihatidan, ish yoki kundalik hayotda sodir bo'lgan tabiiy kelib chiqishi har qanday tabiiy hodisa⁹⁴.

Biz sug'urta xavf-xatar va sug'urta qoplash tamoyillari haqida gaplashib boshlash oldin, siz bir necha muhim tushunchalarni aniqlash kerak:

⁹³ David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005,p.8

⁹⁴ David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005,p10

- sug'urta xavf nima bo'ladi;
- bir sug'urta hodisa nima bo'ladi;
- qoplash nima.

Xavf-sug'urta bir necha ma'nolarga ega bo'lgan muddatli:

• avariya, ya'ni bo'lishi mumkin, lekin, albatta, sodir bo'lishi emas, balki bir narsa, nazorat tashqarida bo'ladi;

• sug'urtalovchining majburiyati - sug'urta obekti, uning javobgarlik to'g'risidagi bo'lgan vaziyatda, ya'ni tavakkalchilikka asoslangan;

• xavfi tayinlangan sug'urta ob'ekti hisoblanadi;

• sug'urtalovchining javobgarligini muayyan turini ko'rsatadi. Ularning salohiyati yo'qolgan yoki zarar ko'ra katta, o'rt va kichik xavfi (sug'urta qiymati qarab), shuningdek, yana xavfli va kam xavfli xavfi mavjud.

Yuqorida sug'urta xavf ta'rifi bunday emas, har qanday kutilgan voqealar sifatida ko'rib chiqilishi mumkin, deb keladi. sug'urta xavf toifasiga tadbir tayinlash imkoniyati aniqlash muhim shartlaridan bir qator bor.

Biz uch asosiy shart-sharoitlar ajratamiz:

a) da'vo voqea yuzaga kelishi ehtimolini mulkini bo'lishi kerak. Bu voqea ba'zi hollarda izdiham natijasida yuzaga kelishi mumkin, deb taxmin qilinadi. Bundan tashqari, bir berilgan voqea sodir bo'ladi ehtimoli, bir yoki bir boshqa matematik usullar bilan aniqlash mumkin. Ya'ni, ularning soni gumon voqealar yuzaga ehtimoli belgilangan bo'lishi mumkin. Bu hisobdagi yuzaga kelishi ehtimolini ekstremal qiymatiga ega tadbirlar qabul qilinishi mumkin emas, deb juda tabiiydir. Boshqa so'zlar bilan aytganda, yuzaga hech qachon bir voqea emas mumkin (yuzaga ehtimoli nol bo'ladi), va muqarrar keladi voqea sug'urta xavfi bog'liq bo'lishi mumkin (yuzaga ehtimoli 100% ga teng);

b) gumon voqealar yuzaga ehtimoli tasodifiy omillar sabab bo'lishi mumkin. Bu ataylab, qasddan harakat natijasida oldindan belgilangan bo'ladi paydo bo'lgan bir hodisa, deb, u sug'urta xavf bo'lishi mumkin emas. Boshqa so'zlar bilan aytganda, sug'urta nazarda tutilgan holatlar, sug'urta munosabatlarida ishtirokchilarning aybdor xulq bilan sabab va natija munosabati bo'lmasligi kerak;

c) sug'urta qilish xavfi ham hodisalarni, belgilangan manfaatlari, man sug'urta tegishli bo'lishi mumkin emas.

1. noqonuniy manfaatlari;

2. o'yinlar, lotereyalar va tikish ishtirok dan yo'qotishlar;

3. xarajatlar qaysi bir kishi garovga ozod olish majbur bo'lishi mumkin.

Shunga ko'ra, bu tadbirlar taxmin paydo sug'urta xavfi bog'liq bo'lishi mumkin emas.

Xavf tushunchasi yuqorida ta'riflar cheklangan emas. YUqoridagi barcha atalmish sug'urta xavfi uchun amal qiladi. ikkinchisi, tufayli sug'urtalovchi jarohat partiya sug'urta qoplamasi summasini to'lash majburiyatini qaysi mumkin yuzaga uchun, bir xavf va voqea sodir ham belgilangan boshqa narsalar orasida. xavf tushunchasi boshqa ma'noda ishlatiladi. SHunday qilib, xavf ya'ni

sug'urta obekti, uning javobgarlik to'g'risidagi hisoblanadi vaziyatlarda sug'urta qildiruvchi javobgarligini, deb tushunish mumkin pa uning xavfi. SHu bilan bir qatorda, sug'urta ob'ekt xavfi mo'ljallangan bo'lishi mumkin⁹⁵.

Shunday qilib, biz aytish mumkin: xavf - tushunchasi juda keng va ko'p qirrali bo'ladi. xavf tushunchasi kompleks tabiati sug'urta munosabatlarini amaliyotda muddatli "sug'urta xavfi" o'miga noaniq ishlatiladi, aslida ifoda etiladi.

Sug'urta xavfi, shuning uchun mavjudligi munosabatlar uning asosida paydo bo'lgan sug'urta bitim, ehtimoli belgilaydi.

Bu sug'urta biznes amaliyotida juda muhimdir sug'urta xavfini o'lchash qobiliyatidir. Bu mulk "sug'urta xavfi" yoki tushunchasini belgilaydi "sug'urta xavf miqdori. Biz nuqtai sug'urta qildiruvchi nuqtasiga xavfini hisoblasak, bu tushuncha sug'urta mavzuda asosan taqsimlanadi, va unga sug'urta shartnomasining shartlariga bir yoki boshqa ob'ekt sug'urta qabul va katta darajada ehtimoli ko'lamini belgilab qilinadi. sug'urta shartnomasi bosqichi tuzilishi xavfini belgilansin, sug'urtalanuvchi sug'urta xavfi baholash uchun tegishli barcha ma'lum axborot sug'urtalovchi xabardor qiladi. sug'urtalovchi sug'urta xavf darajasini aniqlash qaratilgan faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega "*Xavf*" tushunchasi mutlaqo ma'lum, muayyan ma'no ko'milgan - u matematik aniq muayyan hodisa yuzaga kelishi ehtimolini tavsiflovchi miqdorini belgilangan.

14.2 Sug'urta kompaniyasini boshqaruv tamoyillari

Sug'urta risk bilan bog'liq biznes turidir. Xususan, sug'urta faoliyatida va boshqa moliyaviy xizmatlarda har xil aktuar va moliyaviy risklar mavjud. Oxirgi o'n yil ichida sug'urta moliya sohasida alohida mavqeyga ega bo'lib bordi. Moliya bozori qatnashchilari sug'urtachilar tomonidan turli risklardan muhofaza qilinadilar, chunki sug'urtachilar shunga ixtisoslashgan. Bu jarayonda ular o'zlarining mahsulotlarini hayot, mol-mulk yoki baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish, sog'liq sug'urtasi, pensiya sug'urta mahsulotlari, annuitet va boshqa sug'urta yo'nalishlarida taqdim etadilar. Moliya bozorida sug'urta tashkilotlari ham umumiy qonunlar asosida ish olib boradilar, xususan, ish va xizmatlarning umumiy tamoyillari asosida. SHunday qilib ular o'zlarining buxgalteriya balanslari asosida turli sug'urta risklarini birlashtiradilar va sug'urta portfelini tashkil etadilar. Shu sababli, quyida risk menejmenti va risk boshqaruvini tashkil etishdagi kerakli jihatlar haqida gap boradi. Eng avvalo risk boshqaruvini jarayoni haqidagi fikrlarga etibor qaratiladi⁹⁶.

⁹⁵ David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005, p7

⁹⁶ David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005, p.11

Sug'urta, shu jumladan, har qanday tijorat tashkilotining, faoliyati, maqsadlar qo'yib bilan boshlanadi. maqsadi - Men nima qilish kerakligini? u olish dan? yig'ilganda asosiy manfaatlari bor? qaysi mijozlar xizmat qilish? nima usuli bu savollarni hal qilish uchun taklif etiladi? maqsad belgilangan.

Keyingi qadam - qanday qilib, bir haqiqatga aylantirdi bu maqsadga tarjima qilish? Agar bo'lishi kerak, deb? moliyaviy, moddiy, inson va bu maqsadga erishish uchun institutsional imkoniyatlar bor? YUqoridagi masalalar muntazam keyingi tizimida ularni tashkil qilish kerak hal qilish. So'ngra o'rganish rejalashtirish etan, bosqichini keladi va maqsadga erishish yo'llarini aniqlash. butun dastur va uning alohida yo'nalishlari uchun bir butun sifatida mas'ul ijrochilar; belgilangan rejalashtirishda ketma-ketlik, bu maqsadga erishish uchun; uni amalga oshirish uchun, degan ma'noni anglatadi.

Sug'urta bozorida pozitsiya shakllantirish uchun tanlab, bir yo'nalishini rejalashtirishda, sug'urta kompaniyasi, kabi fikrlovchi jamoasi shakllantirish va kompaniyaning tasvir strategik yo'nalishini belgilab beradi.

- bir sug'urta kompaniyasining muvaffaqiyati bog'liq;
- tijorat muammolarni to'g'ri tanlash, sug'urta himoyaga muhtoj;
- muammoni hal raqobat qobiliyatini ;
- qaror qabul qilish, uning faoliyati va vakolati xabardor ta'minlash.

Har qanday vazifa uning ijrosini ehtiyojlari tashkilotchisi belgilangan. Shuning uchun, ega bo'lgan ishga qabul qilish menejeri, tashkillashtirish va sug'urta biznesini olib. administratorning ish kelishib maqsadlarga erishish uchun bir reja ishlab chiqish hisoblanadi. uning vazifalarini bajarishda, menejer turli kasblar, munosabat va e'tiqodga xalqi bilan uchrashdi.

Bu, do'stona kapa orqali ular bilan aloqada bo'lishi, barcha xodimlar bilan munosabatlarga silliq bo'lishi emas, balki jamoa keskinliklar va nizolar uchun shart-sharoitlar qochish, shaxsiy hamdardligini bildiradi ta'minlash uchun kerak.

Xorijiy amaliyotda keng foydalanish sazovor "inson munosabatlari maktab." Uning vakillari mehnat muammolar turtki o'rganmoqda, odamlar xulq, ish o'z qiziqish amalga oshiriladi. Olimlar jamoasi har bir a'zosi ko'ksini rag'batlantirish, faoliyatini boshqaruvini takomillashtirish qulay ma'naviy va psixologik-mantiqiy muhitini yaratish siyosatini olib borish uchun tavsiyalar.

Amalda, malakali sug'urta kompaniyalari, vakolatli Manager mohirona, kompaniya bir maqsadga tanlang boshqarish va ushbu maqsadga bajarilishini kuzatib borish va erishilgan natijalar ob'ektiv baho berishga qobiliyatini ajratib turadi.

Muhim sug'urta kompaniyasi faoliyati rahbarlari va xodimlaridan aniq ular talip kerak gol tushunish. maqsadi tiniqligi eng optimal echimlarni topish, tashabbuskorlik, ijodkorlik, odamlarni chaqiradi.

Kadrlar, samarali ishlashini ta'minlash, har bir tarkibiy birligi, jamoa optimal holatda professional xodimlari, - muvaffaqiyatli kerakli natijalarga erishish, raqobat saqlab, rivojlantirish va sug'urta bozorida faoliyat sug'urta kompaniyasi beradi asosiy narsa.

Sug'urta tashkilotining asosiy vazifasi - ularning faoliyati profili, sug'urta kompaniyasining tasvir yaratish uchun mos malakali mutaxassislar tanlash. Bu erda ma'lum bir joy xizmat beriladi. Uning vazifasi: tadqiqot va mehnat bozorida vaziyat tahlil qilish; qidirish va xodimlarni tanlash; kadrlar zaxirasini shakllantirish; tashkilotning optimallashtirish; qurilish va xodimlarining haq takomillashtirish; ish haqining samaradorligini baholash; jamoasi bir normal psixologik iqlim yaratish.

Inson omili ko'p jihatdan sug'urta kompaniyasining muvaffaqiyatli ta'minlaydi. ish, ularning ta'lim-saqlash xodimlari bilan amalga oshiriladi va yakuniy natijasi bog'liq ushbu maqsadlarga erishish uchun foydalanish kabi yo'l xodimlari tomonidan oldi qilinadi⁹⁷.

U bir ish muvaffaqiyat beradi ko'p jihatdan sug'urta kompaniyasi boshida hamfikrlar jamoasini yaratish. o'zgardi va sug'urta mahsulotlari, sug'urtalovchilar faoliyati yaxshilandi, lekin malakali mutaxassislar guruhi beqaror iqtisodiy muhitda har qanday mashqlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi mumkin.

Malakali mutaxassislar to'g'ri tanlash uchun sug'urta kompaniyasining boshlang'ich tashkiloti bosqichida amalga oshirish uchun zarur:

- mehnat operatsiyalari tahlili;
- ish ta'rifini tayyorlash;
- saralash talablariga tayyorlash.

Agar tahlil savollarga javob berish kerak bo'lsa:

- bir mutaxassis ish ma'nosi nima;
- Nima gol ishni qilganlar bilan erishish kerak.

Mavjud va aslida u yaratilgan qaysi mansabdor tomonidan ishlatiladigan bir ish tavsifi rasmiylashtiriladi tahlil qilish asosida.

Sug'urta kompaniyasi rahbarlari uchun talablar yuqori darajasi juda diqqat boshqaruv xodimlarining tanlash uchun yondashuvni qiladi. rahbarlari xato tanlash uchun Varsayimlar yomon sug'urtalovchilar natijalarini ta'sir qilishi mumkin.

Yangi tayinlangan bosh murabbiyi terma jamoasi va imkon qadar mutaxassislar eng kam almashtirish e'tibor kerak. yo'l qo'ymaslik lozim lavozimlarga mutaxassislar tayinlash qachon IO pristavkalari (Vazifasini bajaruvchi), yoki harakat ortiq ikki oy bo'lmasligi kerak. to'liq tayinlangan ekspert salohiyatini ochib bermaydi vazifalarini bajarilishi, vaqtinchalik ishchi sifatida uning tashabbusini qaytarur.

Eng samarali joylashtirish qachon kam darajadagi kamida 2-3 yil davomida bir joyda ishlaydigan murabbiyi va yuqori darajali rahbarlari - 5-6 yil.

Manager bo'lmasa, o'zgaradi:

- Bu ish qilmaydi;
- yaxshi ish o'zini ko'rsatdi va yana bir mas'uliyatli o'rmini targ'ib.

⁹⁷ David F.Babbel Anthony M. Santometro. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005,p6

Har qanday mutaxassis, ayniqsa menejeri, faoliyati, uning faoliyatini ta'minlash uchun vositalar bog'liq.

Vazifalari-vazifa va majburiyatlari. Asboblar-o'ng va quvvat. Ularni balansi - muvaffaqiyat kaliti).

(chap tomoni talablar quyida o'ng imkoniyatlar bilan ta'minlanishi lozim. Ish bayoni aniq vazifalari, mablag'larni, majburiyatlarini, huquqlarini, majburiyatlarini va hokimiyatni bayon etilgan.

Nazorat samaradorligi sug'urta kompaniyasi bog'liq:

➤ sug'urta kompaniyasining xodimlari o'rtasida huquq va majburiyatlarni taqsimlash;

muvofiqligi nazorat qilish.

➤ huquq va majburiyatlarini taqsimlash yuqoridan pastgacha vertikal amalga oshirilishi kerak. darajadagi soni vazifalarni tez va sifatli qaror ta'minlash optimal bo'lishi kerak.

➤ 5-6 joyida qo'lida ishlaganlar-an'anaviy boshqaruv tushunchalar nazorat past darajasi himoya.

Samarali menejeri aniqlash va eng yaxshi sug'urta kompaniya siyosatini, uning umumiy maqsadlari, an'anaviy uslubi va qadriyatlarini, ko'lami, tuzilishi va ishlash usullari bilan uchrashdi boshqaruv turini tushunish mumkin sug'urta kompaniyasi hisoblanadi.

Zamonaviy rahbarlari lozim:

•ya'ni, bir strategik fikrlash bor harakatlar bir kurs rivojlantirish va "zaif signallari" kelajak asosida oldindan kelajak yo'naltirilgan muqobil va qo'shimcha rivojlantirish, hamkasblari tushunish uchun ularni olib kelish uchun strategik tuyulgan bo'lishi;

✓ xulq tadbirkorlik uslubi sotib: mijoz bazasi va bozor, xatarlarni qabul qilish tayyor, xizmatlar sifati bo'yicha keng qamrovli markazida markazida;

✓ qo'zg'atish va rivojlantirish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash mumkin; o'zgarishlar va taxminan uzatish javob turli o'zgarishlarga tayyor, ishontira va muhokama hidoyat qilish qobiliyati; kommunikativ boshqarish uslubi bo'lishi;

✓ sug'urta kompaniyasi va uning filiallari madaniyatini rivojlantirish. Degan ma'noni anglatadi: qadriyatleri va harakatlari qonuniyligi, mojarolar va nizolarni hal qabul qilinishi, qadriyatlar nazorat yo'naltirilgan tizimi;

✓ sug'urta kompaniyasi va jamiyat siyosatiga yo'naltirilgan bir kayfiyatini bor: hisobga ijtimoiy-siyosiy jihatlarini olib, sug'urta kompaniyasi va tashqi atrof-muhit va ularni ishlatish qobiliyati o'rtasidagi munosabatlarni tushunish va boshqaruv qarorlari ham o'zgaruvchilar kabi tashqi atrof-muhit haqida boshqa ma'lumotlar, bir ijtimoiy kuchlar bilan muloqotni idrok muhim vazifalardan biri.

Samarali rahbari bo'lishi kerak:

➤ har qanday muammolar muhokamasida har qanday xodim uchun mavjud, har doim do'stona ohangda amal;

➤ shaxsan xodimlarining eng bilan tanishish va xodimlarni boshqarish jarayonida chuqur ishtirok etadi;

➤ dushman stol boshqarish uslubi, oddiy ishchilar orasida paydo bo'ladi va quloq va eshitish imkoniyatiga ega bo'lish uchun, joyida muammolarni muhokama qilish uchun afzal;

➤ sug'urta kompaniyasida hamfikrlar jamoasini shakllantirish, siz odamlarni yaqinlashish kerak, nafaqat keng ijtimoiy doiralarda shaxsiy sadoqat yoki shaxsiy shuhrat nomzodning mezonlar bo'yicha;

➤ kollektiv mustahkamlash eng oqilona tamoyillari: kollektiv mustahkamlash;

➤ tayyor rahbari o'z xatti-harakatlari va ularning oqibatlarini, shuningdek, ularning qo'lida ishlaganlar harakatlari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga;

➤ rasmiy va norasmiy rahbarlaridan tayyorligi jamoasi maqsadlarga erishish uchun umumiy maqsadlarni amalga oshirish uchun o'z manfaatlarini qaram;

➤ Faqat professional asosda sug'urta kompaniyasining ishga qabul qilish. Faqat professionalar muvaffaqiyatli sug'urta bozorining jadal muhitda sug'urta kompaniyasi boshqarishingiz mumkin⁹⁸.

Sug'urta kompaniyalari uchun raqobatchilar, kuchli va oqiz tomonlari, yangi sug'urta mahsulotlari va sug'urtachilarni rag'batlantirish usullari, moliyaviy barqarorlik haqida ma'lumot talab qiladi.

Sug'urta boshqarish, bir tomondan, cheklash va qat'iy tashkiloti, uning rejalari, resurslar, hamkorlar, iste'molchilar, tayyor sug'urta mahsulotlari, usullari va iste'molchilarga sug'urta mahsulotlarini faol targ'ib texnik, tarif haqida ma'lumot ichki va tashqi oqimlari ham kirish nazorat intiladi siyosati va boshqa omillar sug'urta kompaniyasining samaradorligini ta'minlash. Boshqa tomondan, sug'urta boshqarish raqobatchilar, sug'urta bozorining xususiyatlari haqida mavjud bo'lgan barcha ma'lumotlarni ega bo'lishi kuzatiladi.

6. Sug'urta xavfsizligini boshqarish:

➤ sug'urta tashkilotining tijorat siri bilan bog'liq ko'rsatkichlarini qayta ishlash;

➤ xodimlarga iqtisodiy va texnik o'quvlar o'tkazish va ularni sinovdan o'tkazish;

ma'lumotlarni muhofaza qilish va ulardan noqonuniy foydalanishdan himoya qilishda kompaniya xodimlari va ofis xavfsizlik tizimi mas'uliyatini oshirish

14.3 Sug'urta tizimida korporativ boshqaruvning tashkil etilishi

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, tadqiqotchilar aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarishning ingliz-amerika, nemis va yapon modellarini ajratadilar. Ularning har biri ham zaifli, ham kuchli tomonlarga,

⁹⁸ David F. Babbel Anthony M. Santometro Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process 2005, p12

o'ziga xos agentlik chiqimlariga ega. Ingliz-amerika modelida asosiy e'tibor aksiyadorlarga berilsa, nemis va yapon tizimlarida aksiyadorlar va boshqa tashqi manfaatdor shaxslar (kreditorlar, xodimlar, ishbilarmonlar hamjamiyati, ekologik tashkilotlar va hokazo) manfaatlarining o'zaro mutanosibligini ta'minlash alohida ahamiyatga ega.

Odatda, bitta yurisdiksiya doirasida korporativ boshqaruvning qandaydir yagona model ustuvorligi ta'minlanadi. Biroq korporativ boshqaruvning bir-biriga butunlay zid bo'lgan ikkita tizimining bitta yurisdiksiya doirasida bo'lishi korporativ boshqaruv tizimining qonun tomonidan tartibga solinishi samaradorligini pasaytirib yuborishi mumkin.

Korporativ boshqaruv samaradorligi bo'yicha asosiy ilmiy tadqiqotlar AQSh va G'arbiy Evropaning korporatsiyalari mexanizmlari va tavsiflarini o'rganishga qaratilgan. Shuning uchun amerikalik mutaxassislar shunday xulosa qiladilarki, samarali korporativ boshqaruv o'z ichiga nafaqat, foydani barcha aksiyadorlar o'rtasida adolatli va mutanosib taqsimlashni, balki menejerlarning aksiyadorlar uchun sof foydani ko'paytirishga qaratilgan qarorlar qabul qilishlarini kafolatlovchi mexanizmlarni shakllantirishni ham oladi.

Korporativ boshqaruvning ingliz-amerika modeli Buyuk britaniya, AQSh, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Kanada va boshqa ayrim mamlakatlar korporatsiyalarida qo'llaniladi hamda ishtirokchilarning ko'pchilik soni bilan ajralib turadi. Bular tarkibiga boshqaruvchilar, direktorlar, aksiyadorlar (asosan institutsional investorlar), hukumat tuzilmalari, birjalar, o'z-o'zini boshqaruvchi tashkilotlar va konsalting firmalari kiradi. Ushbu modelga yakka tartibdagi va korporatsiyadan mustaqil bo'lgan aksiyadorlarning bo'lishi, shuningdek uchta asosiy ishtirokchilar, ya'ni boshqaruvchilar, direktorlar hamda aksiyadorlarning huquq va majburiyatlarini belgilovchi aniq ishlab chiqilgan qonunchilik bazasi kiradi. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishlarida va oraliq davrlarda korporatsiya hamda aksiyadorlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmini ham ta'kidlab o'tish joiz. Sug'urta kompaniyalarining mazkur modeldagi roli va ishtiroki katta emas, chunki unda boshqaruvning yagona kollegial organi – Direktorlar kengashi ko'zda tutilgan bo'lib, unga aksiyadorlar va ijro organi rahbari kiradi. AQSh qonunchiligiga ko'ra, bosh direktor va kompaniya Direktorlar kengashi raisi lavozimlarini qo'shib olib borishga yo'l qo'yiladi. Bunday holat kompaniyalarning 80 foizida kuzatiladi.

Mazkur model bo'yicha mulkdorlarning asosiy maqsadi korporatsiya aksiyalari kurs qiymatining o'sishi hisobiga daromad olish hisoblanadi. Shuning uchun ingliz-amerika modelida asosiy rolni fond birjalari o'ynaydi. Ular listing bo'yicha talablarni, axborot ochib berish darajasini va boshqa talablarni belgilaydi.

Korporativ boshqaruvning nemis modeli yoki kontinental model G'arbiy Evropa (Germaniya, Avstriya, Shveysariya, Niderlandiya) va Shimoliy Evropa mamlakatlariga xos hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarishning mazkur modeli uch bug'inli bo'lib, o'z tarkibiga aksiyadorlar umumiy

yig'ilishini, Kuzatuv kengashi va boshqaruvni oladi. Bu model Frantsiyadagi ayrim kompaniyalarda va Belgiyada amal qiladi. Markaziy va Sharqiy Evropaning aksariyat mamlakatlarida korporativ boshqaruv tizimini barpo etishda ham shu modeldan foydalanilgan.

Korporativ boshqaruvning nemischa modeli qo'llaniladigan mamlakatlarda ma'lum darajadagi konsentratsiya kuzatiladi. Yirik nemis kompaniyalarida beshta yirik kompaniyalar hissasiga ularning har biri aksiyalarining 40 foizdan ortiqrog'i to'g'ri keladi. Bu esa ingliz firmalari mol-mulki konsentratsiyasi darajasidan 2 baravar va Shimoliy Amerika kompaniyalari mol-mulki konsentratsiyasi darajasidan 60 foizga yuqoridir. Germaniyada aksiyadorlik kompaniyalarining 71 foizidan ko'prog'ida mulkdor aksiyalarning 50 foizini nazorat qiladi, 35 foiz aksiyadorlik kompaniyalarida esa aksiyalarning to'liq 100 foizi bitta mulkdorga tegishli.

Germaniyada yakka tartibdagi investorlar – jismoniy shaxslar hissasiga 17 foiz aksiyalar to'g'ri keladi, korporativ investorlar esa nemis kompaniyalari aksiyalarining 64 foizini nazorat qiladi (22 foizi moliyaviy institutlar, jumladan banklar, sug'urta kompaniyalari, pensiya fondlari va boshqalar; 42 foizi nomoliyaviy kompaniyalar). Bundan tashqari, Germaniya korporatsiyalari kapitali tuzilmasida xorijiy investorlarning (14 foiz) va davlatning (5 foiz) hissasi katta. Bu ko'rsatkich Buyuk britaniyaning tegishli ko'rsatkichidan 2 baravar yuqori.

Germaniyada AQShdan farqli o'laroq birorta korporatsiya aksiyadorlik kapitalining katta qismi boshqa korporatsiyalarga tegishli bo'ladi, ya'ni aksiyalarga qarama-qarshi egalik qilish tizimi mavjud. Nemis sug'urta kompaniyalari uchun sotib olinayotgan aksiyalar paketi miqdori va aksiyalarga qarama-qarshi egalik qilish imkoniyatlari bo'yicha cheklovlar yo'q. Bu esa ularga korporativ aksiyalarning yirik paketini to'plash imkoniyatini beradi.

Yakka tartibdagi investorlar qo'lida so'rovchiga sertifikat shaklidagi aksiyalarning 20 foizidan kamrog'i to'plangan. Germaniyaning aksiyadorlik kapitali yuqori darajadagi konsentratsiyaga ega. Bu korporatsiya faoliyatini nazorat qilishdan va fond bozori xizmatlaridan kamroq foydalanishdan manfaatdorlikning yuqori darajasidan dalolat beradi.

Germaniyada direktorlar kengashiga raislik qilish huquqi, ko'pincha, banklar va sug'urta kompaniyalariga beriladi. Eng katta aksiyalar paketlari egalarining manfaatlarini tijorat banklari va sug'urta kompaniyalari himoya qiladi. Sug'urta kompaniyalari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishda ishonchnoma asosida aksiyadorlar nomidan ishtirok etadi. Bunda sug'urta kompaniyalari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritiladigan masalalar, shuningdek, u yoki bu masalalar bo'yicha ovoz berish tartibi haqida oldindan xabar beradilar.

Shunday qilib, Germaniyada korporatsiyalar ustidan bank va sug'urta kompaniyalari nazorati o'rnatilgan. Korporativ boshqaruvning nemis modeliga xos xususiyatlardan yana biri korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining AQSh

va Buyuk britaniyaga nisbatan yaxshi rivojlanmaganligi bilan izohlanadi. Bu birinchidan, yaqin yillargacha amalda bo'lgan bankdan tashqari moliyalashtirishga nisbatan cheklovlar bilan, ikkinchidan bitta qarzdorga ssuda berish bo'yicha banklarga katta limitlar berilganligi bilan belgilanadi.


AQShda banklar bitta qarzdorga o'z kapitalining 15 foizidan ortadigan miqdorda ssuda berolmaydi. Germaniyada esa bu limit 50 foizni tashkil etadi. Bu tizim mayda aktsiyadorlarga nisbatan qaysidir ma'noda ziddiyatlidir: bir tomondan, aktsiyadorlar takliflar kiritishi mumkin bo'lsa, ikkinchi tomondan, korporatsiyalar ovoz berish huquqiga cheklovlar o'rnatishlari mumkin. Nemischa moliyaviy hisobot tizimining asosiy farq qiluvchi tomoni shundaki, nemis korporatsiyalariga taqsimlanmagan foydaning katta qismini o'z ixtiyorida qoldirish huquqi berilgan. Korporativ boshqaruvning nemis modeli ijtimoiy o'zaro ta'sir tamoyilining amal qilishi bilan farqlanadi. Ushbu tamoyil korporativ munosabatlar barcha ishtirokchilarining manfaatlarini o'zaro moslashtirishga qaratilgan. Shuningdek, ushbu model barcha taraflarni uzoq muddatli maqsadlarga bo'ysundiradi, korporatsiya barqarorligini va korporatsiyalar o'rtasidagi aloqalarning barqarorligini ta'minlaydi. Germaniya modelining asosiy kamchiligi shundaki, nemis kompaniyalari etarlicha moslashuvchan emas, tavakkalchilikdan qochadi, rivojlanish uchun muhim bo'lgan ayrim qarorlarni tezkorlik bilan qabul qila olmaydi.

So'ngi yillarda raqobat nemis korporatsiyalarini xalqaro moliya bozorlariga ko'proq murojaat qilishga majbur etayapti. Bu esa, o'z navbatida, korporativ boshqaruvning nemis modelini o'zgarishiga sabab bo'layapti. Xususan, bu holat milliy xususiyatlardan chekinishga, ya'ni moliyaviy qonunchilik standartlarini xalqaro investorlar talablariga moslashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Korporativ boshqaruvning yapon modeli ikkinchi jahon urushi davrida amerikalik mutaxassislar tazyiqi ostida shakllangan. Ingliz-amerika modelida u yagona kollegial boshqaruv organi – Direktorlar kengashini tuzishni nazarda tutgan bo'lib, uning tarkibiga to'liq ijrochi direktorlar kiradi. Yapon modelining boshqa bir xususiyati, nemis modelida bo'lgani kabi, o'zaro ish faoliyatlari bilan bog'langan kompaniyalar aktsiyalariga qarama-qarshi egalik qilish tamoyiliga asoslangan. Aktsiyalarga qarama-qarshi egalik qilish "Keyretsu" tadbirkorlik guruhlariga bir-birining faoliyatini nazorat qilish imkoniyatini beradi va o'zaro bog'langan kompaniyalar o'rtasida yaqin hamkorlikni ta'minlaydi.

Shunday qilib, korporativ boshqaruvning xalqaro modellari bir-birini inkor etmaydi. Boshqaruv organlari va ular faoliyatini tashkil etishning turli modellariga baho berilganda, har bir model kuchli va zaif tomonlariga ega ekanligi ma'lum bo'ladi. Sug'urta kompaniyalari korporativ boshqaruv modelini qabul qilishda ko'proq nemis-yapon standartlariga afzallik berishlari mumkin.

Korporativ boshqaruv boshqarish ob'ekti sifatida o'z xususiyatlariga ega hisoblanib, boshqaruv aktsiyadorlarning foydasini ko'zlagan holda amalga oshiriladi va korporatsiyalarning rivojlanishini ta'minlash, aktsiyadorlarning

huquqlarini hisobga olish, korporatsiya strategiyasiga asoslangan holda aksiyadorlarning o'zaro munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan buladi.



6-rasm. Boshqaruv sikli⁹⁹

Bunday boshqaruv natijasida korporativ madaniyat vujudga keladi va tartib qoidalarning tamoyillari, urf-odatlar va ularni olib borish tartiblar kompleksi shakllanadi.

Korporativ boshqaruvning vazifalariga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiqdir:

- aksiyadorlar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish;
- aksiyadorlik jamiyatlari investitsion jozibardorligini oshirish;
- aksiyalar narxining o'sishi orqali uzoq muddatli iqtisodiy qiymatning jamg'arilishi;
- jamiyatning rivojlanish strategiyasini aniqlash va uning amalga oshirilishini nazorat qilish;
- aksiyadorlik jamiyatlari biznes-rejalarini tasdiqlash va ular bajarilishini nazorat qilish va faoliyatning boshqa muhim masalalarini hal qilish.

Nazorat savollari:

1. Sug'urta xafsizligini boshqarishning uslubiy asoslarini aytib bering.
2. Sug'urta kompaniyasini boshqaruv tamoyillarini aytib bering.
3. Sug'urta tizimida korporativ boshqaruvning tashkil etish asoslarini aytib bering.

⁹⁹Muallif tomonidan tuzilgan.

GOLASSARIY

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	O'zbek tilida atamning sharhi
Abandon	абандон	abandon	-to'liq miqdordagi sug'urta summasini olish uchun sug'urtalanuvchining sug'urtalangan mol-mulkdan sug'urtulovchining foydasiga voz. kechishi (sug'urtalangan kema nobud bo'lganda, u nabarsiz vo'qolganda, kema yoki yuk qaroqchilar tomonidan bosib olinganda). Abandon to'g'risidagi ariza voqea-xodisa ro'y bergandan keyin olti oy mobaynida berilishi kerak. Ayrim chet mamlakatlar qonunchiligida abandon sug'urtalanuvchining bir tomonlama akti hisoblanadi. Faqat. Angliya qonunchiligida abandon uchun sug'urtalovchining roziligi talab etiladi.
agentlik bitimi	агентский договор	agent agreement	-sug'urtalovchi bilan tuzilgan topshirk shartnomasi
Sug'urtalovchilar uyushmasi	ассоциация страховщиков	association of insurers	-sug'urta faoliyatini muvofiqlashtirish, uyushma a'zolarining manfaatini davlatning qonun chiqaruvchi va ijroiya organlari oldida himoya etish hamda mahalliy sug'urta kompaniyalari va xorijiy sug'urta kompaniyalari o'rtasida o'zaro foydali aloqalarni o'rnatish maqsadida tashkil etiladigan sug'urta kompaniyalarining uyushmasi. Bunga o'zaro sug'urtalash jamiyatlarini xalqaro uyushmasini, texnik risklarni sug'urtalovchi kompaniyalar ittifoqini, Buyuk Britaniya sug'urtalovchilar uyushmasini misol keltirish mumkin. Hozirgi paytda O'zbekistonda sug'urtalovchilar uyushmasi tashkil etilmagan. Faqat. avtosug'urtalovchilar ittifoqi faoliyat ko'rsatmoqda.
addendum	аддендум	addendum	-ilgan tuzilgan sug'urta va kayta sug'urtalash shartnomasiga tomonlarning o'zaro kelishuvi bilan qo'shimchalar kiritish.
adjaster	аджастер	adjaster	-sug'urta xodisasi ro'y berishi munosabati bilan sug'urtalanuvchi tomonidan bildirilgan e'tirozni tartibga solishda sug'urta kompaniyasining manfaatlarini himoya etuvchi jismoniy yoki xuquqiy shaxs. U sug'urtalanuvchi bilan unga to'lanadigan sug'urta qoplamasi miqdorini kelishishga harakat qiladi. Adjaster sug'urta xodisasini ro'y berish sabablarini o'rganadi va tahlil etadi. Ushbu tahlil natijalari bo'yicha sug'urta kompaniyasiga ekspert xulosasini tuzadi hamda avariya komissari funksiyasini bajaradi. Adjaster vazifasini sug'urta kompaniyasining tarkibiy bo'limi yoki ixtisoslashgan tashkilot amalga oshirishi mumkin.
aktuariy	актуарий	actuarial	-lotin tilidan tarjima qilganda hisobchi degan ma'noni bildiradi. Aktuar hisob-kitoblarni nazariyasini o'zlashtirib olgan sug'urta matematikasi sohasidagi mutaxassis. U sug'urta tariflarini hisoblash va metodologiyasini ishlab chiqish, uzoq muddatli sug'urta turlari bo'yicha sug'urta zahiralarni shakllantirish bilan bog'liq hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Hozirgi paytda Angliyada aktuarivlar instituti faoliyat ko'rsatmoqda. Aktuarivlarning xalqaro uyushmasi mavjud.
aktuar hisob-kitoblar	актуарные расчеты	actuarial calculations	-sug'urta tarifi stavkalarini hisoblashning iqtisodiy-matematik usullari yig'indisi. Ushbu hisob-kitoblar katta sonlar qonuniga asoslanadi. Aktuar hisob-kitoblarning

			metodologiyasi, ehtimollar nazariyasi, demografiya qonuniyatlariga asoslanadi, tarif stavkasini miqdori sug'urta hodisalari ro'y berishining ehtimoliyligiga bog'liq. Demografiya ma'lumotlaridan fuqarolarning hayotini sug'urtalashda sug'urtalanuvchilarning yoshiga mos ravishda sug'urta tarifi stavkasini tsbaqalashirishda foydalaniladi. Uzoq muddatli hayotni sug'urtasi bo'yicha sug'urta summalari sug'urtalangan shaxs vafot etganda yoki u ma'lum bir yoshga etganda to'lanadi. Etlari miqdordagi sug'urta fondini shakllantirish uchun, sug'urtalovchi shartnoma amalda bo'lgan davrda quncha shaxs vafot etishi yoki ma'lum bir yoshga etishi ehtimoliyligini bilishi zarur. Aholi o'limi darajasi xaqidagi statistik ma'lumot asosida turli yoshga etishi ehtimolligini hisoblash hamda fuqarolarning o'limi to'g'risidagi jadvalni tuzish mumkin.
annuitet	аннуитет	annuity	-renta va nafeqalarni sug'urtalashning hamma turlarini umumlashtiruvchi tushuncha. Bunda sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga bir vaqtning o'zida yoki bir necha yillar davomida tegishli sug'urta mukofotlarini to'laydi. Keyin sug'urtalanuvchi butun hayoti davomida sug'urta kompaniyasidan daromad oladi. Annuitetning bir turi hisoblanadigan fuqarolarning yillik daromadini sug'urtasi bugungi kunda Buyuk britaniyada, Fransiyada va AQSHda keng rivojlangan
avariya sertifikat	аварийный сертификат	emergency certificate	-mol-mulk sug'urta xodisasi tufayli zararlanganda, ko'rilgan zararining miqdori va xarakterini tasdiqlovchi hujjat. Avariya sertifikati avariya komissari (adjaster) tomonidan tuziladi va tegishli komissiya xaqi hisobiga sug'urtalanuvchiga taqdim etiladi. Avariya sertifikati sug'urtalanuvchining sug'urta qoplamasini o'lish to'g'risidagi arizasiga ilova etiladi va qoplamanı to'lashda sug'urta kompaniyasiga asos bo'lib xizmat qiladi
anderrayter	андеррайтер	underwriter	-turli risklarni sug'urtalash vakolatiga ega, sug'urta kompaniyasi tomonidan tayinlanadigan shaxs. Sug'urta kompaniyasining sug'urta portfelini shakllanishi uchun javob beradi. U sug'urta shartnomalarini tuzish, risklarni baholash va sug'urta tarifi stavkasini belgilash yuzasidan tegishli malakaga ega bo'lishi zarur; 2) Lloyd sug'urta polislarini beradigan Lloyd sug'urta korporatsiyasini a'zosi; 3) potensial mijozlarga sug'urta polisini sotish bilan shug'ullanadigan yoki manfaatdor tomonlarga sug'urta sohasi bo'yicha yuqori darajada maslahat xizmatlarini ko'rsatadigan jismoniy yoki yuridik shaxs
asistans	ассистанс	assistance	-sug'urta qildiruvchilarga (sug'urtalangan shaxslarga, naf oluvchilarga) hamda sug'urtalovchilarga sug'urta shartnomasi doirasida assistans xizmatlari, texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi, shuningdek ularga moliyaviy ko'mak beruvchi yuridik voki jismoniy shaxs
audit	аудит	audit	-sug'urta kompaniyasining moliyaviy hisoboti to'g'riligini yozma ravishda tasdiqlash va tekshirish. Audit ishini maxsus malakaga ega bo'lgan auditorlar amalga oshiradi. Auditorlik firmasi bilan sug'urta kompaniyasi o'rtasida shartnoma tuziladi O'zbekiston Respublikasida audit ishini Moliya vazirligining litsenziyasiga ega bo'lgan shaxslar amalga oshirishi mumkin. Sug'urta kompaniyasining balansi auditorlar tomonidan tekshirilgandan so'ng matbuotda e'lon qilinadi.

sug'urta miqdori	страховая сумма	amount of insurance	-sug'urta manfaati va sug'urta riskiga mos keluvchi pul mablag'i. Xalqaro amaliyotda sug'urta summasi sug'urta qoplamasi deyiladi. Sug'urta summasiga nisbatan sug'urta mukofoti aniqlanadi va sug'urta qoplamasi to'lanadi. Sug'urta summasi iborasi, ko'proq, shaxsiy sug'urtada - fuqarolarning hayoti, sog'lig'ini sug'urtalashda ishlatiladi.
sug'urta mukofotini aniqlash	определить страховую премию	amount of the insurance warning	-sug'urta summasi va sug'urta qoplamasi to'lovi o'rtasidagi nisbatni xarakterlovchi iqtisodiy ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich zarar miqdori ehtimolligini ko'rsatadi va undan riskni o'zgarishi ustidan nazorat o'rnatishda foydalaniladi. Sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi quyidagi omillar ta'siri ostida shakllanadi. sug'urtalangan ob'ektlar soni va ularning sug'urta summasi, sug'urta hodisalarining soni, zarar ko'rgan ob'ektlar soni va sug'urta qoplamasi. Sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi netto-stavka tuzilishiga qarab har bir sug'urta turi yoki javobgarlik turi bo'yicha aniqlanadi. Agar zararlilik ko'rsatkichi netto-stavkaga yaqinlashsa yoki undan oshib ketsa, bu holda sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi.
risklar to'plami	сбор рисков	collection	-bir qancha yirik sug'urta summasi ob'ektlarning bitta sug'urta hodisasi tufayli zarar ko'rishi ehtimoligini nazarda tutuvchi sug'urta risklarini yig'indisi.
sug'urta bahosi	стоимость страхования	cost of insurance	-sug'urtalash maqsadida aniqlanadigan mol-mulkning qiymati. Amaliyotda mol-mulklar haqiqiy qiymati, bozor qiymati va boshqa qiymatlar vositasida baholanadi. Zarur hollarda sug'urta bahosini to'g'ri hisoblash uchun malakali ekspertlar jalb etiladi. Sug'urta bahosi to'g'risidagi haqiqiy ma'lumot ta'rii stavkasi va sug'urta mukofoti miqdorini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Amaldagi qonunchilikka binoan, sug'urta summasi mol-mulkning sug'urta bahosidan oshib ketmasligi zarur.
risklarni tanlash	выбрать риски	choose the risks	-sug'urta shartnomasini tuzish bo'yicha mijozlardan kelib tushgan takliflarni tahlil etishga qaratilgan sug'urta kompaniyasining faoliyati. Sug'urta kompaniyasining muvaznatlashgan sug'urta portfelini shakllanishida risklarni tanlash iborasini amaliy jihatdan ishlatish muhimdir. Sug'urta amaliyotida risklarni tanlash ishni syurveysyerlar amalga oshiradi. Risklarni tanlash - bu risk menejment sohasida olib boriladigan chora - tadbirlarning bir qismidir.
franshiza	франшиза	deductible	-sug'urta shartnomasi shartlarida ko'zda tutiladigan sug'urtalovchining zararni qoplashdan ozod etiladigan qismi. Franshiza sug'urta summasiga nisbatan fozlarda belgilanadigan shartli va shartsiz franshizalarga bo'linadi. Shartli franshizada sug'urtalovchi belgilangan franshiza summasidan oshmaydigan zararni qoplash javobgarligidan ozod etiladi. Bu holda, agar ko'rilgan zarar miqdori franshiza summasi miqdoridan oshib ketsa, sug'urta kompaniyasi zararni to'liq qoplaydi. Shartsiz franshizada ko'rilgan zarar franshiza summasidan chegirilib qoplanadi.
denonsatsiya	денонсация	denunciation	-shartnomadan voz kechishi. Agar sug'urta munosabatlarida tomonlardan biri yozma ravishda shartnomadan voz kechishi to'g'risida ikkinchi tomonga ma'lum qilmasa, shartnoma unda ko'rsatilgan.

			muddatgacha kuchda bu'ldi
evropolis	европолис	evropolis	-evropa iqtisodiy hamjamiyati mamlakatlarida sug'urta shartnomasi tuzganlik faktini tasdiqlovchi sug'urta polisi
ekstradent risk	экстрадент риск	ekstseden't risk	-mazkur toifadagi risk bo'yicha zararni qayta sug'urtalash to'g'risidagi kelishuv
fakultativ qayta sug'urta	факультативное перестрахование	facultative reinsurance	-proporsional qayta sug'urtalash shartnomasining turi. Fakultativ qayta sug'urtalashda har bir berilayotgan risk bo'yicha alohida shartnoma tuziladi. Seden't har bir risk bo'yicha qayta sug'urtalash zarur yoki zarur emaslik masalasini mustaqil ko'rib chiqadi. O'z navbatida, qayta sug'urtalovchi ham seden'tning taklifini qabul qilishi voki qabul qilmasligi ham mumkin
fronting	фронтинг	fronting	-qabul qilib olingan riskni tegishli komissiya haqi evaziga to'raligicha boshqa sug'urta yoki qayta qayta sug'urtalovchi kompaniyalariga berish
fronting kompaniya	фронтированная компания	fronting company	-boshqa sug'urta kompaniyasining iltimosiga ko'ra, o'z nomidan sug'urta polisi beruvchi sug'urta kompaniyasi. Frontlashtiruvchi sug'urta kompaniyasi qabul qilib olingan riskni yuz foiz miqdorida iltimos qilgan sug'urta kompaniyasi hisobiga o'tkazadi va buning uchun undan komission haq oladi. Hozirgi paytda, O'zbekistonda bir nechta frontlashtiruvchi kompaniyalar faoliyat ko'rsatmoqda. Masalan, "Anglo-Tashkent", "UZAIG" sug'urta kompaniyalari
bosh polis	генеральный полис	general policy	-sug'urta kompaniyasi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi yozma bitim. Bu bitimga muvofiq, tegishli davr mobaynida sug'urtalanuvchi barcha ob'ektlarni sug'urta kompaniyasiga sug'urtalash uchun beradi. CHet el tajribasida bu bitim «ochiq polis» yoki «polis-abonament» deyiladi. Mazkur bosh polis asosida sug'urtalash tashqi savdo yuklari sug'urtasida keng tarqalgan. Sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga har bir jo'natilgan yuk haqidagi ma'lumotlar (yukning vazni, sug'urta summasi, yukni junatish va qabul qilib olish punktlari) bayon etilgan arizani taqdim etsa etarli, yuk avtomatik ravishda sug'urtalangan hisoblanadi
umumiy sug'urta tarrufo'i	общий страховой сектор	general insurance sector	-shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari
yalpi sug'urta qiymati	Валовая страховая стоимость	gross prize	-sug'urta shartnomalarini tuzish, ish yuritish xarajotlarini hisobga olgan xoldagi sug'urta mukofotlari summasi
umumiy koeffitsient	Общий коэффициент	gross rate	-sug'urta qoplamasini (sug'urta summasini) to'lashga mo'ljallangan netto-stavka va ish yuritish xarajotlarini qoplashga mo'ljallangan netto-stavkaga yuklama summalarini o'z ichiga olgan sug'urta mukofotlarining tarif stavkasini bildiradi. Ko'pgina adabiyotlarda ushbu ibora sug'urta tarifi ma'nosida ham ishlatiladi
yashil karta	зеленая карта	green card	-avtotransport vositalari egalariining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risidagi xalqaro shartnomalar tizimi. Mazkur sug'urta turi bo'yicha shartnoma tuzilganlik faktini tasdiqlovchi polis. 1949 yilda Evropaning 13ta davlati o'rtasida yashil karta to'g'risida shartnoma tuzilgan. Hozirgi paytda yashil kartaga a'zo mamlakatlar 30 dan ziyodni tashkil etadi. Yashil kartaga a'zo bo'lgan mamlakatlarda tegishli milliy byuroalar tashkil etilgan va u mazkur davlat hududida yashil karta bilan bog'liq ishlarni muvofiqlashtirib turadi. O'z navbatida milliy byuroalar yashil karta xalqaro byurosiga birlashgan. Qarorgohi

			Londonda joylashgan
sug'urta	страхование	insurance	-yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish Har xil noxush hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash hamda fuqorolarning hayotida tegishli sug'urta hodisalarini ro'y berganda ularga moddiy yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etiladigan va undan foydalanish bilan bog'liq (maqsadli pul fondlari) iqtisodiy munosabatlar yig'indisi. O'tkazish shartiga qarab, sug'urta majburiy va ixtiyoriy bo'ladi. Ob'ektlarga ko'ra, mulkiy, shaxsiy va javobgarlik sug'urtasiga bo'linadi. Sug'urtaning asosini risk tashkil etadi. Sug'urta - bu riskni taqsimlash usulidir.
depozitlarni sug'urta qilish	Страхование депозитов	Insurance of deposits	-banklar bankrot deb e'lon qilinganda yoki to'lov qobiliyati yo'qolganda, omonatchilarning bankdagi pul mablag'larini ularga qaytarilishini sug'urtalash. Bunda banklar sug'urtalanuvchilar hisoblanadi. Sug'urtani maxsus sug'urta tashkilotlari amalga oshiradi. Depozitlarni sug'urtalash chet mamlakatlarda keng tarqalgan. Masalan, AQSHda depozit sug'urtasini depozitlarni sug'urtalash federal korporatsiyasi amalga oshiradi. AQSHda har bir omonatchiga to'g'ri keladigan 100 ming AQSH dollari miqdoridagi depozitni banklar majburiy sug'urtalaydi.
sug'urta agenti	страховой агент	insurance agent	-sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.
sug'urta dalolatnomasi	страховой акт	insurance act	-sug'urta xodisasi ro'y berganda sug'urta kompaniyasi tomonidan tuziladigan xujjat. Dalolatnomada mol-mulkning zararlanish yoxud nobud bo'lish sabablari, ko'rilgan zarar miqdori va boshqa ko'rsatkichlar bo'ladi. Dalolatnomaga, zarur hollarda sug'urta hodisasi va mol-mulkning zararlanganligini tasdiqlovchi tegishli tashkilotlarning (yong'inga qarshi kurash, davlat avtomobil nazorati, qishloq xo'jaligi, veterinariya xizmati va boshqalar) yozma hulosasi ilova etiladi. Xalqaro sug'urta munosabatlarida sug'urta dalolatnomasini adjaster tuzadi va mohiyatan avariya sertifikatiga yaqinlashadi.
sug'urta maydoni	страховая площадь	insurance area	-sug'urtaga tortilishi zarur bo'lgan ob'ektlarning eng katta soni. Ayrim ekspertlar xulosasiga ko'ra, O'zbekistonda sug'urta maydoni hali to'la o'zlashtirilmagan. Faqat mol-mulkning 20-30 foizigina sug'urtaga tortilgan.
sug'urta faoliyati	страховая деятельность	insurance activity	-sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati.
sug'urta shartnomasi	договор страхования	insurance agreement	-ikki tomonlama yozma ravishdagi bitim bo'lib, bunda sug'urta kompaniyasi sug'urta hodisasi tufayli zarar ko'rilganda sug'urtalanuvchiga sug'urta qoplamasi yoki sug'urta stummasini to'lash majburiyatini, sug'urtalanuvchi esa belgilangan muddatlarda sug'urta mukofotini to'lash majburiyatini oladi. Sug'urta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlash uchun sug'urtalovchi sug'urtalanuvchiga sug'urta polisi beradi. Sug'urta shartnomasini tuzishdagi asosiy, oddiy va

			qo'shimcha shartlar sug'urta shartnomasining mazmunini tashkil etadi
sug'urta foydasi	страховая прибыль	insurance benefit	-sug'urtada moddiy manfaatdorlik chorasi. Sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida sug'urtalanuvchiga moddiy zarar keltiruvchi predmetlar - mol-mulk yoki sug'urtalanuvchining uchinchi shaxsga zarar keltirish xohlatlari. Masalan, sug'urtalanuvchining avtomobil transporti yo'l-transport hodisalari tufayli shikastlanganda, sug'urtalanuvchida ushbu mulkka nisbatan manfaatdorlik yuzaga keladi va sug'urta moddiy manfaatdorlik chorasi sifatida mavdonga chiqadi
sug'urta huquqi	страховое право	insurance law	-sug'urtalanuvchilar, sug'urtalanuvchilar va ular o'rtasidagi vesitachilarning hatti-harakati qoidalari yig'indisi. Sug'urta xuquqi qonun va qonun xujjatlarida o'z aksini topadi. Sug'urta huquqi moliyaviy huquqning bir qismi hisoblanadi
sug'urta qoplamasi	страховое покрытие	insurance coverage	-mulkiy sug'urtada va sug'urtalanuvchining uchinchi shaxs oldida fuqarolik javobgarligini sug'urtasida zararni qoplash uchun sug'urta fondidan to'lanadigan pul mablag'i. Sug'urta qoplamasi sug'urta summasiga teng yoki undan kam bo'lishi mumkin. Sug'urta hodisasi ro'y berganlik xolati va shakli bo'yicha adjaster yoki avariya komissarining xulosasi sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urta qoplamasi to'lanishida asos bo'lib xizmat qiladi
sug'urta mukofotlari	страховые премии	insurance premiums	-sug'urta mukofotining miqdori sug'urta summasiga nisbatan foizlarda aniqlanadi. Sug'urta mukofotining miqdori aniq summalarda ham ifodalanishi mumkin. Masalan, avtomobil egalarning uchinchi shaxsga zarar keltirish fuqarolik javobgarligini sug'urtasida sug'urta mukofoli aniq pul birligida ko'rsatiladi.
sug'urta kompaniyasi	страховая компания	insurance company	-sug'urta shartnomasini tuzish va unga xizmat qilishni amalga oshiruvchi, sug'urtalanuvchi bilan huquqiy munosabatda bo'luvchi yuridik shaxs. U o'z Nizomi asosida faoliyat yurituvchi mustaqil xo'jalik sub'ektidir. Tegishli iqtisodiy muhitda faoliyat yurituvchi sug'urta kompaniyalarining yig'indisi sug'urta tuzimini tashkil etadi. Sug'urta kompaniyalari bajaradigan sug'urta operatsiyalariga ko'ra, ular universal va ixtisoslashgan bo'ladi. Ustav kapitali miqdori hamda kelib tushgan sug'urta mukofotlari hajmiga muvofiq, sug'urta kompaniyalarini yirik, o'rta va kichik guruhlarga bo'lish mumkin
infrastruktura sub'ektlari	субъекты инфраструктуры	insurance entities	-sug'urta bozorining professional ishtirokchilari
sug'urta hodisasi	страховое событие	insurance event	-stixiyali, tabiiy yoki oldindan ko'rib bo'lmaydigan voqea-hodisalarning amalda yuz berishi. Sug'urta hodisasi yuzaga kelgan zarar sug'urta kompaniyasi tomonidan shartnomaga muvofiq qoplanadi. Mulkiy sug'urtada sug'urta hodisasi deyilganda, stixiyali hodisalar, yong'in, avariya, portlash, zilzila, doval va boshqalar tushuniladi. SHaxsiy sug'urtada esa sug'urta hodisasiga fuqarolarning ma'lum bir muddatgacha yashashi, ularning xayotida baxtsiz hodisalarning ro'y berishi yoki o'limi kiradi. Xalqaro amaliyotda sug'urta hodisasi ba'zan «fors-majore» deb yuritiladi
sug'urta eksperth	страховая экспертиза	insurance examination	-asoslangan xulosa berish maqsadida sug'urta risklarni, sug'urta ob'ektlarni va sug'urta xodisalarini asosiy xususiyatlarini maxsus bilimlar asosida o'rnatib chiqish
sug'urta polisi	страховой	insurance	-sug'urta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlovchi

	полис	policy	xujjat. Sug'urta polisida quyidagi rekvizitlar bo'lishi shart. sug'urta kompaniyasining yuridik manzili, sug'urtalanuvchining nomi, sug'urta ob'ekti, sug'urta mukofotining miqdori, shartnomaning amal qilish muddati Sug'urta qoplamasini to'lashda sug'urtalanuvchi sug'urta polisini sug'urta kompaniyasiga taqdim etishi zarur
sug'urta mukofoti zahiralari	резервы страховых премии	insurance premiums reserves	-hayotni va nafaqani uzoq muddatli sug'urtalash bo'yicha to'lovlarni oldindan to'lash uchun sug'urta kompaniyasida tashkil etiladigan fond. Bu fond sug'urta operatsiyalarini, mohiyaviy barqarorligini ta'minlashda hamda sug'urtalovchi zimmasidagi majburiyatlarni bajarishda muhim o'rin tutadi. Hayot sug'urtasi shartnomalari, odatda, bir necha yilga tuziladi. Sug'urta mukofotlari kelib tushish va sug'urta summasini to'lash vaqtlari o'zaro to'g'ri kelmaganligi uchun, sug'urta kompaniyasiga kelib tushgan sug'urta mukofoti ma'lum vaqt mobaynida uning ixtiyorida bo'sh xolda bo'ladi. Kelib tushgan sug'urta mukofotlarining bir qismi joriy to'lovlar uchun sarflanadi, qolgan qismi esa zahira fondini shakllantirish uchun yunaltililadi. Uzoq muddatli hayot sug'urtasi bo'yicha zahira fondining mablag'lari kredit resursi sifatida foydalanilishi mumkin
sug'urta zahiralari	страховые резервы	insurance reserves	-sug'urta summalarini to'lashni kafolatlash maqsadida sug'urta kompaniyalari tashkil etgan fondlar. Agar, ma'lum bir vaqtda sug'urta qoplamalarini to'lash uchun joriy sug'urta mukofotlari etmasa, sug'urta kompaniyasi zahira fondlaridan foydalanishi mumkin. Sug'urta zahiralari quyidagilar kiradi: hayotni sug'urtasi bo'yicha zahira fondlari, ro'y bergan, ammo arz qilmagan zararlarni qoplash zahiralari va boshqalar. Ushbu zahira fondlarining mablag'lari vaqtincha bo'sh bo'lgani uchun investitsiya maqsadlarida foydalanilishi mumkin. Buning natijasida sug'urta kompaniyasi qo'shimcha daromad oladi
sug'urta portfeli	страховой портфель	insurance portfolio	-sug'urta kompaniyasiga kelib tushgan sug'urta mukofotlarining yig'indisi. Sug'urtalangan ob'ektlar soni, sug'urta shartnomalarining miqdori ham sug'urta portfeli tushunchasini anglatadi. CIET mamlakatlar sug'urta amaliyotida ushbu ibora ishlab topilgan sug'urta mukofotining hajmi tushunchasiga to'g'ri keladi.
sug'urtalanuvchi	страхователь	insured	-qonun asosida yoki ikki tomonlama shartnoma asosida sug'urta kompaniyasi bilan fuqoralik-huquqiy munosabatlarga kiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs. Sug'urtalanuvchi uchinchi shaxs foydasiga sug'urta shartnomasini tuzishga vaqli. Sug'urtalanuvchi sug'urta mukofotini o'z vaqtida to'lashi shart. Sug'urta shartnomasini tuzish jarayonida sug'urtalanuvchi sug'urta ob'ektiga taalluqli bo'lgan barcha ma'lumotlarni sug'urta kompaniyasiga ma'lum qilishi shart.
sug'urta riski	страхование рисков	insurance risk	-taxmin qilingan voqea bo'lib, ana shu voqea yuz berishdan ehtiyot shart sug'urta qilish amalga oshiriladi
sug'urta tizimi	система страхования	insurance system	-1) turli xil sug'urta kompaniyalari va ularni sug'urta nazorati bilan aloqadorligini yig'indisi; 2) sug'urta huquqiy munosabatlarni tashkil etishning davlat - huquqiy shakli
sug'urta ta'rif siyosati	страховая тарифная политика	insurance tariff policy	-sug'urta riskini baxosi; sug'urta summasiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan brutto-stavka. Tarif stavkasi (brutto-stavka) ikki qismdan iborat: netto-stavka va

			netto-stavkaga yuklama. Netto-stavka sug'urta kompaniyasining sug'urta fondidan qiladigan xarajatlarini ifodalaydi. Netto-stavkaga yuklama sug'urta kompaniyasining ish yuritish xarajatlarini, komissiya haqini va boshqa xarajatlarini o'z ichiga oladi. S'Faxsiy sug'urta buyicha tarif stavkasi mol-mulk sug'urtasining tarif stavkasidan keskin farq qiladi. Hayot sug'urtasidagi tarif stavkasi hayotiylik javdali va daromad normasiga muvofiq hisoblab chiqiladi
sug'urta puli	страховая сумма	insurance money	-sug'urta majburiyatini bajarish hamda sug'urta operatsiyalarini mohiyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmasdan o'zaro kelishgan holda bir qancha sug'urta kompaniyalarining ixtiyoriy uyushmasi. Sug'urta puli, asosan, xavfli, yirik ob'ektlarni sug'urtalash maqsadida tashkil etiladi. Har qaysi kompaniya o'z sug'urtalangan riskni pulga beradi va buning uchun, pul orqali yig'ilgan sug'urta mukofotlarining bir qismini oladi. Olingan sug'urta mukofotlari hajmida sug'urta koplamasini to'lash bo'yicha javobgarlikni o'z zimnalariga oladi. Xorijiy mamlakatlarda aviatsiya, atom, xarbiy risklarni sug'urtalash uchun sug'urta puli tashkil etilgan
tibbiy sug'urta	медицинское страхование	insurance medical	-turli kasalliklardan majburiy sug'urtani nazarda tutuvchi sog'liqni saqlash ishini tashkil etish shakli. Sug'urtax iytibbiyot bo'yicha sug'urta fondi ishchi-xodimlarning ish haqidan, tadbirkorlarning foydasidan, davlat dotatsiyasi hisobidan hamda xayr-ehson fondlarining majburiy ajratnasi hisobidan shakllanadi. Sug'urtaviy tibbiyot bo'yicha sug'urtalangan kontingentga tibbiy sug'urta polisi beriladi. Sug'urtalanuvchiga tibbiy sug'urta polisi bo'lgan taqdirda tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Bunda tibbiy sug'urta kompaniyasi, bir tomondan sug'urtalanuvchilar bilan, ikkinchi tomondan tibbiyot muassasalari bilan shartnoma tuzadi.
kargo	карго	kargo	-transport vositasida tashiladigan va sug'urtalanishi mumkin bo'lgan yukning nomlanishi
kasko	каско	kaska	-transport vositasining borti. Kasko sug'urtasi transport vositasini nobud bo'lishi yoki shikastlanish o'z ichiga oladi
kaf	каф	kaf	-tashqi savdo shartnomasi bo'yicha yuklarni belgilangan portgacha (joygacha) etkazib berish sharti. Bunda tashilayotgan tovarning qiymatiga dengiz transportida tashish bilan bog'liq xarajatlar kiritiladi. Ushbu shart bo'yicha tovarlarni sug'urta qilish tovar etkazib beruvchining (sotuvchi) majburiyatiga kirmaydi.
javobgarlikni sug'urtalash	страхование ответственности	liability insurance	-boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar etkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar yuzasidan javobgarlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchining o'zining yoki bunday javobgarlik yuklanishi mumkin bo'lgan boshqa shaxsning javobgarlik xavfi sug'urtalanishi mumkin
javobgarlikni sug'urtalovchi chegara	Лимит ответственности страховщика	limit of liability the insurer	-tuzilgan sug'urta shartnomasidan kelib chiqqan holda belgilanadigan sug'urta kompaniyasining mumkin bo'lgan eng yuqori darajadagi javobgarligi. Sug'urtalovchining javobgarlik limiti sug'urta polisida o'z aksini topadi
javobgarlik xavfi	риск страхования	liability insurance for	-boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar etkazilishi oqibatida yuzaga keladigan

sug'urtasi	ответственно сти	damage caused	majburiyatlar yuzasidan javobgarlik xavfi sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchining o'zining yoki bunday javobgarlik yuklanishi mumkin bo'lgan boshqa shaxsning javobgarlik xavfi sug'urtasi
hayot sug'urta tarmog'i	сектор страхования жизни	life insurance sector	-jismaniy shaxslarning hayoti sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug'urta pullarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan oshirilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarini (annuetlarni) qamrab oladi
sug'urta qoplamasi limit:	лимит страхового покрытия	limit of insurance coverage	-sug'urta kompaniyasining filiali, bo'limi, shu'ba korxonasi tomonidan bitta sug'urta hodisasi bo'yicha mustaqil to'lanadigan sug'urta qoplamasining eng yuqori miqdori. Bu miqdorni sug'urta kompaniyasi boshqaruvi joylardagi sug'urta summasining zararlilik darajasidan, kadrlarning malakasidan va boshqa omillardan kelib chiqqan holda belgilaydi
risklarni joylashtirish	размещать риски	locate risks	-1) sug'urta manfaati tufayli yuzaga keladigan sug'urtaviy huquqiy munosabatlarning boshlanish jarayoni. Risklarni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi joylashtirish, teng ravishda sug'urtalash, qayta sug'urtalash va retrosessiyaga to'g'ri keladi. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda risklarni joylashtirish sug'urta vositachilari orqali sug'urta bozorida amalga oshiriladi, 2) sug'urta brokeri yordamida bir vaqtning o'zida yirik va xavfli risklarni qismlarga bo'lib, bir nechta sug'urta kompaniyasida sug'urtalash uslubi. Bir qancha sug'urta kompaniyalari tarkibidan bittasi etakchi sifatida ajralib chiqadi va u sug'urta shartnomasidagi shartlarni ma'qullab, riskning tegishli qismini o'z javobgarligiga oladi. Keyin, broker boshqa sug'urta kompaniyalariga murojaat qilib, riskning qolgan qismini ham joylashtiradi
ekssedent	экседент	loss ekstedent	-noproportional qayta sug'urtalash shakli. Bunda sedentga o'z zimmasida ushlab qolingan zarardan oshgan qismi qayta sug'urtalovchi kompaniya tomonidan qoplanadi.
tibbiy sug'urta	медицинская страхования	medical insurance	aholi sog'lig'ini himoya qilish vositalaridan biri. Sug'urta hodisasi ro'y berishi munosabati bilan, sug'urta polisi orqali bepul tibbiy xizmat ko'rsatilishi. Tibbiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta kompaniyasi to'laydi. Tibbiy sug'urta majburiy voki ixtiyoriy bo'ladi
qo'shma sug'urta kompaniyasi	совместная страховая компания	mutual insurance company	-foйда olishni ko'zlamaydigan notijorat shaklidagi sug'urta kompaniyasi. Sug'urta qilishning tashkiliy shakli. O'zlarining mulkiy manfaatlarini sug'urtaviy himoyalash uchun yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy bitim asosida birlashuvi. O'zaro sug'urtalash jamiyati yuridik shaxs hisoblanib, har bir sug'urtalanuvchi ushbu jamiyatning a'zosi bo'ladi. AQSH va Yaponiyada asosan, hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar o'zaro sug'urtalash jamiyati shaklidir. Hozirgi paytda Yaponiyada o'zaro sug'urtalash jamiyatlari hayotni sug'urtalash bozorining 89,4%ni tashkil etadi
netto foiz stavkasi	процентная ставка нетто	net rate	-brutto-stavkaning asosiy tarkibiy qismi Netto-stavka sug'urta qoplamasini to'lashga mo'ljallangan pul mablag'lari resurslari bo'lib, u brutto-stavkaning 90 foizigacha miqdorni tashkil etadi

sug'urta miqdori	страховая сумма	amount of insurance	-sug'urta manfaati va sug'urta riskiga mos keluvchi pul mablag'i. Xalqaro amaliyotda sug'urta summasi sug'urta qoplamasi deyiladi. Sug'urta summasiga nisbatan sug'urta mukofoti aniqlanadi va sug'urta qoplamasi to'lanadi. Sug'urta summasi iborasi, ko'proq, shaxsiy sug'urtada - fuqarolarning hayoti, sog'lig'ini sug'urtalashda ishlatiladi
sug'urta mukofotini aniqlash	определить страховую премию	amount of the insurance warning	-sug'urta summasi va sug'urta koplama to'lovi o'rtasidagi nisbatni xarakterlovchi iqtisodiy ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich zarar miqdori ehtimolligini ko'rsatadi va undan riskni o'zgarishi ustidan nazorat o'rnatishda foydalaniladi. Sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi quyidagi omillar ta'siri ostida shakllanadi: sug'urtalangan ob'ektlar soni va ularning sug'urta summasi, sug'urta hodisalarining soni, zarar ko'rgan ob'ektlar soni va sug'urta qoplamasi. Sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi netto-stavka tuzilishiga qarab har bir sug'urta turi yoki javobgarlik turi bo'yicha aniqlanadi. Agar zararlilik ko'rsatkichi netto-stavkaga yaqinlashsa yoki undan oshib ketsa, bu holda sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi.
naf oluvchi	бенефициар	beneficiary	-sug'urta shartnomasida sug'urta-langan shaxsning yozma ravishdagi roziligi bilan sug'urta tovonini oluvchi sifatida ko'rsatilgan jismoniy yoki yuridik shaxs
fraxt	фрахт	bareboat	-dengiz yoki havo yo'llari orqali yukni tashishda to'lanadigan haq. Ushbu haq tarif yoki yukni tashish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha o'zaro kelishilgan narx asosida to'lanadi. Dengiz sug'urtasida yuklarni tashishda fraxt polisi voziladi va fraxt qiluvchiga beriladi.
bonus	бонус	bonus	-sug'urta kompaniyasi o'zi uchun qulay shartlarda sug'urta shartnomasini tuzganligi uchun sug'urtalanuvchiga, u to'laydigan sug'urta mukofoti miqdoridan cheginmalar belgilaydi.
obligatorli qayta sug'urtalash	облигаторное перестрахование	bondly reinsurance	- 1) qayta sug'urtalashning majburiy shakli. Ayrim mamlakatlar qonunchiligiga ko'ra, ushbu mamlakat xududida faoliyat ko'rsatayotgan barcha sug'urta kompaniyalari qabul qilgan risklarini bir qismini majburiy ravishda qayta sug'urtalash kompaniyasiga beradi. Bu chora qayta sug'urtalash orqali chet elga valyutani chiqib ketishini oldini oladi; 2) sug'urta kompaniyasi (sudent) ma'lum bir sug'urta turi bo'yicha riskni qayta sug'urtalovchiga berishini va o'z navbatida, qayta sug'urtalovchi, riskni qabul qilishni nazarda tutuvchi qayta sug'urtalash shartnomasi.
keptiv sug'urta kompaniyasi	кептивная страховая компания	captive insurance company	-ta'sisчилarning manfaatlarini sug'urta himoyasiga oladigan yoki yirik konsern, korporatsiyalar, yirik sanoat-moliya guruhlarini tarkibiga kiruvchi sug'urta kompaniyasi. Raqobatdagi boshqa sug'urta kompaniyalarini keptiv sug'urta kompaniyasi mavjud bo'lgan tarmoqqa kirishi murakkabroq hisoblanadi. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan keptiv sug'urta kompaniyalariga - «ALSKOM», «Universal sug'urta» sug'urta kompaniyalarini misol keltirish mumkin
birgalikda sug'urta qilish	сострахования	coinsurance	-bitta sug'urta shartnomasi doirasida riskni ikki yoki undan ortiq sug'urta kompaniyalari o'rtasida taqsimlanishi. Ushbu shartnomada har bir sug'urtalovchining xuquq va majburiyatlari ko'rsatiladi. Birgalikda sug'urta qilishda sug'urtalanuvchiga qo'shma

			polis yoki har bir sug'urta kompaniyasi o'z zimmasiga olgan risk hissasiga muvofiq alohida polis beriladi
aralash sug'urta	комбинированное страхование	combined insurance	-bir necha sug'urta turlari bo'yicha sug'urta qoplamasi sharti
majburiy davlat sug'urtasi	обязательное государственное страхование	Compulsory state insurance	-qonunda belgilab qo'yilgan tartibda fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini va davlatning manfaatlarini ta'minlash maqsadida hayot, sog'liq va mol-mulkning davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobiga amalga oshiriladigan majburiy sug'urtasi
majburiy sug'urta	обязательное страхование	compulsory insurance	-sug'urta munosaballarining qonun kuchiga ega bo'lgan shakli. Majburiy sug'urta qonunchilik xujjatlari asosida amalga oshiriladi. Ushbu xujjatda sug'urtaga tortiladigan ob'ektlar soni, sug'urta javobgarligining hajmi, sug'urta munosabatarida qatnashadigan tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda boshqa rekvizitlar ko'rsatiladi. Amaldagi qonunchilikka asosan, O'zbekistonda majburiy sug'urtani tegishli litsenziyaga ega bo'lgan har qanday sug'urta kompaniyasi o'tkazishi mumkin
avariya komissari	комиссар аварии	Commissioner accident	-sug'urta kompaniyasining vakolatiga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs. Sug'urtalangan kema yoki yuk bo'yicha ko'rilgan zararining xarakteri va miqdorini aniqlaydi, hodisa ro'y berganlik sabablarini o'rganadi. Sug'urta kompaniyasi avariya komissarining chet elda ham, mamlakat ichkarisida ham tayinlashi mumkin. Avariya komissarining yuridik manzili, telefon va teleks raqamlari sug'urta kompaniyasi tomonidan beriladigan sug'urta polisida ko'rsatiladi. Sug'urtalanuvchi sug'urta xodisasi ro'y berishi zahoti avariya komissariga murojaat qilishi zarur. Avariya komissari mol-mulkning zararlanganlik darajasini aniqlaydi va sug'urta kompaniyasining topshirig'iga asosan, ko'rilgan zararni qisman qoplashi mumkin. Avariya komissari bajarilgan ishlar to'g'risida sug'urta kompaniyasi uchun avariya sertifikatini tuzadi yoki unga yozma axborot tayyorlaydi
komission haq	комиссионные вознаграждение	commission fee	-mijozlarni sug'urtaga tortganligi uchun sug'urta kompaniyasi tomonidan vositachilarga (sug'urta brokeri, agent) to'lanadigan haq. Komissiya haqining miqdori sug'urtaning turiga va kelib tushgan badalning xajmiga bog'liq holda sug'urta badaliga nisbatan foizlarda to'lanadi
raqobat	конкуренция	competition	-sug'urta kompaniyalarining sug'urta bozoridagi o'z ulushini egallashi uchun o'zaro iqtisodiy musobaqasi. Raqobat sug'urtalanuvchi uchun sug'urta kompaniyalarini tanlab olishlarida ko'mak beradi. Raqobat sug'urta xizmatini kengayishda va ularning sifatini oshishda muhim ahamiyatga ega. Bir sug'urta xizmatini ko'rsatayotgan bir necha sug'urta kompaniyalari raqobat sharoitida mijozlarni jalb etish uchun ularga sug'urta shartnomalarini tuzishda, sug'urta mukofotlarini to'lashda va sug'urta qoplamalarini qisqa muddatlarda to'lashda imkoniyat yaratadi
risklar to'plami	сбор рисков	collection	-bir qancha yirik sug'urta summali ob'ektlarning bitta sug'urta hodisasi tufayli zarar ko'rishi extimoligini nazarda tutuvchi sug'urta risklarini yig'indisi
sug'urta bahosi	стоимость страхования	cost of insurance	-sug'urtalash maqsadida aniqlanadigan mol-mulkning qiymati. Amaliyotda mol-mulklar haqiqiy qiymati, bozor qiymati va boshqa qiymatlar vositasida baholanadi. Zarur hollarda sug'urta bahosini to'g'ri hisoblash uchun malakali ekspertlar jalb etiladi. Sug'urta bahosi to'g'risidagi haqiqiy ma'lumot ta'rif stavkasi va

			sug'urta mukofoti miqdorini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Amaldagi qonunchilikka binoan, sug'urta summasi mol-mulkning sug'urta bahosidan oshib ketmasligi zarur
risklarni tanlash	выбрать риски	choose the risks	-sug'urta shartnomasini tuzish bo'yicha mijozlardan kelib tushgan takliflarni tahlil etishga qaratilgan sug'urta kompaniyasining faoliyati Sug'urta kompaniyasining muvozanatlashgan sug'urta portfelini shakllanishida risklarni tanlash iborasini amaliy jihatdan ishlatish muhimdir. Sug'urta amaliyotuda risklarni tanlash ishini syurveyerlar amalga oshiradi. Risklarni tanlash – bu risk menejment sohasida olib boriladigan chora – tadbirlarning bir qismidir.
franshiza	франшиза	deductible	-sug'urta shartnomasi shartlarida ko'zda tutiladigan sug'urtalovchining zararni qoplashdan ozod etiladigan qismi. Franshiza sug'urta summasiga nisbatan foizlarda belgilanadigan shartli va shartsiz franshizalarga bo'linadi. SHartli franshizada sug'urtalovchi belgilangan franshiza summasidan oshmaydigan zararni qoplash javobgarligidan ozod etiladi. Bu holda, agar ko'rilgan zarar miqdori franshiza summasi miqdoridan oshib ketsa, sug'urta kompaniyasi zararni to'liq qoplaydi. SHartsiz franshizada ko'rilgan zarar franshiza summasidan cheginilib qoplanadi.
denonsatsiya	денонсация	denunciation	-shartnomadan voz kechish. Agar sug'urta munosabatlarida tomonlardan biri yozma ravishda shartnomadan voz kechishi to'g'risida ikkinchi tomonga ma'lum qilmasa, shartnoma unda ko'rsatilgan muddatgacha kuchda bo'ladi
depozit	депозит	deposit	-sug'urta kompaniyasining bank muassasasida saqlanadigan pul mablag'i yoki qimmatli qog'ozlari. Bank, odatda, sug'urta kompaniyasiga o'z pulini bankda saqlagan uchun foiz to'laydi; 2) ayrim mamlakatlar qonunchiligiga muvofiq, chet mamlakat sug'urta kompaniyasi, agar, biror boshqa mamlakatda sug'urta faoliyatini amalga osharmoqchi bo'lsa, dastlab u o'sha mamlakat bank muassasasiga tegishli pul mablag'ini depozitga qo'yadi. Mazkur depozit, chet davlat sug'urta kompaniyasining boshqa mamlakat xududida sug'urta faoliyatini amalga oshirishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi
diversifikatsiya	диверсификация	diversification	-yirik sug'urta kompaniyalarining asosiy faoliyaldan tashqari boshqa faoliyat bilan ham shug'ullanishi. Masalan, sug'urta vositachiligi, qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisi, ko'chmas mulk bilan shug'ullanish va xakozo
dispasher	диспашер	dispatcher	-dengiz transportida umumiy avariya sodir bo'lganda ko'rilgan zararni kema, yuk va fraxt o'rtasida taqsimlash bo'yicha hisob-kitoblarni tuzadigan mutaxassis. Rivojlangan mamlakatlarda dispasher funksiyasini maxsus kompaniyalar bajaradi. Zararlarni taqsimlash bo'yicha hisob-kitoblarni dispasha deyiladi va dispashani tuzganlik uchun xaqni manfaatdor tomonlar (kema egasi, yuk egasi, yukni sotib oluvchi shaxs) to'laydi
avariya sertifikat	аварийный сертификат	emergency certificate	-mol-mulk sug'urta xodisasi tufayli zararlanganda, ko'rilgan zarar miqdori va xarakterini tasdiqlovchi hujjat Avariya sertifikati avariya komissari (adjaster) tomonidan tuziladi va tegishli komissiya xaqi hisobiga sug'urtalanuvchiga taqdim etiladi. Avariya sertifikati sug'urtalanuvchining sug'urta qoplamasini olish

			to'g'risidagi arzasiga ilova etiladi va qoplantani to'lashda sug'urta kompaniyasiga asos bo'lib xizmat qiladi
evropolis	европолис	evropolis	-evropa iqtisodiy hamjamiyati mamlakatlarida sug'urta shartnomasi tuzganlik faktini tasdiqlovchi sug'urta polisi
ekstradent risk	экстрадент риск	ekstsedent risk	-mazkur toifadagi risk bo'yicha zararni qayta sug'urtalash to'g'risidagi kelishuv
fakultativ qayta sug'urta	факу льтативное перестраховани е	facultative reinsurance	-proporsional qayta sug'urtalash shartnomasining turi Fakultativ qayta sug'urtalashda har bir berilayotgan risk bo'yicha alohida shartnoma tuziladi. Sudent har bir risk bo'yicha qayta sug'urtalash zarur yoki zarur emashlik masalasini mustaqil ko'rib chiqadi O'z navbatida, qayta sug'urtalovchi ham sedentning taklifini qabul qilishi yoki qabul qilmasligi ham mumkin
fronting	фронтинг	fronting	-qabul qilib olingan riskni tegishli komissiya haqi evaziga to'langicha boshqa sug'urta yoki qayta qayta sug'urtalovchi kompaniyalariga berish
bosh polis	генеральный полис	general policy	-sug'urta kompaniyasi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi yozma bitim Bu bitimga muvofiq, tegishli davr mobaynida sug'urtalanuvchi barcha ob'ektlarni sug'urta kompaniyasiga sug'urtalash uchun beradi CHet el tajribasida bu bitim «ochiq polis» yoki «polis-abonamen» deyiladi. Mazkur bosh polis asosida sug'urtalash tashqi savdo yuklari sug'urtasida keng tarqalgan Sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga har bir jo'natilgan yuk haqidagi ma'lumotlar (yukning vazni, sug'urta summasi, yukni junatish va qabul qilib olish punktlari) bayon etilgan arizani taqdim etsa etarli, yuk avtomatik ravishda sug'urtalangan hisoblanadi
umumiy sug'urta tarmog'i	общий страховой сектор	general insurance sector	-shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari
yalpi sug'urta qiymati	Валовая страховая стоимость	gross prize	-sug'urta shartnomalarini tuzish, ish yuritish xarajalarini hisobga olgan xoldagi sug'urta mukofotlari summasi
umumiy koeffitsient	Общий коэффициент	gross rate	-sug'urta qoplamasini (sug'urta summasini) to'lashga mo'ljallangan netto-stavka va ish yuritish xarajalarini qoplashga mo'ljallangan netto-stavkaga yuklama summalarni o'z ichiga olgan sug'urta mukofotlarining tarif stavkasini bildiradi Ko'pgina adabiyotlarda ushbu ibora sug'urta tarifi ma'nosida ham ishlatiladi
yashil karta	зеленая карта	green card	-aviotransport vositalari egalarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risidagi xalqaro shartnomalar tizimi. Mazkur sug'urta turi bo'yicha shartnoma tuzilganlik faktini tasdiqlovchi polis. 1949 yilda Evropaning 13ta davlati o'rtasida yashil karta to'g'risida shartnoma tuzilgan. Hozirgi pavtda yashil kartaga a'zo mamlakatlar 30 dan ziyodni tashkil etadi. Yashil kartaga a'zo bo'lgan mamlakatlarda tegishli milliy byuroalar tashkil etilgan va u mazkur davlat hududida yashil karta bilan bog'liq ishlarni muvofiqlashtirib turadi O'z navbatida milliy byuroalar yashil karta xalqaro byurosiga birlashgan. Qarorgohi Londonda joylashgan
sug'urta	страхование	insurance	-yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish.

			Har xil noxush hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash hamda fuqorolarning hayotida tegishli sug'urta hodisalari ro'y berganda ularga moddiy yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etiladigan va undan foydalanish bilan bog'liq (maqsadli pul fondlari) iqtisodiy munosabatlar yig'indisi. O'tkazish shartiga qarab, sug'urta majburiy va ixtiyoriy bo'ladi. Ob'ektiga ko'ra, mulkiy, shaxsiy va javobgarlik sug'urtasiga bo'linadi. Sug'urtaning asosini risk tashkil etadi. Sug'urta - bu riskni taqsimlash usulidir.
depozitlarni sug'urta qilish	Страхование депозитов	Insurance of deposits	-banklar bankrot deb e'lon qilinganda yoki to'lov qobiliyat: yo'qolganda, omonatchilarning bankdagi pul mablag'larini ularga qaytarilishini sug'urtalash. Bunda banklar sug'urtalanuvchilar hisoblanadi. Sug'urtani maxsus sug'urta tashkilotlari amalga oshiradi. Depozitlarni sug'urtalash chet mamlakatlarda keng tarqalgan. Masalan, AQSHda depozit sug'urtasini depozitlarni sug'urtalash federal korporatsiyasi amalga oshiradi. AQSHda har bir omonatchiga to'g'ri keladigan 100 ming AQSH dollari miqdoridagi depozitni banklar majburiy sug'urtalavdi
sug'urta agenti	страховой агент	insurance agent	-sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs
sug'urta dalolatnomasi	страховой акт	insurance act	-sug'urta xodisasi ro'y berganda sug'urta kompaniyasi tomonidan tuziladigan xujjat. Dalolatnomada mol-mulkning zararlanish yoxud oqub bo'lish sabablari, ko'rilgan zarar miqdori va boshqa ko'rsatkichlar bo'ladi. Dalolatnomaga, zarur hollarda sug'urta hodisasi va mol-mulkning zararlanganligini tasdiqlovchi tegishli tashkilotlarning (yong'inga qarshi kurash, davlat avtomobil nazorati, qishloq xo'jaligi, veterinariya xizmati va boshqalar) yozma hulosasi ilova etiladi. Xalqaro sug'urta munosabatlarda sug'urta dalolatnomasini adjuster tuzadi va mohiyatan avariya sertifikatiga vaqinlashadi
shomaj	шомаж	shomaj	-sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida ishlab chiqarishni to'xtab qolishi bilan bog'liq foyda olmaslik riskini sug'urtasi
tarif stavkasi	тарифная ставка	tariff rate	-sug'urta riskini baxosi; sug'urta summasiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan brutto-stavka. Tarif stavkasi (brutto-stavka) ikki qismdan iborat: netto-stavka va netto-stavkaga yuklama. Netto-stavka sug'urta kompaniyasining sug'urta fondidan qiladigan xarajatlarini ifodalaydi. Netto-stavkaga yuklama sug'urta kompaniyasining ish yuritish xarajatlarini, komissiya haqini va boshqa xarajatlarini o'z ichiga oladi. SHaxsiy sug'urta bo'yicha tarif stavkasi mol-mulk sug'urtasining tarif stavkasidan keskin farq qiladi. Hayot sug'urtasidagi tarif stavkasi hayotiylik jadvali va daromad normasiga muvofiq hisoblab chiqiladi
sedent	седент	tsedent	-riskni ikkilamchi joylashtirishni amalga oshiruvchi, ya'ni riskni qayta sug'urtalash uchun beruvchi sug'urta kompaniyasi. Ikkilamchi sedent retrosedent deb ataladi
sessiya	сессия	tsessiya	-1) sug'urta riskini qayta sug'urtalashga berish jarayoni. Sedent va qayta sug'urtalovchi o'rtasidan huquqiy munosabatlarda ishlatiladi. 2) Xorij amaliyotida sedentning olingan sug'urta mukofoti ma'nosini bildiradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga ega bo'lgan nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida" gi Qonuni. 2002 yil 5 aprel, O'RQ-358-II-son.
2. O'zbekiston Respublikasining "Transport vositalari egalariining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonuni. 2008 yil 21 aprel, O'RQ-155-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" gi Qonuni. 2009 yil 16 aprel. O'RQ-210-son.
4. O'zbekiston Respublikasining "Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" gi Qonuni. 2015 yil 26 may. O'RQ-386-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovasion g'oyalari va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni, 2018 yil 22 yanvardagi PF-5308-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ba'zi hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ayrimlarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi Farmoni, 2017 yil 29 sentyabrdagi PF-5197-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2018 yil 1 avgustdagi PF-5495-son.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2007 yil 10 apreldagi PQ-618-son.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 2008 yil 21 maydagi PQ-872-son.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 2011 yil 31 maydagi PQ-1544-son.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kafolat sug'urta" AJ faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2017 yil 9 oktyabrdagi PQ-3317-son.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 2019 yil 2 avgust PQ-4412-son.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2002 yil 27 noyabrda №413-son.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi, 2017 yil 22 dekabr.

16. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2008 yil 22 apreldagi 41-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida"gi Nizom.

17. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2008 yil 20 noyabrda №107-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilarning sug'urta xaxiralari to'g'risida"gi Nizom.

18. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2009 yil 3 iyuldagi №68-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyat to'g'risida"gi Nizom.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

19. I.G'.Kenjaev. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish yo'llari. PhD., ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, T.: -2019, 32 b.

20. Baymurotov T.M. O'zbekistonda sug'urta faoliyati va uni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. I.f.n., ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, T.: - 2004, 25 b.

21. Баутов А.Н. Прогнозирование и управление инвестициями страховых организаций на фондовом рынке. Страховое дело. 2004 №1. 2-8 с.

22. Гребенщиков Э.С. Инвестиционная составляющая страхового бизнеса: новые источники и возможности.//Финансы 2005 №3, 30-34 с.

23. Каменская Н.Ю. Реформа страхового надзора в Европейском союзе //Страховое дело 2012, №6 51-54 с.

24. Мазанова Е.В. Статистический анализ инвестиционных возможностей страховых компаний. Автореферат диссертации на соискание кандидата экономических наук, Оренбург, 2008. – 25 с.

25. Nurullaev A.S. O'zbekistonda fermer va dehqon xo'jaliklarini sug'urtalash masalalari. I.f.n., ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, T.: - 2007, 28 b.

26. Прокофьева Е.Л. Инвестиционные возможности страховых компаний: монография. Абакан: Издательство Государственного Университета Хакасии, 2008. – 112 с.

27. Фролова В.В. Управление инвестиционной деятельностью Российских страховых компаний. Автореферат диссертации на соискание кандидата экономических наук, Краснодар. 2013. – 27 с.

III. Boshqa adabiyotlar

28. Vaxabov A.V, Xajibakiev SH.X, Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. T.: Moliya, 2010. 174 b.

29. Гомелля В. Очерки экономической теории сграхования. Москва, Финансы и статистика, 2010. 352 с.

30. Едророва В.Н., Мизиковский Е.А. Учет, оценка доходности и анализ финансовых вложений. Москва, Магистр: ИНФРА-М 2011. 316 с.

31. Мизиковский Е.А. Учет, оценка доходности и анализ финансовых вложений. Москва, Магистр: ИНФРА-М 2011.

32. Орлянок-Малицкая Л.А., Янова С.Страхование.-М.: Юрайт. 2012. 147 с.

33. Сплетухов Ю.А., Дюжиков Е.Ф.Страхование. Уч.пособие М.: НИЦ ИНФРА-М, 2012. 201 с.

34. Fozilchaev SH.Q., Xidirov N.G'. Investitsiya va lizing asoslari. O'quv qo'llanma, T.: iqtisod-moliya -2017 y. 245 b.

35. Shennaev X.M. Sug'urta agentlari uchun qo'llanma. T.:infoCOM. UZMCHJ 2010 y, 206 b.

36. Qo'ldoshev Q.M.Sug'urta bozori. O'quv qo'llanma.T.: Moliya-iqtisod. 2011. 65 b.

37. Shennaev X.M., Kenjaev I.G'. Chet mamlakatlar sug'urtasi.T.: Moliya-iqtisod. 2012. 112 b.

38. Shennaev X.M. O'zbekiston sug'urta bozori. O'quv qo'llanma.T.: Moliya-iqtisod. 2014. 210 b.

39. Shennaev X.M., Ochilov I.K., Shirinov S.E., Kenjaev I.G'. Sug'urta ishi. O'quv qo'llanma.T.: Iqtisod-moliya, 2014. 247 b.

40. Kenjaev I.G', Matiyazova S.R, Adilova G.D. Sug'urta maxsulotlari sotishni tashkil etish. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya. 2018. 215 b.

41. Abduraxmonov I. Sug'urta nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2018.– 380 b.

42. Insurance Information Institute; Life Insurers fact Book American Council of Life Insurers.

43. <https://www.apsei.org.pt> - Comite European des Assururuses, CEA Statistics.

44. <https://www.louisepryor.com> - Enhanced capital requirements and Individual Capital Assesments Insurers; Comite Eropen des Assurances.

45. <https://www.allianz.com>

46. <http://www.raexpert.ru/researches/regions/investclimate>.

47. <http://www.mf.uz> - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy

vab-sayti.

48. <http://www.stat.uz> - O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi rasmiy vab-sayti.

49. <https://www.expert.ru> - Rossiya Federasiyasi reyting kompaniyasi rasmiy vab-sayti.

<http://www.UzReport.com> - "SAIPRO" axborot-reyting agentligi rasmiy vab-sayti.

I.X. ABDURAXMONOV, I.G'. KENJAYEV

SUG'URTA MENEJMENTI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy
o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etgan

Редактор: Х. Умаров
Художник: Х. Умаров
Компьютерная верстка: Х. Умаров

Нашиёт «NUR DURDONALARI»
Лицензия № 6578-3160-98с5-739с-4d73-8486-3262. Гувоҳнома № 000891.
Формат 60x84 1/16. Усл.печ.л. 34,1. Уч.-изд.л. 35,5.
Тираж 100 экз.